

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

**N. OBLOMURODOV, S. OTAMURATOV, M. YULDASHEVA,
X. OKYULOV, K. MAHMUDOV, F. ADILOV, T. ALIYEV, S. SHOYIMOV**

**YANGI TAHRIRDAGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KONSTITUTSIYASI**

O‘QUV QO‘LLANMA

**Toshkent
«Yuridik adabiyotlar publish»
2024**

UO‘K: 342.41(575.1)(075.8)
KBK: 67.400.1ya73
Ya-61

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim,
fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil
25-avgustdagi 391-sonli buyrug‘iga asosan
barcha mutaxassisliklar talabalari uchun
tavsiya etilgan.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

O‘quv qo‘llanma. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: Yuridik
adabiyotlar publish, 2024-y. – 216 bet.

Mualliflar jamoasi:

N. Oblomurodov, S. Otamuratov, M. Yuldasheva,
X. Okyulov, K. Mahmudov, F. Adilov, T. Aliyev, S. Shoyimov

Taqrizchilar:

N. Imomov – TDYU «Fuqarolik huquqi» kafedrası mudiri yu.f.d., prof.;
A. Yo‘ldoshev – TDYU «Konstitutsiyaviy huquq» kafedrası professorı v.b., yu.f.d.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi o‘quv qo‘llanmasi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmun-mohiyatini o‘rganish to‘g‘risidagi ilmiy, nazariy va amaliy bilimlarini shakllantirish, talabalarda Konstitutsiyaning asosiy g‘oyalarini bilim bazasida shakllangan umuminsoniy tafakkur taraqqiyotining tizimli qonuniyatlari ko‘nikmasini shakllantirish, huquqiy davlatda barcha fuqarolar qonun oldida teng bo‘lishini, davlat hokimiyatining oliy organi ham qonunlarga bo‘ysunishi va qonunlarning muqarrar ijrosini ta‘minlanishini, Konstitutsiyaning umummetodologik ko‘nikmalaridan foydalana olish xususiyatini tarbiyalash, shuningdek mamlakatimizda olib borilgan Konstitutsiyaviy islohotlarning mazmun-mohiyatini tushuntirishga, Konstitutsiyada belgilangan yangi huquq va erkinliklaridan xabardor bo‘lishlariga, umuman olganda, konstitutsiyaviy bilimlari ortishiga xizmat qiladi.

ISBN 978-9910-9305-4-6

© Mualliflar jamoasi, 2024-y.

© Yuridik adabiyotlar publish, 2024-y.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Vatanimiz mustaqilligi, xalqimiz tinch osoyishta hayoti, fuqarolarning huquq va erkinliklarining mustahkam huquqiy kafolatidir.

Har bir davlat o‘z taraqqiyot yo‘lini tanlar ekan, xalqning xohish va irodasidan kelib chiqib, tinch va farovon turmush tarziga huquqiy asos bo‘luvchi tartiblarni asosiy qonunida mustahkamlab oladi. Asosiy Qonunda bayon etilgan tartiblar shu qadar ahamiyat kasb etadiki, hech bir fuqaro usiz yashay olmaydi, negaki insoning kundalik to‘qnash keladigan muammolari yechimi bevosita unga bog‘liq bo‘ladi.

Shiddat bilan o‘zgarayotgan dunyoda ro‘y berayotgan geosiyosiy vaziyatlar, eng avvalo, Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi va unda belgilangan maqsadlarni amalga oshirish uchun nafaqat qonunlarimiz mustahkamlanishi, balki Konstitutsiyamizda ham inson sha‘ni, uning qadr qimmatini yuksaltirishga qaratilgan normalarni yanada takomillashtirib, bugungi kun talablariga moslashtirish ehtiyojini paydo qildi. Natijada xalqimizning taklif va mulohazalari asosida yangilangan Konstitutsiya loyihasi ishlab chiqilib, umum-xalq muhokamasiga qo‘yildi. Muhokamalar yakunida mamlakatimiz tarixida birinchi marta Bosh qonun hujjati referendumda bevosita xalq tomonidan qabul qilindi.

Bosh qomusimizga tegishli o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar milliy qonunchiligimiz, qadriyatlarimiz, o‘zbek davlatchiligining tarixiy tajribasi hamda jamoatchilik takliflari, zamonaviy xalqaro standartlar va eng ilg‘or xorijiy tajribani o‘rgangan holda kiritildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya Yangi O‘zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratib, milliy davlatchilik taraqqiyotining tarixiy muhim bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi. Xususan, Konstitutsiyada davlat qurilishining yangi strategik maqsadi – ijtimoiy davlat qurish ekanligi belgilab berildi, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari joriy etildi, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlarini nazarda tutuvchi Konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlandi.

Hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi hamda o‘zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati tizimining zamonaviy konsepsiyasini hisobga olgan

holda, Oliy Majlis, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati o'rtasida vakolatlar qayta taqsimlandi. Joylarda hokimlar va xalq deputatlari Kengashlari vakolatlari taqsimlanishiga asoslangan davlat hokimiyatini tashkil etishning yangi modeli nazarda tutildi.

Yangilangan Konstitutsiyamizda barcha qatlam manfaatlari inobatga olinib, uni ishlab chiqishda aholi faol ishtirok etdi hamda ushbu muhim hujjat referendum orqali qabul qilinganligi ushbu hujjatning chinakam xalq Konstitutsiyasi bo'lganidan dalolat beradi.

– Konstitutsiyamiz loyihasini muhokama qilishdan boshlab to uni qabul qilguncha bo'lgan davrda o'tkazilgan umumxalq muhokamalarida millionlab yurtdoshlarimiz faol ishtirok etdilar. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, yangilangan Konstitutsiyamizning chinakam muallifi xalqimiz bo'ldi, deb aytishga barcha asoslarimiz bor. Eng muhimi, endi islohotlarimiz yo'ldan hech qachon ortga qaytmaymiz, «inson – jamiyat – davlat», degan yangi tizim asosida faqat va faqat oldinga qarab boramiz, – dedi Prezident Shavkat Mirziyoyev¹.

Yangilangan Konstitutsiyada O'zbekiston «ijtimoiy davlat» degan tamoyil muhrlanib, davlatning bu sohadagi majburiyatlari bilan bog'liq normalar 3 baravarga oshdi. Konstitutsiyada O'zbekiston «huquqiy davlat» degan tamoyil ham qat'iy qilib belgilanib, inson huquq va erkinliklari borasidagi normalar 3 baravarga ko'paytirildi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya O'zbekistonning «demokratik davlat» sifatidagi maqomini ham mustahkamladi.

Mazkur o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmun-mohiyatini o'rganish fan dasturi asosida ishlab chiqilgan bo'lib, yangi tahrirdagi Konstitutsiyani o'rganish bo'yicha, ya'ni «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat suvereniteti, xalq hokimiyatchiligi hamda inson huquq va erkinliklari» hamda «Konstitutsiyada siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa sohalardagi kafolatlar» o'quv modullari doirasida muhim mavzularni qamrab oladi. Qo'llanma oliy ta'lim muassasalari talabalari, magistr va ilmiy tadqiqotchilar uchun mo'ljallangan.

¹ <https://xs.uz/uzkr/post/endi-islohotlarimiz-jolidan-hech-qachon-ortga-qajtmajmiz-inson-zhamiyat-davlat-degan-yangi-tizim-asosida-faqat-va-faqat-oldinga-qarab-boramiz-prezident>

1-mavzu. KONSTITUTSIYADA DAVLAT SUVERENITETI, XALQ HOKIMIYATCHILIGI, KONSTITUTSIYA VA QONUNNING USTUNLIGIGA OID ME'YORLAR

Reja:

1. Konstitutsiya so'zining mazmun-mohiyati.
2. Konstitutsiyaning asosiy funksiyalari.
3. Konstitutsiyaning asosiy prinsiplari.
4. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada xalq hokimiyatchiligiga oid huquqiy me'yorlar.
5. Yangi Konstitutsiyada Konstitutsiya va qonunning ustunligi.

Tayanch so'z va iboralar: Konstitutsiya, suverenitet, Konstitutsiyaning funksiyalari, Konstitutsiyaning asosiy prinsiplari, boshqaruw shakli, xalq hokimiyatchiligi, Konstitutsiya va qonunning ustunligi, huquqiy davlat, ijtimoiy davlat, dunyoviy davlat.

1. Konstitutsiya so'zining mazmun-mohiyati

Konstitutsiya lotincha «constitutio» so'zidan olingan bo'lib, «tuzilish», «o'rnatish» degan ma'nolarni bildiradi. Konstitutsiya alohida yuridik xususiyatlarga ega bo'lgan yagona siyosiy-huquqiy hujjat bo'lib: unda shaxs, jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlarning asosiy prinsiplari o'rnatiladi; davlat hokimiyatining tuzilishi, subyektlari, hokimiyatni amalga oshirish mexanizmi belgilanadi; jamiyat, inson va fuqaroning davlat tomonidan qo'riqlanadigan huquqlari va erkinliklari mustahkamlanadi.

Konstitutsiya o'z mohiyati va yuridik tabiatiga ko'ra boshqa huquqiy hujjatlardan quyidagi muhim jihatlari bilan ajralib turadi:

birinchidan, Konstitutsiya maxsus subyekt, ya'ni O'zbekiston xalqi tomonidan referendum orqali yoki uning nomidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchiligi ovozi bilan qabul qilinadi;

ikkinchidan, Konstitutsiyaviy qoidalar ta'sis etuvchi, yo'naltiruvchi, birlamchi ahamiyatga ega;

uchinchidan, Konstitutsiyaviy tartibga solish hajmining keng qamrovligi bilan tavsiflanadi, ya'ni u nihoyatda muhim va keng ko'lamdagi ijtimoiy munosabatlar doirasiga ta'sir ko'rsatadi;

to'rtinchidan, Konstitutsiya alohida yuridik xususiyatlarga ega, ya'ni boshqa qonunlardan ustunlikka, oliy yuridik kuchga, o'ziga xos muhofaza shakliga, maxsus tarzda qabul qilinish va o'zgartirish tartibiga ega.

2. Konstitutsiyaning asosiy funksiyalari

Konstitutsiya o'z mazmuni va ijtimoiy vazifasiga ko'ra davlatning mohiyatini ta'riflovchi, uning tashkiliy tuzilishini ifodalovchi, davlat siyosatining asoslarini belgilovchi hujjat sifatida gavdalanadi. Konstitutsiya o'z ijtimoiy vazifasini bajara borib, bir qator o'zaro mushtarak bo'lgan funksiyalarni ado etadi.

Konstitutsiyaning eng muhim funksiyalaridan biri davlatchilik rivojlanishidagi vorislikni ta'min etishdir.

Siyosiy funksiyasi. Konstitutsiya: jamiyat siyosiy tizimining huquqiy asoslarini mustahkamlaydi; siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalarining davlat hokimiyati bilan munosabatlarini muvofiqlashtiradi; saylovlar va referendum kabi bevosita demokratiya institutlarini mustahkamlash orqali jamiyatda siyosiy barqarorlikni, fuqarolararo totuvlik, hamjihatlik va tinchlikni ta'minlaydi; davlat yuritadigan ichki va tashqi siyosatning asoslari va barcha muhim yo'nalishlarini aks ettiradi.

Yuridik funksiyasi. Konstitutsiya yuridik mazmun va mohiyatga ega bo'lgan huquqiy hujjat bo'lib, davlatning Asosiy qonuni sifatida butun huquqiy va qonunchilik tizimlarining o'zagini tashkil etadi, jamiyat va davlat hayotining, davlat organlari tashkil etilishi va faoliyatining asosiy prinsiplarini mustahkamlaydi. Shu sababli jamiyatdagi barcha huquqiy hayot va yuridik amaliyot, shu jumladan odil sudlov amaliyoti Konstitutsiyaviy qoidalar asosida shakllanadi.

Tarbiyaviy-mafkuraviy funksiyasi. Konstitutsiya xalqning irodasini, ruhiyatini, ijtimoiy ongi va madaniyatini aks ettiradi. Unda jamiyat taraqqiyotiga turtki beruvchi, muhim ma'naviy omil bo'lib xizmat qiluvchi g'oyalar o'z ifodasini topadi. Konstitutsiyada mujassamlashgan mafkura jamiyatni, xalqni muayyan maqsadlar sari yetaklaydi, ularni uddalash uchun safarbar qiladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi milliy istiqloq g'oyasi va mustaqillik mafkurasining huquqiy asosini tashkil etgan holda,

xalqimizning istiqloqlga, erkinlikka bo'lgan intilishini, milliy axloqiy-ma'naviy qadriyatlarini aks ettirib, ularni jamiyat ongiga, ayniqsa, yosh avlod ongiga singdirishga xizmat qiladi.

3. Konstitutsiyaning asosiy prinsiplari

Davlat suvereniteti. «Suverenitet» atamasi ilk bor Fransiyada (XVI asr) vujudga kelgan. Bu atama lotincha superareitas (cupra, superios) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, aslida «eng oliy», «oliy hokimiyat» degan ma'noni anglatadi. Suverenitet mustaqil davlatning umumiy va ajralmas belgisi bo'lib, ichki va tashqi siyosatini amalga oshirishda boshqa davlatga qaram emasligini anglatadi.

O'zbekiston – suveren demokratik respublika. O'zbekiston Respublikasi o'zining milliy-davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishini, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining tizimini belgilaydi, ichki va tashqi siyosatini amalga oshiradi.

Boshqaruv shakli – bu davlat mazmunining tashqi ko'rinishi, davlat hokimiyati yuqori organlarining huquqiy holati bilan belgilanadi. Boshqaruv shakli xarakteri davlat boshlig'ining huquqiy holati va vaziyatidan kelib chiqadi va monarxiya yoki respublika boshqaruv shakllari, davlat boshligining qaysi yo'l bilan saylanishi yoki tayinlanishi va hokimiyat qaysi yo'l bilan amalga oshirilishi bilan farqlanadi. Respublika (lotincha: respublica, res – ish va publicus – ijtimoiy, umumxalq) – davlatni idora etish shakli, unda barcha davlat hokimiyati organlari saylab qo'yiladi yoki umummilliy vakolatli muassasalar (parlamentlar) tomonidan shakllantiriladi, fuqarolar esa shaxsiy va siyosiy huquqlarga ega bo'ladilar. Respublika davlat boshqaruvida hokimiyat oliy idoralari ma'lum muddatga saylanadi.

Respublika shaklidagi boshqaruvga ega bo'lgan davlatning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

- hokimiyat oliy idoralarning saylab qo'yilishi;
 - hokimiyat vakolatlarining taqsimlanishi;
 - hokimiyat oliy idoralarning o'z qarorlarini saylangan muddati davomida qabul qilishi;
 - odil sudlovni amalga oshiruvchi idora bo'lgan sudlar obro'sining ortishi;
 - fuqarolarning davlat ishlarini boshqarishda ishtirok eta olishi.
- Respublikalar prezidentlik respublikasi va parlamentar respublika turlariga bo'linadi. Prezidentlik respublikasida davlatni bevosita

xalq saylaydigan va juda keng vakolatlarga ega bo'lgan Prezident boshqaradi.

U ijro hokimiyatining bevosita boshqaruvchisi hisoblanadi.

Prezidentlik boshqaruv shaklida «kuchli prezident» qoidasiga asoslaniladi. Prezident hukumat boshlig'i hisoblanib, uni tuzadi va hukumat prezident oldida hisobot beradi. Prezident ham rasman, ham amalda davlat boshlig'i hisoblanib, maxsus tartibda xalq yoki saylovchilar hay'ati tomonidan saylanadi, shu bois u parlamentdan mustaqil holda faoliyat yuritadi. Prezident mustaqil holda normativ va normativ bo'lmagan hujjatlar qabul qilish hamda parlament qabul qilgan qonunlarga veto qo'yish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra O'zbekistonning davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo'linmasdir. O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risidagi Oliy kengashning bayonotida ham tinchliksevar O'zbek xalqlarining davlatlar o'rtasidagi chegaralari buzilmasligi to'g'risidagi Xelsinki shartnomalariga qat'iy sadoqati butun dunyoga ma'lum qilingan. O'zbekiston davlat chegarasi bilan bog'liq masalalar chegaradosh davlatlar bilan shartnoma va kelishuvlar asosida, shuningdek umume'tirof etilgan xalqaro me'yoriy hujjatlar yordamida tartibga solinadi.

Konstitutsiyaning 5-moddasida «O'zbekiston Respublikasi qonun bilan tasdiqlanadigan o'z davlat ramzlari – bayrog'i, gerbi va madhiyasiga ega» deb ko'rsatilgan.

O'zbekistonning davlat ramzlari 1991-yil 18-noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida», 1992-yil 2-iyuldagi «O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi to'g'risida», 1992-yil 10-dekabrda «O'zbekiston Respublikasining davlat madhiyasi to'g'risida»gi qonunlar bilan tasdiqlangan.

4. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada xalq hokimiyatchiligiga oid huquqiy me'yorlar

Xalq hokimiyatchiligi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbaidir. O'zbekiston xalqini millatidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi.

O'zbekiston xalqi nomidan faqat u saylagan Respublika Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishi mumkin. Jamiyatning biron-bir qismi, siyosiy partiya, jamoat birlashmasi, ijtimoiy harakat yoki alo-

hida shaxs O'zbekiston xalqi nomidan ish olib borishga haqli emas.

Xalq hokimiyatchiligi quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

birinchidan. Hokimiyatning bevosita amalga oshirilishi deganda xalqning saylovlar yordamida hokimiyat vakillik organlarini shakllantirishi, mamlakat Prezidentini saylashi, umumxalq muhokamasi va referendumlari orqali jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda, qarorlar va qonunlarni qabul qilishda to'g'ridan to'g'ri qatnashishi tushuniladi.

Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiy ovozga (referendumga) qo'yiladi. Referendum so'zining lug'aviy ma'nosi lotincha «ma'lum qilinishi lozim bo'lgan narsa» deganidir, ya'ni davlatda hal qilinishi lozim bo'lgan muhim masalalar xalqqa ma'lum qilinadi va uning ovoz berishi orqali hal etiladi. Mamlakatimizda referendum o'tkazish tartibi 2001-yil 30-avgustda yangi tahrirda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining Referendumi to'g'risida»gi Qonuni bilan tartibga solinadi. Unga ko'ra, referendumda qabul qilingan qarorlar oliy yuridik kuchga ega bo'lib, faqat referendum o'tkazish yo'li bilan bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkin. Mamlakatimizda 1991, 1995 va 2002-yillarda referendum o'tkazilgan.

Ikkinchidan, hokimiyatning bilvosita amalga oshirilishi deganda xalqning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda, qarorlar va qonunlarni qabul qilishda o'zi saylagan vakillari, ya'ni deputatlar va senatorlar orqali ishtirok etishi tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidan-gina amalga oshiriladi.

Konstitutsiyada nazarda tutilmagan tartibda davlat hokimiyati vakolatlarini o'zlashtirish, hokimiyat idoralari faoliyatini to'xtatib qo'yish yoki tugatish, hokimiyatning yangi va muvoziy tarkiblarini tuzish Konstitutsiyaga xilof hisoblanadi va qonunga binoan javobgarlikka tortishga asos bo'ladi.

5. Yangi Konstitutsiyada Konstitutsiya va qonunning ustunligi

Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. Konstitutsiyaning bi-

rorta qoidasi O'zbekiston Respublikasi huquq va manfaatlariga zarar yetkazadigan tarzda talqin etilishi mumkin emas. Birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas.

Huquqiy davlat – insoniyatning ming yillar mobaynidagi mashaqqatli mehnati evaziga shakllangan taraqqiyot g'oyasi bo'lib, huquq normalariga, insonning qadr-qimmatini, erkinligi va huquqlarini himoya qilishga qaratilgan fundamental huquqiy prinsiplariga so'zsiz rioya qiladigan, demokratik prinsiplar asosida qabul qilingan qonunlar oldida barcha teng va hisobdor bo'lgan, hech kim qonundan ustun turmaydigan davlatdir.

Bugun Yangi O'zbekiston insonparvar, adolatli, erkin va xalqchil bo'lgan huquqiy davlat qurish yo'lida odimlamoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2022-yil 20-iyunda Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvda «Faqat huquqiy davlat sharoitidagina insonning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini to'liq ta'minlash, tom ma'noda xalqparvar boshqaruv tizimini shakllantirish mumkin», deb ta'kidlagan edi. Shu maqsadda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 1-moddasida «O'zbekiston – huquqiy davlat» degan tamoyil mustahkamlandi.

Konstitutsiyada O'zbekistonni huquqiy davlat ekanligini alohida belgilash – davlat o'z faoliyatini, jamiyat va fuqarolarning yashash tarzini faqat Konstitutsiya va qonunlar asosidagina amalga oshirilishini ta'minlaydi. Pirovardida, davlat organlari va mansabdor shaxslar qonun ustuvorligi asosida xalq manfaatlarini uchun ishlaydi, unga xizmat qiladi.

Yangilangan Konstitutsiyamizning boshqa normalarida ham huquqiy davlat prinsipini ro'yobga chiqarishga qaratilgan mexanizmlar va kafolatlar mustahkamlandi. Birinchidan, davlat faoliyati qonun ustuvorligi, qonuniylik prinsipi asosida amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha Konstitutsiyaning oliy yuridik kuchga egaligi hamda uning to'g'ridan to'g'ri amal qilishi belgilandi. Natijada davlat organlari, shu jumladan, sudlar o'z faoliyatida Konstitutsiyaga to'g'ridan to'g'ri murojaat qilgan holda qarorlar qabul qiladi. Ikkinchidan, inson huquq va erkinliklari xalqaro huquq va Konstitutsiya normalariga muvofiq kafolatlanmoqda, ular qonunchilik va davlat organlari faoliyatining mazmunini belgilashi mustahkamlandi. Shuningdek, insonga nisbatan davlatning huquqiy ta'sir choralari qonunlarda na-

zarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli va mutanosib bo'lishi shartligi va inson bilan davlat organlarining o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha qarama-qarshiliklar va noaniqliklar inson foydasiga talqin qilinishi mustahkamlandi.

Fransiya, Germaniya, Ispaniya, Turkiya kabi davlatlar Konstitutsiyalarida o'zini huquqiy davlat deb belgilagan.

Mazkur yangilik barchaning qonun oldida tengligini va qonundan hech kim ustun emasligini ta'minlash, insonlar ongiga qonunlarga hurmat va itoat etib yashash lozimligini singdirish, umuman olganda davlat organlarining xalqqa xizmat qilishi uchun mustahkam huquqiy asos bo'ladi. Shuningdek, O'zbekistonning «Huquq ustuvorligi indeksi», «Jahon mamlakatlari demokratiyasi indeksi» kabi xalqaro nufuzli reytinglarda o'rnini yaxshilanishiga imkon beradi.

Ijtimoiy davlat har bir inson uchun farovon turmush darajasi, xususan sifatli ta'lim, kafolatli tibbiy xizmat, munosib mehnat sharoiti va adolatli ish haqi, pensiya va nafaqalar, ijtimoiy yordam va xizmatlar tizimi yaratilgan, uy-joyli bo'lish sharoiti mavjud bo'lgan, ijtimoiy tafovutlar yumshatilgan, muvozanatlashgan, hech bir fuqaro o'z muammolari bilan yolg'iz qolmaydigan adolatli davlatdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2022-yil 20-iyunda Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvda «Asosiy qonunimizda «O'zbekiston – ijtimoiy davlat» degan tamoyilni mustahkamlashni taklif etaman. Chunki «inson qadri» tushunchasi «ijtimoiy davlat» tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu g'oyaning tub negizida ham avvalo inson qadrini ulug'lash, insonga xizmat qilishdek olijanob maqsad mujassamdir», deb ta'kidlagan edi.

Yangilangan Konstitutsiyamizda ijtimoiy davlat modelini amalga oshirish mexanizmlari belgilandi. Birinchidan, Konstitutsiyamizda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarini uy-joy bilan ta'minlash bo'yicha davlatning majburiyatlari, mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorini belgilashda insonning munosib yashashini (oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, kommunal, transport, aloqa va boshqalar) ta'minlash hisobga olinishi alohida belgilandi. Ikkinchidan, davlat fuqarolarning bandligini ta'minlash, ishsizlikdan himoya qilish, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha majburiyatlar olmoqda. Uchinchidan, fuqarolarning kafolatlangan tibbiy yordamga bo'lgan huquqlari belgilandi va davlatning ta'limning barcha shakl-

lariga g'amxo'rlik qilishi, inklyuziv ta'limni ta'minlashi, o'qituvchining maqomiga oid normalar mustahkamlandi. To'rtinchidan, ijtimoiy davlatning asosiy vazifasi sifatida barcha uchun teng imkoniyatlar, oilalar, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bor shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga oid yangi qoidalar o'rnatildi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining ijtimoiy davlat tamoyilini amalga oshirishga qaratilgan yangi vazifa va vakolatlari belgilandi. Umuman olganda, yangilangan Konstitutsiyada davlatning ijtimoiy majburiyatlari uch baravardan ortiqqa ko'paydi.

Ijtimoiy davlat prinsiplari Germaniya, Fransiya, Ispaniya, Xorvatiya, Turkiya va boshqa bir qator davlatlar Konstitutsiyalarida mustahkamlangan.

O'zbekistonni ijtimoiy davlat deb belgilash – ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy xizmatlar va jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni yumshatish, ayniqsa ijtimoiy himoyalangan yoki ehtiyojmand qatlamni qo'llab-quvvatlash orqali ularga munosib turmush sharoitini yaratishga xizmat qiladi.

Konstitutsiyada davlat o'z zimmasiga **10 ta muhim ijtimoiy majburiyatni** olganini ham alohida qayd etish lozim.

Bular sirasiga quyidagilar kiradi:

– davlat fuqarolarning bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish choralari ko'radi;

– davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi;

– davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi;

– bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi;

– fuqarolar davlat ta'lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma'lumot olishga haqli;

– mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini ta'minlash zarurati hisobga olingan holda belgilanadi;

– pensiyalar, nafaqalar va boshqa turdagi ijtimoiy yordamning miqdorlari eng kam iste'mol xarajatlaridan oz bo'lishi mumkin emas;

– pensiyalar, nafaqalar va boshqa turdagi ijtimoiy yordamning miqdorlari eng kam iste'mol xarajatlaridan oz bo'lishi mumkin emas;

– davlat aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarining hayoti sifatini oshirishga, jamiyat va davlat hayotida to'laqonli

ishtirok etishi uchun ularga shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan choralarni ko'radi;

– davlat nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalar obyektlari va xizmatlaridan to'laqonli foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi. Davlat nogironligi bo'lgan shaxslarning ishga joylashishiga, ta'lim olishiga ko'maklashadi, ularga zarur bo'lgan axborotni to'sqinliksiz olish imkoniyatini ta'minlaydi.

Dunyoviy davlat – diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan hamda davlat hokimiyati dindan ajratilgan, davlat boshqaruvi diniy qoidalar bilan emas, balki Konstitutsiya va qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan, qarorlar qabul qilishda diniy asoslarga tayanilmaydigan davlat hisoblanadi.

Dunyoviy davlat vijdon va e'tiqod erkinligining mavjudligi, davlatning jamiyat hayotida fuqarolar tomonidan e'tiqod qilinayotgan dinlarga teng va birdek betaraf munosabatda bo'lishi hamda hech qaysi dinning davlat dini sifatida o'rnatilmasligi bilan tavsiflanadi. Dunyoviy davlat fuqarolarga ta'lim olish, shaxsiy rivojlanish yo'lini mustaqil tanlash imkoniyatini yaratish hamda ilm-fan va madaniy taraqqiyotda ijodiy erkinlikni ta'minlashni ko'zda tutadi.

Dunyoviy davlatda din davlatdan va siyosatdan ajratilsa-da, jamiyatdan ajratilmaydi, balki insonlarning ma'naviy va ruhiy kamolotga erishishining omili bo'lib hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, dunyoviylik – dahriylik emasdir, ayni paytda dunyoviy davlat dahriylikka targ'ib etuvchi davlat ekanligini anglatmaydi. Aksincha, dunyoviy davlatda barcha uchun vijdon va e'tiqod erkinligi huquqi ta'minlanadi, turli din vakillariga teng imkoniyat yaratib beriladi hamda diniy e'tiqodni chuqur hurmat qilgan holda, dunyoviy taraqqiyot yo'lidan boriladi. Eng muhimi, dunyoviy davlat barcha dinlar uchun nafaqat teng sharoitlar yaratib berishni, balki fuqarolarga ta'lim olish, shaxsiy rivojlanish yo'lini mustaqil tanlash imkoniyatini yaratish hamda ilm-fan va madaniy taraqqiyotda ijodiy erkinlikni ta'minlashni ko'zda tutadi.

Umumiy ma'noda davlat dunyoviy davlatda diniy masalalarda rasman betaraf bo'ladi yoki diniy masalalarga aralashishdan o'zini tiyadi. Dunyoviy davlatning muhim xususiyatlaridan biri – turli din vakillarining bag'rikenglik va tinch-totuvlikda yashashidir. Jamiyatda turli-tuman din va madaniyatlar vakillari mavjud bo'lgan holda, davlat boshqaruvi va siyosati, albatta bir mafkuraga yoki

diniy qarashga asoslana olmaydi. Bunday sharoitda har bir davlat uchun eng adolatli va to'g'ri yo'l – dunyoviy davlat yo'lidir.

Dunyoviy davlat prinsiplari ko'plab xorijiy mamlakatlar Konstitutsiyalarida (Turkiya, Ozarbayjon) mavjud. Masalan, o'z Konstitutsiyasida ushbu prinsipni belgilagan Turkiya tajribasi ham shundan dalolat beradi-ki, dunyoviy taraqqiyot va barcha demokratik tizimlarda dunyoviy davlatning asosiy prinsiplaridan biri – vijdon erkinligi kafolatlangan.

O'zbekistonda 16 ta diniy konfessiyaga mansub 2300 dan ortiq diniy tashkilotlar faoliyat yuritmoqda. Turli diniy e'tiqodga mansub aholiga ega davlatda e'tiqod erkinligining kafolatlanishi siyosiy va huquqiy ahamiyat bilan birga, ijtimoiy ahamiyatga ega. Shu bois, har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilishi yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga egaligi, diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmasligi belgilangan bo'lib, shaxsning diniy e'tiqodi bo'yicha unga qo'shimcha huquq yoki majburiyatlar yuklanmaydi.

O'zbekistonni dunyoviy davlat sifatida belgilash – dunyoviy taraqqiyot, turli din va mazhablar o'rtasida bag'rikenglik va totuvlikni mustahkamlashga, diniy birlashmalarning mustaqil faoliyat yuritishiga, din va e'tiqod erkinligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Konstitutsiyaning 4-moddasida quyidagicha bayon qilingan.

«O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir. O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi». O'zbek tilining O'zbekiston hududida davlat tili sifatida amal qilishining huquqiy asoslari asosan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va «Davlat tili haqida»gi Qonuni bilan tartibga solinadi.

Xalq hokimiyatchiligi. Xalq cheklanmagan hokimiyatga egaligi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7-moddasida aks ettirilgan. Unga muvofiq, xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir. Xalq suvereniteti, birinchidan, ayni mamlakatda xalq cheklanmagan hokimiyatga egaligini, ikkinchidan, xalq o'z hokimiyatini bevosita hamda davlat hokimiyati organlari va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari orqali amalga oshirishi mumkinligini bildiradi.

O'zbekiston Respublikasida xalq hokimiyati – ommaviy hokimiyat: u omma manfaatlarini ko'zlab amalga oshiriladi; u butun jami-

yat va uning har bir a'zosi manfaatlarini ko'zlaydi; uning muayyan funksiyalari va shakllarini amalga oshirishda har kim ishtirok etishga haqli. Hokimiyat: butun xalq, uning ma'lum hududda yashaydigan qismi, xalq tomonidan saylangan vakillar, xalq tomonidan tarkib toptirilgan va xalq vakillarini o'z ichiga olgan organlar tomonidan amalga oshiriladi. Hokimiyat: aholini ishontirish, tarbiyalash, rag'batlantirish, uyushtirish, zarur holda esa majburlash usullarini qo'llaydi; u oshkora (ochiq) amalga oshiriladi, uning barcha tadbirlari jamoatchilik muhokamasidan o'tadi (o'tishi lozim).

Hokimiyatni amalga oshirish – jamiyat, davlat, alohida hududlar, fuqarolarning birlashmalari ishlarini boshqarish, ma'lum maqsadlarni ko'zlab faoliyat ko'rsatish va ko'zlangan maqsadga (natijaga) erishish demak.

Xalq hokimiyati O'zbekiston Respublikasida uch asosiy shaklda amalga oshiriladi:

1) **Davlat hokimiyati** – uning mazmuni davlat tomonidan majburiy kuchga ega hujjatlarni qabul qilish (faoliyat ko'rsatish), ularning ijro etilishini o'z nufuzi, tashkiliy tadbirlar, zarur holda esa – majburlov yo'li bilan ta'minlashdan iborat. Ijtimoiy hokimiyatdan farqli o'laroq, u barcha fuqarolarga nisbatan amal qiladi. Davlat hokimiyati bevosita xalq yoki davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Referendum hamda qonun chiqaruvchi hokimiyat organlari (O'zbekiston Respublikasi parlamenti), saylab qo'yiladigan davlat mansabdor shaxslari (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti) saylovi davlat hokimiyatini xalq tomonidan bevosita (to'g'ridan to'g'ri) amalga oshirishning oliy ifodasidir.

Xalq hokimiyatini amalga oshiruvchi davlat hokimiyati organlarining uch turi – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati organlari, darajasiga ko'ra esa – respublika organlari va mahalliy organlar farqlanadi.

O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyatini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis (ikki palata: Qonunchilik palatasi va Senatdan tashkil topgan), O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasi sudlari (O'zbekiston Respublikasining yagona sud tizimi mavjud bo'lib, uning oliy bo'g'inlarini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi va Oliy sud tashkil etadi) amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasining viloyatlari,

tumanlari va shaharlarida qonun chiqaruvchi hokimiyat organlari (xalq deputatlari Kengashlari), ijro etuvchi hokimiyat organlari (hokimlar), sudlar faoliyat ko'rsatadi.

2) **Ijtimoiy hokimiyat** – siyosiy partiyalar, boshqa jamoat tashkilotlari va harakatlar, diniy tashkilotlar, oila, mehnat jamoalari ichida, ommaviy tadbirlar (miting, yig'ilish, namoyish va b.) o'tkazish vaqtida fuqarolar alohida guruhlarining (ba'zan ommaviy) birlashmasi.

Jamoat birlashmalarining a'zolari va ommaviy tadbirlarning ishtirokchilari jamoaviy tartibda belgilangan qoidalarga ixtiyoriy tarzda bo'ysunadilar, ijtimoiy ta'sir ko'rsatish usullariga tayanadilar. Ayni holda majburlash usullari ham qo'llanishi mumkin. Ammo mazkur usullar davlat va uning organlari tomonidan qo'llanmaydi. Majburlash tashkiliy choralar ko'rish (birlashma tarkibidan chiqarish, jamoatchilik tanbehi va sh.k.)ni nazarda tutadi.

3) **Xalq hokimiyatining aralash shakli** – ijtimoiy-davlat hokimiyati. U shaharlar, tumanlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, mahallalarda mahalliy o'zini-o'zi boshqarish hokimiyati shaklida amalga oshiriladi. Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish – xalq hokimiyat-chiligining aholiga mahalliy ahamiyatga molik masalalarni mustaqil hal qilish, ya'ni tegishli hududda o'z hayoti va ishlarini boshqarish imkoniyatini beruvchi shakli. U fuqarolarning yashash joylaridagi yig'inlarda yoki mahalliy referendumlarda amalga oshiriladi. Mahalliy ahamiyatga molik masalalar saylab qo'yiladigan mahalliy o'zini-o'zi boshqarish vakillik organlari (xalq deputatlari Kengashlari) hamda mahalliy o'zini-o'zi boshqarish mansabdor shaxslari (mahalliy tuzilmalarning boshliqlari va b.) tomonidan hal qilinishi mumkin.

Sof mahalliy xususiyatga ega masalalarni hal qilishda mahalliy o'zini-o'zi boshqarishning ijtimoiy (nodavlat) tabiati namoyon bo'ladi. Shunga qaramay, uning qarorlari ayni hudud aholisi uchun majburiydir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 101-moddasiga muvofiq, mahalliy hokimiyat organlari O'zbekiston Respublikasining qonunlarini, Prezident farmonlarini, davlat hokimiyati yuqori organlarining qarorlarini amalga oshiradilar, respublika va mahalliy ahamiyatga molik masalalarni muhokama qilishda qatnashadilar. Bunda yuqori organlarning o'zlariga berilgan vakolat doirasida qabul qilgan qarorlari quyi organlar ijro etishi uchun majburiydir. Ikki xil vazifani qo'shib amalga oshirganligi tufayli mahalliy o'zini-o'zi

boshqarish hokimiyati O'zbekiston Respublikasidagi xalq hokimiyatining aralash shakli – ijtimoiy davlat hokimiyatini tashkil etadi.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirishning asosiy mezonlaridan biri – bu uning huquqiy negizini yaratishdan iborat bo'lganligi bois, birinchi navbatda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolik jamiyatining huquqiy poydevorini o'rnatishga, uning asosiy qoida va talablarini huquqiy jihatdan mustahkamlovchi huquqiy normalarining o'z ifodasini topishiga alohida e'tibor berildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolik jamiyatining asosiy qoida va talablarini aks ettiruvchi prinsipial ahamiyatga ega bo'lgan normalar sifatida davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qilishi, davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'ul ekanligi (2-modda), xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbai hisoblanishi (7-modda), O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi – hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanishi (11-modda), O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanishi, hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emasligi (12-modda) kabilarda fuqarolik jamiyatining asosiy prinsipial masalalari yuridik jihatdan mustahkamlanganligini ko'rishimiz mumkin. Mustaqillik yillarida fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha Konstitutsiyamizda qayd etilgan asosiy prinsiplar va normalar asosida davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish, sud-huquq tizimini isloh etish, axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash, saylov huquqi erkinligini ta'minlash, fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish, demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish bo'yicha tadrijiy islohotlar amalga oshirildi.

Konstitutsiya va qonunning ustunligi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasida O'zbekiston xalqi huquqiy davlat barpo etishni ko'zlagani qayd qilingan. Huquqiy davlatning muhim va ajralmas belgisi – bu qonun ustuvorligi hisoblanadi.

Qonun ustuvorligi xalq hokimiyati va inson huquqlari tushunchalari bilan bevosita bog'liq prinsipdir. Chunki xalq hokimiyati deganda fuqarolarning qarorlar qabul qilish jarayonida bevosita yoki bilvosita ishtirok etish huquqi tushuniladi. Shu ma'noda xalq irodasining ifodasi bo'lgan, fuqarolarning parlamentga saylab qo'ygan vakillari or-

qali yoki o'zlari tomonidan bevosita referendum orqali qabul qilingan qonunlar xalq hokimiyatchiligining natijasi, majoziy qilib aytganda, mevasi hisoblanadi. Inson huquq va erkinliklari qonunlar vositasida hayotga joriy etiladi, aslida qonunlarning pirovard maqsadi ham inson, uning huquq va erkinliklarini himoya qilishdan iboratdir.

Konstitutsiyaning to'g'ridan to'g'ri amal qilishi va mamlakatning butun hududida qo'llanilishi huquqiy davlatning muhim va asosiy shartlaridan biridir.

Barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar, fuqarolarning yangi Konstitutsiyaviy norma va prinsiplarga og'ishmay amal qilishi, Konstitutsiya to'g'ridan to'g'ri amal qiladigan hujjat bo'lishi shartligi, davlat organlari, ayniqsa, sudlar o'z faoliyatida Konstitutsiyaga to'g'ridan to'g'ri murojaat qilishi, uning normalariga asoslanib ish ko'rish zarur.

Shu bois, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 15-moddasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to'g'ridan to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi, degan norma belgilandi.

Konstitutsiyaning to'g'ridan to'g'ri amal qilishi – davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari, shu jumladan, sudlar tomonidan Konstitutsiya normalarini huquqni qo'llash amaliyotida bevosita qo'llagan holda qarorlar qabul qilish, fuqarolarning Konstitutsiya normalaridan to'g'ridan to'g'ri foydalanishi va rioya etishini ko'zda tutadi. Jumladan, vazirliklar, hokimliklar sudlar, prokuratura, ichki ishlar organlar va boshqa davlat organlari, mansabdor shaxslar muayyan bir holat yoki ish yuzasidan Konstitutsiyada belgilangan normalarni aniq ko'rsatgan holda qarorlar qabul qiladi.

Fuqarolar esa kundalik hayotda Konstitutsiyada belgilangan normalarga murojaat qilgan holda o'z huquq va erkinlarini amalga oshiradi. Masalan, Konstitutsiyaning 47-moddasiga kiritilgan qoidaga asosan, sudning qarorisiz uy-joydan mahrum etilishga yo'l qo'yilmaydi. Mazkur huquq buzilsa fuqaro aynan Konstitutsiyada mening huquqim kafolatlangan deb, tegishli o'z huquqini tiklashi mumkin.

Ta'kidlash lozimki, Konstitutsiyaning to'g'ridan to'g'ri ta'sirini ta'minlash tizimi asosiy qonun normalarining bevosita qo'llanishini himoya qilishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Ushbu normaning kiritilishi natijasida kundalik hayotimizda biron imtiyoz yoki huquqdan foydalanmoqchi bo'lganda, davlat organ-

lari xodimlari tomonidan «hali tartibi ishlab chiqilmagan» yoki «yuqoridan bizga ko'rsatma yoki buyruq berilmagan» qabilidagi bahonalar Konstitutsiyada belgilangan normalarga nisbatan qo'llanilmaydi.

Kiritilgan mazkur qoida orqali Konstitutsiya normalari ularni qo'llash tartibi alohida qonunchilik hujjatlarida mavjud yoki mavjud emasligidan qat'iy nazar to'g'ridan to'g'ri amal qilishiga erishiladi.

Xalqaro hujjatlarda qonun ustuvorligining asosiy elementlari sifatida qonun ijodkorligini shaffof, hisobdorlik va demokratik jarayonni qamrab olgan qonuniylikka asoslanishi; huquqiy aniqlik; o'z-boshimchalikning taqiqlanganligi; mustaqil va xolis odil sudlovning ochiqligi; shuningdek ma'muriy hujjatlar ustidan sud nazoratining o'rnatilganligi; inson huquqlarini hurmat qilish va kamsitmaslik hamda qonun oldida tenglik hisoblanadi.

Mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta'minlashning zarur normativ-huquqiy va tashkiliy institutsional asoslari shakllantirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining III bobi «Konstitutsiya va qonunning ustunligi» deb nomlanib, mazkur bob Konstitutsiyamizning Asosiy prinsiplar bo'limida joylashgan. Nazariyadan ma'lumki, prinsip deganda rahbariy qoidalar nazarda tutiladi. Agar Konstitutsiyaning boshqa bo'limlari o'rtasida qandaydir tushunmovchilik kelib chiqadigan bo'lsa, masala nazariyaga ko'ra asosiy prinsiplarga tayanilib hal qilinishi kerak. Shu ma'noda qonun ustuvorligining Asosiy prinsiplar bo'limida joylashtirilganligi mamlakatimizda mazkur prinsipga alohida ahamiyat berilganidan dalolatdir.

Konstitutsiyaning mazkur bobidagi hamda boshqa normalarida mustahkamlangan qoidalarni tahlil qilish quyidagi fikrlarni keltirib chiqaradi: birinchidan, O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. Ikkinchidan, davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar. Uchinchidan, birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas.

«Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi Qonunda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi oliy yuridik kuchga egaligi, qonunosti hujjatlar qonun asosida va uni ijro etish uchun qabul qilinishi, qonunlar eng muhim va barqaror ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishi, normativ-huquqiy hujjat o'ziga nisbatan yuqori yuridik

kuchga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq bo'lishi shartligi, normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasida tafovut bo'lgan taqdirda, yuqori yuridik kuchga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjat qo'llanilishi kabilar belgilab qo'yilgan.

Bundan tashqari mamlakatimizda qonuniylik va qonun ustuvorligini ta'minlashning tashkiliy-huquqiy asoslari ham yaratilgan. Avvalambor bu O'zbekiston Respublikasining Prezidenti fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining kafili hisoblanishi, qonunlarning bajarilishi ustidan parlament, jamoatchilik va idoraviy hamda adliya organlarining nazorati o'rnatilganligi, Konstitutsiyaviy sud qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning hujjatlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni ko'rishi, sudning faoliyati qonun ustuvorligini ta'minlashga qaratilganligi, har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanganligi, qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan prokurorlik nazorati mustahkamlanganligi, tashkilotlarda yuridik xizmatlar faoliyati yo'lga qo'yilganligi kabilarda bevosita namoyon bo'ladi.

Qonunchiligimizda huquqiy ekspertiza, qonun hujjatlarini ta'sirini baholash tizimi, monitoring, idoraviy hujjatlarni ro'yxatdan o'tkazish kabi huquqiy vositalar ham belgilangan bo'lib, bular ham qonuniylik va qonun ustuvorligini ta'minlashning muhim elementlarini tashkil etadi.

Bundan tashqari, qonun ustuvorligini nafaqat davlat organlarida, balki har bir mahallada ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi qarori bilan tasdiqlangan Fuqarolar yig'inining «Mahalla posboni» jamoatchilik tuzilmasi to'g'risida nizomda jamoatchilik tuzilmalarining tegishli hududda xavfsizlikni va jamoat tartibini saqlash, fuqarolar ogohligini oshirish, tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining quyi tizimlari bilan hamkorlikda ish olib borish, aholida, birinchi navbatda, yoshlarda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, fuqarolar yig'inlarida huquqiy tarbiya va huquqiy targ'ibot ishlarini tizimli amalga oshirishda ishtirok etish, xalqimiz ma'naviyatiga zid bo'lgan turli salbiy ta'sirlarning oldini olish yuzasidan tushuntirish ishlarini samarali tashkil etish va o'tkazishda qatnashish,

mamlakatimizda qaror topgan tinchlik, osoyishtalik va barqarorlik natijasida aholi farovonligi ta'minlanayotganligi, bu borada o'zining faol ishtiroki bilan munosib hissa qo'shish har bir fuqaroning vatanparvarlik va fuqarolik burchi ekanligini tushuntirishda qatnashish kabi vazifalari qayd etilgan.

Qonun ustuvorligini ta'minlash bilan bog'liq vazifalar 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Prezident Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida muhim masalalardan biri sifatida ko'rsatib o'tilgan.

Qonun ustuvorligi shaxsga o'z huquq va erkinliklarini moneviksiz amalga oshirish, o'z hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari qonunan kafolatlanganligi tufayli tinch, osoyishta, xotirjam, hech qanday tashqi ta'sirlardan, zo'rvonlik va o'zboshimchalikdan qo'rqmay yashash imkoniyatini beradi.

Qonun ustuvorligi shuningdek shaxsga uning uchun majburiy bo'lgan mazkur hujjatlarni qabul qilish jarayonida uning o'zi yoki saylab qo'ygan vakillari orqali ishtirok etish, davlat boshqaruviga ta'sir o'tkazish, davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqini ta'minlaydi.

Agar jamiyatda qonun ustuvorligi ta'minlanmasa odamlarda nafaqat bugungi, balki ertangi kuniga ham ishonch yo'qoladi, adolat, tenglik, erkinlikka rioya qilinmaydi. Qonun ustuvorligi ta'minlanmagan jamiyatda iqtisod ham rivojlanmaydi, iqtisodiy islohotlar ham samara bermaydi. Chunki hech kim qonun ishlamagan joyga o'z mulkini, sarmoyasini kiritishni xohlamaydi.

Nazorat savollari:

1. Konstitutsiya so'zining ma'nosi nima?
2. Konstitutsiyaning qanday funksiyalari mavjud?
3. Konstitutsiyaning asosiy prinsiplariga nimalar kiradi?
4. Ijtimoiy davlatning o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?
5. Duniyoviy davlat deganda nimani tushunasiz?
6. Huquqiy davlatning muhim belgilari nimalardan iborat?
7. Xalq hokimiyatchiligi tushunchasi xususiyatlari nimada?
8. Qonun ustuvorligi deganda nimani tushunasiz?

2-mavzu. INSONNING HUQUQ VA ERKINLIK LARI

Reja:

1. Insonning huquq va erkinliklari tushunchasi.
2. Konstitutsiyada belgilangan insonning asosiy huquq va erkinliklari.
3. Inson o'z huquq va erkinliklarini himoya qilishga haqliligi.

Tayanch so'z va iboralar: inson, huquq, erkinliklar, sha'n, qadr-qimmat, tenglik, erkinlik, xavfsizlik, daxlsizlik, himoya, vositalar.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya O'zbekiston jamiyatining evolyutsion rivojlanishidan kelib chiqayotgan hayotiy zarurat bo'lib, bu ish mamlakat, millat va xalq sifatida keyingi qadamlarimizni aniqlab olishimiz uchun g'oyat ahamiyatli masala, adolatli jamiyat qurish yo'lidagi ulkan qadamdir.

So'nggi yillarda erishgan yutuqlarimizni, xususan, iqtisodiyot, inson huquqlari, odil sudlov, so'z va e'tiqod erkinligi, ijtimoiy himoya sohalaridagi yuzlab cheklovlarning olib tashlangani, naqd pul, valyuta, kredit masalalaridagi muammolar hal qilingani, qo'shnilarimiz bilan oramizdagi 25 yillik «muzlar erigani» va boshqa ijobiy harakatlar ortga qaytmasligining Konstitutsiyaviy himoyasini ta'minlash zarur. Bu yutuqlar, huquq va erkinliklardan nafaqat hozirgi, balki kelajak avlodlarimiz ham emin-erkin foydalanishi uchun, ularni, albatta, Konstitutsiyada muhrlab qo'yish talab etilmoqda.

Hammamiz guvohi bo'layapmizki, dunyoda har kuni kutilmagan xavf-xatar va tahdidlar yuzaga chiqyapti. Bugungi ziddiyatli jarayonlar, iqtisodiy qarama-qarshiliklar qachon va nima bilan tugashini bashorat qilib bo'lmaydi. Hatto, ayrim davlatlarning dunyo xaritasida qolish-qolmasligi savol ostida qolayotgani ham sir emas. Jahondagi qariyb 100 million odam o'z hayotini saqlash uchun boshqa yurtlarda boshpana izlab yurgani, oziq-ovqat yetishmasligi, energiya resurslari taqchilligi, pandemiya kabi global muammolar rivojlangan davlatlar aholisini ham jiddiy o'ylantirmoqdaki, bularning bari bizga ham ta'sir ko'rsatmasligi mumkin emas.

Qolaversa, mintaqamizdagi vaziyat ham bizni jiddiy tashvishga solmay qo'ymaydi: yonginamizda qariyb 50 yillik notinchlik davom etyapti. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda yurtimizni demokratik tamoyillarga asoslanib rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda esa asosiy vosita sifatida inson huquq va erkinliklarini ta'minlash zarur hisoblanadi.

1. Insonning huquq va erkinliklari tushunchasi

Inson huquqlari irqi, tana rangi, jinsi, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, dini, tili, millati, yoshi, jinsiy qarashlari, nogironligi yoki boshqa ajratib turuvchi xususiyatlariga qaramay umuminsoniy qadriyat hisoblanadi. Barcha davlatlar va xalqlar tomonidan qabul qilingani tufayli inson huquqlari barchaga birdek va hech qanday kamsitishlarsiz amal qiladi va hamma joyda ham bir xil kuchga ega. Inson huquqlari insonga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'lgan tabiiy va ajralmas huquqlar sirasiga inson hayoti, sha'ni, qadr-qimmati, ozodligi, tengligi, erkin bo'lishi, xavfsizligi, daxlsizligi kiradi va bu huquqlar qonunlarda belgilanganligi yoki belgilanmaganligidan qat'iy nazar, insonga azaliy tegishlidir. Bu haqda O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yilning 20-iyun kuni Konstitutsiyaviy komissiya bilan uchrashuvdagi o'z nutqida: «Insonning qadr-qimmati, asosiy huquq va erkinliklari daxlsiz, ajralmasdir, ular har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'ladi», deb ta'kidlab o'tdi.

Ma'lumki, insonning huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'lishi O'zbekiston a'zo bo'lgan inson huquqlariga oid 80 dan ortiq xalqaro hujjatlarda belgilangan.

Ular orasida umume'tirof etilgan inson huquqlari bo'yicha BMTning 7 ta asosiy shartnomasi va ularga qo'shimcha protokollar, YUNESKO, Xalqaro mehnat tashkilotining xalqaro konvensiyalari, xalqaro gumanitar huquq konvensiyalari, YeXHTning «Insoniylik mezonlari» hujjatlari, shuningdek, Islom hamkorlik tashkiloti, MDH kabi mintaqaviy tashkilotlarning hujjatlari milliy qonunchilikni yanada takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. 1993-yil Venada bo'lib o'tgan Inson huquqlari umumjahon konferensiyasida xalqaro hamjamiyat tomonidan inson huquqlariga keng qamrovli yondashish zarurligi ta'kidlangan edi. «**Barcha inson huquqlari umuminsoniy qadriyat hisoblanadi. Ular bo'linmasdir,**

ularni bir-biridan ayri tasavvur qilib bo'lmaydi va ular bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Xalqaro hamjamiyat inson huquqlariga umumjahon miqyosida bir xil asoslarda va ularga bir xil urg'u berib, odil va teng munosabatda bo'lishi kerak. Milliy va mintaqaviy xususiyatlar, turli xil tarixiy, madaniy va diniy jihatlarining muhim ahamiyati hisobga olinishi zarur bo'lsa-da, siyosiy, iqtisodiy va madaniy tizimlardan qat'iy nazar inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish va targ'ib etish barcha davlatlarning majburiyati hisoblanadi» (Inson huquqlari umumjahon konferensiyasi, Vena, 1993-yil, Vena deklaratsiyasi va Harakat dasturining 5-bandi).

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilish sohasiga taalluqli 18 ta kodeks va 500 dan ortiq qonunlar qabul qilindi. Asosiy qonunchilik hujjatlaridan quyidagilarni alohida qayd etish mumkin: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi; «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida», «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) to'g'risida»; «Konstitutsiyaviy sud to'g'risida»; «Siyosiy partiyalar to'g'risida»; «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»; «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»; «Axborot olish erkinligi va kafolatlari to'g'risida»; «Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida»; «Nodavlat notijorat tashkilotlar to'g'risida»; «Ayollarga qo'shimcha imtiyozlar to'g'risida»; Fuqarolarning huquq va erkinliklarni buzadigan harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida»; «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»; «Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida»; «Advokatura to'g'risida»; «Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida»gi va boshqalar.

Inson huquqlari – insonga o'zini inson sifatida namoyon qilishi, moddiy, ijtimoiy va boshqa ne'matlardan foydalanishi uchun taqdim etilgan ijtimoiy va yuridik imkoniyatdir. Bu haqda Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 19-moddasida alohida belgilangan: «inson huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'ladi». Ushbu qoida bilan insonning asosiy, tabiiy va ajralmas huquqlarini ta'minlash davlat va jamiyatning eng asosiy vazifasi sifatida Konstitutsiya darajasida mustahkamlanmoqda. Mazkur huquqlarga yashash huquqi, erkinlikka bo'lgan huquq, shaxsiy va uy-joy daxlsizligi, boshpana huquqi, mulk huquqi, sud himoyasiga bo'lgan hu-

quq, so'z va e'tiqod erkinligi huquqi, erkin harakatlanish, yashash joyini tanlash, fuqarolikka ega bo'lish, mehnat qilish huquqi, bilim olish huquqi, tibbiy huquq va boshqa shu kabilar kiradi.

Konstitutsiya har bir davlatning asosiy huquqiy hujjati hisoblanadi. Uning me'yorlari nafaqat davlat tuzumi, davlat hokimiyati va boshqaruvini tashkil etish tamoyillarini, balki ijtimoiy hayot me'yorlarini ham belgilab beradi. Konstitutsiyaviy huquqiy tartibga solishning uziga xos xususiyati shundan iboratki, Konstitutsiya o'zining asosiy qoidalarini hayotga to'liq tatbiq etish uchun keng imkoniyat yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra, inson, uning hayoti, sha'ni, qadr-qimmat, huquq va erkinliklari oliy qadriyat hisoblanadi. Insonning huquq va erkinliklarini tan olish va himoya qilish davlatning asosiy majburiyatidir. Mazkur tamoyil Konstitutsiyaviy qurilish asoslari tizimida markaziy o'rinni egallaydi. Uning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

birinchidan, insonning huquq va erkinliklari boshqa barcha ijtimoiy munosabatlar shakllanishining, jumladan, davlat qurilishining oliy qadriyatidir. Davlat tan oladigan va himoya qiladigan inson huquqlari va boshqa qadriyatlar o'zaro muvofiq kelmasa, inson huquqlariga ustunlik beriladi;

ikkinchidan, ushbu tamoyilning mohiyati O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonun hujjatlarida mustahkamlangan inson huquqlari va erkinliklari tizimi orqali ochiladi. Konstitutsiyada belgilangan huquq va erkinliklar ro'yxati to'liq hisoblanmaydi hamda shaxs va fuqaroning boshqa umume'tirof etilgan huquq va erkinliklari tan olinmasligi yoki kamsitilishini bildirmaydi;

uchinchidan, davlat hokimiyatining shakllanishi va xalq irodasiga muvofiq holda amalga oshirilishini bildiruvchi hokimiyatning qonuniyligi. Hozirgi demokratik davlatlarda hokimiyat qonuniyligiga saylovlar jarayonida erishiladi, aholi ma'lum shaxslarga davlat hokimiyati vakolatlarini topshirib, o'z siyosiy irodasini ifoda etadi;

to'rtinchidan, davlat hokimiyatining demokratik tartibda shakllanishi va amalga oshirilishi. Ushbu tavsif davlatda umumiy va teng saylov huquqi amalga oshirilishini kafolatlovchi demokratik saylov qonunchiligining mavjudligini, doimiy ravishda erkin, haqiqiy saylovlar o'tkazilishini bildiradi.

Shuningdek, qonun hujjatlarida, avvalo, Konstitutsiyada davlat hokimiyatini amalga oshirish tartiblari, jumladan, qonunlarni qabul qilish tartibi, davlat idoralarining vakolatlari, hujjatlar qabul qilish tartibi, huquqiy tizimda turli xil hujjatlarining o'zaro mutanosibligi kabilar mustahkamlangan bo'lishi lozim;

beshinchidan, hokimiyatni Konstitutsiyaga zid bo'lgan yo'llar bilan egallashning taqiqlanganligi va bunday egallash (bosib olish) qonun bo'yicha ta'qib etilishi. Hokimiyat vakolatlariga egalik qilish ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qo'lga kiritilgan taqdir-dagina, qonuniy hisoblanadi.

Davlat hokimiyatining saylab qo'yiladigan organlari – demokratik saylovlar yo'li bilan, boshqa organlar esa – qonun bilan belgilangan tayinlash, tanlov va boshqa usullar yordamida shakllantiriladi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning **20-moddasida** ilk bor «Insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qiladi», degan to'g'ridan to'g'ri qo'llaniladigan muhim norma mustahkamlanmoqda. Insonning asosiy huquq va erkinliklarining bevosita amal qilishi deganda, shaxsning Konstitutsiyaga bevosita asoslanib, barcha qonuniy vositalardan foydalangan holda ularni himoya qilish imkoniyati tushuniladi.

Inson asosiy huquq va erkinliklarining bevosita amal qilishi ularni to'laqonli amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur norma, bir tomondan, shaxsning huquqiy maqomini mustahkamlash, kengaytirish va rivojlantirishni va ikkinchidan, shaxsning huquqiy himoyasi mexanizmini takomillashtirishni ta'minlaydi. Inson huquqlarining bevosita amal qilishi prinsipining umumqabul qilingan ta'rifi bo'lmasa-da, asosan inson huquqlarining amal qilishi alohida qonun, qoida qabul qilishga yoki maxsus organ tuzishga bog'liq bo'lmasligini nazarda tutadi.

Shundan kelib chiqib, ushbu prinsip Konstitutsiyaviy norma sifatida belgilanishi quyidagi imkoniyatlarni yaratadi: birinchidan, fuqarolarimiz uchun o'z huquqlarini bevosita himoya qilish imkoniyatini beradi; ikkinchidan, sudlar inson huquqlari himoyasiga oid muayyan ishlarni ko'rayotganda Konstitutsiyadagi inson huquqlariga oid normalarni to'g'ridan to'g'ri qo'llash imkoniyatini yaratadi; uchinchidan, barcha darajadagi davlat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari va ularning mansabdor shaxslari o'z faoliyatida inson huquqlariga bevosita amal qilish qoidasiga rioya qi-

lishi shartligini yana bir bor eslatib turadi. Mazkur Konstitutsiyaviy norma islohotlarning bosh maqsadi «inson qadri uchun» g'oyasini kundalik amaliyotimizda bosh qadriyatga aylantirishga, ya'ni insonning qadr-qimmatini, sha'ni va g'ururi bundan buyon barcha sohalar-da birinchi o'rinda turishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Qonunlar kimgadir ortiqcha majburiyat yoki xarajat yuklashi mumkin emas. Aksincha, qonunlar vositasida jamiyat huquqiy jihatdan tartibga solinadi, insonlar hayoti barqarorlashtiriladi va bir maromda davom etishi ta'minlanadi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning **20-moddasida** «Davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy ta'sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo'lishi kerak», degan qat'iy norma belgilanmoqda. Qonunlarning pirovard maqsadi ham inson, uning huquq va erkinliklarini himoya qilishdan iboratdir.

2. Konstitutsiyada belgilangan insonning asosiy huquq va erkinliklari

Inson huquqlari inson hayotining barcha jabhalarini qamrab oladi. Inson huquqlaridan amalda foydalanish har bir shaxsning o'z hayotini erkin qurishi va o'z taqdirini o'zi belgilashi, tenglik va inson qadr-qimmatini hurmat qilishga ko'maklashadi. Inson huquqlari fuqarolik va siyosiy huquqlar, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar, shuningdek, jamoaviy huquqlar majmuidir.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar sohasida:

- yashash huquqi;
- qiynoq, shafqatsiz, insoniylikka zid va shaxs qadr-qimmatini kamsituvchi muomala va jazo turlaridan erkin bo'lish huquqi;
- qullik, qaramlik va majburiy mehnatdan xalos bo'lish huquqi;
- ozodlik va shaxsiy xavfsizlik huquqi;
- ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarning insoniy muomalada bo'lishga bo'lgan huquqi;
- harakatlanish erkinligi;
- odil sudlovga bo'lgan huquq;
- orqaga qaytish kuchiga ega bo'lgan jinoyat qonunchiligi qo'llanilishining taqiqlanishi;
- qonun oldida inson sifatida tan olinishga bo'lgan huquq;

- shaxsiy daxlsizlik huquqi;
- fikrlash, vijdon va din erkinligi;
- qarashlar va soʻz erkinligi;
- urushning targʻib etilishi va milliy, irqiy hamda diniy adovatga daʼvat etishning taqiqlanishi;
- namoyishlar oʻtkazish huquqi;
- jamoalarga uyushish huquqi;
- turmush va oila qurish huquqi;
- davlat boshqaruvida ishtirok etish, saylash va saylanish, davlat idoralari xizmatidan foydalanish huquqi;
- kamsitilishlardan xoli boʻlish va qonun oldidagi tenglik huquqi.

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar sohasida:

- mehnat huquqi;
- ish jarayonida oqilona va adolatli shart-sharoitlar yaratib berilishiga boʻlgan huquq;
- kasaba uyushmalari tashkil etish va ularga birlashish huquqi;
- ijtimoiy taʼminot huquqi;
- oilaning himoya qilinishi;
- munosib turmush kechirish, xususan, yetarli oziq-ovqat, kiyim-kechak va uy-joyga ega boʻlish huquqi;
- tibbiy xizmatlardan foydalanish huquqi;
- taʼlim olish huquqi.

Jamoaviy huquqlar sohasida:

- xalqlarning oʻz taqdirini oʻzi belgilash huquqi;
- rivojlanish huquqi;
- oʻz tabiiy boyliklari va resurslaridan erkin foydalanish huquqi;
- tinchlikka boʻlgan huquq;
- ekologik toza atrof-muhitga boʻlgan huquq.

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida shaxsiy huquq va erkinliklar quyidagi tartibda belgilangan:

- yashash huquqi (25-modda);
- shaxsiy shaʼni va qadr-qimmatini himoya qilish (26-modda);
- shaxsiy erkinlik va daxlsizlik huquqi (27-modda);
- shaxsiy hayot daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy hayotiga aralashishdan, oʻz shaʼni va qadr-qimmatiga qilingan tajovuzlardan himoyalaniş huquqiga ega (31-modda);
- yozishmalar va telefonda soʻzlashuvlar sirini oshkor qilmaslik huquqi (31-modda);

- turar joy daxlsizligi huquqi (31-modda);
- oʻzi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqi (33-modda);
- muloqot, tarbiya, taʼlim va ijod qilishda oʻz ona tilidan foydalanish, tilni erkin tanlash huquqi (4-modda);
- erkin ravishda bir joydan ikkinchi joyga koʻchish, kelish joyini va yashash joyini tanlash huquqi (32-modda);
- vijdon va diniy eʼtiqod erkinligi huquqi (31-modda);
- fikrlash va soʻz erkinligi huquqi (35-modda).

Shaxsiy huquq va erkinliklar tartibi Konstitutsiyada yashash huquqi bilan boshlanadi. Bu asosiy, insonning tabiiy huquqi, uning xavfsizligi kafolatidir. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, davlat tomonidan inson hayoti uchun ijobiy muhitni yaratish va shaxs shaʼnini himoyalash majburiyatini koʻrsatadi. Konstitutsiyaga bunday tarbiyaviy-axloqiy omillarning kiritilishi amaliy maʼnoga ega, yaʼni shaxs gʻoyasini jamiyatning eng yuqori qadriyati sifatida eʼtirof etadi. Oʻlim jazosini, oliy jazo sifatida bekor qilinishi, inson huquqlarining xalqaro standartlari, Respublika qonunchiligida va amaliyotida qoʻllanilayotganligining yaqqol tasdigʻidir.

Oʻzbekiston Konstitutsiyasida oʻrnatilgan, huquq va erkinliklarning katta guruhi, shaxs erkinligi va daxlsizligini taʼminlashga yoʻnaltirilgan. Hibsga olish, qamoqda saqlash faqat sud qaroriga binoan amalga oshiriladi va sud qarori chiqarilgunga qadar gumonlanuvchi 72 soatdan oshmagan muddat davomida hibsdan saqlanishiga yoʻl qoʻyilishi mumkin. Har kim shaxsiy hayotining daxlsizlik huquqiga, shaxsiy va oilaviy sirlari daxlsizligiga, shaxsiy qadr-qimmatiga va obroʻsining daxlsizlik huquqiga ega. Bunga, yozishmalar, telefon soʻzlashuvlari, pochta, telegraf va boshqa xabarlarining sir saqlanishi, shuningdek uy-joy daxlsizligi ham kiradi.

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi barchaga soʻz va fikr erkinligiga kafolat beradi. Shu bilan bir qatorda diniy, ijtimoiy va milliy qarama-qarshiliklarni uygʻotuvchi targʻibot va tashviqot ishlarini qilishga, diniy, irqiy va milliy ustunliklarga yoʻl qoʻymaydi. Bu masalada hech kimga nisbatan majburlov qoʻllanilmaydi.

Erkinlik va shaxs daxlsizligi huquqi – inson tugʻilishi bilan qoʻlga kiritadigan eng muhim huquqlardan biri boʻlib, qonunga xilof boʻlmagan holda xohlagan faoliyat yuritish huquqidir. Konstitutsiyaviy erkinlik huquqi ijtimoiy tuhfalar ichida

eng qadrli huquqlardan biri bo'lib, nafaqat shaxsning talablarini har tomonlama qondiradigan, shart-sharoitlarini yaratadigan, balki jamiyatning demokratik rivojlanishini ta'minlaydigan huquqdir.

Erkinlik huquqi aniq qonun-qoidalar kompleksini o'z ichiga olib, shaxsiy hayotda amalga oshiriladigan (turar joy tanlash huquqi, bir joydan ikkinchi joyga ko'chish huquqi, faoliyat erkinligi va hokazo...), siyosiy hayotda (fikrlash erkinligi, so'z erkinligi va hokazo) va kasbda (mehnat erkinligi, ijod erkinligi va hokazo) tanlanadigan imkoniyatlarni aks ettiradi. Shaxsiy hayot daxlsizligi shaxsning individual hayotiga tashqaridan aralashmaslikni nazarda tutib, bunga fizik (hayot, inson sog'lig'i) daxlsizlik va psixik daxlsizlik (axloqiy, diniy – shaxs sha'ni va vijdoni). Shaxsiy daxlsizlik huquqi – Konstitutsiyada mustahkamlangan, har bir insonning subyektiv huquqi hamda uning erkinligi va xavfsizligiga kimningdir noqonuniy tazyiqidan davlat himoyasidir.

Har bir kishiga vijdon erkinligi, e'tiqod erkinligi, individual e'tiqod yoki ko'pchilik bilan xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslik kafolatlanadi.

Vijdon erkinligi – fuqaro tomonidan turli diniy qadriyatlardan birini tanlash erkinligini o'zida aks ettiradi hamda uning e'tiqod erkinligidan farqi, diniy va dinsiz ma'naviy qadriyatlardan birini tanlash erkinligidir.

Siyosiy huquq va erkinliklardan ko'zlangan asosiy maqsad fuqarolarga davlat ishlarida qatnashishga imkoniyat berishdir. Ular shaxs, jamiyat va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlaydi. Bu kabi huquqlarning yaxshi ta'minlanishiga, eng avvalo Konstitutsiyaviy tuzumning mustahkamligiga, siyosiy madaniyat darajasiga va ularning bu jarayonda ishtirok etishidagi qiziqishiga bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning quyidagi siyosiy huquq va erkinliklari aks etgan:

– davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ishtirok etish (36-modda);

– birlashishga bo'lgan huquq (39-modda);

– yig'ilish, miting va namoyishlar o'tkazish huquqi (38-modda);

– fuqarolarning murojaat qilish huquqi (40-modda).

Siyosiy huquq va erkinliklarning eng muhim tarkibiy qismi bu fuqarolarning birlashish huquqidir. U siyosiy par-

tiyalarga birlashishni, professional kasaba uyushmalariga birlashish va boshqa shu kabi birlashmalar tuzish huquqlarini o'z ichiga oladi. Konstitutsiyada jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylangan ko'p partiyaviylik va siyosiy xilma-xillik (plyuralizm) haqida aytib o'tilgan bo'lib, bunga misol tariqasida prezident va parlament saylovlarini olishimiz mumkin.

Axborot olishga bo'lgan huquq turlicha yo'llar bilan ro'yobga chiqarilishi mumkin: shaxslararo muomala vositasida (shuningdek, yig'ilishlarida, fuqarolarning yig'inlarida); bilvosita – axborotni moddiy tashuvchilar, o'quv muassasalari yordamida; ommaviy axborot vositalari yordamida (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 33-moddasi).

Ommaviy axborot erkinligi masalasida ko'pgina hollarda xalqaro huquqiy hujjatlarga nazar tashlangan.

Ma'lumotga bo'lgan huquq o'zida inson huquq va erkinliklarining 4-eng yosh avlodi sifatida talqin qilinadi.

Ma'lumot qidirish – bu joylashgan joyi noma'lum bo'lgan ma'lum bir ma'lumotni topishga qaratilgan harakatdir.

Ma'lumot olish – bu ma'lumot yuborish bo'lib unda subyekt ma'lumot olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ma'lumot tarqatish – ma'lumot oluvchilar sonini ko'paytirishga bo'lgan harakat.

Aynan gazeta, jurnal va televizion ko'rsatuvlar asosida odam hayoti davomidagi asosiy ma'lumotlarni oladi. Zamonaviy hayotda aynan ommaviy axborot vositalari odamlarda ma'lum bir fikr va qarashlarni shakllantiradi, shuning uchun shaxs rivoji nuqtayi nazaridan ommaviy axborot vositalarning erkinligi demokratik huquq va erkinliklar orasida asosiylaridan hisoblanadi. Bundan tashqari bu holatda nafaqat ma'lumot olish, balki to'g'ri ma'lumot olish masalasiga ham katta e'tibor qaratish kerak. Demokratik tizimni, siyosiy va madaniy plyuralizmni ta'minlashda ommaviy axborot vositalarining erkinligi muhim o'rin egallaydi.

Ijtimoiy va siyosiy hayotdagi asosiy huquqlardan biri birlashish huquqidir. Uning asosida fuqarolar ma'lum bir birlashmalarga va kasaba uyushmalariga birlashishi mumkin. U har bir fuqaroga jamiyat va davlat hayotida ishtirok etish imkoniyatini beradi. U turli xil birlashma va partiyalarning huquqiy asosini belgilaydi.

Bu huquq juda katta siyosiy, ijtimoiy va huquqiy ahamiyatga ega bo'lib, inson faoliyatida muhim o'rinni egallaydi. U fuqarolarga berilgan turli xil huquqlardan to'laligicha foydalanish imkoniyatini beradi. Uning asosida odamlar o'zlarining turli tuman muammolarini hal qilishi, ma'lum bir ehtiyojlarini qondirishi va himoya qilishi mumkin.

Ta'kidlash kerakki, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 12, 19, 21, 22-moddalarida insonning huquq va erkinliklariga nisbatan faqat qonunda nazarda tutilgan davlat xavfsizligini, jamoat tartibini, aholi salomatligi va ma'naviyatini yoki boshqalarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish uchun zarur bo'lgan cheklashlar qo'llanishi mumkinligi ko'rsatilgan. Konstitutsiyamizga kiritilayotgan o'zgartirishga ko'ra, fuqarolarning huquqlarini cheklash faqat qonun bilan belgilangan tartib va asosda amalga oshiriladi. Jamiyat manfaatlarini ko'zlagan holda inson huquq va erkinliklarini cheklash qonunda belgilangan tartib va asoslarga muvofiq amalga oshirilgandagina qonuniy hisoblanadi. Huquqlarni cheklash asoslari esa, avvalambor, jamoat xavfsizligi va tartibini ta'minlashga, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilishga yo'naltirilgan. Masalan, «Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida»gi Qonunga asosan 2020-yilda COVID-19 pandemiyasi tufayli O'zbekistonda karantin rejimi e'lon qilinib, aholining harakat erkinligi qat'iy cheklandi va bu cheklov aholi salomatligini saqlash, pandemiyaning keng tarqalishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida amalga oshirilgan edi. Ushbu normaning Konstitutsiyamizda aks ettirilishi belgilangan holatlarda individual huquqlar, ya'ni alohida shaxsga tegishli huquqlardan jamoaviy huquqlarni ta'minlash ustuvor ekanligini nazarda tutadi. Bunda aholi salomatligi, turli xil xavf-xatar va tahdidlardan xalqimizni himoyalash, barqaror rivojlanishni ta'minlash va farovonlikka erishish maqsadida bunday cheklovlar nazarda tutiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida quyidagi madaniy huquqlar mustahkamlangan:

— ijod qilish, madaniy hayotda ishtirok etish huquqi (53-modda);

— ta'lim olish huquqi (50-modda).

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 53-moddasida «Har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuq-

laridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi.

Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishi haqida g'amxo'rlik qiladi» deyilgan. Har qanday fuqaro madaniy sohada o'z qobiliyati va imkoniyatlarini ko'rsatish huquqlariga ega. Undan tashqari, fuqarolarning madaniy hayotda ishtirok etish erkinligi Fuqarolik kodeksida mustahkamlab qo'yilgan.

3. Inson o'z huquq va erkinliklarini himoya qilishga haqliligi

Mustaqil davlatning asosiy vazifalaridan biri o'z fuqarolarining demokratik huquq va erkinliklarini ta'minlash va uni qo'riqlashdir. Bu vazifa O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'zining huquqiy ifodasini topgan. Uning X bobi «Inson hamda fuqaroning huquq va erkinliklari kafolatlari»ga bag'ishlangan bo'lib, 43-moddasida: «Davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi», deyiladi. Bugungi kunda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash davlatning oliy maqsadi, deya e'lon qilingan. Inson huquq va erkinliklari qonunlarimizning, har bir vazirlik va idora faoliyatining mazmuniga aylanishi qat'iy talab sifatida belgilangan, bu hol davlat organlari hamda mansabdor shaxslarning faqat va faqat fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab faoliyat ko'rsatishiga asos bo'ladi.

Binobarin, qonunlardagi ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga hal bo'lishi shart va zarur. Bunga ko'ra, inson va davlat o'rtasida munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilikdagi noaniqliklar, turli tushunmovchiliklar bartaraf etiladi, fuqarolarning ortiqcha ovoragarchiliklari oldi olinadi.

Konstitutsiyada davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy ta'sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo'lishi kerakligi mustahkamlanmoqda. Qonunchilikda belgilanmagan majburiyat hech kimning zimmasiga o'z roziligisiz yuklatilishi mumkin emasligi qayd etilyaptiki, ushbu norma odamlar hayotini yanada yengillashtiradi.

Konstitutsiyada O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekistondan tashqariga majburiy chiqarib yuborilishi yoki boshqa davlatga berib yuborilishi mumkin emasligi belgilanmoqda.

Bu norma fuqarolarimizning doimiy ravishda davlat himoyasida ekanligiga ishonchini mustahkamlashga, o'z yurtidan chiqarib yuborilishi yoki boshqa davlatga berilishi kabi holatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Davlat xorijda yashayotgan vatandoshlar bilan aloqalarning saqlab qolinishi hamda rivojlanishi to'g'risida g'amxo'rlik qilishi ta'kidlanayotgani. Ushbu norma chet ellarda yashayotgan, ishlayotgan, ta'lim olayotgan vatandoshlarimizni Vatani bilan doimiy aloqada bo'lishiga, tili, madaniyatini saqlab qolish hamda rivojlantirishiga, ona yurti – O'zbekistonning obro'sini yanada oshirishga o'z hissasini qo'shishiga xizmat qiladi.

Birinchi marotaba har kim O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalaridan foydalanib bo'lingan bo'lsa, insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat etishga haqli ekanligi mustahkamlanmoqda. Bu fuqarolarning huquq va erkinliklari himoyasi nafaqat milliy qonunchilikda belgilangan normalar, balki xalqaro huquq asosida ham himoyalaniishini ta'minlaydi. Bulardan tashqari, har kim davlat organlarining yoxud ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararining o'rni davlat tomonidan qoplanishi huquqiga egaligi qayd etilmoqda.

Konstitutsiyada aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo'lsa, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerakligi qayd etilmoqda. Mazkur norma to'g'ridan to'g'ri amal qiluvchi qoida bo'lib, tergov va sud jarayonida faqat ishonchli va qonuniy dalillardan foydalanishni ta'minlaydi hamda shaxsni asossiz ravishda javobgarlikka tortilishdan himoya qiladi.

Qolaversa, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlashi shart emasligi mustahkamlanmoqda, hech kim o'ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emasligi belgilanmoqda. Bu qoidalarning Konstitutsiyada belgilanishi jinoyat ta'qib ostidagi har qanday shaxsga yoki uning yaqin qarindoshlariga ruhiy bosim va turli tahdidlar o'tkazish, uning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitish kabi boshqa noqonuniy usullar qo'llanishini oldini olishga xizmat qiladi.

Yana bir muhim norma – agar shaxsning o'z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo'lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emasligi kafolatlanmoqda. Bu hol jinoyat bo'yicha haqiqatni aniqlash, shuningdek, aybsiz insonlarning javobgarlikka tortilishini oldini olishga, ayni paytda, jinoyat sodir etgan haqiqiy aybdor shaxs yoki shaxslarni aniqlashga xizmat qiladi.

Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar o'ziga nisbatan insoniy muomalada bo'linishi hamda inson shaxsiga xos bo'lgan sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilinishi huquqiga egaligi ham tarixda ilk bor Konstitutsiyaviy mustahkamlanmoqda. Qolaversa, shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo'lishi mumkin emasligi belgilanayotgani, bularning hammasi mustabid tuzumdan qolgan illatga, qancha yoshlarimizni o'z orzu-umidlaridan voz kechishga majbur qilgan noinsoniy taqiqlarga chek qo'yadi.

Konstitutsiyada har kim o'z shaxsiga doir ma'lumotlarning himoya qilinishi huquqiga, shuningdek noto'g'ri ma'lumotlarning tuzatilishini, o'zi to'g'risida qonunga xilof yo'l bilan to'plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo'lmay qolgan ma'lumotlarning yo'q qilinishini talab qilish huquqiga ega ekanligi mustahkamlanmoqda.

Qonuniy asoslarda O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lib turgan har kim mamlakat bo'ylab erkin harakatlanish, turar va yashash joyini erkin tanlash huquqiga egaligi, har kim O'zbekistondan tashqariga erkin chiqish huquqiga hamda O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekistonga to'sqinliksiz qaytish huquqiga egaligi belgilanmoqda. Endilikda mazkur Konstitutsiyaviy qoida kiritilishi bilan erkin harakatlanish qadriyat darajasida oliy huquqiy norma sifatida mustahkamlanmoqdaki, bu «propiska» tizimi muammosiga ham barham berildi. Konstitutsiyada davlatning fuqarolarga Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratishi kafolatlangan.

Xulosa. Insonning huquq va erkinliklari Konstitutsiyaning o'zagini tashkil etadi va undagi qolgan barcha normalarni belgilashda asos bo'lib xizmat qiladi.

Konstitutsiyadagi ushbu qoidalar orqali O'zbekiston demokratik davlatlarda belgilangan normalarga muvofiq davlat tizimini tashkil etganligi va hamma narsa inson va uning manfaati uchun degan prinsipga rioya etilayotganligini ko'rsatadi.

Nazorat savollari:

1. «Inson huquq va erkinliklari» deganda nimani tushunasiz?
2. «Inson huquq va erkinliklari» bo'yicha qanday xalqaro va milliy qonunchilik hujjatlarini bilasiz?
3. Konstitutsiyada belgilangan insonning asosiy huquq va erkinliklari.
4. Inson o'z huquq va erkinliklarini himoya qilishda qaysi mexanizmlardan foydalanishi mumkin?
5. Konstitutsiyaning qaysi bobi «Inson hamda fuqaroning huquq va erkinliklari kafolatlari»ga bag'ishlangan va unda nima belgilangan?

3-mavzu. KONSTITUTSIYADA SURISHTIRUV, TERGOV VA SUD JARAYONIDA INSON HUQUQLARIGA OID MUHIM KAFOLATLAR

Reja:

1. Konstitutsiyada surishtiruv, tergov va sud jarayonida inson huquqlariga oid muhim kafolatlar to'g'risida tushuncha. (Xabeas korpusi to'g'risida tushuncha).
2. Konstitutsiyada shaxsning daxlsizlik huquqi to'g'risidagi norma.
3. Konstitutsiyada malakali yuridik yordam olish huquqi kafolati.

Tayanch so'z va iboralar: Konstitutsiya, huquq, gumonlanuvchi, ayblanuvchi, surishtiruv, tergov, sukut saqlash huquqi, Xabeas korpusi, hibsga olish, yuridik yordam.

1. Konstitutsiyada surishtiruv, tergov va sud jarayonida inson huquqlariga oid muhim kafolatlar to'g'risida tushuncha. (Xabeas korpusi to'g'risida tushuncha)

Konstitutsiyada surishtiruv, tergov va sud jarayonida inson huquqlariga oid kafolatlar borasida so'z borar ekan shu o'rinda Konstitutsiyaga kiritilgan ushbu muhim jihatlarga e'tibor qaratish lozim.

1. Shaxsni ushlab chog'ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shartligi.
2. Shaxs o'zining aybsizligini isbotlashi shart emas va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkinligi.
3. Aybdorlikka oid barcha shubhalar gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerakligi.
4. Agar shaxsning o'z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo'lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emasligi.
5. Shaxs o'ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emasligi.
6. Shaxs sudning qarorisiz qirq sakkiz soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emasligi.

7. Hibsga olish, qamoqqa olish va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko'ra yo'l qo'yilishi.

8. Yozishmalar, telefon orqali so'zlashuvlar, pochta, elektron va boshqa xabarlar sir saqlanishini cheklashga hamda uy-joyda tintuv o'tkazishga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo'l qo'yilishi.

9. Har kimga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda yuridik yordam davlat hisobidan ko'rsatilishi.

Ushbu o'zgarishlar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning uzviy, barqaror, muhim elementlaridan bo'lib u 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini «Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risidagi Prezident Farmonining 14-bandida jinoyatlarni tergov qilish jarayonida «Xabeas korpus» institutini qo'llash amaliyotini yanada kengaytirish maqsadida tintuv o'tkazish, telefon so'zlashuvlarini eshitib turish va mulkni xatlashga sanksiya berish vakolatini prokurorlardan sudlarga o'tkazish; jinoyat ishini sudlarga ayblov xulosasi (ayblov dalolatnomasi) va himoyachi fikri bilan birga taqdim etish tartibini joriy etish kabi masalalar belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-avgustdagi «Mulq huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo'l qo'ymaslik, xususiy mulkning kapitallashuv darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF–198-sonli Farmoni 6-bandining «g» kichik bandida gumon qilinuvchi, ayblanuvchining mulkiy huquqlariga nisbatan «Xabeas korpus» institutini, bunda, surishtiruvchi va tergovchining mol-mulkni xatlash bilan bog'liq qarorlarini ko'rib chiqish uchun sudga kiritish masalasi belgilangan.

«Xabeas korpusi» xalqaro darajada umume'tirof etilgan inson huquqlarini sud orqali himoya qilish bo'yicha muhim institutlardan biri sifatida shaxs erkinligini ta'minlashning o'ziga xos asosidir.

«Xabeas korpus» (lot. habeas corpus) – «tanani sudga keltirish», ya'ni ushlangan yoki hibsga olingan shaxsni adolatli sud muhokamasiga bo'lgan huquqi hisoblanib, ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olishga sanksiya berish, lavozimdan chetlashtirish va shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish tarzidagi protsessual majburlov

choralarning asoslilikiga faqat sud tomonidan baho berish amaliyotining joriy qilinishi, o'z navbatida, sudning mustaqilligi, xolisligi va beg'arazligini ta'minlashni, jinoyat protsessida tortishuv prinsipini kuchaytirishni nazarda tutadi.

«Xabeas korpus» instituti qo'llanishini yanada kengaytirish doirasida pochta-telegraf jo'natmalarini xatlab qo'yish va eksqumatsiya qilish kabi tergov harakatlarini o'tkazishga sanksiya berish bo'yicha vakolatlar prokuraturadan sudlarga o'tkazildi. Qamoq ehtiyot chorasining sudlar tomonidan qo'llanilishi amaliyotini keltiradigan bo'lsak, 2022-yilda tergov organlaridan sudlarga kelib tushgan jami 24 118 ta iltimosnomadan 23 503 tasi qanoatlantirilgan, 485 tasi esa rad etilgan, ya'ni 485 nafar shaxsga nisbatan asossiz ravishda qamoq ehtiyot chorasi qo'llanilishining oldi olingan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2022-yilning 20-iyun kuni Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvdagi nutqida «Xabeas korpus» institutini rivojlantirish zarur. Bu haqdagi muhim normani ham Asosiy qonunimizda aks ettirishimiz zarur. Bunday qoidalar inson, uning hayoti, huquq va erkinliklari – oliy qadriyat degan ezgu tamoyilga har tomonlama mos keladi», deb ta'kidladi. Shu maqsadda yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 27-moddasida «Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emas. Hibsga olishga, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko'ra yo'l qo'yiladi. Shaxs sudning qarorisiz qirq sakkiz soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emas. Shaxsni ushlab chog'ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shart», degan norma kiritildi.

Mazkur norma rivojlangan davlatlarning Konstitutsiyalarida mavjud va avvallari sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar fuqarolarni jazolovchi organ sifatida faoliyatini amalga oshirgan bo'lsa endilikda inson huquqlarini himoyalovchi, hurmat qiluvchi, poymol qilingan huquqlarni tiklovchi yondashuviga o'zgartiradi. Xususan, jinoyat protsessida fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishning huquqiy kafolatlarini yanada kuchaytirilishiga, sud-tergov jarayonlarida huquqni muhofaza qiluvchi organlarni noqonuniy harakatlardan tiyib turishga, shaxsning asossiz hibsga olinishi ho-

latlarini bartaraf etishga, shu orqali insonning ozodligini cheklash bilan bog'liq bo'lgan xatolarga yo'l qo'yilmasligiga hamda xalqimizning qonun ustuvorligi va sudlarga bo'lgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada – har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo'lish, o'z sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilinishi huquqi belgilandi. Mazkur ajralmas huquqlar borasida so'z ketganda, albatta, xalqaro darajada umume'tirof etilgan hujjat – shaxs erkinligini ta'minlash yo'lida o'ziga xos yangi davrga asos solgan «Xabeas korpus akt» instituti ahamiyatini e'tirof etish lozim. O'zbekistonda «Xabeas korpus» instituti 2008-yildan tatbiq etilgan bo'lib, uning qo'llash doirasi yillar davomida izchil kengaytirilib bormoqda, tergov jarayoni ustidan sud nazorati qat'iy ravishda kuchaytirilmoqda. Xususan, 2008–2016-yillarda qator protsessual majburlov choralarini (qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi, ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish, amnistiya aktini qo'llashga oid iltimosnomani ko'rib chiqish, uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasi) qo'llash vakolati sudlarga berilgan.

2017–2021-yillarda sud nazorati doirasi yanada kengaytirilib, shaxsning Konstitutsiyaviy huquqlarini cheklashga oid qator tergov va protsessual harakatlarga (pasportning amal qilishini to'xtatib turish, ayblanuvchining tibbiy muassasada bo'lishi muddatini uzaytirish, pochta-telegraf jo'natmalarini xatlab qo'yish, murdani eksqumatsiya qilish, qamoqda saqlash yoki uy qamog'i muddatini uzaytirish) sanksiya berish sudlar vakolatiga o'tkazildi.

Shuningdek, 2021-yilda ushlab turish muddati shaxs amalda ushlangan, ya'ni erkin harakatlanishga bo'lgan huquqlarning haqiqiy cheklangan paytdan e'tiboran ko'pi bilan qirq sakkiz soatni tashkil etishi belgilanishi «Xabeas korpus» institutining milliy qonunchiligimizda yanada mustahkam ifoda topishini ta'minladi.

Jinoyat ishi yurituvida shaxsiy daxlsizlik huquqlarini cheklashga oid bunday harakatlar ustidan sud nazorati o'rnatilgani jinoyat protsessida sudning tergov organlariga nisbatan mustaqilligi, xolisligi va beg'arazligi mohiyati bilan izohlanadi va jinoyat protsessida tortishuv prinsipini kuchaytirishni nazarda tutadi.

«Xabeas korpus akt» instituti doirasini kengaytirish jarayonining mantiqiy davomi sifatida endi xususiy mulk daxlsizligi va

shaxsiy hayot daxlsizligini cheklashga oid tergov harakatlarining barchasi (telefon va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali so'zlashuvlarni eshitib turish, tintuv, pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash, mol-mulkn xatlash) faqat sudning ruxsati bilan o'tkazilishi tartibi Konstitutsiyaviy darajada mustahkamlandi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga asosan mazkur huquqlarning cheklanishiga faqat qonunda belgilangan hollarda va tartibda, sudning qaroriga asosan yo'l qo'yiladi. Konstitutsiyaning yangi tahririga ko'ra, mazkur qoida bilan fuqarolarning shaxsiy hayot, uy-joy va xususiy mulk daxlsizligi huquqlari yanada mustahkamlandi.

Endi tergovchi, surishtiruvchi va prokuror tintuv o'tkazish, telefon so'zlashuvlarini eshitish va mulkn xatlash zaruratini sudga asoslantirishi kerak bo'ladi.

2. Konstitutsiyada shaxsning daxlsizlik huquqi to'g'risidagi norma

Shaxsning Konstitutsiyaviy daxlsizlik huquqini cheklashga oid bu harakatlar sud ruxsati bilan amalga oshirilishi natijasida tergov davrida fuqarolarning mulk, turar joy va shaxsiy hayotga oid ma'lumotlari daxlsizligi asossiz buzilishining oldi olinadi. Zero, sudning jinoyat ishi yuzasidan hech bir idoraviy yoki boshqa manfaati yo'q.

Daxlsizlik huquqlariga oid mazkur kafolatlar qator xalqaro hujjatlarda ham mustahkamlangan. Jumladan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 12-moddasida «hech kimning shaxsiy va oilaviy hayotiga o'zboshimchalik bilan aralashish, uy-joyi daxlsizligiga, uning yozishmalaridagi sirlarga yoki uning nomus va sha'niga o'zboshimchalik bilan tajovuz qilinishi mumkin emas»ligi belgilangan.

Fuqaroviy va siyosiy huquqlar bo'yicha xalqaro paktning 17-moddasida «hech kim o'zining shaxsiy va oilaviy hayotiga o'zboshimchalik yoki noqonuniy tarzda aralashishga, o'zining uy-joyi yoki yozishmalari siri daxlsizligiga o'zboshimchalik yoki noqonuniy tarzda tajovuz qilinishiga yoki uning or-nomusi va sha'niga noqonuniy tajovuz qilinishiga duchor etilishi mumkin emasligi va har bir inson xuddi shunday aralashuv yoki tajovuzlardan qonun orqali himoya etilish huquqiga ega»ligi e'tirof etilgan.

Shuningdek, 1950-yil 4-noyabrdagi Yevropa inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi konvensiyaning

8-moddasiga ko'ra, «har kim o'z shaxsiy va oilaviy hayoti, uy-joyi va yozishmalari hurmat qilinishi huquqiga egadir».

Mazkur kafolatlar rivojlangan davlatlar Konstitutsiyalarida ham mustahkamlangan. AQSh Konstitutsiyasining 6-qo'shimchasida hech bir shaxs qonuniy sudga ko'rilmay, hayoti, erkinligi yoki mulkidan mahrum etilishi mumkin emasligi belgilangan.

«Xabeas korpus» institutining mantiqiy izchillikda kengaytirilishi orqali shaxsiy hayot, xususiy mulk va uy-joy daxlsizligi himoyalaniishi hamda sudning qarorisiz mazkur huquqlardan mahrum etilishga yo'l qo'yilmasligining belgilanishi fuqarolarimizning daxlsizlik kafolatlari qat'iyligini mustahkamlaydi.

Shuningdek, mazkur Konstitutsiyaviy kafolatlar sud-tergov jarayonlarida huquqni muhofaza qiluvchi organlarni noqonuniy harakatlardan tiyib turishga, ular tomonidan fuqarolarning shaxsiy hayot daxlsizligiga oid huquqlarining o'zboshimchalik bilan buzilishiga yo'l qo'yimaslikka, shaxsning yashash joyiga asossiz kirish, uy-joy daxlsizligini buzish, fuqarolarni mulkidan asossiz mahrum etilishi holatlarini bartaraf etishga xizmat qiladi.

Eng muhimi, bu Konstitutsiyaviy yangilanishlar orqali tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov bosqichlarida shaxs huquqlariga oid tergov xatolariga yo'l qo'yilmasligi hamda fuqarolarimizning sudlarga bo'lgan qat'iy ishonchini oshirishga erishiladi.

Har kimga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari va boshqa tashkilotlar mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqining kafolatlanishi odil sudlovning ajralmas elementi hisoblanadi. Konstitutsiyaning 55-moddasida «Har kim o'z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli. Har kimga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi. Har kimga buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash uchun uning ishi qonunda belgilangan muddatlarda vakolatli, mustaqil hamda xolis sud tomonidan ko'rib chiqilishi huquqi kafolatlanadi. Har kim O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalaridan foydalanib bo'lingan bo'lsa, in-

sonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat etishga haqli. Har kim davlat organlarining yoxud ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararining o'rni davlat tomonidan qoplanishi huquqiga ega.» deb insonning buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash huquqini samarali amalga oshirishga qaratilgan norma mustahkamlandi.

Ushbu norma har kimga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqini kafolatlaydi.

Avvalgi tahrirda faqat davlat organlari va jamoat tashkilotlarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilishni nazarda tutsa, endilikda boshqa tashkilotlar, jumladan xususiy tashkilotlarni ham qamrab olmoqda. Bundan tashqari, ushbu tashkilotlarning nafaqat g'ayriqonuniy xatti-harakatlari, balki g'ayriqonuniy qarorlari ustidan ham sudga shikoyat qilish imkoniyati berildi.

Har kimga buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash uchun uning ishi qonunda belgilangan muddatlarda vakolatli, mustaqil hamda xolis sud tomonidan ko'rib chiqilishi huquqini kafolatlovchi norma belgilanmoqda.

Har qanday shaxs buzilgan huquqi yoki qonuniy manfaatini himoya qilish uchun qonunda belgilangan tartibda to'g'ridan to'g'ri umumyurisdiksiya yoki ma'muriy sudga murojaat qilish huquqiga egaligining Konstitutsiyaviy kafolatlanishi inson huquqlari himoyasini yanada kuchaytirdi. Ushbu himoyaning samaradorligini ta'minlash uchun esa sudlar shikoyatlarni qat'iy protsessual tartib-qoidalarga tayanib, oqilona muddatlarda, tenglik, tortishuv va adolat prinsiplari asosida ko'rib chiqishlari lozim. Bunday normalar Italiya, Portugaliya, Serbiya kabi davlatlar Konstitutsiyalarida mustahkamlangan.

Ushbu o'zgarishlar inson huquqlarini sud orqali himoya qilish doirasini kengaytirishga, nafaqat davlat organlari, balki boshqa xususiy tashkilotlar tomonidan inson huquqlarini buzish holatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Har kim o'z huquqlari va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining va boshqa tashkilotlarning, mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi. Shuningdek, har bir shaxs O'z-

bekiston Respublikasining qonunchiligi va xalqaro shartnomalariga muvofiq, o'z huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar tomonidan himoya qilinishi uchun murojaat qilishga haqli ekanligi nazarda tutiladi.

«Har kim o'z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli», degan norma mustahkamlandi. Ushbu qoidaning mazmun-mohiyati shundaki, fuqarolar o'z buzilgan huquq va erkinliklarini, o'z galar huquqlarini buzmaganda holda, mustaqil himoya qilish huquqiga ega. Mazkur huquqni amalga oshirishning yagona sharti – bu fuqarolar tomonidan o'zini himoya qilishda qo'llaniladigan usullar yoki choralarning qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan bo'lishidir. Masalan, Jinoyat-protsessual kodeksiga ko'ra, surishtiruvchi va tergovchi jinoiy ta'qib ostidagi shaxsning ayblovdan himoyalaniishi huquqini ta'minlash doirasida qonunda ko'zda tutilgan barcha usul va vositalardan foydalanishi uchun real imkoniyat yaratishi shart. Lekin aslida xalqaro standart mazmuniga binoan, shaxs o'zini qonunda taqiqlanmagan har qanday usul va vositalar orqali himoyalashi mumkin. Ya'ni bunda «nimaiki qonun bilan taqiqlanmagan bo'lsa, bunga ruxsat berilgan» xalqaro qoidasi amal qiladi.

Mazkur normaga o'xshash qoidalar Ruminiya, Indoneziya kabi davlatlar Konstitutsiyalarida ham o'z aksini topgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga bunday norma kiritilishi, o'z navbatida, buzilgan huquqni qonun bilan taqiqlanmagan har qanday usullar bilan, o'z galarining huquq va manfaatlariga daxl qilmagan holda himoya qilishni hamda har bir fuqaroning o'ziga tegishli bo'lgan shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy huquqlarini himoya qilish, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini ta'minlashga xizmat qiladi.

3. Konstitutsiyada malakali yuridik yordam olish huquqi kafolati

Mamlakatimizda fuqarolarning huquq, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, xususan, ularning malakali yuridik yordamga bo'lgan huquqini ta'minlashga qaratilgan ko'plab ishlar amalga oshirildi. Konstitutsiyaning 29-moddasida «Har kimga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda yuridik yordam davlat hisobidan ko'rsatiladi. Har

bir shaxs jinoyat protsessining har qanday bosqichida, shaxs ushlanganida esa uning harakatlanish erkinligi huquqi amalda cheklangan paytdan e'tiboran o'z tanloviga ko'ra advokat yordamidan foydalanish huquqiga ega. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi ayblovning mohiyati va asoslari to'g'risida xabardor qilinish, unga qarshi yoki uning foydasiga guvohlik berayotgan shaxslarning so'roq qilinishini talab etish, tarjimon yordamidan foydalanish huquqiga ega. Qonunni buzgan holda olingan dalillardan odil sudlovni amalga oshirish chog'ida foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. Jinoyat uchun hukm qilingan har kim qonunda belgilangan tartibda hukmning yuqori turuvchi sud tomonidan qayta ko'rib chiqilishi huquqiga, shuningdek afv etish yoki jazoni yengillashtirish to'g'risida iltimos qilish huquqiga ega. Huquqbuzarliklardan jabrlanganlarning huquqlari qonun bilan muhofaza qilinadi. Davlat jabrlanganlarga himoyalaniшни va odil sudlovdan foydalanishni ta'minlaydi, ularga yetkazilgan zararining o'rni qoplanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi», deb belgilandi. Mazkur norma jinoyat protsessida advokat yordamidan foydalanish huquqini kafolatlabdi. Advokat yordamidan foydalanish uchun, eng avvalo, professional advokatlar korpusining mavjudligi talab etiladi. Bugungi kunda mamlakatimizda 4500 nafardan ortiq advokat faoliyat yuritmoqda. Eng muhimi, jamiyatda advokat xizmatiga ehtiyojning va aholi huquqiy madaniyati darajasining ortib borishi kuzatilmoqda. Jinoyat protsessining har qanday bosqichida advokat yordamidan foydalanish deganda, advokat tomonidan tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov, birinchi instansiya sudida, hukmni ijro etish, apellyatsiya va kassatsiya tartibida ishlarni ko'rib chiqishda jinoiy ta'qibga olingan shaxs, jabrlanuvchi, guvoh va boshqa shaxslarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilinishi tushuniladi. Shaxs ushlanganida uning harakatlanish erkinligi huquqi amalda cheklangan paytdan e'tiboran o'z tanloviga ko'ra advokat yordamidan foydalanish huquqi ta'minlandi. Ya'ni ushbu norma jinoyatni sodir etishda gumon qilingan shaxs jinoyat ustida yoki bevosita uni sodir etganidan keyin qo'lga tushsa, unga nisbatan noqonuniy yoki asossiz ayblov qo'yilishidan, turli bosimlardan himoya qilishga yo'naltirilgan. Shuningdek, shaxs o'z tanloviga ko'ra, ya'ni advokat yordamidan foydalanishi yoki bunday yordamdan voz kechishi mumkin. Agar shaxsda advokat xizmatidan foydalanish istagi bo'lsa-da, bunga moddiy imkoniyati

bo'lmasa, davlat hisobidan himoyalaniş huquqi ta'minlanishi kafolatlanmoqda Amaldagi qonunchiligimizga muvofiq bugungi kunda bepul yuridik yordam asosan jinoyat-protsessual qonunchiligi doirasida ko'rsatiladi. Fuqarolik ishlari, mehnat nizolari va boshqa yo'nalishlarda davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatilmaydi.

Fuqarolarimizning huquq va erkinliklari yanada ishonchli ta'minlanishiga, ularga nisbatan turli bosim va noqonuniy harakatlar sodir etilishining hamda asossiz ayblovning oldi olinishiga xizmat qiladigan ushbu norma fuqarolik, mehnat va boshqa sudlarga ham joriy etildi. Inson sha'ni va qadr-qimmatini daxlsizligi oliy qadriyat bo'lib, huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyatida uni amalda ta'minlash muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yilning 20-iyun kuni Konstitutsiyaviy komissiya bilan uchrashuvda ta'kidlaganidek: «Inson qadrini yuksaltirish haqiqatda davlat hokimiyati organlarining Konstitutsiyaviy burchi va ustuvor vazifasi bo'lmog'i shart». Shu nuqtayi nazardan, yangi tahrirdagi Konstitutsiya 26-moddasida insonning sha'ni va qadr-qimmatini daxlsizdir, degan insonparvar norma mustahkamlanmoqda. Inson sha'ni – bu insonning boshqa odamlar oldida o'z ahamiyatini anglashi yoki insonning ma'naviy obro'sidir. Inson qadr-qimmatini – bu shaxsning o'zini-o'zi hurmat qilishi, jamiyat a'zosi sifatida o'z mavqei va ahamiyatini anglashidir. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948-yil), Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (1966-yil), Qiynoqlarga hamda muomala va jazolashning boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan turlariga qarshi Konvensiya (1984-yil) kabi xalqaro hujjatlarga asosan inson sha'ni va qadr-qimmatini kamsitadigan, uning or-nomusi, shaxsiy hayotiga taalluqli ma'lumotlar oshkor bo'lishiga olib keladigan, hayoti va sog'ligini xavf ostiga qo'yadigan, unga jismoniy, ma'naviy yoki ruhiy azob-uqubat yetkazadigan harakatlar qilish taqiqlanishi shaxs sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishning asl mohiyatini tashkil etadi. Davlat organlari, mansabdor shaxslar, ayniqsa, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari o'z faoliyatida har qanday holatda ham inson sha'ni, or-nomusi, va qadr-qimmatiga daxl qilmasligi, kamsitmasligi, aksincha, ularga insoniy munosabatda bo'lishlari lozim. Masalan, shaxsiy tintuv o'tkazilayotgan shaxs bilan bir jinsdagi surishtiruvchi yoki tergovchi tomo-

nidan mutaxassis hamda xolislar ishtirokida o'tkazilishi ham inson sha'ni va qadr-qimmatini ta'minlashga qaratilgan maxsus qoida hisoblanib, uni buzish tegishli javobgarlikka sabab bo'ladi.

Shu nuqtayi nazardan, milliy qonunchilikda inson sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi sodir etilgan huquqbuzarlik uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik belgilangan bo'lsa, fuqarolik qonunchiligida esa ularga yetkazilgan zararni qoplashga doir maxsus normalar nazarda tutilgan.

AQSh, Germaniya, Fransiya, Ispaniya kabi davlatlar Konstitutsiyalarida ham inson sha'ni va qadr-qimmatining daxlsizligini himoya qiluvchi alohida normalar o'z ifodasini topgan. Ushbu normaning Konstitutsiyaga kiritilgani inson qadri yuksalayotgan Yangi O'zbekistonda har bir insonning sha'ni va qadr-qimmatini to'g'ridan to'g'ri Konstitutsiya himoyasi ostida ekanligini anglatuvchi mexanizmligini anglatadi.

Nazorat savollari:

1. «Xabeas korpus» instituti nima?
2. Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi, ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish, amnistiya aktini qo'llashga oid iltimosnomani ko'rib chiqish, uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasi qaysi vakolatli organ tomonidan amalga oshiriladi?
3. Daxlsizlik huquqlariga oid kafolatlar qanday xalqaro hujjatlarda o'z aksini topgan?
4. Malakali yuridik yordamga bo'lgan huquqini ta'minlash Konstitutsiyaning qaysi moddasida mustahkamlangan?

4-mavzu. KONSTITUTSIYADA GUMON QILINUVCHI, AYBLANUVCHI YOKI SUDLANUVCHINING HUQUQLARIGA OID MUHIM QOIDALAR

Reja:

1. Konstitutsiyada gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining huquqlariga oid muhim qoidalar inson huquqlari himoyasiga oid normalar.

2. Shaxsning sukut saqlash huquqi. Shaxsni ushlab turish chog'ida unga huquqlari va ushlab turish asoslarining tushuntirilishi – «Miranda qoidasi».

3. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi va mahkumning huquqiy himoyasini ta'minlashda aybsizlik prezumpsiyasi.

Tayanch so'z va iboralar: Konstitutsiya, huquqiy davlat, huquq, inson huquqlari, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, guvoh, Miranda qoidasi, sukut saqlash huquqi.

1. Konstitutsiyada gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining huquqlariga oid muhim qoidalar inson huquqlari himoyasiga oid normalar

Davlatimiz rahbari 2022-yil 20-iyunda Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvdagi nutqida ta'kidlaganidek: «Prezident Xalq qabulxonalariga kelayotgan ko'plab murojaatlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, huquq-tartibot organlari tomonidan shaxs qo'lga olinganida, u nima uchun ushlangani va qanday huquqlarga ega ekani tushuntirilmaydi. Natijada gumon qilinuvchining huquqlari ushlangan dastlabki vaqtdayoq xavf ostida qoladi. Bunday holatlarning oldini olish maqsadida ko'plab davlatlarning Konstitutsiya va qonunlarida hamda inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlarda aks ettirilgan «Miranda qoidasi»ni qo'llash lozim. Ya'ni shaxsni ushlash chog'ida uning huquqlari va nima sababdan ushlangani sodda tilda tushuntirishi shart. Ana shu qoidani Konstitutsiyamizda muhrlab qo'yishning vaqt-soati keldi».

«Miranda qoidasi»ning Konstitutsiyaviy mustahkamlanishi jinoyat ishi xolis tergov qilinishi va tergov organlari tomonidan har

qanday g'ayriqonuniy harakatlar va taqiqlangan usullar qo'llanilishining oldini oladi. Mazkur qoidaga ko'ra, shaxsning huquqlari u yaxshi tushunadigan tilda tushuntirilishi talab etiladi. Bu aynan uning ona tili bo'lishi shart bo'lmay, shaxs odatda muloqot qiladigan va yaxshi tushunadigan til bo'lishi kerak. Ushbu qoida ushlangan shaxsning huquqlari real ta'minlanishini kafolatlaydi va unga nisbatan tergov organlari tomonidan aldov, noto'g'ri ma'lumot berish va boshqa har qanday qonunga xilof usullar qo'llanilishiga yo'l qo'ymaydi.

Konstitutsiyada gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining huquqlariga oid muhim huquqlar inson huquqlari himoyasiga oid qator progressiv kafolatlar kiritildi. Bu borada asosiy g'oya, ya'ni inson huquq va erkinliklari ustuvorligi – huquqiy davlatning oliy maqsadi, deb e'tirof etilishi g'oyasi yotadi.

1. Har bir shaxs jinoyat protsessining har qanday bosqichida o'z tanloviga ko'ra advokat yordamidan foydalanish huquqiga ega.

2. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi ayblovning mohiyati va asoslari to'g'risida xabardor qilinish huquqiga ega.

3. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi unga qarshi yoki uning foydasiga guvohlik berayotgan shaxslarning so'roq qilinishini talab etish huquqiga ega.

4. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi tarjimon yordamidan foydalanish huquqiga ega.

5. Qonunni buzgan holda olingan dalillardan odil sudlovni amalga oshirish chog'ida foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

6. Jinoyat uchun hukm qilingan har kim qonunda belgilangan tartibda hukmning yuqori turuvchi sud tomonidan qayta ko'rib chiqilishi huquqiga ega.

7. Jinoyat uchun hukm qilingan har kim afv etish yoki jazoni yengillashtirish to'g'risida iltimos qilish huquqiga ega.

8. Huquqbuzarliklardan jabrlanganlarning huquqlari qonun bilan muhofaza qilinadi. Davlat jabrlanganlarga yetkazilgan zararining o'rni qoplanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi.

9. Hech kim ayni bir jinoyat uchun takroran hukm qilinishi mumkin emas.

«Miranda qoidasi» deyarli barcha rivojlangan davlatlarda amal qiladigan, jinoyat sodir etishda gumon bilan ushlangan shaxs huquqlarining asosiy kafolati hisoblanadi.

Bu qoida AQShda birinchi bor kiritilgan yuridik talab bo'lib, unga binoan, har qanday politsiya xodimi ushlab vaqtida shaxsga uning protsessual huquqlarini tushuntirishi va, albatta, ushlangan shaxsdan mazkur tushuntirishlar mohiyatini anglagani borasida ijobiy javob olishi talab etiladi.

Xususan, shaxs jinoyat sodir etishda gumonlanib, ushlangan vaqtida quyidagilardan aniq xabardor etilishi shart:

- sukut saqlash huquqiga egasiz, aytgan har qanday gapingiz sudda sizga qarshi ishlatilishi mumkin;
- advokat bilan maslahatlashingiz mumkin va bu advokat birinchi so'roq davomida ishtirok etishi mumkin;
- agar advokat yollash uchun imkoniyatingiz bo'lmasa, sizga bepul ravishda advokat xizmati ta'minlanadi.

Aytish kerakki, shaxsni ushlab vaqt odatda jinoyat ishi yurituvining dastlabki nuqtasi hisoblanadi va aynan mana shu vaqtda shaxs noqonuniy jinoiy ta'qib va g'ayriqonuniy harakatlarga duchor etilishi ehtimoli katta.

Ushlangan shaxs o'z protsessual huquqlarini yaxshi bilmagan sharoitda u tergov organlari tomonidan aybiga iqrorlik yoki o'ziga qarshi ko'rsatmalar berishga majburlanishi xavfi mavjud. Aynan protsessual ushlab vaqtida inson ruhan stress holatida bo'ladi va huquqiy ko'makka ayniqsa muhtojdir, chunki u bunday murakkab vaziyatda jinoyatda aybi borligini isbotlash majburiyati uning emas, aksincha, butunlay tergov organlariga yuklatilganini anglay olmaydi. Sukut saqlash huquqi esa gumonlanayotgan shaxsga o'zining jinoyat sodir etishda aybini isbotlash jarayonida ishtirok etmaslik imkoniyatini kafolatlaydi.

Aytish kerakki, «Miranda qoidasi» qisman bo'lsa-da, milliy jinoyat ishlari yurituvida ko'zda tutilgan. Xususan, Jinoyat-protsessual kodeksining 46-moddasiga binoan, shaxs o'zining ko'rsatmalaridan jinoyat ishiga doir dalillar sifatida uning o'ziga qarshi foydalanilishi mumkinligi haqida xabardor bo'lishi va nimada ayblanayotganini bilish huquqiga egadir. Shuningdek, mazkur normada shaxsga o'zining aybdor emasligini yoki ishning boshqa biror holatlarini isbotlash majburiyati yuklanishi mumkin emasligi kafolatlangan.

Bundan tashqari, ayblanuvchi yoki gumonlanuvchi o'ziga qo'yilgan ayblov yo gumon xususida hamda ishning boshqa har qanday holatlari to'g'risida ko'rsatmalar berish yoxud ko'rsatmalar berish-

dan bosh tortishga haqlidir. Shuningdek, u ko'rsatmalaridan jinoyat ishiga doir dalillar sifatida o'ziga qarshi foydalanilishi mumkinligi haqida xabardor bo'lish huquqiga ham ega.

Shu bilan birga, bugungi kunda jinoyat protsessida shaxs huquqlarini yanada ishonchli himoyalash bilan bog'liq xalqaro standartlarni Konstitutsiyaviy mustahkamlash zarurati katta. Xususan, «Miranda qoidasi»ning Konstitutsiyaviy ravishda belgilanishi jinoiy ta'qib ostiga olingan shaxslar, gumon qilinuvchi va ayblanuvchilar huquqlarini ta'minlovchi real kafolat bo'lib xizmat qiladi.

Odatda inson o'z protsessual huquqlarini jinoyat sodir etishda gumonlanib ushlanganida, ya'ni murakkab vaziyatga tushganidan keyin bilishga intiladi, qachonki shunday Konstitutsiyaviy huquqi bor ekanini ayblov e'lon qilib bo'linganidan keyin emas, aksincha, bundan avval bilishi va uni ta'minlanishini talab etishi zarur.

Inson huquqlariga oid prinsiplar o'tgan asrning jinoyat-protsessual kodekslarida belgilangan. Lekin, shubhasiz, o'sha davrda ular deklarativ ravishda, faqat qog'ozda bo'lgan. Inkvizitsiyaviy jinoyat protsessida isbotlashning eng samarali yo'li aybiga iqrorlik ko'rsatmalarini olish hisoblanardi. Bu yo'lda har qanday usullar o'zini oqlaydi, degan repressiv qoida amal qilardi. Aynan ana shu og'ir tarixiy davrlarni boshidan kechirgan xalqimizda jinoyat tergov haqida so'z borganda hali-hanuz quyidagi stereotip fikrlash saqlanib qolgan: «tergov organlariga kuning tushmasin, tushsa tamom, qutula olmaysan, tergov nima desa, shuni qilishga majbur bo'lasan». Shubhasiz, bunday stereotiplardan batamom voz kechishimiz zarur, zero, ular odil sudlov prinsiplariga mutlaqo ziddir.

2. Shaxsning sukut saqlash huquqi. Shaxsni ushlab turish chog'ida unga huquqlari va ushlab turish asoslarining tushuntirilishi – «Miranda qoidasi»

Shaxsning sukut saqlash huquqi inson huquqlariga oid nufuzli xalqaro hujjatlarda ham aks etgan. Mazkur kafolat Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 14-moddasidagi «o'zi o'ziga qarshi ko'rsatuv berishga yoki o'zini aybdor deb tan olishga majbur qilinmaslik» qoidasida yanada rivojlantirilgan.

Masalan, AQSh Konstitutsiyasi 5-qo'shimchasida birorta shaxs hech bir jinoyat ishi bo'yicha o'ziga qarshi ko'rsatma berishga majbur qilinishi mumkin emasligi belgilangan.

Buyuk Britaniyada ushlab va hibsga olishga oid alohida qonunga binoan, politsiya xodimi shaxsni ushlagan vaqtda: «Siz biror narsa gapirishga majbur emassiz. Lekin keyinchalik sudda aytishni ko'zlayotgan gapingizni so'roq vaqtida aytmasangiz, bu sizning himoyalashingizga zarar berishi ehtimoli bor. Nimaiki gapirsangiz, barchasi dalil sifatida ishlatilishi mumkin», deya shaxsga huquqlarini tushuntiradi.

Yevropa Ittifoqi davlatlarida esa universal shakl – ushlangan shaxslarga ushlanishi bilan darhol qo'lga protsessual huquqlariga oid xabarnoma topshiriladi, bu tartib Yelga a'zo deyarli barcha davlatlarida amal qiladi.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlab berishga majbur emas va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkin. Bu yangi Konstitutsiyaviy qoida nimaning anglatadi? Jinoyat bo'yicha isbotlash majburiyati alohida mas'ul mansabdor shaxslarga yuklatilgan. Ya'ni dastlabki tergovda shaxsga nisbatan ayblov tergovchi tomonidan e'lon qilinadi, sud muhokamasida esa ayblovni davlat ayblovchisi qo'llab-quvvatlaydi. Aynan shuning uchun ham shaxsning aybli yoki aybsizligini isbotlash faqat mazkur mansabdor shaxslar zimmasida. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi isbotlash jarayonida ishtirok etishga majbur emas. Agar istasa, shaxs ushlangan vaqtdan to hukm chiqarilgunga qadar umuman sukut saqlashi mumkin – bu uning huquqi.

Ya'ni jinoyatda gumonlanayotgan yoki ayblanayotgan shaxs tergovchiga «Aybdor yoki aybsizligimni isbotlashga majbur emasman, bu sizning majburiyatingiz!» deyishga to'la haqlidir. Albatta, oddiy turmushimizda bunday vaziyatni tasavvur qilishimiz ancha mushkul. Lekin aslida aybsizlik prezumpsiyasining mazkur qoidasi har bir shaxsga aynan shunday dadil pozitsiyada bo'lishni kafolatlaydi.

Tergov amaliyoti ko'rsatadiki, odatda shaxs ushlanganda yoki unga nisbatan jinoyat ishi ochilganda u og'ir ruhiy holatga tushadi, o'zini yo'qotib qo'yadi va o'z huquqlarini to'liq ang'ay olmaydi. Bunday murakkab ruhiy holatda jinoyatda aybi borligini isbotlash o'zining emas, tergov organlarining vazifasi ekanini tushunmagan fuqarolarimiz o'ziga qarshi ko'rsatmalar berishi, afsuski, hayotimizda ko'plab uchraydigan holatdir.

Aynan shuning uchun ham shaxs o'zining aybsizligini isbotlab berishi shart emasligi va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foyda-

lanishi mumkinligi qoidasining Konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishi tergov organlari tomonidan shaxsni majburlash yoki unga har qanday bosim o'tkazish kabi salbiy holatlardan himoya qiladi.

Shaxsni ushlab turish chog'ida unga huquqlari va ushlab turish asoslarining tushuntirilishi («Miranda qoidasi») xalqaro huquqda umume'tirof etilgan norma bo'lib, surishtiruv, tergov va sud jarayonlarida qonun buzilishiga yo'l qo'ymaslikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Shu ma'noda Konstitutsiyaning 27-moddasida «Shaxsni ushlab turish chog'ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shart», degan norma belgilandi.

«Miranda qoidasi» o'z tarixiga ega. 1966-yilda jinoyat sodir etgan E. Mirandani hibsga olgan AQSh Arizona shtati politsiyasi uni so'roq qilishdan avval gumon qilinuvchi sifatida huquqlari tushuntirilmaganligi tufayli, keyinchalik uning aybga iqrorligi to'g'risidagi ko'rsatmasi asosida chiqarilgan hukm AQSh Oliy sudida bekor bo'lgan. «Miranda qoidasi»ga (inglizcha: Miranda warning) binoan shaxsni ushlab turish chog'ida uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi, ayblanuvchi ayblovning mohiyati va asoslaridan xabardor qilinishi, shuningdek, sukut saqlash huquqidan foydalanishi, jinoyat ishlarida o'ziga qarshi guvohlik berishga majbur qilinmasligi, malakali yuridik yordam ta'minlanishi talab etiladi. Ko'pchilik fuqarolarimiz tergov organlari tomonidan kimdir qo'lga olinganida, u nima uchun ushlanganligi aytilmasligidan, aytilganida ham ushlab turish sabablari va aybnomaning asl ma'nosini tushunmasligidan shikoyat qiladilar. Ayrim hollarda, ushlangan shaxs o'z huquqlarini bilmagan sharoitda tergov organlari tomonidan aybiga iqrorlik ko'rsatmalari berishga majburlanishi xavfi mavjud. Aynan protsessual ushlab turish vaqtida inson og'ir ruhiy holatga tushadi va huquqiy yordamga ayniqsa muhtojdir, chunki u bunday murakkab vaziyatda jinoyatda aybdor yoki aybsizligini isbotlash majburiyati unga emas, aksincha, tergov organlariga to'liq yuklatilganligini ang'ay olmaydi. Muhimi, mazkur qoidaga ko'ra, shaxsning huquqlari u yaxshi tushunadigan tilda tushuntirilishi va bu til aynan uning ona tili bo'lishi shart bo'lmay, shaxs odatda muloqot qiladigan va yaxshi tushunadigan til bo'lishi talab etiladi. Shu nuqtayi nazardan, ushbu qoida ushlangan shaxsga uning huquqlari real ta'minlanishini kafolatlaydi va unga nisbatan tergov organlari tomonidan aldov, noto'g'ri ma'lumot berish va boshqa har qanday qonunga xilof usul-

lar qo'llanilishining oldini oladi. «Miranda qoidasi»ning mazkur talabi Ispaniya, Gretsiya, Niderlandiya, Xorvatiya, Sloveniya va boshqa bir qator davlatlar Konstitutsiyalarida mustahkamlangan. Ushbu qoidaning Konstitutsiyaga kiritilishi shaxsning asossiz ushlanishi, advokat ishtirokisiz yoki o'ziga qarshi ko'rsatma berishga majbur qilinishining oldini oladi. Ayniqsa, o'z huquqlarini yaxshi bilgan va talab qiladigan insonlarga nisbatan tergov vaqtida zo'rvonlik yoki qonunga xilof harakatlar qilish ehtimoli yanada pasayadi.

3. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi va mahkumning huquqiy himoyasini ta'minlashda aybsizlik prezumpsiyasi

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi va mahkumning huquqiy himoyasini ta'minlashda aybsizlik prezumpsiyasi muhim ahamiyatga ega. Shu bois Konstitutsiyaning 28-moddasida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi va mahkumning huquqiy himoyasini kuchaytirishga qaratilgan quyidagi kafolat belgilandi:

«aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo'lsa, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerak». Ta'kidlash lozimki, muayyan jinoyat ishi bo'yicha surishtiruvchi, tergovchi tergov harakatlari, sud esa sud tergov orqali dalillar to'playdi. Ayrim holatlarda to'plangan dalillarni baholashda ularga nisbatan shubha paydo bo'lishi mumkin. Bunda, shubhalar ayblov tomonga ishlatilishi kerakmi yoki himoya foydasigami, degan savol yuzaga keladi. Konstitutsiyadagi ushbu insonparvar yangi norma bunday vaziyatda aybdorlikka oid barcha shubhalar gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi va mahkumning foydasiga hal qilinishi qat'iy mustahkamlandi. Shaxsni aybli ekanligiga oid har qanday shubhalar, shuningdek ayblash uchun yetarli bo'lmagan ma'lumotlar asosida shaxsni javobgarlikka tortish mumkin emas. Tergovda shubha ostidagi dalillar asosida ayb e'lon qilingan bo'lsa ham, bunday vaziyatda shaxsni aybini tasdiqlovchi dalillarning yetarli emasligi tufayli sudda unga nisbatan oqlov hukmi chiqariladi. Ya'ni «isbotlanmagan ayb – isbotlangan aybsizlikka teng», degan qoida amal qiladi. Aytish mumkinki, mamlakatimiz sudlari tomonidan so'nggi 6 yilda 4 ming 700 nafardan ortiq fuqaro oqlangan. Bunday normalar Ozarbayjon, Chexiya, Gruziya, Xorvatiya, Yapo-

niya, Slovakiya va boshqa davlatlar Konstitutsiyalarida o'rin olgan. Konstitutsiyaga kiritilgan mazkur normalar to'g'ridan to'g'ri amal qiluvchi qoidalar bo'lib, tergov va sud jarayonida faqat ishonchli va qonuniy dalillardan foydalanishni ta'minlaydi, hamda natijada fuqarolarimizni asossiz va qonunga xilof jinoiy ta'qibdan himoya qiladi, tergov organlari tomonidan jinoyatda ayblanayotgan shaxslarning huquqlari buzilishining oldini oladi.

Konstitutsiyada aybsizlik prezumpsiyasidan kelib chiqadigan yana bir muhim kafolat, ya'ni «Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlashi shart emas va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkin», degan qoida mustahkamlandi. Aytish muhimki, jinoyatni fosh etish va uni sodir etgan shaxslarni aniqlash vazifasi kabi jinoyat bo'yicha isbotlash majburiyati ham to'laligicha tergov organlariga yuklatilgan. Jumladan, dastlabki tergovda shaxsga nisbatan ayblov surishtiruvchi va tergovchi tomonidan e'lon qilinib, tergov harakatlari olib boriladi. Aynan shuning uchun ham shaxsni aybli yoki aybsizligini isbotlash majburiyati mazkur shaxslar zimmasidadir. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi o'zining jinoyatda aybliligi yoki aybsizligini isbotlash jarayonida ishtirok etishga majbur emas. Agar istasa, shaxs ushlangan vaqtdan to hukm chiqarilgunga qadar umuman sukut saqlashi mumkin – bu uning huquqi. Odatda, shaxsga nisbatan jinoyat ishi ochilganda u og'ir ruhiy holatga tushadi, o'zini yo'qotib qo'yadi va shunday vaziyatda aybi bor yoki yo'qligini isbotlash o'zining emas, aslida tergov organlarining vazifasi ekanligini anglamay o'ziga qarshi ko'rsatmalar berishi amaliyotda uchrab turadi. Shuningdek, sukut saqlash huquqiga bo'lgan ehtiyoj jinoyat protsessining eng boshlang'ich nuqtasida – shaxs jinoyat sodir etishda gumonlanib ushlangan zahotiy oq yuzaga keladi. Ya'ni shaxsning erkinligi cheklanishi bilan darhol unga sukut saqlash huquqi tushuntirilishi shart.

Mazkur huquq shaxsga o'z advokati bilan ko'rishmay turib, ish yuzasidan hech bir ma'lumotni oshkor qilmasligi orqali ayblovdan samarali himoyalani pozitsiyasini shakllantirishi uchun muhimdir. Sukut saqlash huquqiga oid bunday normalar Meksika, Misr, Gruziya, Serbiya, Ozarbayjon, Armaniston va boshqa davlatlar Konstitutsiyalaridan o'rin olgan.

Mazkur kafolatning Konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishi surishtiruv va dastlabki tergovda jinoiy ta'qib ostidagi shaxsni majbu-

ran iqrорlik ko'rsatmalarini berishga undash va boshqa bu kabi qonunga xilof harakatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Shaxs o'ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik bermaslik huquqining kafolatlanishi surishtiruv, tergov va sud jarayonlarining xolislik va adolat tamoyillariga tayanib amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Shu bois Konstitutsiyaning 28-moddasiga «Hech kim o'ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emas», degan mazmundagi insonparvar va qadriyatlarimizga mos norma mustahkamlandi. Shu o'rinda savol tug'iladi, nima uchun jinoyat ishi bo'yicha shaxs o'ziga yoki yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emas?

Birinchidan, ushbu qoida shaxsga nisbatan har qanday ayblov ko'rib chiqilayotganda tezkor-qidiruv xodimi, surishtiruvchi, tergovchi yoki sud tomonidan unga nisbatan bosim o'tkazishdan himoyalaydi, ikkinchidan, o'z aybiga majburan iqrор bo'lishining oldini oladi, uchinchidan, jinoyat protsessi ishtirokchisidan majburiy ravishda uning qarindoshlariga qarshi ko'rsatuv olishni taqiqlaydi. Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktda ham «o'ziga o'zi qarshi ko'rsatuv berishga yoki o'zini aybdor deb tan olishga majbur qilinmaslik» kafolati belgilangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 116-moddasida shaxsning o'z qarindoshlariga qarshi ko'rsatuv berishdagi erkinligi belgilangan bo'lib, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yaqin qarindoshlari guvoh yoki jabrlanuvchi tariqasida faqat o'zlarining roziliklari bilan so'roq qilinishlari mumkin.

Lekin, afsuski, tergov amaliyotida shunday holatlar ham uchraydiki, ayrim tergov xodimlari fuqarolarimiz o'zining bunday huquqi borligini bilmasligidan foydalanib, o'z qarindoshiga nisbatan guvohlik berish erkin ekanligi va bu kabi guvohlik berishdan bosh tortish uchun jinoyat javobgarlik mavjud emasligini to'liq tushuntirmaydilar. Natijada insonlarning mazkur huquqdan amalda real foydalanishi cheklanadi. Mazkur talab qator davlatlar Konstitutsiyalarida, masalan, Ispaniya, Gretsiya, Niderlandiya, Xorvatiya, Sloveniya va boshqa mamlakatlarda mustahkamlangan. Bu qoidaning Konstitutsiyada belgilanishi jinoyat ta'qib ostidagi har qanday shaxsga yoki uning yaqin qarindoshlariga ruhiy bosim va turli tahdidlar o'tkazish, uning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitish kabi boshqa noqonuniy usullar qo'llanishining oldini olishga xizmat qiladi.

Har qanday huquqiy davlatda qonun ustuvorligi amalda ta'minlanishi hamda inson huquq va erkinliklari, uning qonuniy manfaatlarini himoya qiluvchi odil sudlov tizimi amal qilishi shart. Eng muhimi, shaxslar noqonuniy, asossiz yoki haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlardan iborat dalillar asosida aybdor deb topilishi va javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Jinoyat ta'qibga olingan shaxsning iqrорlik ko'rsatuvlarigagina asoslanib, uni aybdor deb xulosa chiqarish odil sudlov tamoyillariga ziddir. Shu bois Konstitutsiyaning 28-moddasida «Agar shaxsning o'z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo'lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emas», deb belgilovchi norma o'z ifodasini topgan. Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud jinoyat yuz berganligini, uning sodir etilishida kim aybdorligini, shuningdek u bilan bog'liq barcha holatlarni aniqlashi shart. Faqatgina shaxsning o'z aybini bo'yniga olish haqidagi ko'rsatuvi uni jinoyat javobgarlikka tortish uchun asos bo'lmasligi lozim. Bunda shaxsni aybdor deb topish va uni jazoga tortish uchun yetarli dalillar to'plangan bo'lishi kerak. Bu kabi qoida Yaponiya va boshqa davlatlarning Konstitutsiyalarida mustahkamlangan. Jumladan, Jinoyat-protsessual kodeksining 112-moddasiga ko'ra, gumon qilinuvchining u sodir etgan jinoyat haqidagi ko'rsatuvlari va ayblanuvchining o'z aybiga iqrор bo'lishi, bu iqrорlik boshqa ishonchli dalillar majmui bilan tasdiqlangan taqdirdagina, uni ayblash uchun asos qilib olinishi mumkin. Mazkur qoida Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 14-moddasidagi «o'ziga o'zi qarshi ko'rsatuv berishga yoki o'zini aybdor deb tan olishga majbur qilinmaslik» kafolatidan ham kelib chiqadi. Ushbu qoida sodir etilgan jinoyat bo'yicha haqiqatni aniqlash, shuningdek, aybsiz insonlar javobgarlikka tortilishining oldini olishga, ayni paytda jinoyat sodir etgan haqiqiy aybdor shaxs yoki shaxslarni aniqlashga xizmat qiladi.

Avvalgi mustabid tuzumdan qolgan illat fuqarolarni ishga olishda eskidan saqlanib qolgan amaliyot, ya'ni qarindoshlari sudlangan, deb ishga qabul qilmaslik yoki yuqori lavozimga tayinlamaslik holatlari mavjud edi. Tabiiy savol tug'iladi, jinoyat uchun butun bir avlod javob berishi adolatdanmi? Otasining qilmishi uchun nega farzandlari yoki aka uchun uka javob berishi kerak? O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2022-yilning 20-iyun kuni Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvda «Bunday ado-

latsiz «tizim»dan endi butunlay voz kechamiz. Chunki xalqimizga nisbatan sobiq tuzum davrida, ayniqsa, o'tgan asrning 30-yillaridagi siyosiy qatag'onlarning o'zi yetarli emasmi?!» – deb ta'kidladi. Konstitutsiyaning 28-moddasida «Shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo'lishi mumkin emas», degan insonparvar va adolatli norma kiritildi. Unga ko'ra sudlanganlik shaxsga sud hukmi bilan jazo tayinlanganidan keyin unga nisbatan muayyan oqibatlarni keltirib chiqaradi. Masalan, sudlanganlik davlat boshqaruvi, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ishga kirish yoki ularda tegishli lavozimlarni egallashda, harbiy xizmatni o'tashda, saylanish huquqidan foydalanishda yoxud muayyan faoliyat bilan shug'ullanishda qator taqiqlarni yuzaga keltiradi. Ammo shaxsning sudlanganligi bilan bog'liq turli cheklovlar uning o'zi bilan cheklanib, boshqa shaxslarning huquqlariga ta'sir qilmasligi va hech bir holatda inson o'zining yaqinlari yo'l qo'ygan xatolar uchun javob bermasligi kerak! Qolaversa, mehnat qonunchiligiga ko'ra, shaxslarni yaqin qarindoshlari sudlanganligi munosabati bilan ishga qabul qilmaslik holati ishga qabul qilishni g'ayriqonuniy ravishda rad etish, deb hisoblanadi. Afsuski, bir necha yillar avval shaxsga uning qarindoshlari sudlanganligi holati ta'sir etishini nazarda tutuvchi eskicha yondashuv oqibatida ko'plab yurtdoshlarimiz aziyat chekkan. Ushbu adolatsizlikka hozirgi kunda batamom chek qo'yildi va inson huquqlari mamlakatimizda to'liq amal qilmoqda.

Nazorat savollari:

1. «Miranda qoidasi» mazmun-mohiyati nimadan iborat?
2. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi va mahkumning huquqiy himoyasini kuchaytirish borasidagi yangiliklar nimalardan iborat?
3. Jinoyat protsessida shaxsning «sukut saqlash huquqi» belgilanishining ahamiyati nimada?
4. Shaxs o'ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emasligiga oid qoida Konstitutsiya darajasida mustahkamlanishining ahamiyati nimada?
5. Shaxsning o'z aybini tan olishi uni aybdor deb topishga asos bo'lmasligiga oid qoidaning mazmun-mohiyati nimadan iborat?

5-mavzu. TA'LIM OLISH HUQUQI

Reja:

1. Xalqaro hayotda ta'lim olish huquqi poydevori va kafolatlari-ning yaratilishi.
2. O'zbekiston qonunchiligida ta'lim olishga oid normalar va ularning mazmuni.
3. Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar.
4. O'zbekiston Respublikasida Oliy ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar.

Tayanch so'z va iboralar: deklaratsiya, huquq, Konstitutsiya, ta'lim to'g'risidagi qonun, inklyuziv ta'lim, modernizatsiyalash, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, savodxonlik, tarbiya.

1. Xalqaro hayotda ta'lim olish huquqi poydevori va kafolatlari yaratilishi

Insoniyat tarixidan ma'lumki, dunyo shu vaqtga qadar bir qancha tamaddunlarni o'z boshidan kechirdi va bu jarayon hali-hanuz davom etmoqda. Hozirgi taraqqiyotga insoniyat o'z-o'zidan erishgani yo'q. Bu ixtirolar, kashfiyotlar, jamiyat va davlatlar hayotidagi barcha taraqqiyotlar fan inqiloblari natijasida turli davrlarda yuz bergan. Barcha taraqqiyotlarning tag zaminida insoniyatning bilimi, ta'lim olishi va izlanishlari natijasi orqali ega bo'lgan.

Xalqaro hayotda ta'lim olish huquqi poydevori va kafolatlari bir necha asosiy qonunlar va xalqaro hujjatlar orqali belgilab qo'yilgan. Bu asosiy qonunlar va hujjatlar ta'lim olishga barcha insonlar uchun bir xil munosabatni talab etadi va ularning amalga oshirilishi hamda saqlanishi zarur.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasiga ko'ra, har bir inson ta'lim olish huquqiga ega. Bu moddada shunday deyilgan:

«Har kim ta'lim olish huquqiga ega. Davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi. Davlat maktabga-

cha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o'rta ta'lim majburiydir. Maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta ta'lim davlat nazoratidadir. Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi¹. Ushbu modda asosida, har kimga ta'lim olish mustaqil va bepul bo'lishi ta'minlangan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalariga qo'shimcha qilgan holatda, BMT Inson huquqlari universal deklaratsiyasi (1948), BMT Bolalar huquqlari konvensiyasi (1989), BMT Gender tasarruflariga qarshi kampaniya (1979) va boshqa xalqaro hujjatlarda ta'lim olish huquqi va kafolatlarining mazmun-mohiyati to'liq yoritib berilgan.

Umumiy qilib aytganda, xalqaro hayotda ta'lim olish huquqi poydevori va kafolatlari bir necha asosiy qonunlar va xalqaro hujjatlar orqali mustahkamlangan. Ta'lim olish huquqi bir qator xalqaro konvensiyalarda inson huquqi sifatida e'tirof etilgan, jumladan; iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktda hamma uchun bepul boshlang'ich ta'lim olish huquqi, hamma uchun ochiq bo'lgan o'rta ta'limni rivojlantirish majburiyati e'tirof etilgan. 1966-yil 16-dekabrda BMT tomonidan qabul qilingan «Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risi»da xalqaro paktning 13-moddasida quyidagi talablar aks etgan.

1. Ushbu Paktda ishtirok etuvchi davlatlar har bir kishining ta'lim olish huquqini e'tirof etadi. Ular ta'lim inson shaxsining to'liq rivojlanishi va uning qadr-qimmatini anglashiga qaratilgan bo'lishi lozim, inson huquqlari va asosiy erkinliklarini hurmat qilishni mustahkamlash zarur degan fikrga keladi. Shuningdek, ta'lim barchaga erkin jamiyatning foydali a'zolari bo'lishga imkon yaratishi, barcha irqiy, etnik va diniy guruhlar o'rtasidagi do'stlikka, xayrixohlikka va sabr-toqatli bo'lishga hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining tinchlikni saqlash borasidagi ishiga ko'maklashishi lozim degan fikrga keladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.

2. Mazkur Paktda ishtirok etuvchi davlatlar ushbu huquqlarning to'liq amalga oshirilishi uchun quyidagi ishlarni amalda bajarish kerakligini e'tirof etadi:

a) boshlang'ich ta'lim hamma uchun majburiy va tekin bo'lishi;
b) o'rta ta'limning barcha shakllari, jumladan hunar-texnika o'rta ta'limi ochiq bo'lishi va barcha zarur choralar ko'rilib, xususan, asta-sekin pulsiz ta'lim olishni joriy etish yo'li bilan barchaning imkoni yetadigan darajaga erishish lozim;

d) har bir insonning qobiliyatini hisobga olgan holda barcha zarur choralarni ko'rish, xususan asta-sekin bepul ta'lim olishni joriy etish yo'li bilan oliy ta'lim olish hamma uchun imkon yetadigan darajada bo'lishiga erishish kerak;

e) oddiy ta'lim, boshlang'ich ta'limning to'liq kursini o'tmagan yoki tugallamagan kishilar uchun imkon boricha rag'batlantirilishi yoki jadallashtirilishi lozim;

f) barcha darajadagi maktablar tarmoqlari faol rivojlantirilishi, stipendiyalarning qoniqarli tizimi belgilanishi va o'qituvchilarning moddiy ahvoli doimiy ravishda yaxshilanib borishi kerak.

3. Ushbu Paktda ishtirok etuvchi davlatlar ota-onalarning va tegishli hollarda qonuniy vasiylarning o'z farzandlari uchun davlat hokimiyati ta'sis etgan maktablarnigina emas, ta'lim olish uchun davlat tomonidan belgilanishi yoki tasdiqlanishi mumkin bo'lgan eng kam talabga javob beruvchi maktablarni ham tanlab olish erkinini hurmat qilish majburiyatini oladi. Ota-onalar yoki qonuniy vasiylarning bu erkiga o'z shaxsiy e'tiqodiga ko'ra farzandlarini diniy va axloqiy ta'lim bilan ta'minlashlari ham kiradi.

4. Mazkur moddaning hech bir qismi ayrim shaxslar va muassasalarning ushbu moddaning birinchi bandida bayon qilingan tamoyillarga og'ishmay rioya etib va ushbu muassasalarda berilayotgan ta'lim davlat tomonidan belgilab qo'yilishi mumkin bo'lgan eng kam talablar-ga javob berishiga rioya qilib o'quv yurtlari ochish borasidagi erkinligini kamsitadi, degan mazmunda talqin qilinmasligi kerak¹.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul va e'lon qilingan «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi»ning 26-moddasiga ko'ra:

¹ Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida xalqaro pakt. 1966-yil 16-dekabr // lex.uz/docs/2686000.

1. Har bir inson ta'lim olish huquqiga ega. Ta'lim olishda hech bo'lmaganda boshlang'ich va umumiy ta'lim tekin bo'lishi lozim. Boshlang'ich ta'lim majburiy bo'lishi kerak. Texnik va hunar ta'limi hammaning qurbi yetadigan darajada bo'lishi, oliy ta'lim esa har kimning qobiliyatiga asosan hamma uchun yetarli imkoniyat doirasida bo'lmog'i kerak.

2. Ta'lim inson shaxsini to'la barkamol qilishga va inson huquqlari hamda asosiy erkinliklariga nisbatan hurmatni kuchaytirishga qaratilmog'i lozim. Ta'lim barcha xalqlar, irqiy va diniy guruhlar o'rtasida bir-birini tushunish, xayrixohlik va do'stlikka xizmat qilishi hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining tinchlikni saqlash borasidagi faoliyatiga yordam berishi kerak.

3. Kichik yoshdagi bolalari uchun ota-onalar ta'lim turini tanlashda imtiyozli huquqqa egadir¹.

Ta'lim olish huquqi: inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 26-moddasida o'z aksini topgan:

Yevropada, XVIII–XIX asrlar ma'rifatiga qadar, ta'lim, ota-onalar va cherkovning mas'uliyati edi. Fransiya va Amerika inqilobi bilan ta'lim ham davlat vazifasi sifatida belgilangan. Davlat ta'lim sohasida faollik ko'rsatib o'z zimmasiga olgan holda, ta'limning hamma uchun ochiq bo'lishiga yordam berishi mumkin, deb bir qator vazifalarni belgilab olgan. O'rta asrlarda ta'lim birinchi navbatda yuqori ijtimoiy tabaqalar uchun mavjud bo'lgan va xalq ta'limi ikkala inqilobni ta'kidlaydigan tenglik g'oyalarini amalga oshirish vositasi sifatida qabul qilingan. Biroq, Amerika Mustaqillik Deklaratsiyasi (1776) ham, Fransiyaning Inson va Fuqarolar huquqlari deklaratsiyasi ham (1789) ta'lim olish huquqini himoya qilmadi, chunki XIX asrdagi inson huquqlarining liberal konsepsiyalari ota-onalarning asosiy huquqlarini saqlab qolishlarini nazarda tutgan.

Farzandlariga ta'lim berish majburiyati. Ota-onalar bu majburiyatga rioya qilishlarini ta'minlash shtatlarning majburiyati edi va ko'plab shtatlar maktabga borishni majburiy holga keltiruvchi qonunlar qabul qildi. 1917-yilda Meksika Konstitutsiyasi birinchi bo'lib bepul va dunyoviy ta'limni kafolatladi. Keyinchalik sotsialistik g'oyalar 1936-yilgi Sovet Konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yil-

¹ Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi // constitution.uz/uz/pages/humanrights.

di. Ta'lim olish huquqini ta'minlash majburiyati bilan tan oladigan Konstitutsiya barcha bosqichlarda bepul va majburiy ta'lim, davlat stipendiyalari tizimi va davlat korxonalarida kasb-hunar ta'limi kafolatlandi. Ta'lim olish huquqi jahon jamoatchiligi tomonidan, jumladan, 1960-yildagi YUNESKOning Ta'lim sohasidagi kamsitishlarga qarshi konvensiyasida, 1966-yildagi Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktda 1981-yildagi kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyada yana bir bor tasdiqlangan. 1989-yildagi «Bola huquqlari to'g'risida»gi konvensiya, 2006-yildagi «Nogironlar huquqlari to'g'risida»gi konvensiya, 1981-yildagi «Inson va xalqlar huquqlari bo'yicha Afrika Xartiyasi» va 1990-yildagi «Afrikaning Bola huquqlari va farovonligi to'g'risida»gi Xartiyasi ham ta'lim olish huquqini tan oldi.

Inson huquqlari to'g'risidagi Yevropa konvensiyasining 1952-yil 20-martdagi birinchi Protokolining 2-moddasida ta'lim olish huquqi inson huquqi sifatida e'tirof etilishi va ta'lim olish huquqini belgilash tushunilishi ta'kidlangan. 2002-yilgi 86-o'zgartirish qonuniga binoan Hindiston Konstitutsiyasida 6–14-yoshgacha bepul va majburiy ta'lim olish huquqi ta'minlandi. Faqat ikkita global shartnomada boshlang'ich maktabgacha bo'lgan ta'limga aniq havola qilinadi. «Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida»gi konvensiya davlatlardan maktabgacha ta'lim muassasalarida qizlarning tengligini ta'minlashni talab qiladi. «Mehnat muhojirlari va ularning oila a'zolarining huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi konvensiyada davlatlar davlat maktabgacha ta'lim muassasalariga kirish ota-onalar yoki bolaning imkoniyati yo'qligi tufayli rad etilmasligini qo'llaydi.

XXI asrning ikkinchi o'n yilligida ayollarning ta'lim olish huquqini himoya qilish pokistonlik Nobel mukofoti sovrindori Malala Yusufzayning faolligi orqali global harakatga aylandi. U dunyodagi 750 million savodsiz insonlarning uchdan ikki qismini ayollar tashkil qilishini, bu gender tengsizligi, misoginistik zo'ravonlik, shuningdek, nikoh va homiladorlik, ko'pincha qashshoqlik va geografik izolyatsiya bilan bog'liqligini ta'kidlaydi.

Ta'lim olish huquqi uch bosqichga bo'linadi: Boshlang'ich (boshlang'ich yoki asosiy) ta'lim. Bunda millati, jinsi, tug'ilgan joyi yoki boshqa har qanday kamsitishdan qat'iy nazar, har qanday bola uchun majburiy va bepul bo'lishi kerak. «Iqtisodiy, ijtimoiy va ma-

daniy huquqlar to'g'risida»gi xalqaro pakti ratifikatsiya qilgandan so'ng, davlatlar ikki yil ichida bepul boshlang'ich ta'lim berishlari shart.

O'rta (yoki UDHR bo'yicha boshlang'ich, texnik va professional) ta'lim umumiy va mavjud bo'lishi kerak.

Universitet darajasida ta'lim imkoniyatlarga qarab ta'minlanishi kerak. Ya'ni, zarur ta'lim standartlariga javob beradigan har bir kishi universitetga kirish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Ham o'rta, ham oliy ta'lim «har qanday vositalar bilan, xususan, bepul ta'limni bosqichma-bosqich joriy etish orqali» foydalanish mumkin bo'lishi kerak.

2. O'zbekiston qonunchiligida ta'lim olishga oid normalar va ularning mazmuni

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng ta'lim sohasida ko'plab qonun hujjatlari qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi (2023-yil 30-may)da va 1992, 1997, 2020-yillarda qabul qilingan ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlarida mustahkamlanib qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 50, 51, 52, 53-moddalari ta'limga oid hisoblanib, 50-moddasida: «Har kim ta'lim olish huquqiga ega. Davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi. Davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o'rta ta'lim majburiydir. Maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta ta'lim davlat nazoratidadir. Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi», deb belgilab qo'yilgan¹.

Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi.

Inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

«O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunining 54-moddasida «Yetim bolalarni va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni o'qitish va ularning to'liq ta'minoti O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi», 55-moddasida «Davlat jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalarning (shaxslarning) davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida inklyuziv shaklda bepul umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim olishini ta'minlaydi» deyilgan.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalarni o'qitish hamda tarbiyalash uchun davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari tashkil etiladi. Ta'lim oluvchilarni ushbu ta'lim muassasalariga yuborish va ulardan chetlatish ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining roziligi bilan tibbiy-psixologik pedagogik komissiyaning xulosasiga binoan amalga oshiriladi.

Davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilar davlat ta'minotida bo'ladi¹.

Mamlakatimizda barcha fuqarolar uchun bilim olib, kasb-hunar egallash huquqi kafolatlangan. Hatto jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan, ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarning ham ta'lim olishi uchun sharoit yaratilmoqda.

2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq, jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillash-tirishning mutlaqo yangi ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish maqsadida Prezidentimizning 2018-yil 14-maydagi 3723-sonli qaroriga binoan O'zbekiston Respublika-

¹ O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son.

sining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasi qabul qilindi.

Konsepsiya doirasida jazolarni liberallashtirish borasida qator ishlar amalga oshirildi. O'tgan qisqa davrda ozodlikdan mahrum qilingan shaxslarning umumiy o'rta hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olishi uchun oltita jazoni ijro etish muassasasida umumta'lim, to'rttasida esa kasb-hunar o'rgatish markazlari faoliyati yo'lga qo'yildi. Shuningdek, «Usta-shogird» tizimi asosida mahkumlarni kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

O'zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyevning «Jinoiy jazoni ijro etish tizimida ta'limni tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»¹ qarori loyihasi jamoatchilik fikrini o'rganish maqsadida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portaliga joylashtirildi. Ilk bor qaror loyihasida umumta'lim muassasalari va kasb-hunarga o'qitish markazlari faoliyat ko'rsatmayotgan jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlarning umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olishi, shuningdek, barcha jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlarning oliy ma'lumotli bo'lishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish nazarda tutilgan.

Shuningdek, me'yoriy hujjat loyihasida 2021–2022-o'quv yilidan boshlab ozodlikdan mahrum qilingan shaxslarning masofaviy ta'lim shakli orqali umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olishi uchun jazoni ijro etish muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan umumta'lim va kasb-hunar o'rgatish markazlarida, oliy ma'lumot olishi uchun esa tegishli oliy ta'lim maskanlarida maxsus o'quv guruhlari tashkil etilishi ko'rsatilgan. Maxsus o'quv guruhida ta'lim oluvchilarning o'rni oliy ta'lim muassasalarining belgilangan umumiy qabul kvotalariga kirmaydi va davlat budjetidan moliyalashtiriladi.

Ta'lim tashkilotlarida o'qitish tilidan foydalanish tartibi «Davlat tili haqida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tartibga solinadi.

Ta'lim to'g'risidagi qonunning 47-moddasi ta'lim oluvchilarning huquqlariga bag'ishlangan.

Ta'lim oluvchilar quyidagi huquqlarga ega:

- bepul asosda umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olish;
 - yashash joyidagi (mikrohududdagi) davlat umumiy o'rta ta'lim muassasasiga qabul qilinish;
 - ta'lim olish shakllarini erkin tanlash;
 - davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari va o'quv dasturlariga muvofiq sifatli ta'lim olish;
 - ta'lim olish uchun o'zining ruhiy xususiyatlari va fiziologik rivojlanishi inobatga olingan holda zarur shart-sharoitlarga ega bo'lish, shuningdek bepul psixologik-tibbiy xizmatlardan foydalanish;
 - davlat ta'lim muassasasi tomonidan belgilangan tartibga muvofiq, professional ta'lim va oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari talablariga binoan ishlab chiqilgan, o'zi oladigan ta'limning mazmunini shakllantirishda ishtirok etish;
 - pedagog xodimlar va ta'lim-tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilari tomonidan hayoti va sog'lig'iga qilinadigan har qanday jismoniy hamda ruhiy zo'ravonlikdan, shaxsi haqoratlanishidan himoyalani;
 - ta'lim olish davrida dam olish va boshqa ijtimoiy ehtiyojlar uchun ta'tillar olish;
 - akademik ta'tillar va stipendiyalar olish, o'qishni tiklash va o'qishini boshqa ta'lim tashkilotlariga, bir ta'lim shaklidan, kasbdan, ta'lim yo'nalishidan, mutaxassisligidan boshqasiga ko'chirish;
 - ta'lim tashkilotini boshqarishga doir masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish;
 - ta'lim olish jarayonida ta'lim tashkilotining o'quv, uslubiy, ilmiy-ishlab chiqarish, madaniy, sport va maishiy obyektlari xizmatlaridan bepul foydalanish;
 - ta'lim tashkilotining ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik, ilmiy-texnikaviy, eksperimental va innovatsion faoliyatida ishtirok etish.
- Shuningdek, 44-modda. Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi.
- Tegishli ma'lumoti, kasbiy tayyorgarligi bo'lgan va ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega. Magistraturani tamomlagan shaxslar va diplomli mutaxassislar o'z mutaxassisligi bo'yicha pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega. Ushbu qonunning

¹ <https://kun.uz/30201236?q=%2F30201236>

45-moddasida: Ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining kasbiy faoliyatiga aralashishga, ta'lim oluvchilarning bilimlarini to'g'ri va xolis baholashga ta'sir ko'rsatishga, shuningdek ushbu pedagog xodimlarning xizmat majburiyatlarini bajarishiga to'sqinlik qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Pedagog xodimlar quyidagi huquqlarga ega:

- o'z sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini himoya qilish; o'quv dasturlari doirasida mualliflik dasturlarini ishlab chiqish;
- joriy etish, o'qitish uslubiyotini ishlab chiqish, shuningdek tegishli o'quv fanlari, kurslari, modullaridan foydalanish, ijodiy faollik ko'rsatish;
- zamonaviy pedagogik shakllarni, o'qitish va tarbiya vositalarini, usullarini erkin tanlash hamda ulardan foydalanish;
- kasbiy faoliyatini amalga oshirish uchun ularga zarur shart-sharoitlar yaratilishini talab qilish;
- o'quv, ilmiy va uslubiy yo'nalishlardagi axborot-resurs markazlarining xizmatlaridan bepul foydalanish;
- davlat ta'lim standartlarini, davlat ta'lim talablarini, malaka talablarini, o'quv rejalari va o'quv dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish;
- ilmiy, ilmiy-tadqiqot va ijodiy faoliyatni amalga oshirish, eksperimental faoliyatda ishtirok etish, innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy qilish;
- ta'lim tashkilotini boshqarishda, shuningdek ta'lim tashkilotining faoliyati bilan bog'liq masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish va boshqa huquqlarga egadirlar.

Ayniqsa, maktabgacha va maktab ta'limi to'liq davlat nazoratida, uning kafolatlari ostida bo'lishi shart. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev maktabgacha ta'lim muassasalari to'g'risida quyidagi fikrlarini bildirib o'tgan: «Yaxshi bilasizlar, men «Bog'chaga borgan bola bilan bog'chaga bormagan bolaning o'rtasida katta farq bor», degan fikrni, hayotiy haqiqatni takror-takror aytishdan, uni hamma joyda da'vat qilishdan charchamayman. O'tgan davrdagi ikki yillik tajribamiz va joylarda aholi bilan olib borayotgan muloqotlarimizdan kelib chiqib, ana shu fikrga qo'shimcha qilib aytmoqchiman:

«Bog'chaga borgan bolaning onasi bilan bog'chaga bormagan bolaning onasi o'rtasida ham katta farq bor». Chunki har

kuni tarbiyachilar, pedagog mutaxassislar, psixologlar, tibbiyot xodimlari bilan muloqotda bo'lib, bolasiidagi ijobiy o'zgarishlarni ko'rib, onalarning ham bilimi, hayotiy tajribasi, madaniy saviyasi oshadi. Bolalari bilan birga ular ham ijtimoiy-ma'naviy tarbiya muhitiga, jamiyatga yaqinlashadi, faollashadi. Shularning barchasini hisobga olib, biz maktabgacha ta'lim sohasiga ulkan e'tibor bermoqdamiz»¹. Shunday ekan, bugungi kunda jamiyatda farzandlarimizning kelajakda ma'naviy barkamol, yuksak intellektual salohiyatli, sifatli kasb egasi bo'lib voyaga yetishlarida, maktabgacha bo'lgan davrda olgan bilimlari muhimdir. Bu borada katta ishlar amalga oshirilmogda. Jumladan, Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, «Bugungi kunda mamlakatimizda 7 ming 104 ta maktabgacha ta'lim maskani faoliyat ko'rsatmogda. Keyingi 2-yil davomida 2 ming 211 ta yangi bog'chalar tashkil etilib, ularga qo'shimcha 243 ming bola qabul qilindi. Boshqacha aytganda, yurtimizda bog'cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalari bilan qamrab olish darajasi so'ng bir yarim yilda 12 foizga oshib, 38 foizni tashkil etmogda.

Biz yaqin 4–5 yilda yurtimizdagi bog'cha yoshidagi barcha bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga to'liq qamrab olish vazifasini o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganimiz. Bu bizning ayollarimiz, bolalarimiz oldidagi qarzimiz, kerak bo'lsa, kelajak oldidagi muqaddas vazifamiz va biz uni albatta ado etamiz»².

Yangi Konstitutsiyada ushbu jihatlar avvalgisidan farqli o'laroq, aniq va batafsil belgilab qo'yilmogda.

Ilk marotaba bog'cha yoshidagi bolalarning ta'lim va tarbiyasi sohasidagi davlat kafolatining Konstitutsiyaviy darajada belgilanishi tarixiy voqeadir. Bola uchun oiladan keyingi birinchi jamoa bu bog'chadir. Maktabgacha ta'lim sifatli bo'lishi insonning butun hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Maktabda, hatto undan keyingi oliy ta'lim muassasalarida ham qiynalmaydi.

Bu borada ishlar jadal ketyapti, natijasini hammamiz ko'rib turibmiz. Bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi 27,7 foizdan 72 foizga, MTTlar soni 5211 tadan 29 mingdan ziyodga yetkazildi.

¹ Mirziyoyev Sh. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. – T.: «O'zbekiston» NMIU, 2019. – 112–113-betlar.

² O'sha manba, 113–114-betlar.

2022-yilda «Finançye Inquirer» nashri bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb qilish bo'yicha eng yaxshi dinamikaga ega bo'lgan dunyodagi eng peshqadam 10 ta davlatni e'lon qildi. Unda O'zbekiston jahon reytingida birinchi o'rinni egalladi.

2030-yilga qadar maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasini 80,8 foizga yetkazish maqsad qilingan.

Masalan, «Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturiga ko'ra, 2023-yil 1-apreldan boshlab maktabgacha ta'lim qamrovini kengaytirish maqsadida:

yangi maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini ko'p kvartirali uylarning noturar qavatlarida yoki yakka tartibda qurilgan uy-joylarni sotib olish va keyinchalik ularni ta'mirlash hamda jihozlash orqali tashkil etishga ruxsat etilmoqda;

davlat-xususiy sheriklik loyihasi doirasida ijaraga berilgan yer uchastkasida nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti binosini qurgan xususiy sherik tomonidan ushbu binoning mazkur loyiha uchun bank kreditlari bo'yicha garovga qo'yilishiga oid cheklovlar bekor qilinmoqda.

Shu bilan birga, Konstitutsiya darajasida bolaning bepul umumiy o'rta ta'lim olish huquqi kafolatlanmoqda.

Davlat dasturiga ko'ra:

a) 2023-yil 1-sentyabrdan boshlab har bir tuman (shahar)ning bittadan maktabida o'quvchilarni ikkita xorijiy til va bitta kasb-hunarga o'rgatish amaliyoti bosqichma-bosqich yo'lga qo'yiladi;

b) 2023/2024-o'quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich maktablarda o'quvchilarda kommunikativ ko'nikmalar, tanqidiy va kreativ fikrlash, jamoa bo'lib ishlash, tadqiqotchilik kabi ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim dasturlari amaliyotga kiritiladi.

Bunda: maktablarning 1–4-sinflarida o'quvchilarni ilg'or xorijiy tajriba asosida ishlab chiqilgan darsliklar bo'yicha o'qitish;

5–9-sinflarda o'quvchilarga umumta'lim fanlaridan tayanch bilimlar berish;

10–11-sinf o'quvchilarining qiziqish va qobiliyatiga mos bo'lgan ixtisoslashgan dasturlar asosida bilim berish amaliyoti joriy qilinadi.

Shuningdek, Konstitutsiyaga mazkur qo'shimchalar orqali, davlat tomonidan nafaqat davlat ta'lim tashkilotlarini rivojlantirish uchun, shu bilan birga nodavlat yoki xususiy ta'lim tash-

kilotlari yoxud davlat xususiy sheriklik asosidagi ta'lim tashkilotlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratishi, ya'ni muhim qonunchilik hujjatlarini qabul qilish, subsidiyalar yoki imtiyozli kreditlar berishi kabi yo'llar bilan yordam ko'rsatishi belgilab qo'yilmoqda.

Yangi Konstitutsiyaning ushbu moddasida ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanishi haqida ijtimoiy norma kiritilmoqda.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi. Unga ko'ra, sog'lig'ida nuqsoni bo'lgan bolalarni faqatgina ixtisoslashgan maktablarda emas, hamma qatori umumiy maktablarda ham o'qishini yo'lga qo'yilishi inson qadri tamoyilining amaliy ifodasidir. Bu shunday nuqsonlarga ega bolalarimizning yakkalanib qolmasligi, jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida shakllanishi va kamol topishi uchun juda muhimdir.

Bugungi kunda aqli zaif, kar va zaif eshituvchi, ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi, tayanch a'zolarida nuqsoni bo'lgan 21 231 nafar bolalar uchun respublikamizda 90 ta ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyat yuritmoqda. Bundan tashqari, yengil darajadagi nogironligi bo'lgan 18 000 nafarga yaqin o'quvchilar maktablarda sog'lom bolalar bilan birgalikda o'qishmoqda.

Mazkur qo'shimchalar davlat tomonidan bolalarning maktabgacha ta'limda qamrovini oshirish, umumiy o'rta ta'limni teng huquqli asosda ta'minlanishi aholi savodxonligini oshishiga ijobiy ta'sir etadi.

Ta'lim sifatini oshirish – birlamchi vazifa. Bu borada ko'plab muammolar bor.

Ayrim muammolarni bartaraf etish uchun esa muhim jihatlarni Konstitutsiya orqali mustahkamlash zarurati mavjud.

Konstitutsiyada ilk marotaba inklyuziv ta'lim uchun sharoit yaratishga oid alohida normaning belgilanishi alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun ta'lim va tarbiya ularning jismoniy va aqliy rivojlanishini hisobga olgan holda tashkil etilishi, ta'lim olish jarayonida ularni biror-bir shaklda kamsitishga yo'l qo'yilmasligi, barcha bolalarning tengligi ta'minlanishiga xizmat qiladi. Natijada, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalarning ta'lim olishga bo'lgan huquqi ta'minlanadi.

Shuningdek, «O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan «Ta‘lim to‘g‘risidagi qonun»ining 5-moddasida ham: Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat‘iy nazar, har kimga ta‘lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanishi yozib qo‘yilgan bo‘lib, shuningdek, ta‘lim olish huquqi:

ta‘lim tashkilotlarini rivojlantirish; ta‘lim tashkilotlarida innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash va o‘quv dasturlarini innovatsion texnologiyalarni qo‘llagan holda amalga oshirish; ishlab chiqarishdan ajralgan (kunduzgi) va ajralmagan holda (sirtqi, kechki, masofaviy) ta‘lim olishni tashkil etish; kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish; umumiy o‘rta, o‘rta maxsus ta‘limni va boshlang‘ich professional ta‘limni bepul olish; oilada yoki mustaqil o‘qish orqali ta‘lim olgan fuqarolarga, shuningdek umumiy o‘rta ta‘lim olmagan shaxslarga akkreditatsiyadan o‘tgan davlat ta‘lim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o‘tish huquqini berish orqali ta‘minlanadi.

Chet ellik fuqarolar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga va qonunchiligiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasida ta‘lim olishga haqlidir.

O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashayotgan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ta‘lim olish uchun O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarga ega ekanliklari e‘tirof etilgan.

Ta‘lim – ta‘lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko‘nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta‘lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko‘nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida oliy ta‘lim muassasalari jami soni 210 dan ortiq bo‘lib, shundan universitetlar – 36 ta, institutlar 48 ta, akademiyalar – 4 ta, konservatoriya – 1 ta, nodavlat oliy ta‘lim muassasalari – 65 ta, filiallar – 26 ta, xorijiy OTMLar va filiallari – 30 tani tashkil etmoqda.

«O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan «Ta‘lim to‘g‘risidagi qonun»ning 4-moddasida: Ta‘lim sohasidagi asosiy prinsiplar quyidagilardan iborat:

- ta‘lim ustuvorligining tan olinishi;
- ta‘lim olish shaklini tanlash erkinligi; ta‘lim sohasida kamsitishlarga yo‘l qo‘yilmasligi;
- ta‘lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta‘minlanishi;

– ta‘lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarining singdirilganligi; ta‘lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati;

– ta‘limning uzluksizligi va izchilligi;

– o‘n bir yillik ta‘limning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o‘rta ta‘limga tayyorlashning majburiylik va boshqa mezonlar belgilangan.

2018-yildan boshlab O‘zbekistonda 11 yillik ta‘lim joriy etildi.

Ushbu qonunning 7-moddasiga ko‘ra ta‘lim turlari 7 pog‘onadan iborat:

– maktabgacha ta‘lim va tarbiya;

– umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta‘lim;

– professional ta‘lim;

– oliy ta‘lim;

– oliy ta‘limdan keyingi ta‘lim;

– kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

– maktabdan tashqari ta‘lim.

3. Ta‘lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar

Xalq ta‘limi sohasida keyingi besh yilda 1,9 millionta o‘quvchi o‘rni yaratish, ta‘limda zamonaviy metodikalarga o‘tish, bitiruvchilar attestatsiyasini DTMga o‘tkazish, o‘qituvchilar saviyasiga ta‘lablarni kuchaytirish, maktablarga qisman moliyaviy va akademik mustaqillik berish, maktablarni akkreditatsiyalash, direktorlarni sertifikatsiyalash, bolalarni kasbga yo‘naltirish va boshqa o‘zgarishlar kutilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi «2022–2026-yillarda maktab ta‘limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni e‘lon qilindi va «Maktabgacha va maktab ta‘limini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi¹ qarori qabul qilindi.

Unga ko‘ra 2026-yilgacha 1,9 millionta o‘quvchi o‘rni yaratish mo‘ljallanmoqda. 2022–2026-yillarda umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta‘mirlash hisobiga 1,2 million o‘quvchi o‘rni miqdoridagi yangi quvvatlar yaratish vazifasi qo‘yildi.

¹ <https://kun.uz/37186257?q=%2Fuz%2F37186257#!>

Xuddi shu yillarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturlari doirasida umumiy oʻrta taʼlimda yana 700 ming oʻquvchi oʻrni miqdoridagi yangi quvvatlar yaratilishi belgilandi.

Maktablarga internet, kompyuterlar va ustaxonalar 2022-yil 1-sentyabrga qadar 2023–2024-yillarda maktablarda maʼnan eskirgan kompyuter sinflarini yangilash boʻyicha dastur Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun kiritiladi. 2022/2023-oʻquv yilidan boshlab 400 nafargacha oʻquvchisi boʻlgan umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida internet tezligi kamida 40 Mbit/s, oʻquvchilar soni 400 nafardan yuqori boʻlganlarda kamida 100 Mbit/s boʻlishi taʼminlanadi. Maktablarni yuqori tezlikdagi internetga ulash uchun zarur mablagʻlarni ajratish vazifasi hokimlarga yuklatildi. 2022-yil 1-avgustga qadar umumiy oʻrta taʼlim muassasalarining texnologiya fani ustaxonalari hamda kasb-hunar amaliyoti xonalarining namunaviy loyihalari ishlab chiqilib, tasdiqlanadi. Bu xonalarni bosqichma-bosqich tashkil etish va jihozlashga hokimlar masʼul boʻladi. 11-sinflardan yakuniy attestatsiyani DTM oladi. 2024-yildan boshlab umumiy oʻrta va oʻrta maxsus taʼlim tashkilotlari hamda kasb-hunar maktablari bitiruvchilari uchun yakuniy davlat attestatsiyasini Davlat test markazi tomonidan imtihonlar shaklida oʻtkazish yoʻlga qoʻyiladi.

Maktab binolarini sotib yuborish taqiqlandi. Qaror bilan, Oʻzbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligining taʼlim berishga moʻljallangan binolari va inshootlarini taʼlim sohasidan tashqari boshqa maqsadlar uchun yuridik va jismoniy shaxslarga berish taqiqlandi. Oʻzbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligining taʼlim berishga moʻljallangan, boʻsh turgan bino-inshootlarini boshqa jismoniy va yuridik shaxslarga berish ular joylashgan hududning kamida 5 yillik demografik koʻrsatkichlarini inobatga olib, xalq taʼlimi vazirining roziligini olgan holda amalga oshiriladi. Pedagoglar tayyorlash va qayta tayyorlash Xalq taʼlimi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlari negizida Pedagoglarni yangi metodikalarga oʻrgatish milliy markazlari (Pedagogika markazlari) tashkil etildi. A. Avloniy nomidagi xalq taʼlimi muammolarini oʻrganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot instituti negizida A. Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga oʻrgatish milliy-tadqiqot instituti tashkil etildi.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti hamda uning huzuridagi taʼlim va ilmiy tashkilotlar Oʻzbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi tasarrufiga oʻtkazildi.

Toshkent davlat pedagogika universiteti pedagogika yoʻnalishi boʻyicha oʻquv dasturlarni ishlab chiqishda yetakchi oliy taʼlim muassasasi etib belgilandi.

Pedagog kadrlarni kompetensiyalarga asoslangan va kasbiy koʻnikmalarini shakllantirishga qaratilgan metodikalar boʻyicha oʻqitish amaliyoti joriy qilinadigan boʻldi.

Oʻqituvchilarning bilim darajasini baholashning yangi tizimi 2023-yil 1-avgustga qadar, taʼlim sohasida xizmat koʻrsatuvchi vakolatli xalqaro tashkilotlarni jalb qilgan holda, pedagog kadrlarning umum-taʼlim fanlari boʻyicha bilim darajasi va kasbiy mahoratini baholash tizimi ishlab chiqiladi va amaliyotga joriy etiladi.

2024-yil 1-yanvargacha qadar bu baholash tizimining xalqaro standartlar talablariga javob berishi sertifikatdan oʻtkaziladi. 2022-yil 1-sentyabrdan boshlab, Oʻzbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi tizimidagi umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida:

a) umumtaʼlim fanlari boʻyicha tegishli darajadagi sertifikatga ega pedagog kadrlarga har oylik qoʻshimcha ustama quyidagi tartibda toʻlanadi:

– xalqaro tan olingan sertifikatga ega pedagog kadrlarga – ularning tarif stavkasiga nisbatan 50 foiz miqdorida;

– xalqaro standartlar talablariga javob beradigan milliy baholash tizimida olingan sertifikatga ega pedagog kadrlarga – ularning tarif stavkasiga nisbatan 50 foiz miqdorida. Bunda, milliy baholash tizimining xalqaro standartlar talablariga javob berishi vakolatli xalqaro tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan boʻlishi lozim;

– xalqaro tashkilotlar tomonidan tasdiqlanmagan milliy baholash tizimida olingan sertifikatga ega pedagog kadrlarga – ularning tarif stavkasiga nisbatan 20 foiz miqdorida (chet tili boʻyicha sertifikatlar bundan mustasno);

b) xalqaro tashkilotlar tomonidan tasdiqlanmagan DTMning milliy baholash tizimida chet tili boʻyicha olingan sertifikatga ega pedagog kadrlarga har oylik qoʻshimcha ustama:

– 2025-yil 1-yanvargacha qadar – ularning tarif stavkasiga nisbatan 50 foiz miqdorida;

– 2025-yil 1-yanvardan boshlab – ularning tarif stavkasiga nisbatan 20 foiz miqdorida to‘lanadi;

d) har oylik qo‘shimcha ustama sertifikat amal qilish muddati davomida, lekin uch yildan ko‘p bo‘lmagan vaqt mobaynida to‘lanadi;

e) umumta‘lim fanlari bo‘yicha bir nechta sertifikatga ega bo‘lgan pedagog kadrlarga har oylik qo‘shimcha ustama yuqoriroq ustama olish huquqini beruvchi sertifikat bo‘yicha to‘lanadi.

Davlat umumiy o‘rta ta‘lim muassasalariga O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi bilan kelishgan holda o‘quv jarayoniga xalqaro tan olingan ta‘lim dasturlarini joriy qilish, shu jumladan, davlat ta‘lim standartlari doirasida o‘quv dasturlariga o‘zgartirish kiritish hamda darsliklarni tanlashga (ona tili, adabiyot, tarix, tarbiya va huquq fanlaridan tashqari) ruxsat etildi.

Bir oy muddatda davlat umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarining o‘quv jarayoniga xalqaro tan olingan ta‘lim dasturlarini joriy qilish tartibi O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. Ikki oy muddatda xalqaro tan olingan ta‘lim dasturlari ro‘yxati shakllantirilib, O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi rasmiy saytiga joylanadi.

Vazirlik o‘quv jarayoniga xalqaro tan olingan ta‘lim dasturlarini joriy qilishga ko‘maklashadi, shu jumladan, ta‘lim sohasida xizmat ko‘rsatuvchi xorijiy tashkilotlar bilan muzokaralar olib borib, dasturlarni sotib olish va amaliyotga tatbiq etish uchun zarur mablag‘larni ajratadi.

O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligidan tashqari boshqa vazirlik va idoralarga umumiy o‘rta ta‘limning o‘quv-rejalari va dasturlariga o‘zgartirish kiritish va maktablarda yangi fan joriy qilishni nazarda tutuvchi qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish bo‘yicha tashabbus bilan chiqish taqiqlandi.

Vazirlar Mahkamasiga vazirlik va idoralar tomonidan mazkur badda nazarda tutilgan taqiqqa amal qilinishi ustidan qat‘iy nazorat o‘rnatish topshirildi.

4. O‘zbekiston Respublikasida Oliy ta‘lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar

«O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 51-moddasi: «Fuqarolar davlat ta‘lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma‘lumot olishga haqli. Oliy ta‘lim

tashkilotlari qonunga muvofiq akademik erkinlik, o‘zini-o‘zi boshqarish, tadqiqotlar o‘tkazish va o‘qitish erkinligi huquqiga ega»¹.

Oliy ta‘lim bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta‘minlaydi.

Oliy ma‘lumotli kadrlarni tayyorlash oliy ta‘lim tashkilotlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar, oliy maktablar) amalga oshiriladi. Umumiy o‘rta (o‘n bir yillik ta‘lim), o‘rta maxsus (to‘qqiz yillik tayanch o‘rta va ikki yillik o‘rta maxsus ta‘lim), boshlang‘ich professional ta‘lim (to‘qqiz yillik tayanch o‘rta va ikki yillik boshlang‘ich professional ta‘lim) olgan shaxslar, shuningdek ushbu Qonun kuchga kirguniga qadar o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi (to‘qqiz yillik umumiy o‘rta va uch yillik o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi) olgan shaxslar oliy ma‘lumot olish huquqiga ega.

Oliy ta‘lim ikki bosqichga – bakalavriat va magistratura bosqichiga ega. Bakalavriat oliy ta‘lim yo‘nalishlaridan biri bo‘yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko‘nikmalar beradigan, o‘qish davomiyligi kamida uch yil bo‘lgan tayanch oliy ta‘limdir.

Magistratura tegishli bakalavriat negizidagi aniq mutaxassislik bo‘yicha o‘qish davomiyligi kamida bir yil bo‘lgan oliy ta‘limdir.

Magistratura mutaxassisliklarining va ularga muvofiq bo‘lgan bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlarining ro‘yxati ta‘lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan belgilanadi.

«O‘zbekiston Respublikasining «Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonuni 15-moddasida ta‘lim olish shakllari belgilab qo‘yilgan bo‘lib, ta‘lim olish shakllari quyidagilardan iborat: ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta‘lim olish (kunduzgi); ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta‘lim olish (sirtqi, kechki, masofaviy); dual ta‘lim; oilada ta‘lim olish va mustaqil ta‘lim olish; katta yoshdagilarni o‘qitish va ularga ta‘lim berish; inklyuziv ta‘lim; eksternat tartibidagi ta‘lim; mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash»².

Bugungi kunda O‘zbekiston Oliy ta‘lim tizimida yuqorida qayd etilgan 4 ta ta‘lim shakli bo‘yicha talabalar tahsil olishmoqda. Shuningdek, O‘zbekiston qonunchiligi va jahonda qabul qilingan inson

¹ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.

² Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son.

huquqlariga oid hujjatlarda qayd etilgan ta'lim olish va berishda inklyuziv, tenglik asosida o'qitishni joriy etish ko'rsatib qo'yilgan.

Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining maqsadli ko'rsatkichlari:

Xorijiy oliy ta'lim muassasalari dasturlari asosida o'qitish tashkil qilingan OTMlar soni 23 tadan 45 taga ko'payadi.

O'quv va ilmiy adabiyotlarning elektron shaklini yaratish 20 foizdan 30 foizga oshiriladi.

Magistratura mutaxassisligi bitiruvchilari ilmiy faoliyatga yo'naltirish 15 foizdan 45 foizgacha ko'tariladi.

Xorijda malaka oshirgan va stajirovka o'tagan professor-o'qituvchilarning ulushi 2 foizdan 20 foizgacha oshiriladi.

Muhandislik – texnik ta'lim yo'nalishlarida taxsil olayotgan talabalar ulushi 20 foizdan 50 foizgacha ko'payadi.

2019-yil aholini oliy ta'lim bilan qamrab olish 20 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2030-yilga borib 50 foizga oshadi.

Kredit-modul tizimi joriy etiladigan oliy ta'lim muassasalari soni ham 2 tadan 85 taga ko'payadi.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 52-moddasida: «O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi. Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qilishi»¹ e'tirof etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2019-yil 8-oktyabrda «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» Farmoni imzolandi. Ushbu Farmon yuqoridagi fikrlarni izchillik bilan amalga oshirish yo'llarini ko'rsatib berganligini oliy ta'limda to'planib qolgan uzoq yillik muammolarga yechim topib berish barobarida, oliy ta'lim jahon standartlariga javob bera oladigan, mamlakatning kelajagi uchun xizmat qila oladigan darajada ko'tarishning yangi bir davrini boshlab berganligini mushohada qilamiz.

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.

Ushbu konsepsiyada oliy ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, sohada sog'lom raqobat muhitini yaratish;

O'zbekiston milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarining filialiga aylantirish; Respublikadagi kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Ranking, Times Higher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga, shu jumladan O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universiteti birinchi 500 o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatini kiritish oliy ta'lim muassasalarini akademik mustaqilligi ta'minlash kabi qator muhim vazifalar belgilandi.

Shuningdek, Farmonda nodavlat notijorat tashkilot shaklidagi Respublika oliy ta'lim Kengashi tuzish belgilandi. Kengash vazifalari sirasiga professor-o'qituvchilar, talabalar o'rtasida so'rovlar o'tkazish, jamoatchilik va ish beruvchining fikrini o'rganish hamda ilg'or xorijiy tajribalarni tahlil qilish orqali oliy ta'lim sifatini oshirish, o'quv dasturlarini takomillashtirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;

ta'lim berishda yuqori sifatni ta'minlash yuzasidan ta'sirchan jamoatchilik nazoratini o'rnatish, bu borada ommaviy axborot vositalari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlari bilan yaqindan hamkorlik qilish» kiritildi.

Davlatning ertangi kuni – yoshlarning qay darajada bilimli ekanini bilan bevosita bog'liq. Shuning uchun ham ta'lim tizimini rivojlantirish masalasiga barcha davlatlarda eng muhim vazifa sifatida qaraladi.

Ta'lim tuzilishini modernizatsiyalash, uni demokratlashtirish, kompyuterlashtirish va insonparvarlashtirish, ta'lim dasturini erkin tanlash, uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish tobora kuchayib bormoqda. Ta'limni fundamentallashtirish, ma'naviy mas'ul shaxsni shakllantirish, bilishni emas, balki fikrlashni o'rgatish zarurligi yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Zero, yosh avlodning har tomonlama kamol topishi uchun zamon ruhiga mos yangidan-yangi qonun loyihalarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha innovatsion loyihalar ishlab chiqish, ta'lim tizimining barcha bos-

qichlarida sifat o'zgarishlariga erishish bo'yicha aniq chora-tadbirlar yanada kuchaytirilmoqda.

Ta'lim sifatini oshirish – birlamchi vazifa. Bu borada ko'plab muammolar bor. Ayrim muammolarni bartaraf etish uchun esa muhim jihatlarni Konstitutsiya orqali mustahkamlash zarurati mavjud.

Konstitutsiyada ilk marotaba inklyuziv ta'lim uchun sharoit yaratishga oid alohida normaning belgilanishi alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun ta'lim va tarbiya ularning jismoniy va aqliy rivojlanishini hisobga olgan holda tashkil etilishi, ta'lim olish jarayonida ularni biror-bir shaklda kamsitishga yo'l qo'yilmasligi, barcha bolalarning tengligi ta'minlanishiga xizmat qiladi. Natijada, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalarning ta'lim olishga bo'lgan huquqi ta'minlanadi.

Nazorat savollari:

1. BMT tomonidan qabul qilgan «Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risi»da xalqaro pakt bilan tanishmisiz?
2. «Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risi»da xalqaro pakt qanday munosabatlarni tartibga soladi?
3. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul va e'lon qilingan «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi»ning mazmun-mohiyatidan xabardormisiz?
4. «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi» yer sharidagi barcha davlatlar uchun majburiligini qanday izohlaysiz?
5. Inklyuziv ta'lim nima? Alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim tashkilotlari va markazlarida inklyuziv ta'lim oluvchilarga qanday shart-sharoit va qulayliklar yaratish kerak deb o'ylaysiz?
6. Ta'lim nima? Ta'lim oluvchilar deganda kimlarni tushunasiz? Ta'lim berishda nimalarga e'tibor qaratish lozim deb hisoblaysiz?
7. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim muassasalari soni nechta? Shulardan qanchasini universitetlar, institutlar, akademiya-lar, konservatoriya, nodavlat oliy ta'lim muassasalari, filiallar, xori-jiy OTMlar va filiallar tashkil etishni bilasizmi?

6-mavzu. KONSTITUTSIYADA SOG'LIQNI SAQLASHGA OID MUHIM QOIDALAR

Reja:

1. Sog'liqni saqlash bilan bog'liq O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ishlar.
2. Sog'liqni saqlash sohasida ish olib borayotgan xalqaro tashkilotlarning insonlar salomatligi yo'lidagi faoliyati.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida sog'liqni saqlash bilan bog'liq qoidalar.
4. Fuqarolar farovonligini ta'minlash – davlatning eng oliy burchi yoxud O'zbekiston – ijtimoiy davlat.

Tayanch so'z va iboralar: sog'lom turmush tarzi, tibbiyot, sog'liqni saqlash, tibbiy xizmat, davolash maskani, dori-vositalari, ijtimoiy yordam, JSST(Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti).

1. Sog'liqni saqlash bilan bog'liq O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ishlar

Bugungi kunning eng dolzarb masalasi va muammosi sifatida qolayotgan inson va uning salomatligi har qachongidan ham unga diqqat-e'tiborni tortishga sabab bo'lmoqda. Yer atmosferasida bo'layotgan o'zgarishlar, ekologik buzilish va yarim tayyor, sifat-siz mahsulotlarni iste'moli va turli xil sharoitlarda mehnat qilish, ijtimoiy yordam bilan bog'liq muammolarning insoniyatning global muammosi sifatida BMTning Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti va shunga o'xshash tashkilotlarni muammoni oldini olish choralari izlashga undamoqda.

Har bir mamlakatda sifatli tibbiyot tizimi mavjudligi juda muhim. Fuqarolar zarur paytlarda sifatli tibbiy xizmat uchun davlatga suyana olishi alohida ahamiyatga ega. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyada fuqarolar davlat hisobidan tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini olishga haqli ekanligi belgilanmoqda. Bu juda muhim ijtimoiy kafolatdir. Chunki aholining ayrim qatlamlari pulli asosda yoki xususiy shifoxonalar xizmatidan foydalanishga imkoniyati yetmasligi mumkin. Ana shunday vaziyatda davlat o'z fuqarosini kafolatlangan tibbiy xizmat bilan ta'minlash

majburiyatini o'z zimmasiga olishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyadan o'rin olayotgan ushbu modda aynan mazkur jihatlarni ko'zda tutadi. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 48-moddasida, «Har kim sog'lig'ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini qonunda belgilangan tartibda davlat hisobidan olishga haqli. Davlat sog'liqni saqlash tizimini, uning davlat va nodavlat shakllarini, tibbiy sug'urtaning har xil turlarini rivojlantirish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta'minlash choralarini ko'radi. Davlat jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi» deb belgilangan.

Masalan, davlat hisobidan kafolatlangan tibbiy xizmatni rivojlantirish maqsadida 2021-yildan boshlab, birlamchi bo'g'inda aholini 66 turdagi, 2022-yilda 120 turdagi dori vositalari bilan bepul ta'minlash yo'lga qo'yildi. Ixtisoslashgan markazlarda bepul davolanadigan kasalliklar ro'yxati shakllantirilib, tibbiy yordam uchun yo'llanma elektron navbat asosida berilmoqda. Eng muhimi, bu tizimga asosan, mablag'lar shifoxonaga emas, balki aniq bemorga ajratilmoqda.

Bu borada, o'tgan yildan boshlab, har bir mahallada «xonadonbay» ishlaydigan tibbiy brigadalar tashkil etildi. 2021-yildan, birlamchi bo'g'inda aholini 66 turdagi dori vositalari bilan bepul ta'minlash yo'lga qo'yildi. Hozirgi vaqtda shamollash, qon bosimi, yurak xuruji, qandli diabet, oshqozon va nafas yo'llari kasalliklarini davolash uchun eng zarur dorilarni odamlarimiz ortiqcha sarson bo'lmasdan, oilaviy shifokor punktlari va poliklinikalardan olishmoqda.

Aholiga sifatli tibbiy yordamni kengaytirish maqsadida, birlamchi tizimga 20 mingta o'rta tibbiyot xodimlari qo'shildi. Shuningdek, qishloqlarda joylashgan 801 ta oilaviy poliklinika yangi zamonaviy «UZI» va «EKG» apparatlari bilan ta'minlandi. Shu orqali, qishloq va mahallalarda 8 turdagi yangi tibbiy xizmatlar yo'lga qo'yildi. Jumladan, salomatlik ko'rsatkichlari bo'yicha xavf guruhiga kirgan 12 million aholini maqsadli skriningdan o'tkazish ishlari start berildi. Bularning barchasi, o'z navbatida, sifatli tibbiy xizmatlarni «mahallagacha tushirish» bo'yicha muhim qadamlar bo'ldi.

Birgina, 2022-yilning o'zida tibbiyot sohasiga budjetdan 24 trillion so'm yo'naltirildi, bu mablag' 2016-yilga nisbatan 4 barobar ko'pdir. O'tgan besh yilda shifoxonalar va tez tibbiy yordam punktlarini dori-darmon, tibbiyot buyumlari bilan ta'minlash uchun mablag'lar 12 barobar ko'paytirildi. Shu davrda sog'liqni saqlash tizimini yaxshilash uchun xalqaro moliya tashkilotlaridan 700 million dollardan ziyod mablag'lar jalb qilindi.

Xususan, qishloqlardagi 801 ta oilaviy poliklinika zamonaviy tashxis apparatlari bilan ta'minlandi. Bu orqali qishloq va mahallalarda 8 turdagi yangi tibbiy xizmatlar yo'lga qo'yildi. Hududlarda 23 ta ixtisoslashgan tibbiyot markazlarining yuzdan ortiq filiallari faoliyat boshladi.

Tibbiy sohani, shu jumladan uning nodavlat shakllarini rivojlantirish davlat majburiyatlariga o'tkazilishi fuqarolarga sifatsiz tibbiy yordam ko'rsatish yoki umuman tibbiy yordam ko'rsatmaslik holatlarining oldini olishga ko'maklashadi.

Shu bilan birga, barcha hududlarda ham sport bilan shug'ullanish uchun yetarli sharoitlar bor deb ayta olmaymiz. Shu sababli sport bilan shug'ullanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun sharoitlarni yaratish Konstitutsiya darajasigacha oshirilib, davlat majburiyatiga aylanmoqda. Mazkur masalaning Konstitutsiya darajasiga ko'tarilishi – aholi salomatligi milliy manfaatlarimizning muhim tarkibiy qismi ekanligini bildiradi. Sog'lom turmush tarzi, insonning yosh, jins, maqom va jismoniy holatiga bog'liq bo'lib, uning o'ziga xos xususiyatlari bilan ayni holda bo'ladi.

Sog'lom turmush tarzida insonning organizmiga to'g'ri kirish-chiqishi, yaxshi muloqotda bo'lishi, o'zining o'rniga muvofiq ishlashi, yordam topishi, o'zining me'yoriy-ma'rifiy rivojlanishiga e'tibor beriladi.

Sog'lom turmush tarzini amalga oshirish uchun insonning uy-joy muhiti, oraliq va muassasalarda salomatlikni saqlash, tabiiy va ijtimoiy murakkabliklarni bajarish, me'yori va sog'lom taomlarni iste'mol qilish, doimiy jismoniy faoliyatni amalga oshirish va ragular tibbiy tekshirishlarni o'tkazish kerak. Bunday turmush tarzi insonning uzoq muddatli sog'ligini saqlash va yosh ketishning ta'sirini kamaytirishda muhim rol o'ynaydi.

Davlat tibbiyot sohasiga oid eng muhim vazifalarni o'z zimmasiga olayotgani onalar va bolalar o'limi, yuqumli kasalliklar tahdidini bartaraf etishda alohida ahamiyatga ega bo'ladi.

Konstitutsiyadagi normaning yana bir ahamiyati shundaki, davlat o'z fuqarolarining moddiy ahvolidan qat'iy nazar kafolatlangan bepul tibbiy yordam bilan qamrab olinishini mustahkamlamoqda. Bu fuqarolar, ayniqsa, moddiy sharoiti yaxshi bo'lmagan fuqarolarning sog'lig'ini saqlashga davlat g'amxo'rlik qilishdan to'xtamasligini anglatadi. Kafolatlangan tibbiy yordamga oid normaning belgilanishi aholi, onalar va bolalar o'limi, yuqumli kasalliklar tahdidini bartaraf etishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Yangi norma orqali tibbiyotning nodavlat shakllarini rivojlantirish, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish uchun sharoit yaratish ishlari yanada yaxshilanadi.

Joylardagi ayrim mas'uliyatsiz va doim ham tashabbus ko'rsatmaydigan ijrochilarga bu vazifalarni majburiyat sifatida belgilamoqda.

Bugungi kunda sog'liqni saqlash sohasida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar tibbiy xizmatga baho berish mezonlari o'zgarganligidan dalolat beradi. Ushbu jarayon sog'liqni saqlash sohasida ham jadallik bilan kechmoqda. Tibbiyoti rivojlangan davlatlardagi kabi eng ilg'or innovatsion taraqqiyotga erishish borasida jiddiy qadamlar tashlanmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda tibbiy xizmatni yanada yuksaltirishga daxldor xayrli tashabbuslar sog'liqni saqlash istiqbolini belgilab berdi. Davlatimiz rahbari tizimda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar, aholining haqli e'tirozlariga sabab bo'layotgan dolzarb masalalar, tibbiyot muassasalari faoliyatiga oid to'planib qolgan muammolarni bartaraf etish vazifasini qat'iy qo'ydilar.

Xalqimiz talab va ehtiyojiga mos islohotlar jarayonida tibbiyotning birlamchi bo'g'iniga alohida e'tibor qaratilmoqda. Sababi, bugungi kunda qishloq vrachlik punkti, qishloq oilaviy poliklinikasi hamda shahar oilaviy poliklinikasi deb ataluvchi tibbiyot muassasalari aholiga yaqin joylashgani uchun kimdir shifo istab, kimdir tibbiy maslahat olish ilinjida ushbu muassasalarga tez-tez murojaat qiladi. Bunda odamlarning talab va ehtiyojiga mos tibbiy xizmat ko'rsatilsa, tabiiyki, xalqimizda tibbiy xizmatga nisbatan ishonch va qoniqish hissi yuqori bo'ladi. Ana shu jihatlar e'tiborga olinib, ilgari samarasiz ishlagan bir qator qishloq vrachlik punktlari o'rnida, qishloq oilaviy poliklinikalari tashkil etildi. Qishloq vrachlik punktlaridan farqli ravishda qishloq oilaviy poliklinikalarida umumiy amaliyot shifokori bilan bir qatorda, beshta tor mutaxassis –

ginekolog, pediatr, xirurg, stomatolog, ultratovush tahlil apparatida ishlaydigan shifokor faoliyati ta'minlandi. Shahar oilaviy poliklinikalarida esa o'nta yo'nalishda tor mutaxassislar aholiga xizmat ko'rsatmoqda. Yana bir muhim soha – oilalarga borib aholi orasida tibbiy madaniyat tarqatuvchi patronaj hamshiralar faoliyati takomillashmoqda. Xususan, keyingi ikki-uch yil ichida bu yo'nalishda 140 dan ziyod me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Ularda belgilangan vazifalar bosqichma-bosqich hayotga tatbiq etilishi natijasida aholiga ko'rsatilayotgan birlamchi tibbiy-sanitariya, shoshilinch va tez tibbiy yordam, ixtisoslashtirilgan xizmatlar takomillashmoqda. Bunday keng qamrovli chora-tadbirlar tufayli aholining o'rtacha umr ko'rish ko'rsatkichi uzaymoqda. Onalar, bolalar o'limining oldini olish, kasalliklarni barvaqt aniqlash, oilalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda sezilarli natijalarga erishilmoqda. E'tiborli jihati, davlat budjetidan sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirishga ajratilayotgan mablag'lar ham yildan-yilga ko'paymoqda. «Obod qishloq» va «Obod mahalla» dasturlari hamda «Salomatlik-3» loyihasi doirasida ham qator investitsiya dasturlari amalga oshirildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 7-dekabrda «O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoni mamlakatimiz tibbiyoti taraqqiyotida yangi davrni boshlab berdi, desak ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. Farmon bilan tasdiqlangan 2019–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasida muhim vazifalar belgilandi. Jumladan, sohada milliy qonunchilikni takomillashtirish, tibbiyot sohasida zamonaviy boshqaruv tizimi va hududlarda «klaster» modelini shakllantirish, moliyalashtirish tizimini tubdan takomillashtirish, tibbiy yordamning samaradorligi, sifati va ommabopligini oshirish, onalik va bolalik muhofazasini kuchaytirish, xususiy tibbiyot, davlat-xususiy sheriklik mexanizmi va tibbiy turizmni rivojlantirish orqali investitsiyalarni keng jalb etish, farmatsevtika tarmog'i, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash, malaka oshirish, tibbiyot fanini rivojlantirish hamda elektron sog'liqni saqlash tizimini keng joriy etish kabi ustuvor vazifalar aks etgan konsepsiya ijrosini ta'minlash barchamizning zimmamizga ulkan mas'uliyat yuklaydi.

Xususiy tibbiyotni rivojlantirish ham bugungi tibbiy-ijtimoiy islohotlarning muhim yo'nalishidir. Xususiy tibbiyot muassasalari-

ni rivojlantirish bo'yicha sezilarli ishlar amalga oshirilib, bugungi kunda mamlakatimizda 5 mingdan ziyod xususiy klinikalar faoliyat yuritmoqda. Joriy yilning o'tgan olti oyida mamlakatimiz bo'yicha 434 ta yangi xususiy tibbiyot muassasalari tashkil etildi. Shundan 18 ta loyiha chet el investitsiyasi ishtirokida amalga oshirildi.

Ayni paytda tibbiyot tizimini yanada takomillashtirish, sog'liqni saqlash sohasiga investitsiyalar oqimini ko'paytirish, investorlarga qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik tizimi joriy etilmoqda.

E'tiborli jihati, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-apreldagi «Sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4290-sonli qarori tibbiyot sohasida yangi davrni boshlab berdi. Ushbu hujjat davlat hamda xususiy sektorlarning birgalikda ishlashi, investorlarning yurtimiz hududida, davlat sektorida faol ish yuritishi uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Endilikda investorlar o'zlariga qulay bo'lgan muhitda, o'zlari istagan davlat tibbiyot muassasalariga investitsiya kiritish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Aholi salomatligini asrashda muhim tuzilma – shoshilinch tibbiy yordam xizmatini takomillashtirish, faoliyat samaradorligi va tezkorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar yildan-yilga takomillashib bormoqda. Bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-oktyabrdagi «O'zbekiston Respublikasida tez tibbiy yordam xizmatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3973-sonli qarori muhim ahamiyat kasb etdi.

Tez tibbiy yordam xizmatining maxsus sanitar avtotransport parki qariyb 1500 ta yangi avtomashinalarni xarid qilish evaziga batamom yangilanib, ularning umumiy soni 2400 ga yetkazildi. Natijada, tizimning maxsus avtotransportga bo'lgan talabi mamlakatimiz tarixida birinchi marta to'liq qoplendi. Tez tibbiy yordam mashinalarining 10 foizini zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlangan, xoriyda ishlab chiqarilgan reanimobillar tashkil etmoqda. Tez tibbiy yordam xizmati xalqaro mezonlar darajasiga ko'tarilib bormoqda.

Hozirda mamlakatimizda xirurgiya, kardiologiya, ko'z mikroxirurgiyasi, urologiya, endokrinologiya, onkologiya, nevrologiya, allergologiya kabi ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari soni 16 taga yetdi. Shuningdek, tumanlarda 306 ta ixtisoslashgan bo'limlar, vilo-

yat markazlarida respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlarining 10 ta filiali tashkil qilindi. Yuqori texnologiyali operatsiyalar ulushi 57 foizga yetdi. Yangi diagnostik usullar soni 144 tani va yangi davolash usullari 208 tani tashkil qildi. Shu o'rinda ayrim misollarga to'xtalib o'tsak. Akademik V. Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi hamda Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazida buyrak ko'chirib o'tkazish bo'yicha operatsiyalar muvaffaqiyatli bajarib kelinmoqda.

Sog'liqni saqlash rivoji yo'lidagi ulkan maqsadlarni o'z vaqtida ro'yobga chiqarish tibbiyot sohasida mehnat qilayotgan 70 ming nafardan ziyod shifokorlar va ko'p ming sonli o'rta tibbiyot xodimlarining sharaflari burchidir. Shu bois, xodimlarning samarali faoliyat yuritishi uchun munosib sharoit yaratish va mehnatga yarasha haq to'lash choralari ko'rilyapti.

2. Sog'liqni saqlash sohasida ish olib borayotgan xalqaro tashkilotlarning insonlar salomatligi yo'lidagi faoliyati

Dunyoda sog'liqni saqlash sohasida eng katta rol o'ynab kelayotgan Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) – xalqaro tibbiy tashkiloti bo'lib, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) ning ixtisoslashgan maxsus muassasasi hisoblanadi. 1945-yil fevralda BMT konferensiyasida Jahon sog'liqni saqlash tashkilotini tuzish to'g'risida qaror qabul qilingan edi. 1946-yilda sog'liqni saqlash bo'yicha Nyu Yorkda o'tkazilgan Xalqaro konferensiyada BMTga a'zo 26 ta mamlakat tashkilot ustavini ratifikatsiya qilgach, 1948-yil 7-aprelda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tuzildi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti kasalliklarga qarshi kurash olib boradi, ularni tugatish tadbirlarini ko'radi; atrof muhit muhofazasi, yuqumli va yuqumsiz (sil, venerik va parazitlar kasalliklari, yurak tomir kasalliklari, xavfli o'smalar va boshqalar) ga qarshi kurash uchun xalqaro standartlar belgilash, dori moddalar sifati va qo'shimcha ta'siri hamda narkotik moddalar ustidan xalqaro nazorat o'rnatish; tibbiyot fanining eng muhim masalalari (toksikologiya, farmakologiya, atrof muhit gigiyenasi va boshqalar) bo'yicha hamda sog'liqni saqlash sohasidagi tadqiqotlarni koordinatsiyalash va ularni o'tkazishga ko'maklashish ham Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining vazifa-

si hisoblanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti xalqaro karantin sohasida qator tadbirlarni amalga oshiradi: chechak, vabo va boshqa bilan kasallanish hollari to'g'risida mamlakatlarga o'z vaqtida xabar beradi. Tashkilot tarkibiga 6 regional tashkilot kiradi. Ular har birining o'z ijroiya organlari va regional byurolari bor. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining oliy organi – Jahon sog'liqni saqlash assambleyasini mamlakatlar saylaydi, uning sessiyasi har yili chaqirib turiladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining markaziy ma'muriy organi – Sekretariatga (rasmiy idorasi Shveysariyaning Jeneva shahrida joylashgan) Bosh direktor rahbarlik qiladi.

FHI 360 (sobiq Family Health International) Shimoliy Karolinada joylashgan inson taraqqiyoti uchun notijorat tashkilotdir. FHI 360 70 dan ortiq mamlakatlarda va AQSHning barcha shtatlari va hududlarida ishlaydi. 1971-yilda tashkil etilgan tashkilot oilani rejalashtirish va reproduktiv salomatlik bilan bog'liq loyihalarni boshqaradi. 1986-yilda tashkilot butun dunyo bo'ylab OIV/OITSGa qarshi kurashni boshladi. FHI 360 tadqiqot va dasturlari bezgak, sil va boshqa yuqumli va surunkali kasalliklar hamda xalqaro agentliklar, hukumatlar, jamg'armalar, tadqiqot institutlari va individual donorlarga qaratilgan.

Global sog'liqni saqlash kengashi dunyo bo'ylab global sog'liqni saqlash ustuvorliklari bo'yicha himoyachilar, amalga oshiruvchilar va manfaatdor tomonlarni qo'llab-quvvatlovchi va bog'laydigan Amerika Qo'shma Shtatlarida joylashgan notijorat yetakchi tarmoq tashkilotidir. Kengash butun dunyo bo'ylab salomatlikni yaxshilashga qaratilgan siyosat va dasturlarni ilgari surishga bag'ishlangan dunyodagi eng yirik a'zolik ittifoqidir. Kengash 150 dan ortiq mamlakatlardan minglab sog'liqni saqlash mutaxassislariga xizmat ko'rsatadi va ularning vakili hisoblanadi. Ular «investitsiyalar, qat'iy siyosatlar va jamoaviy ovozning kuchi orqali global miqyosda salomatlikni yaxshilash uchun» ishlaydilar. Ularning veb-saytiga ko'ra Kengash sog'liqni saqlashning asosiy global ustuvorliklari atrofida manfaatdor tomonlarni yig'adi va sog'liqni saqlash siyosatiga ta'sir qilish uchun asosiy qaror qabul qiluvchilarni faol jalb qiladi (Partners In Health [PIH] – 1987-yilda Pol Farmer, Ofeliya Daxl, Tomas J. Uayt, Todd Makkormak va Jim Yong Kim tomonidan tashkil etilgan xalqaro notijorat sog'liqni saqlash tashkiloti). Partners in Health, rivojlanayotgan mamlakatlarning eng qashshoq hududlarida

sog'liqni saqlash xizmatlarini ko'rsatadi. U shifoxonalar va boshqa tibbiyot muassasalarini quradi, mahalliy xodimlarni yollaydi va o'qitadi, shuningdek, uyda maslahat berishdan tortib saraton kasalliklarini davolashgacha bo'lgan bir qator sog'liqni saqlash xizmatlarini taqdim etadi. Shuningdek, u iflos suv yoki oziq-ovqat yetishmasligi kabi salomatlikni saqlash uchun to'siqlarga qarshi kurashadi va kambag'allarning huquqlarini himoya qiladi.

U mahalliy sog'liqni saqlash vazirliklari bilan uzoq muddatli hamkorlikni yo'lga qo'yadi va ular nomidan ishlaydi. PIH hozirda notijorat baholovchi Charity Navigator tomonidan 4 yulduzdan 4 ballga ega.

GAVI, rasman **Gavi, Vaksinalar alyansi** (ilgari **GAVI alyansi** va undan oldin **Vaksinalar va emlash bo'yicha global alyans**) kambag'al mamlakatlarda emlash imkoniyatini oshirish maqsadida davlat-xususiy global sog'liqni saqlash hamkorligidir. 2016-yilda Gavi sog'liqni saqlash uchun jami donor yordamining yarmidan ko'pini va immunizatsiya uchun donor yordamining ko'p qismini pul ko'rinishida yo'naltirdi.

Gavi dunyodagi bolalarning deyarli yarmini emlashni ta'minlaydi. Gavi 760 milliondan ortiq bolalarni emlashda yordam berdi, butun dunyo bo'ylab 13 milliondan ortiq o'limning oldini oldi, qo'llab-quvvatlanadigan mamlakatlarda difteriyaga qarshi vaksinani 2000-yildagi 59 foizdan 2019-yilda 81 foizgacha oshirishga yordam berdi va bolalar o'limini ikki baravar kamaytirishga o'z hissasini qo'shdi. Shuningdek, u vaksinalarning bahosini pasaytirishga, omamaviy narxlar bo'yicha muzokaralar olib borishga, narxlarni kamaytirishni qo'llab-quvvatlashga va ishlab chiqaruvchilar vaksinalarni kambag'allarga sotishda va Vaksinalarni ishlab chiqishda duch keladigan tijoriy xavflarni kamaytirishga intiladi.

Yana bir xalqaro sog'liqni saqlash tashkiloti bu – **Amerika Qo'shma Shtatlarining Xalqaro Taraqqiyot Agentligi (USAID)** AQSH federal hukumatining mustaqil agentligi bo'lib, u asosan fuqarolik tashqi yordami va taraqqiyot yordamini boshqarish uchun javobgardir. Budjeti 27 milliard dollardan ortiq bo'lgan USAID dunyodagi eng yirik rasmiy yordam agentliklaridan biri bo'lib, AQSHning barcha tashqi yordamlarining yarmidan ko'prog'iga to'g'ri keladi – mutlaq dollar hisobida dunyodagi eng yuqori ko'rsatkich.

Kongress 1961-yil 4-sentyabrda «Tashqi yordam to'g'risida»gi qonunni qabul qildi. Unga ko'ra AQSHning tashqi yordam dasturlari qayta tashkil etildi va iqtisodiy yordamni boshqarish bo'yicha agentlik tashkil etilishi belgilandi. USAID keyinchalik prezident Jon Kennedining farmoni bilan tashkil etilgan bo'lib, u bir qancha mavjud xorijiy yordam tashkilotlari va dasturlarini bir agentlik ostida birlashtirishga intildi. USAID AQSHning birinchi tashqi yordam tashkiloti bo'ldi, uning asosiy yo'nalishi uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga qaratilgan. Hozirda bu sohada yuqorida tashkilotlardan boshqa yana ko'plab xalqaro tashkilotlar faoliyat olib bormoqda.

3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida sog'liqni saqlash bilan bog'liq qoidalar

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng aholi salomatligini muhofaza qilish sohasini isloh qilish boshlandi.

Sog'liqni saqlash tizimining asosiy tamoyillari:

– profilaktik yo'nalishni tiklash; uning zamonaviy va samarali usullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

– onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish tadbirlarini kuchaytirish;

– tibbiy ta'lim tizimi va kadrlar tayyorlash sohasini takomillashtirish;

mamlakatda sifatli va yetarli miqdorda dori-darmon, tibbiy ashyolar hamda shu sohaga taalluqli texnik vositalar ishlab chiqaradigan sanoat vujudga keltirish;

sog'liqni saqlash muassasalarining moddiy texnik bazasini yanada yaxshilash; davolash-profilaktika muassasalarining bir qismini davlat tasarrufidan chiqarib, mulkchilik shaklini o'zgartirish asosiy vazifa qilib qo'yildi.

O'zbekistonda Sog'liqni saqlash ishlarini O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi boshqaradi. Qoraqalpog'iston Respublikasida Sog'liqni saqlash vazirligi, viloyatlar, shaharlar hamda tumanlarda tegishli boshqarma yoki bo'limlar mavjud. Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Kasaba uyushmalari federatsiyasi, shuningdek, «Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya jamg'armasi, «Qizil yarim oy» jamiyati, «Nuroni» jamg'armasi va boshqa tashkilotlar o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida sog'liqni saqlashga oid muhim qoidalar mavjud. Masalan, qonunchilikda ta'lim olish muassasalarida sog'liqni saqlashni ta'minlash, ta'lim oluvchilarga sog'liqni saqlash uchun shartlarni yaratish va ularni amalga oshirish vazifasi belgilangan. Bu qoidalarga amal qilma-gan ta'lim olish muassasasi va rahbar xodimlariga amaldagi normativ huquqiy hujjatlarda ko'zda tutilgan huquq bilan, ijtimoiy organlar tomonidan qonun normasining ijrosi hamda muvozanati ta'minlanadi.

Bundan tashqari, Konstitutsiyada xalqaro hujjatlarga qo'shimcha qilingan holatda, sog'liqni saqlash va ta'lim olishga barcha insonlar uchun biror munosabatni talab etadi. Xalqaro hujjatlarda sog'liqni saqlash va ta'lim olishga qarshi kampaniyalar, inson huquqlari va sog'liqni saqlashga boshqa xalqaro amallar ko'rsatilgan.

Umuman olganda, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida sog'liqni saqlashga oid muhim qoidalar mavjud. Ularning amalga oshirilishi, sog'liqni saqlash va ta'lim olish muassasalarida o'tkazilgan ishlarining nazorati va tegishli organlar tomonidan kuzatilishi zarur.

Sog'liqni saqlash nima? Sog'liqni saqlash, shaxsiy va jamoat sog'lig'ini ta'minlashni, kasalliklarni oldini olish, davolash va kasalliklarni o'z vaqtida aniqlash borasidagi amaliy harakatlarni anglatadi. Bu shuningdek, sog'liqni saqlashga tegishli muassasalarni tashkil etilishi, sog'liqni saqlash xizmatlarining ko'rsatilishi, mehnatkashlarning sog'liqni saqlash uchun sharoitlarining yaratilishi va boshqa amallarni hisobga olishni anglatadi.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida sog'liqni saqlash bilan bog'liq modda va normalar kiritilgan.

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 48-moddasida quyidagi norma keltirilgan: «Har kim sog'lig'ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini qonunda belgilangan tartibda davlat hisobidan olishga haqli. Davlat sog'liqni saqlash tizimini, uning davlat va nodavlat shakllarini, tibbiy sug'urtaning har xil turlarini rivojlantirish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta'minlash choralari ni ko'radi. Davlat jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, aholi o'rta-

sida sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi». Mazkur masalaning Konstitutsiya darajasiga ko'tarilishi – aholi salomatligi milliy manfaatlarimizning muhim tarkibiy qismi ekanligini bildiradi.

Davlat tibbiyot sohasiga oid eng muhim vazifalarni o'z zimmasiga olayotgani onalar va bolalar o'limi, yuqumli kasalliklar tahdidini bartaraf etishda alohida ahamiyatga ega bo'ladi.

Konstitutsiyadagi normaning yana bir ahamiyati shundaki, davlat o'z fuqarolarining moddiy ahvolidan qat'iy nazar kafolatlangan bepul tibbiy yordam bilan qamrab olinishini mustahkamlamoqda. Bu fuqarolar, ayniqsa, moddiy shart-sharoiti yaxshi bo'lmagan fuqarolarning sog'lig'ini saqlashga davlat g'amxo'rlik qilishdan to'xtamasligini anglatadi. Kafolatlangan tibbiy yordamga oid normaning belgilanishi aholi, onalar va bolalar o'limi, yuqumli kasalliklar tahdidini bartaraf etishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Yangi norma orqali tibbiyotning nodavlat shakllarini rivojlantirish, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish uchun sharoit yaratish ishlari yanada yaxshilanadi.

Joylardagi ayrim mas'uliyatsiz va doim ham tashabbus ko'rsatmaydigan ijrochilarga bu vazifalarni majburiyat sifatida belgilangani quvonarli holdir. Bugungi kunda Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan normalarni hayotga tatbiq etishda mas'ul rahbar shaxslarni noqonuniy harakat va harakatsizligi ma'lum bir javobgarlikka sabab bo'lishi belgilab qo'yilgan.

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasida quyidagi norma keltirilgan «Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga ega. Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash va atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Shaharsozlik hujjatlarining loyihalari qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasidan o'tkaziladi. Davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Davlat Orolbo'yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko'radi».

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga normalar yurtimizda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati, xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni qurish, xalqimiz uchun tinch, obod va farovon hayot barpo etish, O'zbekistonning xalqaro maydonda munosib o'rin egallashida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Ta'kidlash joiz, so'nggi uch yilda qurilishlardan norozi bo'lib, aholidan 15 mingta murojaat kelib tushgan, sudlar tomonidan birgina Toshkent shahrida 200 dan ortiq qurilishlar to'xtatib qo'yilgan, avtomobillar soni 1,3 millionga ko'payib, 3,6 millionga yetgan, har yili atmosfera havosiga 2,2 million tonna sanoat va transport tashlanmalari chiqarilayotgani ham ushbu masala tobora dolzarb ahamiyat kasb etayotganligidan dalolat bermoqda.

Shu munosabat bilan, davlat atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha choralarni amalga oshiradi, fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash va atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Shaharlarning bosh rejalarini jamoatchilik muhokamasidan majburiy o'tkazilishi shartligi haqidagi Konstitutsiyaviy qoida hozirgi sharoitda tobora dolzarb ahamiyat kasb etib borayotgan shaharsozlikka oid masalalarni xalqimiz bilan bamaslahat yechish imkonini beradi.

Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga egaligi belgilanmoqda. Albatta, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha keng ko'lamlı islohotlarning asosiy maqsadi bu yurtdoshlarimiz uchun farovon va munosib turmush sharoitlarini yaratishdir. Bunga mustahkam poydevor bo'lib shubhasiz mamlakatimizda inson huquqlarining kafolati bo'lmish Konstitutsiyamiz xizmat qiladi.

Bir so'z bilan aytganda, belgilanayotgan yangi norma va prinsiplar demokratik huquqiy davlat qurish, inson huquq va erkinliklarini ta'minlashda muhim dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda mamlakatimizning 148 ta korxonasi 2000 dan ziyod nomdagi dorivor vositalarni ishlab chiqarmoqda, bu esa bozor ulushining 55 foizdan ortig'ini tashkil etadi. Ushbu dorilar:

– 35 farmakologik guruhlariga kiradi va tibbiyotning 28 yo'nalishida foydalaniladi;

- 8500 dorilardan 6300 turi import qilinadi;
- Xalqaro tibbiy amaliyotda qo'llaniladigan 350 dorivor o'simlikdan, 71 turi respublika sanoat plantatsiyalarida yetishtiriladi;
- O'zbekistonda Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan, qandli diabetni davolashda qo'llaniladigan insulin dori vositasini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan zavod joylashgan;
- Farmatsevtika korxonalarini kapitalining 35,7 foiz xorijiy hamkorlar ulushi, 64,3 foiz mahalliy ishtirokchilar ulushi tashkil etadi.

O'zbekiston Markaziy Osiyoning o'rtasida joylashgan bo'lib, qadimgi davrlardan boshlab bu yerdan Garb va Sharqni tutashtirgan savdo yo'llari o'tgan. Buyuk Ipak yo'lini tiklashga oid loyiha – Bir kamar – bir yo'l ushbu tarixiy ustuvorlikdan hozirgi paytda ham foydalanish imkonini beradi.

Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti ma'lumotiga ko'ra yurtimizda tug'ilishda o'rtacha umr ko'rish 7,74 yoshga, 2000-yildagi 65,3 yoshdan 2019-yilda 73 yoshga ko'tarildi. Butun dunyo bo'ylab tug'ilishda o'rtacha umr ko'rish 6,52 yoshga, 2000-yildagi 66,8 yoshdan 2019-yilda 73,3 yoshgacha yaxshilandi.

4. Fuqarolar farovonligini ta'minlash – davlatning eng oliy burchi yoxud O'zbekiston – ijtimoiy davlat

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining I-moddasida quyidagi norma keltirilgan «O'zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat».

O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat qurilishining muhim shartlaridan biri har bir shaxsning asosiy huquq va erkinliklari himoyasini va jamiyatdagi har bir inson huquqlarining amaliy kafolatlarini tizimini yaratishdir. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin inson manfaatlariga, uning huquq va asosiy erkinliklariga oliy qadriyat sifatida qaray boshladi. Bunga, 1991-yilning 30-sentyabrida Inson huquqlari butunjahon Deklaratsiyasi O'zbekistonning a'zo bo'lishining o'zi yoq yaqqol misol bo'la oladi. Chunki, ushbu yosh davlat mustaqilligining birinchi kunlaridanoq o'z oldiga erkin bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat qurishni maqsad qilib qo'ygan va bu yo'lda jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilib kelingan umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi tan olingan edi.

Huquqiy davlat – davlat tuzilishi va faoliyatining huquqqa asoslanganligidir. Huquqiy davlatda davlatning quyidagi prinsiplar asosida faoliyat yurgizishi va amal qilishi shart hisoblanadi: xalq suvereniteti; shaxsning huquq va erkinliklarining hech kim, shu jumladan, davlat tomonidan ham har qanday holda buzilmasligi; Konstitutsiya va qonunning ustunligi; hokimiyatning bo'linishi tamoyiliga amal qilish; sudlarning mustaqilligi, xalqaro huquq normalarining milliy huquq normalaridan ustun bo'lishi kabilar.

Huquqiy davlatda eng oliy qadriyat inson hisoblanadi. Davlat faqat huquq normalarini yaratib qolmay, o'zi ham ularga amal qilishi huquqiy davlatning eng muhim xususiyatidir. Huquqiy davlat demokratiyaning ajralmas belgisidir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasida O'zbekiston xalqi insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishni ko'zlab o'zining muxtor vakillari siyosida davlatimizning asosiy qonunini qabul qilishi ta'kidlab o'tilgan. O'zbekistonning mustaqil davlatchiligi davrida Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi g'oyasi xalq ijtimoiy ongining tarkibiy qismiga aylandi.

Qonunni chetlab o'tish emas, aksincha, qonun talablari asosida, unga mos va muvofiq ravishda yashash lozimligi kishilar ongiga tobora singib bormoqda. davlat inson huquqlari va manfaatlarini ta'minlashning izchil huquqiy mexanizmini yaratish tadbirlarini amalga oshirdi. Huquqiy davlatda barcha jarayonlar qonuniy asoslar ustiga quriladi, davlat xizmatchilaridan huquq doirasida fikrlash, barcha masalalarga huquqiy ko'z bilan qarash talab etiladi. Qolaversa, huquqiy davlatda barcha fuqarolar qonun oldida teng bo'ladi, davlat hokimiyatining oliy organlari ham qonunlarga bo'ysunadi va qonunlarning muqarrar ijrosini ta'minlaydi, deyilgan. Xalq suvereniteti xalqning davlatni boshqarishdagi to'la hukmronligi, xalq hokimiyati, xalq boshqaruvi ma'nolarini anglatadi.

Inson huquqlari deganda, davlat yoki mansabdor shaxslar tomonidan muayyan shaxslarning qonuniy huquq va erkinliklarini buzilishi tushuniladi. Bunday buzilishlar, mavjud qonunlarga rioya qilmaslik, fuqarolarning o'z huquqlarini amalga oshirishlariga mansabdor shaxslar tomonidan to'sqinlik qilish, yoki bo'lmasa, davlat tomonidan o'zining xalqaro majburiyatlariga zid holda qonunlar, yoki qonun osti hujjatlarini chiqarishlar orqali ham amalga oshirishi mumkin. Ya'ni davlat u yoki bu majburiy xalqaro hujjatni im-

zolash orqali inson huquqlariga oid xalqaro andozalarni bajarishni o'z zimmlariga oladilar, ammo mamlakatda ushbu hujjatlar yetarli ravishda implementatsiya qilinmaydi. Uning normalari milliy qonunchilikka qo'llanilmaydi.

Huquqiy davlatda barcha jarayonlar qonuniy asoslar ustiga quriladi, davlat xizmatchilaridan huquq doirasida fikrlash, barcha masalalarga huquqiy ko'z bilan qarash talab etiladi. Qolaversa, huquqiy davlatda barcha fuqarolar qonun oldida teng bo'ladi, davlat hokimiyatining oliy organlari ham qonunlarga bo'ysunadi va qonunlarning muqarrar ijrosini ta'minlaydi.

O'zbekiston o'zini ijtimoiy davlat deb e'lon qilishi bilan, har bir fuqarosiga munosib turmush kechirishi uchun shart-sharoit yaratish majburiyatini olmoqda. Bu – mavjud resurslarni ijtimoiy adolat tamoyillari asosida taqsimlash, jamiyatda kuchli tabaqalanish avj olishiga yo'l qo'ymaslik, eng zaif qatlamlar uchun ham sifatli ta'lim va tibbiyot kafolatlanishi, samarali ijtimoiy himoya dasturlari ishlashi, imkoniyati cheklangan va qo'llovga muhtoj fuqarolarni qo'llab-quvvatlash, adolatli mehnat qonunchiligi va jozibador pensiya tizimi kabilarni anglatadi. Oddiyroq aytganda, eng kambag'al oilaning bolalarida ham sog'-salomat o'sib-ulg'ayib, yaxshi ta'lim olib, farovonlikka erishish imkoniyati bo'lishi kerak.

«Ijtimoiy davlat» tushunchasi «Inson qadri» tushunchasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ushbu g'oyaning tub negizida, avvalo, inson qadrini ulug'lash, aholiga xizmat qilishdek olijanob maqsad mujassam. Ijtimoiy davlat har bir inson uchun ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillari asosida munosib yashash sharoitini yaratib beradi. U ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish, muhtojlarga yordam berish bo'yicha samarali siyosat olib boradigan davlat modelidir.

Shuningdek, ijtimoiy davlat muhtojlarga uy-joy, yashash uchun zarur bo'lgan iste'mol tovarlarining eng kam miqdori belgilab qo'yilishini nazarda tutadi. Shaxs va uning oilasi munosib hayot kechirishi uchun yetadigan ish haqi, bandlikni ta'minlash, xavfsiz mehnat sharoitini yaratish, kambag'allikni qisqartirishni talab qiladi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda aholi turmush darajasini yuksaltirish, bandlikni ta'minlash, kafolatlangan sifatli ta'lim, malakali tibbiy yordam, barcha uchun teng imkoniyatlar yaratish, oilalar, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bor shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan

islohotlar zamirida ham ana shunday ezgu maqsad mujassam. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham aholining ijtimoiy muhofazaga muhtoj qatlami manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan qator normalar o'z ifodasini topgan. Xususan, amaldagi Konstitutsiyaga muvofiq, «Har kim munosib mehnat qilish, erkin kasb tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitilishlarsiz va belgilangan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoridan kam bo'lmagan tarzda adolatli haq olish, shuningdek, ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalani huquqiga ega»ligi belgilandi.

Dunyoviy davlatda davlat va din bir-biridan ajratilgan bo'ladi. Davlat diniy e'tiqodidan qat'iy nazar barchaga bir xil munosabatda bo'ladi, dinga oid masalalarda neytral pozitsiyani egallaydi. Yangi Konstitutsiyaning 154-moddasi bilan, 1-moddadagi qoidalarni qayta ko'rib chiqish mumkin emas, deb belgilandi. Xuddi shuningdek, 154-moddaning o'zidagi aynan shu qoidadan iborat band ham qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas.

Boshqacha aytganda, bu norma – O'zbekiston hech qachon demokratiyadan voz kechmasligi, huquqiy davlatchilikka sodiqligi, monarxiyaga yoki islomiy respublikaga aylanmasligini nazarda tutadi.

Nazorat savollari:

1. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyada sog'liqni saqlash bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladigan norma bilan tanishganmisiz? O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini qonunda belgilangan tartibda davlat hisobidan olishga munosabatingiz qanday?

2. Tibbiyot sohasiga budjetdan ajratilayotgan moddiy mablag'lardan xabardormisiz? Sog'liqni saqlash sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar to'g'risida fikringiz qanday? Sog'liqni saqlash sohasida qanday amaliy ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaysiz?

3. Respublikamizdagi qishloqlardagi oilaviy poliklinikalarni zamonaviy tashxis apparatlari bilan ta'minlanganligidan xabardormisiz? Oilaviy poliklinikalarda o'rnatilgan zamonaviy tashxis apparatlaridan foydalanganmisiz?

4. Qishloq vrachlik punktlaridan farqli ravishda qishloq oilaviy poliklinikalarida umumiy amaliyot shifokori bilan bir qatorda qanday tor mutaxassis faoliyat olib borishidan xabardormisiz? Oilaviy poliklinikalarida ginekolog, pediatr, xirurg, stomatolog, ultratovush tahlil apparatida ishlaydigan shifokor faoliyatidan foydalanganmisiz?

5. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasi «O'zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat» deganda nimani tushunasiz?

6. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkilotining yurtimizda olib borilayotgan faoliyatidan xabardormisiz?

7. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti faoliyatidan xabardormisiz? Tashkilot faoliyati sizningcha qoniqarlami?

7-mavzu. KONSTITUTSIYADA DAVLAT ZIMMASIDAGI MUHIM IJTIMOYIY MAJBURIYATLAR

Reja:

1. Davlat fuqarolarning bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish choralarini ko'radi.

2. Ta'limni rivojlantirish va unga g'amxo'rlik qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi.

3. Nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalar obyektlari va xizmatlaridan to'laqonli foydalanishi uchun yaratilgan huquqiy me'yorlar.

4. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya ommaviy axborot vositalarining axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatishga bo'lgan huquqlari amalga oshirilishini kafolatlaydi.

Tayanch so'z va iboralar: Ijtimoiy tamoyil, ijtimoiy ta'minot, iste'mol savatchasi, majburiy mehnat, ijtimoiy adolat, ehtiyojmand aholi, ipoteka dasturlari, shaxsiy mulk, huquqiy normalar, sifatli tibbiyot, kompensatsiya dalil, grant, akademik erkinlik, inklyuziv ta'lim, feyk, provokatsiya.

1. Davlat fuqarolarning bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish choralarini ko'radi

Asosiy qonunimizda mustahkamlanganidek O'zbekiston yangi tahrirdagi konstitutsiyaga muvofiq ijtimoiy davlat, deb e'lon qilindi va davlatning ijtimoiy majburiyatlari 3 barobar ko'paytirildi. Barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili dini, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar qonun oldida tengdirlar. Demak O'zbekiston ijtimoiy adolat tamoyili borasida faol islohotlar olib bormoqda. Mamlakatimiz eng birinchi navbatda inson qadri barcha narsadan ustun ekanligini asosiy qonunimizga kiritdi va huquqiy normalar asosida mustahkamlab qo'ydi.

Ijtimoiy tabiatga ega davlatimiz har kimga qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganida shuningdek, boquvchisidan mahrum bo'lganida va qonunda belgilangan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqini kafolatlab bu borada o'z mas'uliyatini ilgari suradi. Ilk

marotaba davlat zimmasiga aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarining turmush sifatini oshirishga, jamiyat va davlat hayotida to‘laqonli ishtirok etishi uchun ularga shart-sharoitlar yaratishga hamda ularning asosiy hayotiy ehtiyojlarini mustaqil ravishda ta‘minlash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan choralarni ko‘rish majburiyati yuklandi¹.

Shuningdek, pensiyalar nafaqalar ijtimoiy yordamning boshqa turlari miqdori rasman belgilab qo‘yilgan tirikchilik uchun zarur moddiy mablag‘ning eng kam miqdoridan oz bo‘lishi mumkin emasligi qayd etildi. Tahlillarga nazar soladigan bo‘lsak, mamlakatimizda 2 million 200 mingdan ziyod ijtimoiy ko‘makka muhtoj, davlatdan yordam olayotgan oilalar bor bo‘lib, aholimizning 55 foizini yoshlar tashkil etadi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada esa barcha ijtimoiy qatlamni huquqiy muhofazasi bo‘yicha normalar belgilangan.

Shuni alohida qayd etish joizki, davlatning ijtimoiy majburiyatlariga doir normalar uch barobarga oshganligi, xususan, kambag‘allikni qisqartirish, bandlikni ta‘minlash, ishsizlikdan himoya qilish bo‘yicha davlat o‘ziga qator yangi majburiyatlar olishi belgilanganligini alohida e‘tirof etish mumkin. Asosiy qonunimizga ko‘ra endi mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori insonning munosib turmush kechirishi uchun yetarli bo‘lishi shart ekanligi belgilandi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 46-moddasiga asosan, «Qonunda belgilangan pensiyalar, nafaqalar va boshqa turdagi ijtimoiy yordamning miqdorlari rasman belgilangan eng kam iste‘mol xarajatlaridan oz bo‘lishi mumkin emas.

Mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori nima va u qanday belgilanadi?

Insonning munosib turmush darajasini ta‘minlash deganda, insonning yashash xarajatlarini (oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, kommunal, transport, aloqa va boshqa) qoplash, shuningdek ta‘lim olish, sog‘liqni saqlash, dam olish va boshqa ehtiyojlarini qondirish imkoniyatiga ega bo‘lishi tushuniladi.

Mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining belgilanishi, birinchi navbatda, har bir fuqaroning qilgan mehnati qadrlanishi hamda o‘z mehnatiga yarasha haq olish kerakligini bildiradi. Bu,

birinchi navbatda, ish beruvchilarni odilona tarzda mehnatga haq to‘lashi majburiyatini yanada oshiradi. Ishchilarning o‘z mehnatiga yarasha haq talab qilishini esa mustahkamlaydi.

Mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori insonga munosib turmush darajasini ta‘minlashi uchun minimal iste‘mol xarajatlari qiymati asosida belgilanadi.

Bu qoidaning o‘rnatilishi, birinchi navbatda, ishchi-xodimlarning pul topish ilinjida boshqa ishlarni bajarishga urinishlarini kamayishiga olib keladi. Bor e‘tiborini o‘z kasbiga qaratganligi bois ish sifati oshishiga erishiladi. Bunday yondashuv fuqaro faoliyat olib borayotgan sohaning ham rivojining asosiy omili hisoblanadi.

Shaxs davlat yoki nodavlat tashkilotlaridami, tadbirkorlik subyektlaridan qayerda ishlashidan qat‘iy nazar – ish beruvchi tomondan to‘lanadigan ish haqining eng kam miqdori uning munosib turmush darajasini ta‘minlashi kerak. Mehnat qilayotgan har bir inson asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli mablag‘ga ega bo‘lishi zarur.

Aynan shu mezonlarga tayangan holda davlat mehnatga haq to‘lashning belgilangan eng kam miqdorini muntazam o‘rganib boradi va zarur hollarda uning miqdorini oshirib boradi. Davlat fuqaroga mehnatiga yarasha ish haqi to‘lanishining choralarni ko‘rishi va kafolatlarini ta‘minlashi, ish beruvchi esa xodim oldidagi majburiyatlarini bajarishi lozim. Davlat mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorini belgilashda mamlakatdagi ish haqining umumiy darajasi, iste‘mol narxlari, ijtimoiy nafaqalar va ijtimoiy qatlamlarning turmush darajasini qiyosiy hisobga olgan holda xodim va oilalarining ehtiyojlarini e‘tiborga olishi ham zarur bo‘ladi.

Konstitutsiyaga kiritilgan mazkur normal hech bir mubolag‘asiz aytish mumkinki, ijtimoiy davlatning eng muhim talabini davlat siyosati darajasiga ko‘tarish bilan birgalikda ishchi xodimlarni mehnatiga yarasha ish haqi olishlarini va ish haqlarini normal hayot kechirish uchun yetarli bo‘lishini kafolatlamog‘da. Mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori insonni insonga o‘xshab yashashini ta‘minlashi ularni ma‘lum bir kasbda faoliyatda aniq va bor kuchini sarflab ishlashi natijada esa mehnat qilayotgan sohaning rivojlani-shiga olib keladi.

Shuni alohida qayd etish lozimki xorijiy tajriba asosida aholining munosib hayot darajasi uchun zarur bo‘lgan daromadlarni

¹ X.T. Odilqoriyev. Konstitutsiya va ijtimoiy davlatchilik., – T: Yuridik adabiyotlar publish, 2022-yil.

aniqlash bo'yicha «iste'mol savatchasi» tushunchasini qonunchiligimizda mustahkamlash bo'yicha ish olib borilmoqda.

Muayyan vaqt davomida inson hayoti va uning salomatligini saqlash uchun zarur mahsulotlar, tovarlar va xizmatlar, ya'ni ovqatlanishi, kiyinishi, kommunal va boshqa xizmatlar hamda dori-darmonlarni xarid qilishi uchun yetadigan mablag', tirikchilik uchun zaruratning eng kam miqdorini aniq belgilash iste'mol savatchasini tashkil etadi. Kiritilgan normalarda mehnat qilayotgan barcha inson uchun, xoh u davlat ishida bo'lsin xoh xususiy sohada xizmat qilsin, qat'iy nazar uning ish maoshi adolatli bo'lishi lozimligiga fundamental asos yaratadi. Konstitutsiyamizni chinakam xalqona ruhda yangilash maqsadini ko'zlar ekanmiz, yurtdoshlarimizning mehnat va ishsizlik borasidagi huquqlarini ta'minlash maqsadida Konstitutsiyaga tegishli o'zgarishlar kiritildi. O'zbekistonda 2016-yilgacha kambag'allik rasman tan olinmagan. Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatda kambag'al qatlam borligini rasman tan oldi, fuqarolarni kambag'allikdan chiqarish bo'yicha sa'y-harakatlar boshlandi.

Kambag'allikka barham berishning birinchi sharti – ana shu qatlamga oid shaxslarga munosib ish topishdir. Biroq ishsizlik, kambag'allik hamon bor va unga qarshi kurashish tizimli bo'lishi lozim. Aynan mana shu jihat Konstitutsiyada ham mustahkamlandi. Davlat o'z fuqarolarini ish bilan ta'minlash, ularni kambag'allik botqog'idan chiqarish, professional kasb o'rgatish mas'uliyatini o'z zimmasiga oldi. Kasblarni, shu jumladan mehnat bozorida talab qilinadigan yangi kasblarni o'qitish-mamlakatda qashshoqlikni kamaytirish bo'yicha ijtimoiy siyosat yo'nalishlaridan biridir.

Yaqin yillargacha majburiy mehnatdan millionlab yurtdoshlarimiz aziyat chekkan bir paytda xodimlarga munosib mehnat sharoitlarini yaratish bugungi kunning eng muhim talablaridan biri desak, xato bo'lmaydi.

Xalqaro mehnat tashkilotining talablariga ko'ra, «munosib mehnat qilish» tushunchasiga shaxsning malakasi va ko'nikmalariga mos bo'lgan mehnat faoliyati bilan erkin shug'ullanish tushuniladi.

Inson ishsiz qolmasligi uchun qo'lida hunari, bilimi va yetarli tajribasi bo'lishi kerak. Buning uchun esa ular doimiy o'qishi, malaka oshirishi juda muhim. Shu sababli Konstitutsiyaga davlat fuqarolarning bandligini ta'minlash uchun ularning kasbiy tayyorgarligi

hamda qayta tayyorlanishini tashkil etadi va rag'batlantiradi, deya ta'kidlandi.

O'zbekiston tomonidan majburiy mehnat taqiqlanishi tamoyilining davomi sifatida munosib mehnat sharoitlarida ishlash huquqi Konstitutsiyada belgilanishi mantiqan to'g'ri bo'ldi.

Ma'lumki, so'ngi besh yilda Harakatlar strategiyasida va Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni bajara borib ijtimoiy sohada salmoqli ishlar amalga oshirilib, ijtimoiy himoyaning yangi modeli yaratildi. Olib borilgan ishlar va ko'rsatib o'tilgan faktik dalillar O'zbekiston Respublikasining Yangi tahrirdagi konstitutsiyasi salmoqli ijtimoiy va insonparvar mazmundagi moddalarni o'z ichiga olgan¹. Bu o'zgarishlarning asosiy maqsadi – mehnatkash xalqimiz uchun munosib mehnat qilish, yaxshi ish haqi olishi va farovon yashashi uchun sharoitlarni yaratishdan iborat. Shuningdek, xodimlarni doimiy o'qitib, tajribasini oshirib turishga oid qoida ham muhim. Eng muhimi, davlat o'z fuqarolarining bandligi, moddiy sharoiti, kasb-hunarga o'rgatish bo'yicha o'z zimmasiga vazifa oldi. Bu holatning Konstitutsiyaga kiritilishi esa ushbu ishlarining izchil davom ettirilishini kafolatlaydi.

Ijtimoiy adolat bu siyosiy qarashlar, jinsi millati, tili va diniy e'tiqodidan qat'i nazar, qonun oldida barcha fuqarolarning tengligini ta'minlashdir. Bu – ta'lim, tibbiyot va boshqa sohalardagi imkoniyatlarning tengligidir. Bu – kafolatlangan mehnat faoliyati erkinligi, mansab lavozimlari pillapoyasi bo'yicha ko'tarilib borishdagi imkoniyatlar tengligidir. Eng muhimi keksa avlod vakillari va ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolar to'g'risidagi g'amxo'rlikdir².

Har kim uy-joyli bo'lish huquqiga ega ekanligi umume'tirof etilgan xalqaro hujjatlardagi insonning huquqidir. O'zbekistonda aholini uy-joy bilan ta'minlashga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarini («mehribonlik» uylarining bitiruvchilari, nogironligi bo'lgan shaxslar, kam ta'minlangan oilalar, alohida yordamga muhtoj xotin-qizlar) uy-joy bilan ta'minlash davlatning muhim vazifasiga aylanmoqda. Uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj bo'lganlarga ipoteka krediti bo'yi-

¹ X.T. Odilqoriyev. Konstitutsiya va ijtimoiy davlatchilik. – T: 2022 y. – 92-b.

² Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. – T.: 2018.

cha dastlabki badal va foizlarning bir qismini qoplash uchun Davlat budjeti mablag'lari hisobiga subsidiyalar to'lanishi belgilandi. Tahlil-larga nazar soladigan bo'lsak, ushbu tartib doirasida 2020–2022-yil-larda jami 27 800 nafar fuqaroga boshlang'ich badal bir qismini qoplash uchun 795,6 mlrd so'm va 38 811 nafar fuqaroga 429,4 mlrd so'm foiz to'lovlari bir qismi qoplash uchun subsidiya ajratilgan. 2022-yilda esa respublikada 50 ming oila uchun yangi kvartiralar olishga sharoit yaratilib berildi. 2023-yilda 90 ming oilani uy-joyli qi-lish rejalashtirilgan. Yaqin 2-3 yilda bu raqam 200 mingga yetkazilishi mumkin. Prezident Sh. Mirziyoyev tomonidan 2023-yilda Toshkent viloyatida «Mening birinchi uyim» yangi ipoteka dasturini boshlash haqida e'lon qilindi. Mazkur dastur birinchi navbatda turar-joyga ehtiyoji bor hamda yosh oilalar uchun eng qulay shartlar asosida uy-joylar barpo etilishi va foydalanishga topshirilishi natijasida og'ir sharoitlarda yashab turgan fuqarolarimizning o'z uyiga ega bo'lishi-ni ta'minlaydi. O'zbekistonda davlat fuqarolarni ishsizlikdan himo-ya qilish va kambag'allikni qisqartirish choralari qatorida mahalla-lar kesimida ijtimoiy himoyaga muhtojlar ro'yxati («Temir daftar», «Ayollar daftari», «Yoshlar daftari», va «Mehr daftari») orqali mahal-larda ish yuritish yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, fuqarolarimizning chet elda mehnat qilish huquqlarini amalga oshirish borasida ham ularni kasbiy tayyorlash va ishga joylashtirishning xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimi yaratildi¹.

So'nggi besh yil ichida 140 mingdan ortiq yangi kvartiralar va yakka tartibdagi uylar qurildi. Bu avvalgi besh yillik davrda qu-rilganidan 10 baravar ko'p. Shu bilan birga, ehtiyojmand oilalarni, ayniqsa, og'ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan ayollarni uy-joy bilan ta'minlash maqsadida bu ishlar ko'lami kengaymoqda.

Har bir fuqaroning uy-joyli bo'lish huquqi va uy-joy qurilishi davlat tomonidan rag'batlantirilishi Konstitutsiyada mustahkamlan-di. Barcha demokratik davlatda mulk huquqi, ayniqsa shaxs yashab turgan uy-joyga nisbatan mulk huquqi muqaddas huquq hisoblanadi va mutlaq himoya qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yildagi inauguratsiya ma'ruzasida ham alohida ko'tarilib, shax-siy mulkka bo'lgan huquqni sud himoyasini kuchaytirish zarurligi haqida ko'rsatib o'tilgan.

¹ Yangilanayotgan Konstitutsiya: 100 savolga 100 javob. – T.: 2023-y. – 74-b.

Mazkur modda bilan uy-joy mulkdorlariga nisbatan 2 turda-gi muhim Konstitutsiyaviy kafolat belgilanmoqda: sud kafolati va uy-joydan mahrum etilganda teng qiymatda kompensatsiya olish kafolati. Sud kafolati uy-joyga nisbatan mulk huquqi sud qarorisiz mahrum etilishiga yo'l qo'yilmasligini anglatadi.

Teng qiymatda kompensatsiya olish nima degani? Mulkdorga olib qo'yilgan mol-mulkka teng qiymatli mol-mulk berilishi va uning ko'rgan boshqa zararlari to'lanishi yoki mulk huquqi bekor qilinishi bilan yetkazilgan zarar to'la hajmda qoplanishini anglatadi. Soddarog qilib tushuntirganda, endi davlat istalgan tadbirkor yoki fuqaroning mulkini «snos» bahonasida buzishiga yo'l qo'yilmaydi. Davlat ehtiyoji uchun olinishi ko'zda tutilgan hududlar esa mulk egasi rozi bo'lgan va kompensatsiya to'liq qoplab berilgandan keyingina buzilishi mum-kin. 2021-yil davomida O'zbekistonda davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarining olib qo'yilishi munosabati bilan 3 ming-dan ortiq mulkdorga jami 1 trln 37 mlrd so'mdan ortiq kompensatsi-ya mablag'lari to'langan. 2022-yilda esa ushbu yo'nalishdagi kompen-satsiyalar uchun budjetdan 500 mlrd so'm ajratilgan. Konstitutsiyaga kiritilayotgan mazkur o'zgartirishlar bir necha yillardan buyon jami-yatimizda o'tkir muammolardan biriga aylangan «snos» bilan bog'-liq muammoga nisbatan xalqparvar, mulkdorlar manfaatini himoya qiluvchi oqilona yechim ekanligini tasdiqlaydi. 2020-yilda «snos»ga tushgan mulklarning atigi 45 foiziga kompensatsiya to'lab berilgan, qolgan qarzdorlik 2021-yilda to'liq qoplab berilgan bo'lsa-da, orada kompensatsiya pulini kutgan aholi sarsongarchiligiga yo'l qo'yildi.

Bunday holatlarning oldini olish uchun Konstitutsiyaga uy-joy daxlsizligiga oid qoida kiritildi va uy-joy qiymati va unga yetkazil-gan zarar uchun dastlabki va ekvivalent kompensatsiya zarurligi to'g'risida Konstitutsiyaviy norma joriy etildi.

Konstitutsiyada bu qoidaning mustahkamlanishi orqali aholi-ning uy-joylari katta-kichik amaldorlarning qarorlari bilan olib qo'-yilmasligiga va insonlarning ko'chada qolib ketmasligiga erishiladi. Endi hech kim mulk egasini rozi qilmasdan turib, uni buza olmaydi.

Har bir mamlakatda sifatli tibbiyot tizimi mavjudligi juda mu-him. Fuqarolar zarur paytlarda sifatli tibbiy xizmat uchun davlatga suyana olishi alohida ahamiyatga ega. Shu sababli Konstitutsiyada fuqarolar davlat hisobidan tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini olishga haqli ekanligi belgilandi.

Inson sog'lig'i haqida gap ketganda aytish mumkinki, sifatli tibbiyot tizimini yo'lga qo'yish eng kerakli va zaruriy, muhim ijtimoiy kafolatdir. Chunki aholining ayrim qatlamlari pulli asosda yoki xususiy shifoxonalar xizmatidan foydalanishga imkoniyati yetmasligi mumkin. Ana shunday vaziyatda davlat o'z fuqarosini kafolatlangan tibbiy xizmat bilan ta'minlash majburiyatini o'z zimmasiga olganligiga ham davlatimizning ijtimoiy davlat xususiyatiga ega bo'lganligini yaqqol ifodasidir. Masalan, davlat hisobidan kafolatlangan tibbiy xizmatni rivojlantirish maqsadida 2021-yildan boshlab, birlamchi bo'g'inda aholini 66 turdagi, 2022-yilda 120 turdagi dori vositalari bilan bepul ta'minlash yo'lga qo'yildi. Ixtisoslashgan markazlarda bepul davolanadigan kasalliklar ro'yxati shakllantirilib, tibbiy yordam uchun yo'llanma hozirda elektron navbat asosida berilmoqda. Eng muhimi, bu tizimga asosan, mablag'lar shifoxonaga emas, balki aniq bemorga ajratilmoqda.

Birgina, 2022-yilning o'zida tibbiyot sohasiga budjetdan 29 trillion so'm yo'naltirildi, bu mablag' 2016-yilga nisbatan 5 barobar ko'pdir. O'tgan besh yilda shifoxonalar va tez tibbiy yordam punktlarini dori-darmon, tibbiyot buyumlari bilan ta'minlash uchun mablag'lar 12 barobar ko'paytirildi. Xususan, qishloqlardagi 801 ta oilaviy poliklinika zamonaviy tashxis apparatlari bilan ta'minlandi. Bu orqali qishloq va mahallalarda 8 turdagi yangi tibbiy xizmatlar yo'lga qo'yildi. Hududlarda 23 ta ixtisoslashgan tibbiyot markazlarining yuzdan ortiq filiallari faoliyat boshladi.

Har bir mamlakatda sifatli tibbiyot tizimi mavjudligi juda muhim va dolzarb masalalardan biri. Fuqarolar zarur paytlarda sifatli tibbiy xizmat uchun davlatga suyana olishi alohida ahamiyatga ega. Shu sababli Konstitutsiyada fuqarolar davlat hisobidan tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini olishga haqli ekanligi belgilandi.

Tibbiy sohani, shu jumladan uning nodavlat shakllarini rivojlantirish davlat majburiyatlariga o'tkazilishi fuqarolarga sifatsiz tibbiy yordam ko'rsatish yoki umuman tibbiy yordam ko'rsatmaslik holatlarining oldini olishga ko'maklashadi. Shu bilan birga, barcha hududlarda ham sport bilan shug'ullanish uchun yetarli sharoitlar bor deb ayta olmaymiz. Shu sababli sport bilan shug'ullanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun sharoitlarni yaratish Konstitutsiya darajasigacha oshirilib, davlat majburiyatiga aylandi. Mazkur masalaning Konstitutsiya darajasiga ko'tarilishi – aholi sa-

lomatligi milliy manfaatlarimizning muhim tarkibiy qismi ekanligini bildiradi.

Davlat tibbiyot sohasiga oid eng muhim vazifalarni o'z zimmasiga olgani onalar va bolalar o'limi, yuqumli kasalliklar tahdidini bartaraf etishda alohida ahamiyatga ega bo'ladi.

Konstitutsiyaga kiritilgan normaning yana bir ahamiyati shundaki, davlat o'z fuqarolarining moddiy ahvolidan qat'iy nazar kafolatlangan bepul tibbiy yordam bilan qamrab olinishini mustahkamlaydi. Bu fuqarolar, ayniqsa, moddiy sharoiti yaxshi bo'lmagan fuqarolarning sog'lig'ini saqlashga davlat g'amxo'rlik qilishdan to'xtamasligini anglatadi. Kafolatlangan tibbiy yordamga oid normaning belgilanishi aholi, onalar va bolalar o'limi, yuqumli kasalliklar tahdidini bartaraf etishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Yangi norma orqali tibbiyotning nodavlat shakllarini rivojlantirish, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish uchun sharoit yaratish ishlari yanada yaxshilanadi.

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi salmoqli ijtimoiy va insonparvar mazmundagi moddalarni o'z mazmuniga jo etgan. Konstitutsiyamiz o'rnatgan normalar va prinsiplar davlatimizning mohiyatini, siyosiy ijtimoiy tabiatini ham belgilab beradi. U amal qilayotgan yillar mobaynida davlatimizning ijtimoiy yo'naltirilgan funksiyalari, insonparvar tabiati ham tobora yaqqolroq namoyon bo'lib bormoqda. Konstitutsiya va uning negizida yaratilgan ijtimoiy qonunchilik tizimi hamda ushbu qonunchilik bazasini hayotga joriy etish bilan bog'liq davlat funksiyalari yo'nalishlarini tahlil qilish asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, davlatimiz o'z mazmuniga ko'ra, demokratik huquqiy ijtimoiy davlat maqomiga tobora ko'proq ega bo'lib bormoqda¹.

2. Ta'limni rivojlantirish va unga g'amxo'rlik qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi

«Dunyoda ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lmaydi» degan so'zlarning naqadar haq ekanligiga bugun shak shubhamiz yo'q. Davlatning ertangi kuni – yoshlarning qay darajada bilimli ekani bilan bog'liq. Shuning uchun ham ta'lim tizimini rivojlantirish masalasiga barcha davlatlarda eng muhim vazifa sifatida

¹ Yangilanayotgan Konstitutsiya: 100 savolga 100 javob. – T.: 2023-yil.

qaraladi. Ayniqsa, maktabgacha va maktab ta'limi to'liq davlat nazoratida, uning kafolatlari ostida bo'lishi shart. Yangi Konstitutsiyada ushbu jihatlar avvalgisidan farqli o'laroq, aniq va batafsil belgilab qo'yildi.

Ilk marotaba bog'cha yoshidagi bolalarning ta'lim va tarbiyasi sohasidagi davlat kafolatining Konstitutsiyaviy darajada belgilanishi tarixiy voqeadir. Bola uchun oiladan keyingi birinchi jamoa bu bog'chadir. Maktabgacha ta'lim sifatli bo'lishi insonning butun hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Maktabda, hatto undan keyingi oliy ta'lim muassasalarida ham qiynalmaydi. Bu borada olib borilayotgan ishlar ko'lami ancha keng bo'lib natijasini hammamiz ko'rib turibmiz. Bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi 27,7 foizdan 72 foizga, MTTLar soni 5211 tadan 29 mingdan ziyodga yetkazildi.

2022-yilda «Finance Inquirer» nashri bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb qilish bo'yicha eng yaxshi dinamikaga ega bo'lgan dunyodagi eng peshqadam 10 ta davlatni e'lon qildi. Unda O'zbekiston jahon reytingida birinchi o'rinni egalladi.

2030-yilga qadar maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasini 80,8 foizga yetkazish maqsad qilingan. Masalan, «Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturiga ko'ra, 2023-yil 1-apreldan boshlab maktabgacha ta'lim qamrovini kengaytirish maqsadida:

Yangi maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini ko'p kvartirali uylarning noturar qavatlarida yoki yakka tartibda qurilgan uy-joylarni sotib olish va keyinchalik ularni ta'mirlash hamda jihozlash orqali tashkil etishga ruxsat etilmoqda;

davlat-xususiy sheriklik loyihasi doirasida ijaraga berilgan yer uchastkasida nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti binosini qurgan xususiy sherik tomonidan ushbu binoning mazkur loyiha uchun bank kreditlari bo'yicha garovga qo'yilishiga oid cheklovlar bekor qilindi.

Shu bilan birga, Konstitutsiya darajasida bolaning bepul umumiy o'rta ta'lim olish huquqi kafolatlanmoqda.

Davlat dasturiga ko'ra:

a) 2023-yil 1-sentyabrdan boshlab har bir tuman (shahar)ning bittadan maktabida o'quvchilarni ikkita xorijiy til va bitta kasb-hunarga o'rgatish amaliyoti bosqichma-bosqich yo'lga qo'yiladi;

b) 2023/2024-o'quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich maktablarda o'quvchilarda kommunikativ ko'nikmalar, tanqidiy va kreativ fikrlash, jamoa bo'lib ishlash, tadqiqotchilik kabi ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim dasturlari amaliyotga kiritiladi.

Bunda maktablarning 1–4-sinflarida o'quvchilarni ilg'or xorijiy tajriba asosida ishlab chiqilgan darsliklar bo'yicha o'qitish;

5–9-sinflarda o'quvchilarga umumta'lim fanlaridan tayanch bilimlar berish hamda 10–11-sinf o'quvchilarining qiziqish va qobiliyatiga mos bo'lgan ixtisoslashgan dasturlar asosida bilim berish amaliyoti joriy qilindi.

Shuningdek, Konstitutsiyaga mazkur qo'shimchalar orqali, davlat tomonidan nafaqat davlat ta'lim tashkilotlarini rivojlantirish uchun, shu bilan birga nodavlat yoki xususiy ta'lim tashkilotlari yoxud davlat xususiy sheriklik asosidagi ta'lim tashkilotlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratishi, ya'ni muhim qonunchilik hujjatlarini qabul qilish, subsidiyalar yoki imtiyozli kreditlar berishi kabi yo'llar bilan yordam ko'rsatishi belgilab qo'yildi.

Yangi Konstitutsiyada ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanishi haqida ijtimoiy norma kiritildi.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi. Unga ko'ra, sog'lig'ida nuqsoni bo'lgan bolalarni faqatgina ixtisoslashgan maktablarda emas, hamma qatori umumiy maktablarda ham o'qishini yo'lga qo'yilishi inson qadri tamoyilining amaliy ifodasidir. Bu shunday nuqsonlarga ega bolalarimizning yakkalanib qolmasligi, jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida shakllanishi va kamol topishi uchun juda muhimdir.

Bugungi kunda aqli zaif, kar va zaif eshituvchi, ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi, tayanch a'zolarida nuqsoni bo'lgan 21 231 nafar bolalar uchun respublikamizda 90 ta ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyat yuritmoqda. Bundan tashqari, yengil darajadagi nogironligi bo'lgan 18 000 nafarga yaqin o'quvchilar maktablarda sog'lom bolalar bilan birgalikda o'qishmoqda. Qonunchiligimizga kiritilgan mazkur o'zgarishlar davlat tomonidan bolalarning maktabgacha ta'limda qamrovini oshirish, umumiy o'rta ta'limni teng huquqli asosda ta'minlanishi aholi savodxonligini oshishiga ijobiy ta'sir etadi. Ta'lim sifatini oshirish – birlamchi vazifa. Bu

borada ko'plab muammolar bor. Ayrim muammolarni bartaraf etish uchun esa muhim jihatlarni Konstitutsiya orqali mustahkamlab qo'yildi. Oddiy fuqaro ish qidirganda deyarli 90 foiz takliflarda oliy ta'limga ega bo'lishi kerakligi haqidagi shart bilan to'qnash keladi. Ya'ni oliy ta'lim diplomiga ega bo'lgan fuqaro ko'p haq to'lanadigan ishga kirishi, karyera qilishi va davlat hamda jamiyatga ko'proq foyda keltirishi mumkin.

Yana bir muhim jihatga e'tibor qaratish joiz: oliy ta'limga ega bo'lgan inson bilan oliy ta'lim olmagan insonning dunyoqarashi o'rtasida ham katta farq bo'ladi. Shuning uchun ham yoshlarni ko'proq oliy ta'lim bilan qamrab olish umumiy savodxonlik darajasining ko'tarilishiga ham hissa qo'shadi.

Aholining keng qatlamlarini oliy ta'lim bilan qamrab olish masalasi Prezidentimiz tomonidan BMT minbarida ham ko'tarilgan va 2030-yilgacha O'zbekistonda 50 foiz yosh aholi oliy ma'lumotga ega bo'lishi rejalashtirilgan. Shu sababli oliy ta'limni olish huquqi Konstitutsiya darajasigacha oshirildi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalari soni 2,5 barobarga ortib, 200 taga yetdi, oliy ta'lim bilan qamrov darajasi 9 foizdan 38 foizga oshdi. Oliy ta'lim olish uchun imtiyozli kreditlash tizimi, ayollarga foizsiz kredit ajratish amaliyoti joriy qilindi.

Hamma ham kontraktida katta pul to'lab o'qiy olmasligi mumkin. Shu sababli Konstitutsiyada tanlov asosida davlat budjeti hisobidan o'qish imkoniyati qat'iy mustahkamlandi. 2017-yilga qadar oliy ta'lim muassasalarida grant o'rinlari soni faqat qisqarib keldi. 2017-yildan boshlab esa oliy ta'limga ajratilgan davlat grantlari soni 2 baravar ko'payib, 40 mingtaga yetdi. Shundan, magistratura uchun – 5 baravar ko'paydi. Shu asnoda, ehtiyojmand oilalar farzandi bo'lgan xotin-qizlar uchun davlat grantlari soni 2 baravarga oshirildi. Shuningdek, nodavlat oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislarni tayyorlashga davlat granti ajratish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Yangi Konstitutsiyada yoshlarning oliygohlarga tanlov asosida davlat granti hisobidan o'qish huquqi qat'iy belgilanmoqda.

Akademik erkinlik – oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot tashkilotlarida ta'lim berish va ilmiy-tadqiqot o'tkazish erkinligidir. Ushbu erkinlik o'quv jarayonini mustaqil shakllantirish, professor-o'qituvchilarni dars o'tish erkinligida, ilmiy-tadqiqot mavzularini mustaqil

tanlash va tadqiq etish, uning natijalarini nashr etish va tarqatish, professor-o'qituvchilar va ilmiy xodimlar akademik erkinligini cheklanmasligida va boshqalarda namoyon bo'ladi.

Demak, oliy ta'lim tashkilotlari o'z faoliyatining asosiy yo'nalishlarini amalga oshirish erkinligi, ta'lim yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib ta'lim tartibini belgilash bo'yicha qarorlar qabul qilishda mustaqil bo'lish huquqlari Konstitutsiyaviy norma darajasida mustahkamlanmoqda. Bu davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari oliy ta'lim muassasalarida o'qishni olib borish uchun shartlar va ko'rsatmalar bera olmasligini kafolatlaydi

Konstitutsiyada davlat ta'lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan bepul oliy ma'lumot olish huquqining nazarda tutilishi O'zbekistonda yoshlar siyosati ustuvor ekanligi belgisi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad iqtidorli yoshlar uchun davlat granti asosida bakalavriat va magistratura bosqichida ta'lim olish orqali hayotda o'zlarini to'laqonli namoyon etish imkoniyatini kengaytirishdir. Mazkur Konstitutsiyaviy qoidaning belgilanishi bu boradagi ijobiy yo'nalish doimo saqlab qolinishini, davlat oliy ta'lim muassasalarida grant o'rinlari yo'qolmasligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim tizimi bilan bog'liq masalalarning Konstitutsiya darajasida belgilanayotgani ta'lim islohotlarining o'zgarmas va ortga qaytmas ko'rinish olishini ta'minlaydi. Ayniqsa, ta'lim muassasalariga akademik erkinlik berish masalasi – dunyo tajribasi. Ushbu huquqning kafolatlanishi oliy ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Shuni faxr bilan e'tirof etish joizki, oliy ta'limga alohida e'tibor qaratish davlat majburiyatiga aylanmoqda. Har bir fuqaro oliy ta'lim olish orqali farovon hayot kechirishiga mustahkam asos yaratadi. Bundan tashqari oliy ta'limni isloh qilinishi bir xil shablonga tushib qolgan, eskicha qarashlar bilan ishlayotgan institut va universitetlarni zamonaviy tendensiyalar orqali rivojlanishiga ham sababchi bo'ladi. Shuningdek, oliy o'quv yurti va ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining ta'lim va ilmiy-tadqiqot faoliyatining rivojlanishiga, professor-o'qituvchilar va talabalarning o'quv jarayonidagi mustaqilligini ta'minlashga, ushbu sohaga tashqi aralashuvni cheklashga xizmat qiladi.

3. Nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalar obyektlari va xizmatlaridan to'laqonli foydalanishi uchun yaratilgan huquqiy me'yorlar

Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari – bu inson huquqlarining maxsus sohasi emas, balki uning aynan o'zidir. Nogironligi bo'lgan shaxslar boshqalar bilan bir xil huquqlardan foydalanishlari kerak. Ushbu huquqlar barcha nogironligi bo'lgan shaxslarga hech qanday istisnosiz yoki kamsitishlarsiz beriladi.

Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari murakkab, chunki turli xil ijtimoiy-siyosiy, madaniy va huquqiy sharoitlarda nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari buziladi. Masalan, nogironligi bo'lgan shaxslar duch keladigan umumiy to'siq ishga joylashish bilan bog'liq. Xususan, ish beruvchilar ko'pincha nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnat funksiyalarini samarali bajarishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni xohlamaydilar yoki ta'minlay olmaydilar. Shu sababli ularni ishga olishni xohlamaydilar.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada mehnatga layoqatsiz va yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasiga olinadi shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslarning ham ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlari mustahkamlanib, ularning ishga joylashishi, ta'lim olish imkoniyatlarini ta'minlash belgilandi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarga ular davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida to'liq ishtirok etishi, shuningdek tirikchilik qilish imkoniyati, transport vositalaridan erkin foydalanish, ta'lim olish, ma'lumotlar olish, mustaqil erkin harakatlanish imkoniyati berilishi kerak. Nogironligi bo'lgan shaxslar insonga xos bo'lgan qadr-qimmatni, uning shaxsiy mustaqilligini hurmat qilish, kamsitmaslik, barcha imkoniyatlardan to'sqinliksiz foydalanish, imkoniyatlarning tengligi, jamiyat hayotida to'liq ishtirok etish uchun barcha odamlar bilan bir xil huquqlarga ega. Bular «Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya»ning asosiy tamoyillaridir.

BMTning «Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya»si nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarining minimal standartlarini belgilaydigan majburiy ahamiyatga ega bo'lgan birinchi xalqaro huquqiy hujjatdir. Mazkur Konvensiya O'zbekiston Respublikasi

tomonidan 2021-yil 7-iyunda ratifikatsiya qilingan. Konvensiya ishtirokchilari nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan inson huquqlarining to'liq amalga oshirilishini rag'batlantirish, himoya qilish va ta'minlash, shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslar qonun oldida to'liq tenglikdan bahramand bo'lishlarini ta'minlashi shart. Konvensiya nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari uchun global harakatning asosiy katalizatori bo'lib xizmat qiladi, bu nogironlarning xayriya, tibbiy davolanish va ijtimoiy himoya obyekti sifatida qarashlardan inson huquqlariga ega bo'lgan jamiyatning to'laqonli va teng huquqli a'zolari sifatida qabul qilishga o'tishga imkon beradi.

Eng rivojlangan davlatlar turmush tarzini kuzatsangiz, ularda inklyuziv hayot to'g'ri yo'lga qo'yilgan. Ya'ni nogironligi bo'lgan va imkoniyati cheklangan shaxslar ham jamiyatda o'zlarini erkin va qulay his qiladi. Ular uchun barcha sharoitlar yaratilgan bo'ladi. Bu juda muhim. Davlat teng ijtimoiy adolat siyosatini yuritishi kerak. Shunga ko'ra, O'zbekiston Konstitutsiyasiga kiritilgan o'zgartirishlarda ham quyidagi holatlar mustahkamlanmoqda:

Ishga layoqatsizlar va yolg'iz keksalar, nogironligi bor shaxslar va boshqa ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand aholi qatlamlari davlat himoyasida bo'ladi. Davlat nogironligi bor shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy obyekt va xizmatlardan erkin foydalanishiga sharoit yaratadi, ularning ish bilan ta'minlanishida, ta'lim olishida qo'llab-quvvatlaydi, ularga kerakli bo'lgan axborotni olish imkoniyatini yaratadi.

O'zbekistonda barcha fuqarolar erkin yashashi uchun sharoitlar bo'lishi, ayniqsa nogironligi bo'lgan shaxslar jamiyatdan uzilib qolmasligi, o'zlarini baxtli his qilishi uchun davlat mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi. Ushbu qoidaning Konstitutsiyada mustahkamlanishi jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishga, aholiga munosib turmush sharoitlarini yaratish va davlatning fuqarolar oldidagi ijtimoiy mas'uliyatini kuchaytirish xizmat qiladi.

4. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya ommaviy axborot vositalarining axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatishga bo'lgan huquqlari amalga oshirilishini kafolatlaydi

Bugun inson geoaxborot olamida yashamoqda desak aslo mulohaza bo'lmaydi. Soniyalar ichida yer kurrasining eng chetida

joylashgan mamlakatga xabarlar jo'natishimiz, olishimiz, aloqaga chiqishimiz mumkin. Hozirgi kunda Internet aloqa vositasidan ko'ra ko'proq virtual muhitga aylanib bormoqda. Ko'plab tushuncha va xizmatlar «real» hayotdan «virtuallik»ka ko'chib o'tmoqda. Odamlar ishini, o'qishini, xobbilarini, turli tovar va xizmatlar logistikasini, qolaversa, davlat xizmatlarini ham internetga ko'chiryapti.

Xususan, xalqimiz yaqinda referendumda ovoz bergan yangi tahrirdagi Konstitutsiyada uchta yo'nalishda: **birinchidan**, axborotni izlash, olish va tarqatish erkinligini kengaytirish; **ikkinchidan**, ommaviy axborot vositalari erkinligini yanada mustahkamlash; **uchinchidan**, ommaviy axborot vositalariga fuqarolik jamiyatining asosiy institutlaridan biri sifatida Konstitutsiyaviy maqom taqdim etilishi timsolida so'z erkinligi har tomonlama kafolatlandi.

Endilikda yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 33-moddasida:

«Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega. Davlat Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi. Axborotni izlash, olish va tarqatishga bo'lgan huquqni cheklashga faqat qonunga muvofiq hamda faqat Konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog'lig'ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta'minlash, shuningdek davlat sirlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sir oshkor etilishining oldini olish maqsadida zarur bo'lgan doirada yo'l qo'yiladi»¹, deya belgilandi.

E'tibor bering: yangi normalar bilan har bir shaxsning Internet jahon axborot tarmog'iga kirish va undan erkin foydalanish huquqi e'tirof etildi. Mazkur huquqning ta'minlanishi uchun bevosita davlatning o'zi shart-sharoitlar yaratishi aniq belgilandi. Binobarin, Internet nafaqat aloqa vositasi, balki virtual muhitga ham aylanib borayotgan, ko'plab tushuncha va xizmatlar «real» zamindan jadal tarzda «virtual» hayotga ko'chayotgan bugungi davr ayni shunday ilg'or yondashuvni taqozo etmoqda. Hozirgi kunda Internetni taqiqlash va cheklash nafaqat noto'g'ri, balki mantiqsiz ham ekanini isbotlab o'tirishga hojat qolmadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.

Internetdan erkin foydalanish huquqi insonning so'z erkinligi huquqi doirasiga kiradi. Ushbu huquq, davlat chegaralaridan qat'iy nazar, turli axborot va g'oyalarni qidirish, olish va tarqatish erkinligini o'zida qamraydi. Shunday ekan, axborotni, jumladan Internet orqali izlash, olish va tarqatish erkinligini istifoda etuvchi insonlar zimmasiga huquqlar bilan bir qatorda majburiyat va mas'uliyat ham yuklanib, qonunga muvofiq ravishda ayrim cheklovlar o'rnatilishi tabiiy holdir. Shu ma'noda, 33-moddaning oxirgi bandidagi normalar barchamizni ijtimoiy mas'uliyatni anglashga, oqni qoradan, haqiqatni uydirmadan, dalilni bo'htondan ajratishga da'vat etadi.

Haqiqatan ham, biz yashayotgan XXI asrda insonning fikr va so'z erkinligi, har qanday axborotni izlash, olish va tarqatish singari huquqlari qanday amalga oshirilishi uning axborot resurslari, kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, Internetdan qanchalik erkin foydalanishiga bevosita bog'liq.

Shu nuqtayi nazardan, bugungi «raqamlashtirish» zamonida demokratik huquqiy davlat va adolatli ochiq jamiyat barpo etayotgan aksariyat davlatlar qatori O'zbekiston ham o'z Konstitutsiyasida fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligiga oid yangi normalarni mustahkamlagani, bir tomondan, fuqarolarimizning bu boradagi huquqlari va erkinliklari amalga oshishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, har bir insonning himoyasi va xavfsizligini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 69-moddasi birinchi qismida fuqarolik jamiyati institutlarining tushunchasi va tizimi quyidagi norma bilan ochib berilgan: «Fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi». Boshqacha aytganda, ommaviy axborot vositalariga fuqarolik jamiyatining asosiy institutlaridan biri sifatida Konstitutsiyaviy maqom berildi. Shu orqali so'z erkinligi Konstitutsiyaviy asosda yana bir bor kafolatlanmoqda.

Bu haqda fikr yuritganda, so'nggi yillarda mamlakatimizda ommaviy axborot vositalarining jamoatchilik nazoratini amalga oshirish borasidagi o'rni va ahamiyatini qonunchilik negizida kuchaytirishga izchil e'tibor qaratilayotganini ta'kidlash lozim. Chunki, Prezidentimiz qayd etganidek, ommaviy axborot vositalari aholining

talab va ehtiyojlarini hokimiyat idoralariga yetkazishning muhim va ta'sirchan vositasiga, xalqning eng yaqin ko'makchisi va hamdardiga, demokratiya ko'zgusiga aylanishi zarur.

Konstitutsiyaning «Ommaviy axborot vositalari» deb nomlangan XV bobidagi ikkita moddada ommaviy axborot vositalari faoliyati erkinligi davlat tomonidan kafolatlangan. Xususan, 81-moddaga ko'ra:

«Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ish olib boradilar. Davlat ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligini, ularning axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatishga bo'lgan huquqlari amalga oshirilishini kafolatlaydi.

Ommaviy axborot vositalari o'zi taqdim etadigan axborotning ishonchligi uchun javobgardir», deb belgilanishi axborotni tarqatish jarayonida ham mas'uliyat bilan yondashuvni talab etadi.

Eng muhimi, endilikda Konstitutsiyada ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyati instituti maqomida e'tirof etildi. Bu ilg'or Konstitutsiyaviy-huquqiy asos, bir tarafdin, jamoatchilik nazoratining yanada haqqoniy, xolis va adolatli tashkil etilishiga munosib hissa qo'shsa, boshqa tarafdin, jamoatchilik nazorati asnosida aniqlanadigan qonunbuzarliklar va kamchiliklarga taalluqli ma'lumotlarning asossiz ravishda panada olib qolinishi yoki xaspo'shlanishiga yo'l qo'ymaydi, ya'ni oshkoralik tom ma'noda ta'minlanadi.

Konstitutsiyamizga ilk marotaba fuqarolik jamiyati institutlariga bag'ishlangan alohida bob kiritilgani va ular faoliyati kafolatlarining belgilangani jamiyatda ochiqlik, oshkoralik va qonuniylik muhitini, davlat va jamiyat o'rtasidagi muloqotni mustahkamlash hamda kuchli jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish uchun mustahkam zamin hozirlaydi. Bu tom ma'noda juda muhim yangiliklardandir.

Shu tariqa yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyati institutlari yanada faol bo'lishi uchun keng imkoniyat va kuchli himoya taqdim etildi. Ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligi, ularning axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatishga bo'lgan huquqlari qat'iy kafolatlandi. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari faoliyatiga to'sqinlik qilish yoki aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'lishi belgilandi. O'z navbatida, yangilangan Konstitutsiyaning 82-moddasida ushbu normalar mustahkamlangan: «Senzuraga yo'l qo'yilmaydi. Ommaviy axborot vositalari-

ning faoliyatiga to'sqinlik qilish yoki aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi».

Ayni shu Konstitutsiyaviy normalardan ko'zlangan maqsad ommaviy axborot vositalari uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratishga, davlat va jamiyat o'rtasida amaliy muloqotni yo'lga qo'yishga qaratilgan Konstitutsiyaviy asoslarni shakllantirishdir. Shunga o'xshash normalar Slovakiya, Ispaniya, Janubiy Koreya kabi bir qator mamlakatlarning Konstitutsiyalarida mavjud.

Senzuraning taqiqlanishiga oid norma Konstitutsiyada oldin ham bor edi. Ayni chog'da, keyingi norma muhim yangilik bo'lib, ommaviy axborot vositalarining samarali faoliyat yuritishi uchun ta'sirchan huquqiy asos vazifasini o'tashi tayin. Matbuotda bu borada o'z munosabatlarini bildirgan bir qator hamkasblarimiz ta'biri bilan aytganda, bu normalar ommaviy axborot vositalari va jurnalistlarning erkin-erkin, turli ma'muriy bosimlardan qo'rqmasdan faoliyat yuritishini ta'minlaydi hamda jamiyatda ochiqlik va oshkoralik muhitining rivojlanishiga sharoit yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, yangi tahrirdagi Konstitutsiya normalari jurnalistlarning erkin faoliyat yuritishini ta'minlaydi hamda mamlakatimizda fikr, so'z va axborot erkinligi yanada yuksalishiga, jamiyatda ochiqlik va oshkoralik, qonuniylik muhiti mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Pirovardida davlat va jamiyat o'rtasidagi muloqotning yangi, yanada ishonchli bosqichga ko'tarilishiga, kuchli jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yishga va so'z erkinligini ta'minlashga erishiladi¹.

Internetga kirish va undan erkin foydalanish huquqi insonning so'z erkinligi huquqi doirasiga kiradi. Shuningdek axborot tarqatishda inson sha'ni va shaxsiy daxlsizligi masalasi g'oyat dolzarb ahamiyatga ega. Internet aloqa vositasidan muhitga qarab o'zgarar ekan, uni taqiqlash va cheklab bo'lmaydi. Birinchidan, har qanday to'siqni chetlab o'tishning texnik imkoniyatlari mavjud (VPN, proksi-serverlar) va ulardan foydalanish har kimning qo'lidan keladi. Ikkinchidan, qonunga zid axborot tarqaladigan vosita – ijtimoiy tarmoq bo'ladimi, OAV bo'ladimi, uni cheklash yechim emas. Bu borada fuqarolarimiz anglab yetishi kerakki, axborotni, shu jumladan

¹ Mirzo G. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya va matbuot erkinligi kafolatlari. <http://insonhuquqlari.uz/>

Internet orqali, izlash, olish va tarqatish erkinligi ularning zimmasiga alohida majburiyat va mas'uliyat yuklaydi va ularga nisbatan qonunga muvofiq ravishda ayrim cheklovlar o'rnatilishi mumkin. Bunda barchamiz mas'uliyatimizni anglasak, oqni qoradan, haqiqatni feykdan, dalilni provokatsiyadan ajrata olsak, muammoga tizimli yechim topgan bo'lamiz.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy davlat barpo etish maqsadi inson omilini muqaddas qadriyat sifatida yuksaltirish, odamlarni bilimli, baxtli, erkin va farovon qiluvchi ma'rifiy jamiyat qurish g'oyasi bilan o'zaro uyg'unlik kasb etadi. «Mazkur jamiyatni qurish g'oyasi 2016-yil Qashqadaryo viloyatida saylovchilar bilan uchrashuvda Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilk daf'a jamoatchilik e'tiboriga qo'yilgan edi». Qachonki millat o'zligini anglay boshlasa, har bir fuqaro insoniy fazilatlarini to'liqroq namoyon etib, o'zini-o'zi qadriyatga aylantira boshlasa, milliy Uyg'onish hodisasi yuz beradi, taraqqiyotning yangi bosqichi boshlanadi. Aytish mumkinki, «Yangi O'zbekiston o'z tarixiy taraqqiyoti davrida yangicha tafakkurga asoslangan turmush tarzini yo'lga qo'ymoqda. Uchinchi Renessans g'oyasi ana shu evrilishlar, yangilanishlar oqimida yangi Uyg'onish davrining sarchashmasi bo'lmoqda»¹.

Nazorat savollari:

1. Davlatning kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlash bo'yicha olib borayotgan faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
2. Maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi borasida yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ilgari surilgan yangiliklar nimalardan iborat?
3. Oliy ta'lim sohasida yangi tahrirdagi Konstitutsiyada qanday huquqiy normalar belgilangan?
4. Nogironlar va aholining ehtiyojmand toifasi uchun qanday imtiyozlar berilgan?
5. Ommaviy axborot vositalarining axborot olish erkinligi deganda nimani tushunasiz?
6. Ommaviy axborot vositalari erkinligining asosiy kafolatlari nimalardan iborat?

¹ Salimov O . Yangi O'zbekiston davlati. – T.: Ma'naviyat, 2023.

8-mavzu. KONSTITUTSIYADA IJTIMOY HAMDA SIYOSIY SOHALARDAGI MUHIM YANGILIKLAR

Reja:

1. Fuqarolarning ijtimoiy sohadagi huquqlari.
2. Fuqarolarning davlat xizmatiga kirishdagi huquqlari.
3. Fuqarolarning qonunchilik tashabbusi huquqlari.
4. Fuqarolarning siyosiy sohadagi huquqlari.
5. Fuqarolar Davlat budjetining shakllantirilishi hamda ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazorati.
6. Davlat Internet tarmog'idan foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratish majburiyati.

Tayanch so'z va iboralar: ijtimoiy, inson, siyosiy soha, huquqlar, erkinliklar, himoya, xalqaro, qonunchilik, tashabbus, davlat, budjet, Internet.

Mamlakatimiz Konstitutsiyasi dunyo hamjamiyatida o'zining umuminsoniy qadriyatlarga sodiq ekanligini, insonning eng oliy qadriyat sifatida talqin etilishi bilan o'z o'rniga ega. Konstitutsiyamizning barcha g'oyalari, avvalo, inson va fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan bo'lib, davlatning roli ushbu huquq va erkinliklarini ta'minlashda aks etadi. Yurtimizda inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Fuqarolarning huquqlari va erkinliklari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan mustahkamlab qo'yilgan. Konstitutsiyada insonning huquq va erkinliklari yashash huquqidan boshlanadi. Hayot oliy qadriyat hisoblanib, insonning hayotiga daxl qilishga hech kimning haqqi yo'q.

Hozirda inson huquqlari har bir demokratik davlat siyosatida muhim o'ringa ega. Nega deganda, inson – bu shaxs, huquq nazariyasi bo'yicha – bu jismoniy shaxs hisoblanib, har bir demokratik davlat uning huquqlarini har tomonlama himoya qilishga majbur.

Inson huquqlari xalqaro huquqning ajralmas qismidir, bu esa ularni hayotda amalga oshirish imkoniyatini anglatadi. Inson huquqlari deganda har qanday zamonaviy jamiyatda shaxsning huquqiy mavqeini tavsiflash uchun zarur bo'lgan huquqlar tushuniladi.

Hammamizga ma'lumki, odatda inson huquqlari bir tomondan fuqarolik va siyosiy, ikkinchi tomondan ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarga bo'linadi.

Shundan kelib chiqib, bizning asosiy qonunimiz – Konstitutsiyamizda ham inson huquqlari alohida o'ringa ega, kerak bo'lsa asosiy obyekt sifatida olingan, jumladan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ikkinchi bo'limi aynan inson huquqlari va erkinliklariga bag'ishlangan. Inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha milliy mexanizmi aynan Konstitutsiyamizdan kelib chiqishini ko'rishimiz mumkin.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti inson huquqlariga rioya etilishini monitoring qilishi, uning tizimida markaziy o'rinni egallaydi, uning vakolatlariga inson huquqlari sohasidagi muammolarni ko'rib chiqish kiradi. Bosh Assambleya ushbu masalalar bo'yicha maxsus rezolyutsiyalar tayyorlagan (maxsus, gumanitar va madaniy masalalar bo'yicha). Bundan tashqari, inson huquqlari bo'yicha asosiy xalqaro shartnomalarga muvofiq maxsus tashkilotlar tuzilgan: Inson huquqlari bo'yicha qo'mita, Irqiy kamsitishni tugatish qo'mitasi, Qiynoqlarga qarshi qo'mita, Bola huquqlari qo'mitasi.

Yuqoridan kelib chiqib, inson huquqlari barcha davlatlar tomondan tartibga solingan xalqaro huquqning butun bir sohasi, shuning uchun inson huquqlari instituti milliy huquqning asosiy tamoyillaridan biridir. Inson huquqlarining asosiy tamoyillarini amalga oshirish har bir davlatning huquqiy bahosini belgilaydi. Shunga asosan, milliy huquq tizimida inson huquqlarining o'rne juda katta.

Bunga yaqqol misol qilib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasini keltirishimiz mumkin: «O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar» yoki 19-moddasini ham keltirishimiz mumkin «O'zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan bo'lgan huquqlari va burchlari bilan o'zaro bog'liqdirlar. Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas».

Bularning hammasi inson huquqlarining naqadar O'zbekiston uchun muhim o'rin kasb etgani va etayotganini ko'rsatishi mumkin.

Inson huquqlarining xalqaro huquqdagi eng katta mexanizmlaridan biri sifatida, albatta biz, Inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha Bil majmuasi nomini olgan xalqaro hujjatlarni aytib utishimiz kerak deb o'ylaymiz. Bular: 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1966-yildagi Inson huquqlari bo'yicha fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Pakt va 1966-yildagi inson huquqlari, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari to'g'risidagi Paktlarning va ularga birlashtirilgan Protokollar hisoblanadi. Bundan tashqari BMT nizomida ham inson huquqlari va asosiy erkinliklar to'g'risidagi qoidalar mavjud. Umumiy qilib aytganda, Xalqaro huquqda inson huquqlari – bu har qanday zamonaviy jamiyatda insonning huquqiy maqomini belgilovchi tamoyillar va normalar majmuyi deya olamiz.

O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasiga muvofiq, har kim O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va xalqaro shartnomalarga muvofiq, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalaridan foydalanib bo'lingan bo'lsa, insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat etishga haqli ekanligi mustahkamlandi. Bu fuqarolarning huquq va erkinliklari himoyasi nafaqat milliy qonunchilikda belgilangan normalar, balki xalqaro huquq asosida ham himoyalanihini ta'minlaydi.

1. Fuqarolarning ijtimoiy sohadagi huquqlari

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar «ikkinchi avlod» huquqlariga taalluqlidir. Ushbu huquqlar jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi turmush sharoitini belgilab beruvchi huquqlar hisoblanadi. Bu sohada inson mehnat qiladi, dam oladi, mulkka egalik qiladi va uni tasarruf qiladi, kasbiy bilimlarini oshiradi va tajriba orttiradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining IX bobi Ijtimoiy va iqtisodiy huquqlarga bag'ishlanadi. Ular orasida fuqarolarning ijtimoiy huquqlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, ularga:

- mehnat qilish huquqi (42-modda);
- fuqarolarning bandligini ta'minlash (43-modda)
- majburiy mehnat taqiqlanishi huquqi (44-modda);
- dam olish huquqi (45-modda);
- ijtimoiy ta'minot olish huquqi (46-modda);
- uy-joyli bo'lish huquqi (47-modda);

- malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi (48-modda);
- qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqi (49-modda);
- bilim olish huquqi (50-modda);
- davlat hisobidan oliy ma'lumot olish (51-modda);
- o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish (52-modda) kiradi.

Mamlakatda aholi bandligini ta'minlash, mehnat jarayonida xotin-qizlarning ish bilan band bo'lish sohasidagi huquqlarining kamsitilishini bartaraf etish, ayni vaqtda, erkaklar bilan ayollarning teng huquqliligini ta'minlash uchun quyidagi imkoniyatlar yaratib beriladi:

- a) barcha insonlarning ajralmas huquqi sifatida mehnat qilish;
- b) ishga yollashda bir xil imkoniyatlarga ega bo'lish, shu bilan birga, ishga yollashda bir xil tanlash mezonlarini qo'llash;
- d) kasb yoki ish turini erkin tanlash, lavozim bo'yicha ko'tarilish va ish bilan band etilish kafolatiga ega bo'lish, shuningdek, shogirdlik, yuqori darajadagi kasb bo'yicha tayyorgarlik va muntazam suratda malaka oshirishni o'z ichiga olgan holda mehnat qilishning barcha imtiyozlari va shart-sharoitidan to'liq foydalanish, kasb bo'yicha tayyorgarlik va qayta tayyorgarlikdan o'tish;
- e) imtiyozlar olishni ham hisobga olgan holda teng mukofotlash, bir xil qimmatga ega bo'lgan mehnatga nisbatan teng sharoitlarda, shuningdek, ish sifatini baholashga teng yondashish;
- f) nafaqaga chiqish, ishsiz qolish, kasallik, nogironlik, qarilik va mehnat qobiliyatini yo'qotishdan iborat boshqa holatlarda ijtimoiy ta'minot huquqi, shuningdek, haq to'lanadigan ta'til.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 42-moddasida mustahkamlangan mehnat qilish huquqi insonning barcha huquq va erkinliklarining asosiyidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'z ifodasini topgan bu huquq:

birinchidan, fuqarolarga uzlari xohlagan kasb-hunarni erkin tanlash; ikkinchidan, o'z qobiliyatiga yarasha ish bilan ta'minlanish; uchinchidan, mehnatining hajmi va sifatiga qarab haq olish; to'rtinchidan, adolatli mehnat sharoitida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda himoyalani; beshinchidan, mehnatni muhofaza qilish uchun zarur vositalar bilan ta'minlanishini anglatadi. U davlatga

fuqarolarga qobiliyatlari, bilimlari va malakalariga qarab ish bilan ta'minlash vazifasini yuklaydi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 25-moddasida «Har bir inson ... tibbiy xizmat va zarur ijtimoiy xizmatga ega bo'lishga hamda ishsizlik, kasallik, nogironlik, bevalik, qarilik yoki unga bog'liq bo'lmagan sharoitlarga ko'ra tirikchilik uchun mablag' bo'lmay qolgan boshqa hollarda ta'minlanish huquqiga ega», deb belgilangan. Bu huquqni ta'minlash – ijtimoiy davlatning asosiy vazifalaridan biridir.

Konstitutsiyamizda O'zbekistonni – ijtimoiy davlat sifatida belgilanishi ijtimoiy ta'minot sohasida davlat siyosatini yanada samarali amalga oshirishning dolzarbligini oshiradi. Shundan kelib chiqib, ijtimoiy adolat tamoyiliga amal qilish maqsadida yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 46-moddasida «Qonunda belgilangan pensiyalar, nafaqalar va boshqa turdagi ijtimoiy yordamning miqdorlari rasman belgilangan eng kam iste'mol xarajatlaridan oz bo'lishi mumkin emas», degan norma mustahkamlanmoqda. Bu bilan, oldingi Konstitutsiyadagi «tirikchilik uchun zarur eng kam miqdor» so'zlari o'rniga «eng kam iste'mol xarajatlaridan oz bo'lishi mumkin emas» degan so'zlar qo'llanilmoqda. Chunki «tirikchilik uchun zarur miqdor», degan ko'rsatkich Xalqaro oziq-ovqat xavfsizligi tashkiloti tomonidan belgilangan normadan past hisoblanadi. Qolaversa, tirikchilik deganda, faqatgina insonning yashab qolishi uchun qilindigan xarajatlar tushuniladi, «eng kam iste'mol xarajatlarida» esa nafaqat oziq-ovqat, balki kiyim-kechak, turli xizmatlardan foydalanish, ta'lim olish, sog'liqni saqlash va boshqalar bilan ta'minlanishi tushuniladi.

2022-yilda tariximizda ilk bor pensiya va ijtimoiy nafaqalar miqdori minimal iste'mol xarajatlaridan kam bo'lmagan darajaga olib chiqildi. Misol uchun, 2017-yilda kam ta'minlangan 500 ming oila ijtimoiy yordam olgan bo'lsa, bugunga kelib 2 milliondan ortiq oilalarga ko'mak berilmoqda. Ajratilayotgan mablag'lar esa 7 barobar ko'paytirilib, yiliga 11 trillion so'mga yetdi. Eng kam iste'mol xarajati deganda, insonning asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun bir oy davomida zarur bo'ladigan tovar va xizmatlarni sotib olishga yetadigan mablag' miqdori tushuniladi. Eng kam iste'mol xarajatlari miqdorini hisoblab chiqishda bugungi sharoitda aholining real o'rtacha ijtimoiy xarajatlarini inobatga olish lozim. Pensiya va bosh-

qa ijtimoiy yordam turlari miqdorlarining eng kam iste'mol xarajatlaridan kam bo'lmashligi esa – fuqarolarning turmush darajasini yaxshilash, xarid qobiliyatini saqlab qolish, sog'lig'i, mehnat qilish salohiyatini saqlagan holda jamiyatning hech bir a'zosini e'tibordan chetda qolmasligini ta'minlaydi.

Aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarini qo'llab-quvvatlash, ularning hayotda o'z o'rnini topishlariga ko'mak ko'rsatish ijtimoiy davlatning muhim funksiyalaridan biridir.

Ayniqsa, muhtoj insonlarni vatan ichra vatani bo'lgan uy-joy bilan ta'minlash Yangi O'zbekiston insonparvar siyosatining yorqin ifodasidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2022-yil 20-iyundagi Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvda «Konstitutsiyamizda fuqarolarimizning uy-joyga bo'lgan huquqlarini himoya qilish, muhtoj toifalarni uy-joy bilan ta'minlash bo'yicha davlatning majburiyatlarini mustahkamlash zarur», deb ta'kidlagan edi.

Shu bois yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 47-moddasida «Aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarini uy-joy bilan ta'minlash tartibi qonunda belgilanadi», degan yangi insonparvar norma mustahkamlanmoqda. 2022-yil 28-oktyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga muvofiq, aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalariga nogironligi bo'lgan bolalari bor yolg'iz ota-ona, ko'p bolali oilalardagi ota-onalar, «mehribonlik» uylarining bitiruvchilari, nogironligi bo'lgan shaxslar, pensiyaoldi yoshidagi shaxslar, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar, odam savdosidan jabrlanganlar va hokazolar kiradi.

Oxirgi yillarda amalga oshirilgan islohotlar natijasida mamlakatimizda «mehribonlik» uylarining bitiruvchilarini, nogironligi bo'lgan shaxslarni, kam ta'minlangan oilalarni, ayniqsa, alohida yordamga muhtoj xotin-qizlarni uy-joy bilan ta'minlash, ularga subsidiyalar berish, uylarning dastlabki badallarini to'lab berish, imtiyozli va uzoq muddatli ipoteka kreditlar berish kabi insonparvar siyosat amalga oshirilmoqda. Xususan, uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj bo'lganlarga ipoteka krediti bo'yicha dastlabki badal va (yoki) foizlarning bir qismini qoplash uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobiga subsidiyalar to'lanishi belgilandi. Yangi tartib doirasida 2020–2022-yillarda jami 27 800 nafar fuqaroga boshlang'ich badal bir qismini qoplash

uchun 795,6 mlrd so'm va 38 811 nafar fuqaroga 429,4 mlrd so'm foiz to'lovlari bir qismini qoplash uchun subsidiya ajratilgan. Oxirgi olti yilda mamlakatimiz bo'yicha qariyb 300 mingta yoki avvalgi yillarga nisbatan 10 barobar ko'p uy-joylar qurildi. O'tgan yili mamlakatimizda 50 ming oila uchun yangi kvartiralar olishga sharoit yaratilgan. Bu yil 90 ming oilani uy-joyli qilinadi. Yaqin 2–3-yilda bu raqamni 200 mingga yetkazish maqsad qilingan. Yana bir misol, uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj bo'lgan xotin-qizlar ijara huquqi asosida ijtimoiy uy-joylarga joylashtirilmoqda. Jumladan, uy-joy fondida ijara huquqi asosida istiqomat qilayotgan ehtiyojmand xotin-qizlarga ular tomonidan to'lanadigan oylik ijara to'lovining 50 foizi «Ayollar daftari» jamg'armasi hamda davlat mablag'lari hisobidan qoplab berilmoqda.

Ushbu barcha normalarning belgilanishi har bir fuqaro, ayniqsa, yosh oilalarning o'z xonadoniga ega bo'lishi uning mehnat samaradorligiga, o'qish imkoniyatlariga, samarali dam olishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, shaxsning ijtimoiy barqarorligi va hayotdan rozilik darajasini oshiradi.

Salomatlik insonning birlamchi ehtiyoji va istagidir. Faqatgina sog'lom xalq, barkamol millat buyuk ishlarga qodir bo'ladi. Shu bois yangi tahrirdagi Konstitutsiyada aholi salomatligini asrash bilan bog'liq normalar 4 barobar ko'paytirildi. Xususan, 48-moddada «Har kim sog'lig'ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega» deyilgan.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini qonunda belgilangan tartibda davlat hisobidan olishga haqli», degan mazmundagi hayotiy norma mustahkamlanmoqda. Ushbu normaga ko'ra, birinchidan, ilk marotaba fuqarolarning sog'lig'ini saqlash huquqi Konstitutsiya darajasida belgilanmoqda. Fuqarolarning sog'lig'ini saqlash huquqini ta'minlash maqsadida birlamchi va ixtisoslashgan tibbiy xizmatni aholiga yaqinlashtirish, mamlakatimizda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, profilaktik choralarni kuchaytirish, tibbiy sug'urtani bosqichma-bosqich joriy qilish, xususiy sog'liqni saqlash tizimini kengaytirish, tibbiy xizmatni raqamlashtirish kabi tizimli choratadbirlar amalga oshirilmoqda.

2023-yilning hozirgi davriga qadar tibbiyot sohasiga budjetdan 29 trillion so'm yo'naltirildi, bu mablag' 2016-yilga nisbatan 5 ba-

robar ko'pdir. O'tgan besh yilda shifoxonalar va tez tibbiy yordam punktlarini dori-darmon, tibbiyot buyumlari bilan ta'minlash uchun mablag'lar 12 barobar ko'paytirildi. Xususan, qishloqlardagi 801 ta oilaviy poliklinika zamonaviy tashxis apparatlari bilan ta'minlandi. Bu orqali qishloq va mahallalarda 8 turdagi yangi tibbiy xizmatlar yo'lga qo'yildi. 23 ta ixtisoslashgan tibbiyot markazlarining barcha hududlarda filiallari faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Joriy yilda «Kafolatlangan xizmatlar paketi» qayta ko'rib chiqilib, 20 turdagi kasalliklar bo'yicha diagnostika, davolash va profilaktika xizmatlari hajmi to'liq qamrab olinadi. Ko'p uchraydigan 20 turdagi kasalliklar bo'yicha birlamchi bo'g'indagi bepul tibbiy tahlil turlari – 15 tadan 25 tagacha, tekshiruvlar – 10 tadan 20 tagacha, dorilar – 64 tadan 90 taga oshiriladi. Bularning barchasi yurtimizda istiqomat qilayotgan fuqarolarning sog'lig'ini saqlashga qaratilgan amaliy choralardir. Ikkinchidan, fuqarolarga tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini qonunda belgilangan tartibda davlat hisobidan ko'rsatilishi aholi salomatligi uchun muhim ijtimoiy ko'mak hisoblanadi.

Bilim insonni komillikka ko'tarish bilan birga, u yashayotgan jamiyat va mamlakatni ham yuksaltiradi. Insonda bilim va intellekt sifatli ta'lim natijasida shakllanadi. Shu bois davlat fuqarolarning ta'limga oid huquqlarini amalga oshirishni o'z zimmasiga oladi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 50-moddasida fuqarolarning ta'lim olish huquqi bilan bog'liq quyidagi mazmundagi normalar mustahkamlanmoqda: birinchidan, davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi, degan norma belgilanmoqda. Bunda davlat yangi bog'chalarni qurish, mavjudlarini ta'mirlash, shu jumladan davlat, davlat-xususiy sheriklik va xususiy bog'chalarni ko'paytirish, yangi bog'chalarni tashkil etishga imtiyozlar va subsidiyalar berish, pirovardida bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishni yuz foizga yetkazish choralari ko'radi; ikkinchidan, umumiy o'rta ta'limning majburiyligi belgilanmoqda.

Bu degani maktab yoshidagi har qanday bola albatta maktabda o'qishi shart hamda bunga to'sqinlik qilishga hech kimning, hatto ota-onalarning haqqi yo'q. Ushbu majburiyat ta'lim oluvchiga ham, ta'lim tashkilotiga ham birdek mas'uliyat yuklaydi; uchinchidan,

maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta ta'lim davlat nazoratidadir, degan norma o'rnatilmoqda.

Oldin faqatgina maktab ishlari davlat nazoratida edi, endilikda esa maktabgacha ta'lim ham davlat nazoratiga o'tkazilmoqda. Natijada bog'cha va maktablarda bolalarning xavfsizligi va salomatligi, sanitariya-gigiyena talablariga rioya etilishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tarbiya, ta'limning yuqori sifati va mazmundorligi ta'minlanadi; to'rtinchidan, ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi, degan insonparvar norma bilan to'ldirilmoqda. Unga ko'ra, jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi. Bu shunday nuqsonlarga ega bolalarimizning yakkalanib qolmasligi, jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida shakllanishi va kamol topishi uchun juda muhim; beshinchidan, davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi, deb mustahkamlanmoqda.

Bu esa maktabgacha ta'lim-tarbiyadan to'liq ta'limgacha hamda boshqa ta'lim turlarini, shuningdek, ta'limning kunduzgi, sirtqi, kechki, masofaviy, oilada ta'lim olish, mustaqil ta'lim olish, inklyuziv ta'lim va hokazo shakllarini tashkil etish va faoliyat yuritishiga imkoniyat yaratadi.

2. Fuqarolarning davlat xizmatiga kirishdagi huquqlari

Davlat xizmatiga kirishda nomzodlarga jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, huquqlarining tengligi kafolatlanishi orqali teng huquqlilik amalga oshiriladi. Bir so'z bilan aytganda, bu jarayonda odam ajratmasdan, barchaga bir ko'z bilan qaraladi, «falonchining o'g'li», «pistonchining jiyani» bo'lganligi uchun unga ustunlik berish kabi holatlarga aslo yo'l qo'yilmaydi.

Yangi Konstitutsiyada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning jadallashgani, sohalarda tub o'zgarishlar qilinayotgani, fuqarolarning huquq va erkinliklari ortayotgani aks etishi hayotiy zarurat bo'lib, bu keyingi qadamlarimizni aniqlab olishimiz uchun g'oyat ahamiyatli masala, shuningdek, adolatli jamiyat qurish yo'lidagi ulkan qadamdir.

Ayniqsa, so'nggi yillarda «Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak» tamoyili ustuvor qo'yilib, fuqarolarning imkoniyatlari kengaytirildi. 2022-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida»gi qonun ham mana shu maqsadga qaratilgan.

Endilikda, davlat tashkilotlaridagi xodimlarni boshqarish va inson resurslarini rivojlantirish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirishga mas'ul qilib, yangi tashkil etilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi belgilandi. Mazkur tashkilot tomonidan fuqarolarning respublikamizda mavjud bo'lgan barcha davlat organlari va tashkilotlariga ishga qabul qilishni amalga oshirib kelmoqda. Shu bilan birga, tizimlardagi ishga kirishdagi korrupsion holatlar oldi olishga erishish maqsad qilingan.

Yangi Konstitutsiyamizning 37-moddasida «O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa egadir» deb, belgilanayotgani ham davlat xizmatiga kirishda mamlakatimiz fuqarolari uchun teng huquq va imkoniyatlar yaratilishi maxsus norma bilan mustahkamlandi.

Hammamizga ma'lumki, so'nggi yillarda davlat xizmatiga qabul qilish ochiq tanlov asosida amalga oshirilishi, kadrlarning sifat darajasi yaxshilanishi, xizmat bo'yicha o'sib borishi bilan bog'liq faoliyatda nomzodlarni «teng huquqlilik» tamoyili qo'llanilishi belgilab berildi. Bunda, kadrlarning tanlashda ayol va erkakning teng ko'rilishi, ularning bilim, iqtidoriga e'tibor qaratilayotganini alohida ta'kidlash mumkin.

Davlat xizmatchilarining huquqiy maqomi, ijtimoiy ta'minot masalalari amalda huquqiy jihatdan tartibga solinmagan edi. Yoki davlat xizmatchilarini huquqini cheklashga qaratilgan qonunchilikdagi bo'shliqlar saqlanib keldi. Shuning uchun ham bugungi kunda bu sohada bir qator islohotlarni amalga oshirildi. Endi esa, ularning asosiy qonunimizda mustahkamlanishi kutilmoqda. Fuqarolarni davlat xizmatlariga ishga kirishlarida cheklovlar bo'lishi kerak emas. Har bir fuqaro bilim-ko'nikmasiga ko'ra, o'z sohasi bo'yicha faoliyat olib borishga haqlidir. Arzimas cheklovlar bilan sun'iy to'siqlar qo'yilishi kerak emas edi.

Misol uchun, Toshkent shahriga ishga kirishda propiska degan cheklov qanchadan qancha fuqarolarni ishlash imkoniyatidan mah-

rum qilgan edi. Doimiy yashash joyi Toshkent shaharida bo'lmasa, ishga qabul qilinmagan holatlar ko'p bo'ldi va bu uchun tegishli javobgarlik mavjud edi. Yoki ayollarning jumladan homilador ayollarning ishga kirishida teng huquqlilikning kafolatlanmaganligi turli korrupsiyaviy holatlarni yuzaga keltirgan. Ularni ishga olmaslik holatlari ham ko'p bo'ldi.

Bularning barchasi, albatta qonunchilikdagi bo'shliqlar va mazkur sohaning huquqiy jihatdan tartibga solinmaganligi hisoblanadi. Shu bilan birga, ishga kirishdagi ayrim hujjatlarni soni qisqartirildi. Ortiqcha qog'ozbozliklarga barham berildi. Qolgan hujjatlari ham bugungi kunda elektronlashtirilgan bo'lishiga o'tilmoqda. Bu ham fuqarolarga qulaylik tug'diradi.

Oliy qonunimizda fuqarolarimizning davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa ega bo'lishining kafolatlanishi, davlat xizmatining raqobatdoshligini, ochiqligini va professionalligini oshirishi bilan birga, kadrlar sifatini yanada oshiradi. Salohiyatli yoshlar, xotin-qizlarning davlat xizmatiga kirishda teng huquqni kafolatlaydi va davlat xizmatiga ishonchini ortishiga hamda iqtidorli, zamonaviy fikrlaydigan kadrlarni xorijiy davlatlarga chiqib ketish holatlari va korrupsiyaviy holatlarning oldini olinishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, xalqimizga davlat xizmatlarining o'rni va ahamiyati, yangilanayotgan Konstitutsiyamizda bu belgilanayotganini oddiy va ravon holda tushuntirishimiz kerak. Fuqarolar uchun davlat xizmatiga kirishda teng huquqni kafolatlanishi Konstitutsiya darajasida mustahkamlandi.

So'nggi yillarda haqiqatdan ham xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilayotganini anglash va unda inson qadri ustuvor qo'yilayotganini ko'rishimiz mumkin. Xalqimiz mana shuni bugun tushunib yetishlari lozim. Bu yo'lda, barcha huquqshunos-u olimlar mahallalarda keng targ'ib etishlari va aholi, ayniqsa, yoshlar ongiga chuqur singdirishlari zarur. Yaratilayotgan imkoniyatlar ular uchun ekanini anglatish ham kerak, albatta. Bu bilan ishga joylashishdagi korrupsion holatlarni oldini olishga erishilishini tushunib yetmoqliklari lozimdir. Bu yutuqlar, huquq va erkinliklardan nafaqat hozirgi, balki kelajak avlodlarimiz ham eminerkin foydalanishi uchun, ularni, albatta, Konstitutsiyada muhrlab qo'yish talab etilmoqda.

3. Fuqarolarning qonunchilik tashabbusi huquqlari

Demokratik davlatda fuqarolarning davlat ishlarini boshqarishdagi ishtirokini kengaytirishda qonun ijodkorligi muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2022-yil 20-iyun kuni Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvdagi nutqida qonunchilik tashabbusi huquqi institutini isloh qilishni, Konstitutsiyaga qonunchilik takliflarini kiritish institutini joriy etishni taklif qildi hamda «Mazkur institut doirasida 100 ming kishidan kam bo'lmagan miqdordagi fuqarolar o'z qonunchilik takliflarini Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritish imkoniyatiga ega. Umumiy talab – saylovchilarning tegishli miqdorda notarial tasdiqlangan imzosini to'plash bo'ladi. Shu asosda endi xalq bevosita qonun ijodkori sifatida tashabbus ko'rsatish huquqini qo'lga kiritadi» deb ta'kidlagan edi.

Shu munosabat bilan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 98-moddasida saylov huquqiga ega bo'lgan, yuz ming nafardan kam bo'lmagan fuqarolarning qonunchilik takliflarini qonunchilik tashabbusi tartibida Qonunchilik palatasiga kiritish huquqi mustahkamlanmoqda. Xorijiy mamlakatlar tajribasida fuqarolarning qonunchilik tashabbusi huquqi Avstriya, Ispaniya, Italiya, Shveytsariya, Filippin va boshqa bir qator mamlakatlar Konstitutsiyalarida nazarda tutilgan. Ulardagi umumiy talab shuki, xalq tashabbusi asosida qonun loyihasini kiritish uchun tegishli miqdordagi saylovchilarning imzosi to'planadi.

Masalan, Shveytsariya, Vengriya, Italiyada 50 ming saylovchining imzosi, Polshada – 100 ming, Ispaniyada 500 ming, Kolumbiyada saylovchilar umumiy soni 5 foizining imzosi to'planishi lozim. Fuqarolarning qonunchilik takliflari bilan parlamentga murojaat qilishi institutining Konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishi xalq hokimiyatchiligi Konstitutsiyaviy prinsipiga quyidagi ijobiy ta'sir qiladi: birinchidan, davlat ishlarini boshqarishda fuqarolarning ishtirokini kengaytirish, xalqning bevosita qonun ijodkori sifatida qonun hujjatlarini takomillashtirish orqali tizimli muammolarni hal etishiga olib keladi; ikkinchidan, o'zlariga tegishli Konstitutsiyaviy huquqlar bilan bog'liq turli ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etishga, eng muhimi, islohotlar tashabbuskori sifatida insonlar o'zlarining kelajagi, orzu-maqсадlarini ro'yobga chiqarish uchun muhim qaror-

lar qabul qilishda to'g'ridan to'g'ri ishtirok etishlariga xizmat qiladi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida qonunchilik qonunchilik tashabbusi tartibida kiritish instituti joriy etildi. Xususan, 98-moddada qonunchilik takliflarini qonunchilik tashabbusi tartibida kiritishi mumkin bo'lgan subyektlari qatoriga kiritilishi: fuqarolarga va Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)ga bunday huquqning berilishi qonun ijodkorligida fuqarolarning ishtiroki kengayishiga hamda inson huquqlarini ta'minlash, himoya qilishga xizmat qiladi. Masalan, 2022-yil yanvar-avgust oylarida fuqarolarning murojaatlaridan kelib chiqib, deputatlar tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida 6 ta qonun loyihasi Qonunchilik palatasiga kiritilgan.

4. Fuqarolarning siyosiy sohadagi huquqlari

Siyosiy huquqlarning turlari quyidagilardan iborat: fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqi; jamiyat a'zolarining qonunlarga binoan mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar o'tkazishda qatnashish huquqi; fuqarolar kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish huquqi, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqi; har bir shaxsning vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqi va boshqalar.

Yangi Konstitutsiyaga muvofiq, siyosiy huquq va erkinliklarga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 8 bobi bag'ishlangan:

- jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqi (36-modda);
- davlat xizmatiga kirishda tenglik huquqi (37-modda);
- mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqi (38-modda);
- kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqi (39-modda);
- arizalar, takliflar va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqi (40-modda).

Siyosiy huquqlar – fuqaroning subyektiv huquq va erkinliklarining muhim kategoriyasini tashkil etadi. Bu huquqlar qonun tomo-

nidan ta'minlangan insonning davlatning ijtimoiy-siyosiy hayotida ishtirok eta olishi (individual va jamoa holda) va shu bilan davlat hokimiyatini amalga oshirishi bilan bog'liq bo'lgan ommaviy hokimiyatga ega bo'lish imkoniyatidir. Siyosiy huquqlar inson huquqlarining boshqa turlari mavjudligining bevosita sharti hisoblanadi, chunki ular organik ravishda bir-biridan ajralmas bo'lib, demokratiya tizimining asosini tashkil etadi va hokimiyatni cheklaydigan hamda o'z faoliyatini yo'naltiradigan qadriyat sifatida maydonga chiqadi.

Siyosiy huquqlar Konstitutsiyaviy huquqning eng muhimlaridan biridir. Har bir shaxs har qanday voqea hodisaga nisbatan o'z shaxsiy fikriga ega bo'lib, u o'z fikrini oshkora aytish huquqiga egadir. To'la ishonch bilan aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasi. U hech kimga qaram bo'lmasdan, erkin va ozod, tinch va osoyishta, farovon yashashning qonuniy kafolati bo'lib kelmoqda. Bozor munosabatlariga asoslangan huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish borasida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. Konstitutsiyamiz asosida mamlakatimizda milliy qonunchilik tizimi, davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari shakllandi. Bugungi kunda barcha jabhalarda keng ko'lamlil islohotlar amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va harbiy salohiyatimiz yuksalib, fuqarolarimizning dunyoqarashi tobora o'sib bormoqda. Bularning barchasi, eng avvalo, Bosh qomusimizning hayotbaxsh kuch-qudrati natijasidir. Konstitutsiyaning 7-moddasida mustahkamlangan «Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir» degan ulug'vor g'oyaning amaliy ifodasi, desak, har tomonlama to'g'ri bo'ladi. Shu bilan birga, har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega ekani, jinoyat sodir etishda ayblanayotgan shaxsning aybi sudda aniq bo'lmaguncha u aybdor hisoblanmasligi to'g'risidagi Konstitutsiyaviy normalarni amalda ta'minlash bo'yicha zarur choralar ko'rildi.

5. Fuqarolar Davlat budgetining shakllantirilishi hamda ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazorati

Inson manfaatlari va xalq farovonligi yo'lida davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlar o'zining moliyaviy ta'minotini talab eta-

di, bu eng avvalo, davlat budjeti orqali amalga oshiriladi. Ularning maqsadli sarflanishini ta'minlash esa – eng asosiy vazifalardan biridir. Bunda fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan Davlat budjetini shakllantirish va ijro etish faoliyati ustidan nazorat amalga oshirib borilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bois yangi Konstitutsiyaning 148-moddaga ko'ra, «Fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlari O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining shakllantirilishi hamda ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi». Bu davlat hokimiyatining birdan-bir manbai xalq ekanligidan kelib chiqadi. Shuningdek, barchamiz soliq to'lovchimiz, o'z soliqlarimizning qanday sarflanayotganini bilish, buni nazorat qilishga haqlimiz.

Shu bilan birga, joylarda jamoatchilik nazoratini ta'minlashda muhim bo'g'in bo'lgan mahalliy Kengash deputatlarining ham bu boradagi vakolatlari kengaytirilmoqda. 122-moddada Xalq deputatlari Kengashlariga tegishli mahalliy budjetlarni ko'rib chiqish va qabul qilish, ularning ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish huquqi berilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda rivojlanayotgan «Ochiq budjet» davlat siyosati, budjet ustidan jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirish va bu borada to'liq axborot olish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Xususan, Davlat budjetiga oid axborotlarni joylashtirishni nazarda tutuvchi «Ochiq budjet» portali ishga tushirildi, 2019-yildan boshlab budjet mablag'larini taqsimlashda tuman (shahar)lar budjetlari qo'shimcha manbalarining kamida 10 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantirish mexanizmi joriy etildi.

Mazkur norma bilan jamoatchilik nazoratining mexanizmlaridan foydalangan holda budjet jarayonining ochiqligini ta'minlashning Konstitutsiyaviy asoslari mustahkamlanmoqda. Jumladan, davlat budjeti ustidan jamoatchilik nazoratiga oid normalar Janubiy Koreya, Yaponiya, Fransiya kabi davlatlarning Konstitutsiyalarida ham nazarda tutilgan. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada belgilangan normalar yuqorida qayd etilgan ishlarning mantiqiy davomi sifatida davlat budjetini shakllantirish, uning daromad va xarajat qismlarini belgilash, ijrosini ta'minlashda fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlarini jalb qilish, ularga bu jarayonda faol qatnashish, jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun tegishli tashkiliy va huquqiy shart-sharoitlar va kafolatlar yaratadi. Davlat budjetidan maqsad-

li foydalanishni ta'minlash esa aholiga tibbiy xizmatlar ko'rsatish, ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlariga zarur yordam ko'rsatish, uy-joy bilan ta'minlash, tadbirkorlikni va umuman, davlat va jamiyat hayotining boshqa barcha sohalarida samaradorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, endilikda Davlat budjetining qabul qilinishidan tortib uning sarflanishigacha bo'lgan jarayon bevosita fuqarolarimiz ishtirokida jamoatchilik nazorati tartibida kuzatib boriladi. Buning uchun mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to'g'ridan to'g'ri amal qiladigan va yagona huquqiy makonning asosini tashkil qiluvchi huquqiy asos yaratib berilmoqda.

6. Davlat Internet tarmog'idan foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratish majburiyati

Yangi Konstitutsiyada demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat institutlarining huquqiy asoslari kuchaytirilgan, inson huquqlari, shu jumladan, so'z erkinligini ta'minlashga qaratilgan normalar takomillashtirilgan hamda Internet bo'yicha alohida norma o'z aksini topgan.

Shu o'rinda, so'z erkinligi va Internetdan foydalanishni ta'minlash sohasidagi ushbu yangi normalar nimalardan iborat, shularga alohida to'xtalib o'tmoqchimiz.

Ma'lumki, so'nggi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida OAV faoliyatini qo'llab-quvvatlashning huquqiy va institutsional mexanizmlari kuchaytirildi, davlat hokimiyati organlari faoliyatining ochiqligi darajasi oshirildi, qonunchilik va amaliyot takomillashtirilmoqda. Umuman olganda mamlakatimizda so'z erkinligi institutlari mustahkamlanmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizdagi ommaviy axborot vositalarida oshkoralik, tahlil va xolis tanqid ruhi kuchayganini kuzatishimiz mumkin. Bu, albatta, so'z erkinligini ta'minlash borasida olib borilayotgan siyosatning yutuqlaridan dalolatdir. Natijada Matbuot erkinligi indeksida (Chegara bilmas muxbirlar) O'zbekiston 2022-yilda 2016-yilga nisbatan 33 pog'ona yuqori baholangan.

So'z erkinligi insonning shaxsiy huquqi bo'lib, o'z fikrini bildirish, axborot va g'oyalarni olish va tarqatish erkinligini o'z ichiga oladi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida har bir insonning fikr erkinligi va ularni erkin ifodalash huquqiga egaligi, bu

huquq hech bir aralashuvsiz o'z fikriga ega bo'lish, har qanday ommaviy axborot vositalari orqali va davlat chegaralaridan qat'iy nazar ma'lumot va g'oyalarni izlash, olish va tarqatish erkinligini o'z ichiga olishi belgilangan.

Keyinchalik mazkur huquq Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktda mustahkamlanib, unda ushbu huquqdan foydalanish alohida majburiyat va mas'uliyat yuklashi, shuning uchun qonunda nazarda tutilgan ma'lum cheklovlarni o'rnatish talab etilishi belgilangan. Bunday cheklovlar fuqarolarning huquqlari, obro'e'tiborini hurmat qilish, jamiyat salomatligi va axloqini himoya qilish, tartibsizliklarning oldini olish va davlat xavfsizligini ta'minlash uchun zarurligi belgilangan. Mazkur talablar inson huquqlari sohasidagi xalqaro hujjatlarda mustahkamlangan so'z erkinligini ta'minlash borasidagi talablardir.

Ma'lumki, Konstitutsiyamizning 33-moddasi so'z erkinligini kafolatlash bo'yicha normalarni o'zida aks ettiradi. Endilikda: birinchidan, so'z erkinligi huquqi aniq ifodalangan;

ikkinchidan, ushbu huquqni cheklashning aniq mezonlari va chegaralari belgilangan;

uchinchidan, davlat Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi, deb alohida davlatning majburiyatini belgilovchi yangi norma kiritilgan.

Endi mazkur normaga, ya'ni davlatning Internetdan foydalanishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish majburiyatini belgilovchi normaga batafsil to'xtalib o'tsak.

Jahon axborot tarmog'i deb ataluvchi Internet bugungi voqelikda so'z erkinligi huquqini amalga oshirish vositasigina emas, balki kengroq ma'noli tushunchaga aylangan. Shubhasiz, bu bizga keng imkoniyatlar va tezlikni ochib berdi. Xususan, uzoqdagi yaqinlar, do'stlar bilan muloqot qilish, ta'lim olish, ma'lumotlar va xizmatlardan oson foydalanish kabi imkoniyatlarni, shuningdek, axborotni tez qabul qilish va uzatish imkoniyatini bermoqda.

Masalan, biz uyimizdan chiqmasdan davlat xizmatlaridan foydalanishimiz mumkin, mahsulot yoki oziq-ovqatlar bizga yetkazilib berilishi mumkin. Bunday xizmatlar uchun to'lovni onlayn ham amalga oshirishimiz, shu bilan birga, Internet tufayli masofadan turib ham ishlashimiz mumkin.

Bugun Jahon axborot tarmog'ida faoliyat ko'rsatuvchi yangi kasblar paydo bo'ldi, masalan, blogerlar, yutuberlar, smm-mutaxassisleri. Bundan tashqari COVID-19 pandemiyasi Internetning ahamiyatini yanada oshirdi.

Agar xalqaro va xorijiy tajribaga nazar tashlasak, yangi Konstitutsiyaviy tendensiyani kuzatishimiz mumkin. Masalan, Gruziya va Meksika Konstitutsiyalari Internetga kirish va undan foydalanish huquqini kafolatlaydi. Ayrim davlatlarning yangi Konstitutsiyalarida ijtimoiy tarmoqlar, veb-saytlar, kibermakon kabi atamalar qo'llanilmoqda, ya'ni Internet tarmog'i bilan bog'liq huquqlar kafolati bosqichma-bosqich Konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanmoqda.

Bundan tashqari, BMTning Inson huquqlari kengashi Internetni inson huquqlarini amalga oshirishning muhim vositalaridan biri deb alohida ta'kidledi. Xususan, Inson huquqlari kengashi tomonidan 2018-yil 5-iyulda qabul qilingan rezolyutsiyada Kengash shaxsning oflaynda bo'lgan huquqlari onlaynda ham himoya qilinishi kerakligini yana bir bor tasdiqladi.

Bugungi kunda davlatning Internet tarmog'idan foydalanish uchun sharoitlarni ta'minlash majburiyati o'z hududida fuqarolarga ochiq va xavfsiz internetdan foydalanish sharoitini ta'minlashdan iborat. Bu quyidagilarni nazarda tutadi: birinchidan, mamlakatning barcha hududlarida yuqori tezlikdagi internetdan foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlarini ko'rish; ikkinchidan, texnik infratuzilmaning mavjudligini ta'minlash; uchinchidan, Internet foydalanuvchilari huquqlarini himoya qilishni nazarda tutadi.

O'zbekistonda raqamlashtirishni rivojlantirishga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda: 2020-yil «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili» deb e'lon qilinib, maxsus Davlat dasturi ham qabul qilingan, «Raqamli O'zbekiston – 2030» strategiyasi amalga oshirilmoqda.

Natijada O'zbekistonning raqamlashtirish bo'yicha o'rni xalqaro reytinglarda sezilarli darajada ko'tarildi. Xususan, Jahon bankining «GovTech Maturity Index» natijalariga ko'ra, davlat xizmatlari sektori bo'yicha O'zbekiston 37 pog'ona yuqorilab, 198 mamlakat ichida 43-o'rinni egalladi va raqamli transformatsiya sohasida yetakchi mamlakatlarning «A» guruhiga kiritildi.

Shuningdek, «GovTech Enablers» indeksiga muvofiq, raqamli ko'nikmalar va davlat xizmatlaridagi innovatsiyalar bo'yicha mam-

lakatimiz dunyoda 4-o'rinni egallab, 2020-yilga nisbatan 65 pog'ona yuqorilagan.

Mamlakatimiz Internet tarmog'iga kirish kafolatlarini ta'minlash sohasida boshlangan islohotlarni davom ettirmoqda. Binobarin, Internetdan foydalanish uchun shart-sharoitni yaratish borasidagi davlatning majburiyati Konstitutsiyaviy darajada belgilandi.

Bu normaning Konstitutsiyamizda mustahkamlanishi, birinchidan, bu boradagi qonunchiligimiz va amaliyotimizni tizimli asosda takomillashtirishga xizmat qiladi; ikkinchidan, huquqlarimizni onlayn makonda samarali amalga oshirishga hamda Internetdan foydalanish xavfsizligini kuchaytirishga xizmat qiladi; uchinchidan, davlat organlari faoliyatining yanada shaffofligini va ochiqqligini ta'minlaydi.

Yana shuni alohida ta'kidlash joizki, Konstitutsiyaning muhim yangiliklaridan biri shundaki unda Konstitutsiya va inson huquqlarining to'g'ridan to'g'ri va bevosita amal qilishi to'g'risida normalar mustahkamlandi. Bu esa, uni samarali va umrboqiy Konstitutsiyaga aylantirishi shubhasiz.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Konstitutsiyaning mazkur normalari mamlakatimizda so'z erkinligini ta'minlash sohasidagi siyosatni yangi bosqichga ko'tarish imkoniyatini berib, jamiyatimizda inson huquqlari va so'z erkinligini hurmat qilish madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Shuningdek, yuqori sifatli va xavfsiz internetdan foydalanish sharoitlarini yaratadi.

Nazorat savollari:

1. Fuqarolarning ijtimoiy huquqlari deganda nimani tushunasiz?
2. Konstitutsiyaning qaysi bob va moddasida fuqarolarning qonunchilik tashabbusi huquqlari belgilangan va ular nimadan iborat?
3. Fuqarolar davlat xizmatiga kirishda qaysi huquqlarga ega?
4. Fuqarolar siyosiy huquqlari deganda nimani tushunasiz?
5. Fuqarolar Davlat budjetining shakllantirilishda qanday ishtirok etishlari mumkin?
6. Fuqarolar Davlat budjetining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazorati qanday amalga oshiradilar?
7. Davlat Internet tarmog'idan foydalanish uchun qanday shart-sharoitlar yaratishi zarur?
8. Konstitutsiyaning qaysi boblarida fuqarolarning ijtimoiy va siyosiy sohadagi huquqlari belgilangan?

9-mavzu. KONSTITUTSIYADA ATROF-MUHIT VA EKOLOGIK HUQUQLARGA OID KAFOLATLAR

Reja:

1. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada atrof-muhit va ekologik huquqlarga oid kafolatlar.
2. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlashga bag'ishlangan maxsus normalar.
3. Orolbo'yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar.
4. O'zbekistonda suv resurslari bo'yicha muammolarni hal etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini shakllantirishga oid masalalar.
5. «Yashil makon» umummilliy loyihasi doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar.

Tayanch so'z va iboralar: ekologik huquq, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy boyliklarni va biologik xilma-xillikni saqlash, iqlim o'zgarishi, jamoatchilik nazorati, Orolbo'yi mintaqasining ekologik tizimi, suv resurslaridan oqilona foydalanish, «Yashil makon» umummilliy loyihasi.

1. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada atrof-muhit va ekologik huquqlarga oid kafolatlar

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning Muqaddimasida «O'zbekistonning yagona xalqi mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko'paytirishga hamda hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashga hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilishi va e'lon qilishi» belgilandi.

Shuningdek, har kimning qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchi axborotga ega bo'lish huquqi mustahkamlandi. Davlat:

fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash va atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi;

barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

Orolbo'yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko'radi.

Vazirlar Mahkamasi atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy boyliklarni va biologik xilma-xillikni saqlash, iqlim o'zgarishiga, epidemiyalarga, pandemiyalarga qarshi kurashish hamda ularning oqibatlarini yumshatish sohalarida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Viloyatlar, tumanlar, shaharlar hokimlarining vakolatlariga hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik jihatdan rivojlantirishni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish kiradi.

Sir emaski, oxirgi 50–60 yilda iqlimning keskin o'zgarishi, saharlarning kengayishi, cho'llanish va yer degradatsiyasi, maishiy va sanoat chiqindilari tobora ortishi, atmosferaning zararlanishi, suv resurslari ifloslanishi va tanqisligi, o'rmonlar va bioxilma-xillikning qisqarishi insoniyat uchun nihoyatda dolzarb global ekologik muammoga aylanib ulgurdi.

Shu sababli butun dunyoda ushbu muammoni bartaraf etishga qaratilgan izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Buni 1972-yil 5-iyunda Stokgolm shahrida bo'lib o'tgan BMTning atrof-muhitga bag'ishlangan konferensiyasida Butunjahon atrof-muhit kuni nishonlash to'g'risida qaror qabul qilangani va shundan buyon dunyo bo'ylab 5 iyun – Butunjahon atrof-muhit kuni munosabati bilan turli tadbirlar, jumladan, «yashil» konsertlar, tanlovlar, shuningdek, atrof-muhitni tozalashga qaratilgan ekologik aksiyalar o'tkazilib kelinayotgani misolida ham kuzatish mumkin.

O'zbekistonda ham ushbu yo'nalishda ko'plab ezgu ishlar ro'yobga chiqarib kelinmoqda. Avvalo, ona tabiatni asrab-avaylash va aholi salomatligini himoya qilishning qonunchilik bazasi yaratilganligini ta'kidlash zarur. Muhimi, u tobora mustahkamlanmoqda. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham aholi hayoti va salomatlik darajasini yaxshilashning zaruriy sharti o'laroq atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha kompleks choralar belgilandi.

2. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlashga bag'ishlangan maxsus normalar

Konstitutsiyada fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlashga bag'ishlangan maxsus normalar, xususan, har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga ega ekanligi, davlat tomonidan atrof-muhitni yaxshilash, ekologik muvozanatni saqlash, Orolbo'yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash yuzasidan choralar ko'rishi belgilandi. Ayni chog'da fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash va atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratishi belgilab qo'yildi.

Aytish joizki, atrof-muhit inson salomatligi va hayotiga ta'sir qiluvchi muhim omildir. BMT ma'lumotlariga ko'ra, inson salomatligining 20 – 40 foizi atrof-muhitga bog'liq. Qulay atrof-muhit tabiiy zaxiralar qisqarayotgan, global iqlim o'zgarishi, ekologiya va tabiat bilan bog'liq muammolar insoniyat kelajagiga tahdid solayotgan hozirgi davrda yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois ko'pgina rivojlangan davlatlarda ushbu muammo keng muhokama etilmoqda hamda ekologiya muhofazasiga oid yangi normalar Konstitutsiyalarga kiritilmoqda.

Bunda ekologiyaga yetkazilayotgan salbiy ta'sirni kamaytirish muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, shahar va qishloqlarda olib borilayotgan qurilish ishlarining ekologiyaga zarari belgilangan me'yorlardan ortiq bo'layotgan bir sharoitda aholining ekologik huquqlarini ta'minlash, qurilishlarning tabiatga zararli ta'siriga yo'l qo'ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini kuchaytirish choralari ko'rish dolzarb ahamiyatga ega.

3. Orolbo'yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar

Shularga mos holda davlat Orolbo'yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko'radi.

O'zbekistonda Orol muammosi oqibatlarini bartaraf etishga alohida e'tibor qaratilyapti. Shuningdek, Orolbo'yidagi murakkab ekologik vaziyat, aholi genofondini muhofaza qilish, salomatligini yaxshilash, hududda barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamlı loyihalar amalga oshirilmoqda.

Konstitutsiyada ushbu normaning belgilanishi mintaqa aholisi uchun munosib yashash sharoitlari yaratilishini va turmush darajasi jiddiy tarzda yaxshilanishini ta'minlaydi, barcha kasb egalari, avvalo, ijtimoiy soha vakillari uchun qo'shimcha imtiyozlar paketi qo'llaniladi hamda tadbirkorlik tuzilmalari va nodavlat notijorat tashkilotlarining atrof-muhitni himoyalashga yo'naltirilgan loyihalarda faol qatnashish imkoniyati paydo bo'ladi.

Mazkur norma aholimiz va kelajak avlod uchun qulay va ekologik toza hududni yaratish, Orolbo'yi mintaqasi aholisini ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash, ishsizlikni kamaytirish, odamlar yashashi va ishlashi uchun qulay atrof-muhitni ta'minlashning Konstitutsiyaviy kafolatlarini yaratadi.

Umuman, amalga oshirilgan keng ko'lamlı islohotlar va ekologik siyosat natijasida atrof-muhit sifati yaxshilandi. Atmosferaga ifloslantiruvchi moddalarning tashlanishi qariyb 2 martaga, ozonni yemiruvchi moddalardan foydalanish 99,5 foizga, ifloslangan oqova suv hajmi 2 barobar kamaydi. O'simliklarni himoyalashning kimyoviy usullaridan voz kechilib, biologik usullaridan foydalanilmoqda. Betakror, noyob flora va fauna turlarini, shuningdek, ularning genofondini saqlab qolish uchun milliy qo'riqxonalar, bog'lar, buyurtmaxonalar va ekologik markazlar rivojlantirilmoqda¹.

Qayd etish joizki, respublika hududida tabiiy ekotizimlar nihoyatda xilma-xil bo'lib, ular cho'l va yarimcho'l, tog'oldi va pastqam tog'li joylar, tog', daryo va qirg'oqbo'yi hamda suvli-botqoq joylar mavjud.

O'zbekistonning bioxilma-xilligi hozirgi paytda ma'lum bo'lgan 27 mingtaga yaqin turni o'z ichiga oladi. Ular orasida o'simliklar dunyosi 11 mingta turga yaqin va hayvonot dunyosi esa 15,6 mingta turdan ortiqdir.

O'zbekiston Respublikasi 1995-yildan boshlab BMT Biologik xilma-xillik to'g'risidagi konvensiyasida ko'zda tutilgan bir qator,

¹ <https://senat.uz/oz/post/post-819>

shu jumladan, biologik xilma-xillik ishonchli saqlanishini ta'minlash maqsadida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni kengaytirish va yangilarini tashkil etish majburiyatini olgan. Shu asosida Biologik xilma-xillikni saqlab qolish bo'yicha milliy strategiya va Harakatlar rejasi tasdiqlangan. Amalga oshirilgan ishlar natijasida respublikada muhofaza etiladigan tabiiy hududlar umumiy maydoni 6,321 mln gektarga yetkazilib, mamlakat hududining 14,08 foizini tashkil etmoqda.

Shuningdek, mamlakatimizdagi qator suv obyektlari «Aydarnasoy» ko'llar tizimi, «Dengizko'l», «To'dako'l», «Quyimozor» va «Sudoche» suv havzalari xalqaro ahamiyatga ega bo'lib, ular tegishli konvensiya ro'yxatiga kiritilgan.

Bundan tashqari, alohida ekologik qimmatga ega tabiiy obyektlar va majmualarni, o'simliklarni, hayvonlarning noyob turlarini saqlab qolish hamda ularni qayta tiklash, inson faoliyatining tabiatga salbiy ta'sirini kamaytirish, tabiiy jarayonni o'rganish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 27-sentyabrdagi qarori bilan Qoraqalpog'iston Respublikasida «Borsakelmas» davlat buyurtma qo'riqxonasi tashkil etildi.

4. O'zbekistonda suv resurslari bo'yicha muammolarni hal etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini shakllantirishga oid masalalar

Bugungi kunga kelib suv resurslaridan oqilona foydalanish ham mamlakatimizning barqaror taraqqiyotida hal qiluvchi masalalardan biri hisoblanadi. Bu masala suv resurslarining tanqisligi, ularning sifati yomonlashishi, mintaqada shakllangan yangi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ekologik jarayonlarda yanada dolzarblik kasb etmoqda.

O'z navbatida, inson hayoti uchun muhim omil bo'lgan atmosfera havosini muhofaza qilish, uning sifat ko'rsatkichlarining ekologik normativlarga mosligini ta'minlash bugungi kunning global muammolaridan biridir. Bu borada ham yurtimizda qator ishlar olib borilayotir. Masalan, birgina 2022-yilda 14 ming 942 nazorat ostidagi korxonalarining 11 ming 242 tasida atmosferani ifloslantirish manbalarini xatlovdan o'tkazilib, tegishli me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi. Natijada 245 ta korxonalar va tashkilot tomonidan 486 ta chora-tadbir

bajarilishi evaziga 18 ming tonna ifloslantiruvchi moddalarning atmosferaga tashlanishining oldi olindi¹.

Shu kabi sa'y-harakatlarga qaramasdan, tezkorlik bilan hal etilishi zarur bo'lgan talay vazifalar ham bor. Buning uchun, eng avvalo, iqtisodiyotning eski modelidan voz kechish talab etiladi. Shu bois «yashil iqtisodiyot»ga o'tish choralari ko'rmoqdamiz.

Ekspertlar fikricha, yurtimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalari salohiyati 51 mlrd tonna neft ekvivalentiga teng ekan. Bu – mamlakat bo'yicha yiliga qazib olinadigan birlamchi energetika zaxiralari hajmidan 2,5 barobar ko'p, deganidir.

Shundan kelib chiqib, O'zbekistonda 2030-yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 25 foizidan ko'prog'iga yetkazish maqsad qilib olingan².

Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida ham ekologik barqarorlikni ta'minlash masalasiga alohida urg'u berilgan bo'lib, ushbu yo'nalishdagi vazifalar nihoyatda salmoqli.

Bugungi kunda dunyoning aksariyat mintaqalarida suv resurslari tanqisligi muammosi yuzaga kelmoqda. Buning asosiy sabablari sifatida global isishni, sayyoramizdagi ekotizimning buzilishini, davlatlar iqtisodiyoti ko'lami va aholisi soni o'sib borishi natijasida qo'shimcha suv resurslariga talabning ortishini keltirish mumkin. Hozirda dunyoning turli mintaqalarida suv resurslari tanqisligi muammosi davlatlararo munosabatlarda keskinlikning ortib borishiga, hatto harbiy kuch ishlatishgacha borib yetishiga sabab bo'lmoqda.

Aytib o'tish joizki, so'nggi yillarda suv resurslari tanqisligi muammosi Markaziy Osiyo mintaqasida ham yaqqol namoyon bo'ldi. XX asrning 90-yillarida esa Markaziy Osiyo davlatlari mustaqillikka erishganidan so'ng sodir bo'lgan iqtisodiy va demografik o'sish suv resurslariga bo'lgan talabni ko'p karra oshirdi. Mutaxassislarining tahlillariga ko'ra, oxirgi 40 yil ichida Markaziy Osiyoda suv ta'minoti hajmi yiliga kishi boshiga 8,4 mingdan 2,5 ming kub metr gacha kamaydi, 2050-yilga borib Markaziy Osiyo aholisi 90 million kishiga va suv tanqisligi 25-30 foizga ko'payadi, suv

¹ <https://senat.uz/publication/post-819>

² <https://senat.uz/oz/publication/post-819>

ta'minoti hajmi esa kritik darajaga – yiliga 1,7 ming kub metrdan kamroqqa yetadi¹.

Ma'lumki, keyingi yillarda Orolbo'yi mintaqasida yuzaga kelgan vaziyatni yumshatish, aholining munosib tarzda yashashi va mehnat qilishi uchun nimaiki zarur bo'lsa, barchasini yaratish choralari ko'rib kelinmoqda. Bu borada ayniqsa, BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasi yalpi majlisida O'zbekiston tashabbusi asosida ishlab chiqilgan muhim hujjat, ya'ni Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududiga aylantirish to'g'risidagi rezolyutsiyaning ma'qullanishi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Gap shundaki, mazkur hujjat qabul qilingandan keyin Orolbo'yida olib borilayotgan ezgu sa'y-harakatlar yanada kengaydi. Birgina 2018–2022-yillarda jami 1 million 720 ming gektar maydonga cho'l o'simliklari ekilib, yashil hudud barpo qilinganligi ham bu boradagi ishlar qanchalik ko'lamdor ekanligidan darak berib turibdi.

Oliy Majlis Senatining qirq birinchi yalpi majlisida ma'qullangan «Ekologiya va jamoat tartibini saqlash sohasidagi qonunchilik hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi qonun ham ana shu maqsadga yo'naltirilganligi bilan diqqatga sazovor.

Avvalo, bu qonun yangilangan Konstitutsiyamizning 49-moddasida alohida belgilab qo'yilgan: «Davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi», degan qoidalar asosida ishlab chiqilganligini aytish zarur.

Qolaversa, keyingi paytlarda ekologiya sohasidagi huquqbuzarliklarning ko'payishi ham bu yo'nalishdagi profilaktika ishlari va ularga qarshi kurashish tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda mutasaddi davlat organlarining qonun hujjatlari bilan belgilangan vazifalari, huquq va majburiyatlarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etgani sir emas.

¹ <https://xs.uz/uzkr/post/konstruktiv-muloqot-global-muammolarni-samarali-hal-etishning-yagona-joli>

5. «Yashil makon» umummilliy loyihasi doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar

Prezidentning 2021-yil 30-dekabrda «Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori ijrosi doirasida ishlab chiqilgan qonun 6 ta moddadan iborat.

Bu qonun bilan ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq ma'muriy huquqbuzarliklarni vaqtida aniqlash va ularga nisbatan ta'sirchan chora ko'rish maqsadida Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga hamda «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to'g'risida»gi qonunlarga ichki ishlar va Milliy gvardiya organlariga zarur vakolatlar berishni ko'zda tutuvchi o'zgartishlar kiritildi.

Avvalo, ichki ishlar va Milliy gvardiya organlariga Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda belgilangan ekologiya sohasidagi jami 9 ta moddada nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqliligi qo'shilayotganligini aytish o'rinlidir.

Ayni chog'da, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishga va ma'muriy jazo qo'llashga haqli bo'lgan ichki ishlar organlarining mansabdor shaxslari aniq belgilanmoqda. Endilikda tuman (shahar) ichki ishlar bo'limi boshliqlari yoki o'rinbosarlari, shuningdek, transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmalari (bo'limlarining) boshliqlari shunday vakolatlarga ega bo'ladi.

Shu bilan birga, ichki ishlar organlari post-patrul xizmati bo'linmalari mansabdor shaxslari va ichki ishlar organlari tayanch punktlari profilaktika katta inspektorlari va inspektorlariga ekologiyaga oid huquqbuzarliklar bo'yicha ma'muriy bayonnoma tuzish vakolati berilmoqda.

Qolaversa, kodeksda belgilangan ekologiya sohasiga doir 8 ta moddada, jamoat tartibiga oid 4 ta moddada ko'zda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar Milliy gvardiyaga tegishli ekanligi hamda bunga mas'ul bo'lgan rahbarlar aniq belgilanmoqda.

Bundan tashqari, o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risidagi qonunchilik normalari buzilganda (aybdor shaxsi aniqlanmaganda) bayonnoma tuzish maqsadida, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni ushlab keltirish mumkinligi nazarda tutilgan. Ya'ni ichki ishlar va Milliy gvardiya

organlari mansabdor shaxslariga aybdorlarni ma'muriy yo'l bilan ushlab turish vakolati berilmoqda¹.

Mamlakatimizda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, «yashil maydonlar»ni kengaytirish ishlariga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda.

Prezidentimizning tegishli Farmoni bilan butun mamlakat miqyosida daraxtzorlarni ko'paytirishga qaratilgan «Yashil makon» umummilliy loyihasi hayotga tatbiq etildi. Davlat o'rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalar qimmatbaho navlarining kesilishiga muddatsiz davrga moratoriy e'lon qilindi hamda ularni noqonuniy kesganlik yuzasidan ta'sirchan choralar belgilandi.

«Yashil makon» umummilliy loyihasi doirasida har yil kamida 200 million tup daraxt ekish nazarda tutilgan. O'tgan 2022-yilda jami 202,7 mln tup daraxt ko'chatlari ekilgan bo'lsa, mazkur ko'rsatkich joriy yil bahor mavsumida 127,7 mln tupni tashkil etgan. Ko'chat ekish ishlari viloyat, tuman, mahallalar, ta'lim muassasalari, vazirlik va idoralar kesimida manzilli dasturlar asosida yo'lga qo'yilgan.

«Yashil makon» umummilliy loyihasi doirasida aholi bandligi va daromadlarini oshirish maqsadida ko'chat yetishtirish ishlariga tadbirkorlik subyektlari va ishsiz fuqarolar keng jalb etilgan. Jumladan, joriy yilda aholi tomorqalarida 55 mln tup, tadbirkorlik subyektlari tomonidan 49 mln tupdan ziyod manzarali, mevali daraxt va butalar ko'chatlari yetishtirilgan².

Bugungi kunda yurtimizda ekologik xavfsizlikni ta'minlash uchun izchil institutsional va tashkiliy choralar ko'rilmogda. Aytish joizki, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholi salomatligini muhofaza qilishga qaratilgan hamda tegishli xalqaro normalarga mos huquqiy baza yaratilgan. Mamlakatimiz BMTning atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror taraqqiyot sohasidagi eng muhim konvensiyalari, Barqaror Rivojlanish Maqsadlariga qo'shilib, zimmasiga olgan barcha majburiyatlarni bajarib kelmoqda. Tabiatni muhofaza qilishga oid qonunchilikni amalga oshirish mexanizmi ishlab chiqilgan, maqsadli davlat dasturlari, milliy harakat rejalari hayotga tatbiq etilmoqda.

Nazorat savollari:

1. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ekologik masalalarga oid qanday normalar kiritilgan?
2. Barqaror rivojlanish tushunchasining mazmun-mohiyati nima iborat?
3. O'zbekiston Respublikasida ekologik vaziyatni barqarorlashtirishda davlat va jamiyatning vazifalari nimalardan iborat?
4. Ekologik muammolarni bartaraf etishda fuqarolarning qanday burchlari mavjud?
5. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada nima uchun Orolbo'yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash masalasi kiritildi?

¹ <https://senat.uz/publication/post-829>

² <https://parliament.gov.uz/news/yashil-makon-umummilliy-loyihasi-doirasida-amalga-oshirilayotgan-ishlar-deputatlar-muhokamasida>

10-mavzu. KONSTITUTSIYADA TADBIRKORLARGA BERILGAN KAFOLATLAR

Reja:

1. Tadbirkorlikka oid moddalar sharhi.
2. Davlatimiz tomonidan tadbirkorlar manfaatlarini himoya qilinishi.

Tayanch soʻz va iboralar: Konstitutsiyaviy norma, tadbirkorlik kodeksi, tadbirkorlar palatasi, biznes-ombudsman.

1. Tadbirkorlikka oid moddalar sharhi

Soʻnggi yillarda Oʻzbekistonda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida bir qator ijobiy oʻzgarishlar yuz bermoqda. Shu bilan birga, tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va kafolatlarini mustahkamlash, davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda.

Tadbirkorlik faoliyati bilan shugʻullanayotgan korxonalarining iqtisodiy barqarorligini taʼminlash masalalari hozirgi kunda tobora dolzarb ahamiyatga ega boʻlib bormoqda. Tadbirkorlikni rivojlantirishdagi turli xil omillarning oʻzgaruvchanligi, oʻz navbatida, xoʻjalik yurituvchi subyektlarning samaradorligiga sezilarli taʼsir koʻrsatishi mumkin. Ayniqsa, turli darajada qabul qilinayotgan qarorlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning ayrim jihatlari tadbirkorlik subyektlari faoliyati barqarorligiga toʻgʻridan toʻgʻri bogʻliq. Shuning uchun butun dunyoda tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirishga katta eʼtibor berilmoqda.

Yangi Oʻzbekistonda tadbirkorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilinishi mamlakatining iqtisodiy oʻsishini va investitsion jolibadorligini oshirib kelmoqda. Inson uchun uning erkinligi va huquqlarining kafolati, ayniqsa, mulkining daxlsizligi, xavfsizligi qadri hisoblanadi. Fuqarolar oʻzining huquq va erkinliklari va mulk huquqiga boʻlgan tajovuz yoki tahdidlarni kechira olmaydi. Shuning uchun inson huquq va erkinliklari va mulk huquq daxlsizligi Konstitutsiyamizda mustahkamlab qoʻyildi. Mulk huquqi Oʻzbekiston Respublikasida davlat tomonidan himoya qilinishi belgilangan. Jumladan, Yangi

tahrirdagi Konstitutsiyamizning 41-moddasiga koʻra, har bir shaxs mulkdor boʻlishga haqli. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 17-moddasida ham har bir inson yakka holda, shuningdek, boshqalar bilan birgalikda mulkka egalik qilish huquqiga ega. Hech kim zoʻravonlik bilan oʻz mulkidan mahrum etilishi mumkin emas. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada raqobatbardosh milliy iqtisodiyot, xususiy tadbirkorlik va mulk huquqi kafolatlari mustahkamlanmoqda. Konstitutsiyada mulkdorlar doirasi chegaralanmagan, shuningdek, uning miqdori boʻyicha ham chegara oʻrnatilmagan. Har bir shaxs qonun yoʻl qoʻygan doirada uning egasi boʻlishi mumkin. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 65-moddasiga koʻra «Fuqarolar farovonligini oshirishga qaratilgan Oʻzbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratadi, isteʼmolchilarning huquqlari ustuvorligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlaydi. Oʻzbekiston Respublikasida barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan himoya qilinishi taʼminlanadi.

Xususiy mulk daxlsizdir. Mulkdor oʻz mol-mulkidan qonunda nazarda tutilgan hollardan va tartibdan tashqari hamda sudning qaroriga asoslanmagan holda mahrum etilishi mumkin emas».

Bu norma har bir fuqaroning mulkdor boʻlishi va tadbirkorlik faoliyati bilan shugʻullanish huquqini kafolatlaydi. Yuqoridagi Konstitutsiyaviy norma Oʻzbekiston Respublikasining 2012-yil 2-maydagi «Tadbirkorlik faoliyatini erkinligining kafolatlari toʻgʻrisida»gi Qonun bilan ham belgilangan boʻlib, ushbu qonunning asosiy vazifalari fuqarolarning tadbirkorlik faoliyatida erkin ishtirok etishi va manfaatdorligi uchun kafolatlar hamda sharoitlar yaratishdagi, ularning ishchanlik faolligini oshirishdan, shuningdek tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

Shuningdek Konstitutsiyaning 66-moddasida ham mulkdor mulkiga oʻz xohishicha egalik qilishi, undan foydalanishi va uni tasarruf etish huquqi belgilab qoʻyilgan.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 67-moddasida «Davlat qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini taʼminlaydi.

Tadbirkorlar qonunchilikka muvofiq har qanday faoliyatni amalga oshirishga va oʻz faoliyati yoʻnalishlarini mustaqil ravishda tanlashga haqli.

O'zbekiston Respublikasi hududida iqtisodiy makon birligi, To'varlar, xizmatlar, mehnat resurslari va moliyaviy mablag'larning erkin harakatlanishi kafolatlanadi.

Monopol faoliyat qonun bilan tartibga solinadi va cheklanadi, deb belgilab qo'yilgan.

Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti «Mamlakatimiz kelajagini belgilab beradigan bu toifa vakillariga shunday huquqiy zamin, imtiyoz va kafolatlar tizimini yaratish kerakki, ular o'zi, o'z oilasi, butun mamlakat iqtisodiyotining ravnaqi yo'lida amin-erkin va aniq maqsad bilan mehnat qila olsinlar»¹ degan.

2. Davlatimiz tomonidan tadbirkorlar manfaatlarini himoya qilinishi

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlar manfaatlarini himoya qilish maqsadida tadbirkorlik faoliyati olib borishga to'sqinlik qilgan shaxslarga nisbatan javobgarlik masalasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 241¹-modda (qonuniy tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qilish)da belgilangan bo'lib, unga ko'ra mansabdor shaxsning qonuniy tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qilish deganda, tadbirkorlik faoliyati subyektini ro'yxatdan o'tkazishni g'ayriqonuniy rad etish yoki uni ro'yxatdan o'tkazishdan bo'yin tovlash, muayyan faoliyatni amalga oshirish uchun maxsus ruxsatnoma (litsenziya) berishni g'ayriqonuniy rad etish yoki uni berishdan bo'yin tovlash, xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish va taftish qilinganda belgilangan tartibini buzish, tadbirkorlik faoliyati subyektining huquqlari va qonuniy manfaatlarini cheklash, xuddi shuningdek uning mustaqilligini boshqacha tarzda cheklash yoki uning faoliyatiga boshqacha tarz-dagi g'ayriqonuniy aralashishi tushuniladi va bu harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llaniladi. Lekin shunday jazo belgilanishiga qaramasdan, ayrim mansabdor shaxslar hozirda ham tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qilib kelayotgan holatlari uchramoqda va bu esa bunday shaxslarga nisbatan qat'iy va keskin chora ko'rish

¹ Yangilanayotgan Konstitutsiya. 100 savolga 100 javob. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti. – Toshkent: Adolat milliy huquqiy axborot markazi, 2023-yil.

lozimligini, aybdor shaxslarning faqatgina ma'muriy jazolanishi bilan cheklanib qolmaslikni keltirib chiqaradi.

Jumladan, amaldagi «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolat-lari to'g'risida»gi qonunga asosan tadbirkorlik faoliyati subyektlari-ga quyidagi huquqlar belgilab berildi:

- qonun hujjatlariga muvofiq o'ziga tegishli mol-mulkka ega-lik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish;
- mustaqil ravishda ishlab chiqarish dasturini shakllantirish, mahsulot yetkazib beruvchilarni va o'z mahsulotining (ishlari, xiz-matlarining) iste'molchilarini tanlash;
- tadbirkorlikdan cheklanmagan miqdorda daromad (foyda) olish va uni o'z ixtiyoriga ko'ra tasarruf etish, tovarlar (ishlar, xiz-matlar) bozorida ustun mavqeni egallab turgan tadbirkorlik faoliyati subyektlari bundan mustasno;
- o'z mahsulotini (ishlari, xizmatlarini), ishlab chiqarish chi-qindilarini bozor konyunkturasidan kelib chiqib, mustaqil ravishda belgilanadigan narxlar va tariflar bo'yicha yoki shartnoma asosida realizatsiya qilish;
- binolar, inshootlar, uskunalari va boshqa mol-mulkni olish va yoki ijaraga olish, shu jumladan lizing yo'li bilan;
- belgilangan tartibda tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshi-rish Tadbirkorlik faoliyati subyektlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Shuningdek ushbu qonunga ko'ra davlat iqtisodiy faoliyat, tad-birkorlik erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini, tadbirkorlar-ga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat or-ganlari, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy qarorlari, ularning mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga shikoyat qilish, tadbirkorlik faoliyati subyektlari qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan va ta'sis hujjatlarida ko'rsatilmagan har qanday faoliyat turi bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shug'ulla-nish, tadbirkorlik faoliyati subyektlari o'zlari ishlab chiqargan mah-sulotning (bajargan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlarning) hamda ularni realizatsiya qilishdan olgan daromadlarining (foydaning) mulkdori bo'lish, tadbirkorlik faoliyati subyektlarining barcha ishlab chiqarish xarajatlari qoplanib, soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy tulovlar tulanidan keyin qolgan daromadi (foydasi) ular tomonidan ixti-

yoriy ravishda ishlatilishi, tadbirkorlik faoliyati subyektlari o'z pul mablag'larini mustaqil ravishda tasarruf etish tadbirkorlik faoliyati subyektlari qonun hujjatlariga muvofiq, tashqi iqtisodiy faoliyatni mustaqil tarzda amalga oshirish, mol-mulk mulkdori o'z mol-mulgiga nisbatan qonunga zid bo'lmagan har qanday harakat qilish, tadbirkorlik faoliyati subyektlarining ashyoviy huquqlari qonunlarda nazarda tutilgan tartibda himoya qilish huquqini kafolatlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi Prezidentimizning «Tadbirkorlar faoliyatiga noxolis, tirnoq ostidan kir qidirish kayfiyati bilan qarashdan butunlay voz kechish, aksincha, ularning manfaatlari va qonuniy huquqlari himoyasini to'la ta'minlash fursati yetdi»¹, degan fikrlari aynan tadbirkorlik faoliyatining himoya qilinishiga qaratilgan.

Nazorat uchun savollar:

1. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va kafolatlarini mustahkamlash borasida qanday ishlar amalga oshirib kelinmoqda?
2. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning qaysi moddalarida aynan tadbirkorlik faoliyati kafolatlari belgilab berilgan?
3. Prezident Sh. Mirziyoyevning 2022-yil 22-avgust kuni tadbirkorlar bilan bo'lgan ochiq muloqotda ko'rilgan asosiy masalalarni sanab bering.
4. Biznes-ombudsman nima, uning asosiy vazifasi nimadan iborat?
5. Prezident Sh. Mirziyoyevning tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha beshta asosiy yo'nalishlarini sanab bering.
6. El-yurt orasida obro' qozongan biznes vakillari mehnatini e'tirof etish uchun qanday unvon ta'sis etilmoqda?

¹ Bekov I. Konstitutsiyada o'qituvchi maqomi: Uchinchi Renessansning mustahkam zamini. // «Yangi O'zbekiston» gazetasi. 52-son. 16-mart 2023-yil.

11-mavzu. KONSTITUTSIYADA FUQAROLARNING BURCHLARI BILAN BOG'LIQ ME'YORLAR

Reja:

1. Burch tushunchasi va ta'rifi.
2. O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning e'tirof etilgan burchlari va shu sohada qabul qilingan qonun hujjatlar.
3. Konstitutsiyaviy majburiyatlarga rioya etmaganlik uchun javobgarlik.

Tayanch so'z va iboralar: Burch tushunchasi, Sitseron, huquq, Konstitutsiya, tenglik, atrof-muhit, vatan himoyasi, soliqlar, jazo tizimi.

1. Burch tushunchasi va ta'rifi

Umuman tarixda ham, hozirgi kunda ham burch tushunchasiga berilgan ta'riflar juda ko'p bo'lib, masalan, Qadimgi Rimda quldorlik davrida bu tushunchani o'ziga xos tarzda anglangan bo'lib, qulning quldor oldidagi yoki fuqaro (plebeylar) ning davlat oldidagi qarzi (burchi) bilan izohlab kelishgan. Biroq ushbu tushunchani aynan bu davr bilan bog'lash o'rinni bo'lmaydi. Chunki, insoniyat uchun bu tushuncha qadimgi davrdanoq, ibtidoiy jamiyat davridan ma'lum edi.

Burch tuyg'usi, shuningdek, shaxsiy vazifalarni bajarishda tishqoq yoki o'z da'vatini ishonchli biladigan odamni tavsiflovchi fazilat yoki shaxsiy xususiyatdir.

Qadimgi Rim faylasufi **Sitseron** o'zining «**Vazifalar to'g'risida**» asarida burchlar to'g'risida to'rt xil manbadan kelib chiqishi mumkinligini aytadi:

- inson bo'lish natijasida;
- hayotdagi o'ziga xos o'rni (oilasi, mamlakati, ishi) natijasida;
- kishining xarakteri natijasida;
- o'ziga nisbatan o'zining axloqiy umidlari natijasida.

Qonun yoki madaniyat tomonidan yuklangan o'ziga xos majburiyatlar yurisdiksiya, din va ijtimoiy normalarga qarab sezilarli darajada farq qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Milliy Ensiklopediyasida burchga shunday ta'rif beriladi: **Burch** – kishining biror shaxs, oila, jamoa,

el-yurt, Vatan oldidagi majburiyatini anglatuvchi axloqiy tushuncha. Bizda obyektiv munosabatlar ifodalanadi, ya'ni u jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va axloqiy negizlari bilan belgilanadi. Buning ozi- ga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, u insonning ichki kechinmalari, tashqaridan turib nazorat qilinmaydigan murakkab ruhiy holatini ifodalaydi. Bu iymon-e'tiqod, ongliklik, halollik, vijdon kabi tushunchalar bilan chambarchas bog'liq. Burch qanday vazifa, kimning oldidagi majburiyat ekanligiga qarab turlicha bo'ladi (milliy burch, ijtimoiy burch, umuminsoniy burch va boshqalar). Ijtimoiy va shaxsiy burch, oilada ota-onalik burchi, farzandlik burchi va boshqa burchlar bor. Burch nisbiy tushuncha. U ijtimoiy taraqqiyot jarayonida mazmunan boyib, shaklan o'zgarib boradi. Hozirgi sharoitda insonning tabiat va avlodlar oldidagi burchi yangicha mazmun kasb etmoqda. Oilaviy burch esa jamiyat oldida turgan maqsadlar bilan yanada uyg'unlashmoqda. Ona Vatanga, xalqqa xizmat qilish eng ulug' va sharaflil burch hisoblanadi.

Yevropa huquqshunoslik lug'atida burchga – buzilishi javobgarlikka olib kelishi mumkin bo'lgan yuridik majburiyat. Da'vo arizasida da'vogar javobgarining da'vogar oldidagi majburiyati borligini da'vo qilishi va isbotlashi kerak. Bu beparvolik holatida ehtiyot bo'lish majburiyati yoki shartnoma ishida bajarish majburiyati bo'lishi mumkinligi kabi ta'rif berilgan.

Huquqshunoslik fanida huquq – shaxsga tabiat, jamiyat, davlat tomonidan foydalanishga topshirilgan o'z harakatining turi va me'yorini tanlab olish va burch esa jamiyat va davlat mulki va huquqiy normalarda o'z aksini topgan talablarni jamlash zaruratidir.

Yuridik huquq va burchlar jamiyatda amaldagi ijtimoiy normalarning bir qismini tashkil etadi. Ular davlat tomonidan tegishli huquq normalarida o'z aksini topadi va davlat hokimiyati tomonidan ta'minlanadi, qo'riqlanadi.

Davlat xodimlarining o'zlarining huquq normalari inson xatti-harakatlari xavfsizligini belgilab, ularga huquq va erkinliklar beradi va burchlar yuklaydi. Huquqiy davlatning belgisi bo'lmish Konstitutsiya va qonunning ustunligi prinsipi fuqaro huquqlari, erkinliklari va burchlarining qonunlarida aks etishini taqozo etadi.

Huquq shaxsga tabiat va davlat tomonidan berilgan o'z hayotini birgalikda va uning turmush jarayonida o'ziga berilgan huquqlardan foydalanishni belgilovchi huquqiy normalardir.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 29-moddasida:

1. Har bir inson jamiyat oldida burchlidir, faqat shu holatdagina uning shaxsi erkin va to'liq kamol topishi mumkin.

2. Har bir inson o'z huquqi va erkinliklaridan foydalanishda o'zgalarning huquq va erkinliklarini demokratik jamiyatda yetarli darajada bo'lishini hamda hurmat qilinishini ta'minlash, axloq, jamoat tartibi, umum farovonligining odilona talablarini qondirish maqsadidagina qonunda belgilangan cheklanishlarga rioya etishi kerak.

3. Ushbu huquq va erkinliklarni amalga oshirish Birlashgan Millatlar Tashkilotining maqsad va prinsiplariga hech zid bo'lmasligi kerak deb e'tirof etilgan.

Burchlar esa shu jamiyatdagi shaxslar uchun har qanday vaziyatda bo'lgan yoki biror-bir harakat qilishdan voz kechishni boshqarishgan huquqiy normalardir.

O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining **20-moddasida:** «O'zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan bo'lgan huquqlari va burchlari bilan o'zaro bog'liqdirlar. Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas». Ushbu normaning asosiy qomusda berilib qo'yilganligi davlatning fuqarolar oldidagi majburiyatlari, shuningdek, fuqarolarning davlat oldidagi burchlarini bajarishlari imzolangan shartnoma hujjati sifatida belgilab qo'yilganligi faol fuqarolik jamiyati qurishda bevosita xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida nafaqat O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining asosiy huquqlari, qolaversa, ularning burchlari ham belgilab berilgan.

Ko'pchilikka ma'lum bir haqiqat mavjud: **«Xuddi huquqlarsiz burchlar bo'lmagani kabi burchlarsiz huquqlar ham bo'lmaydi».**

Buni hayotning o'zi tasdiqlaydi. Jamiyatda yashab, o'ziga o'xshaganlar bilan muomala qilar ekan, inson mutlaq erkin bo'la olmaydi, atrofda odamlarni inobatga olmasligining iloji ham yo'q.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining **60-moddasida:** Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya

etishga, boshqa insonlarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar, deb belgilanganligi davlat va fuqaroning bevosita vazifalari ochiq-oydin rasmiylashtirib qo'yilganligidan darak beradi. Bu albatta davlatning tinch-totuvligi va munosib taraqqiyotga erishishida muhim rol o'ynaydi.

Bu prinsip har bir fuqaroga taalluqlidir hamda mamlakat Konstitutsiyasi va qonunlarida mustahkamlab qo'yilgan majburiyatlardan bo'yin tovlashga hech kim haqli emasligini anglatadi.

Ma'lumki, FKning 8-moddasiga muvofiq fuqarolik huquq hamda burchlarni keltirib chiqaradigan harakatlaridan vujudga keladi.

Fuqarolik huquq va burchlari quyidagilardan vujudga keladi:

1) qonunda nazarda tutilgan shartnomalar va boshqa bitimlardan, shuningdek garchi qonunda nazarda tutilgan bo'lmasa-da, lekin unga zid bo'lmagan shartnomalar va boshqa bitimlardan;

2) qonunda fuqarolik huquq va burchlari vujudga kelishining asosi sifatida nazarda tutilgan davlat organlarining yoki fuqarolarining o'zini-o'zi boshqarish organlari hujjatlaridan;

3) sudning fuqarolik huquq va burchlarini belgilagan qaroridan;

4) qonun yo'l qo'yadigan asoslarda mol-mulk olish natijasida;

5) fan, adabiyot, san'at asarlarini yaratish, ixtirolar va boshqa intellektual faoliyat natijasida;

6) boshqa shaxsga zarar yetkazish natijasida;

7) asossiz boyib ketish natijasida;

8) fuqarolar va yuridik shaxslarning boshqa harakatlari natijasida;

9) qonun hujjatlari fuqarolik-huquqiy oqibatlarining kelib chiqishi bilan bog'laydigan hodisalar natijasida.

Davlat ro'yxatidan o'tkazilishi shart bo'lgan mol-mulkka bo'lgan huquqlar, agar qonunda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, unga bo'lgan tegishli huquqlar ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan boshlab vujudga keladi.

2. O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning e'tirof etilgan burchlari va shu sohada qabul qilingan qonun hujjatlar

O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining ikkinchi bo'limi «**Inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari**» deb nomlanib, ushbu bo'limning XI bobi «**Fuqarolarning burchlari**» deb nomlanadi.

Fuqarolarning quyidagi burchlarini nazarda tutadi:

– Konstitutsiya va qonunlarga rioya qilish (60-modda);

– O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrash (61-modda);

– atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish (62-modda);

– qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'implarni to'lash (63-modda);

– o'z mamlakatining himoyachisi bo'lish, harbiy yoki muqobil xizmatni o'tash (64-modda).

Ayni mahalda Konstitutsiyada o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda fuqarolar boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishlari lozimligi alohida ta'kidlanadi (60-modda).

Konstitutsiyaviy burchlar fuqarolar tomonidan bajarilmagan hollarda ma'muriy, fuqaroviy yoki jinoiy javobgarlik kuchga kiradi.

Qonun oldida hamma tengdir. Qonun oldida yalpi tenglik prinsipi ijtimoiy mavqeyi, egallagan mansabi va hokazolardan qat'iy nazar davlatning barcha fuqarolariga tatbiq etiladi.

Biron-bir fuqaro Konstitutsiya bilan belgilangan burchlardan bo'yin tovlamasligi yoki ozod etilmasligi kerak.

Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish davlat fuqarolarining eng asosiy burchidir.

Barcha fuqarolar Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan burchlarini bajaradilar.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 59-modda. Tarixiy va madaniy merosni avaylab asrash

Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosini asrab-avaylashi shart. Tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy meros davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 61-modda.

Shuningdek, ushbu sohani takomillashtirish bilan bog'liq ishlar amalga oshirilishiga mustaqillik yillarida e'tibor qaratildi. Shu munosabat bilan 2001-yil 20-avgust kuni «Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining 269–II-sonli Qonuni qabul qilindi (36-moddadan iborat).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-dekabrda gi «Moddiy-madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasida-

gi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qaroriga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiy-ishlab chiqarish bosh boshqarmasi hamda uning mintaqalararo (mintaqaviy) davlat inspeksiyalari negizida **O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzurida Madaniy meros departamenti** (keyingi o'rinlarda Departament deb yuritiladi) hamda uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari tashkil etildi. Departamentning asosiy vazifalari etib: moddiy madaniy meros, shu jumladan, arxeologiya merosi obyektlari, muzey ashyolari va kolleksiyalari hamda madaniy boyliklarni muhofaza qilish va ulardan foydalanishga oid qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish belgilandi.

Atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish

Atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish zarurati Konstitutsiyada (62-modda) va «O'zbekiston Respublikasi tabiatini muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonunda o'z aksini topgan bo'lib, ular fuqarolar zimmasiga quyidagi burchlarni yuklaydi:

- tabiat resurslaridan omilkor foydalanish;
- tabiat boyliklarini asrab-avaylash;
- tabiat obyektlari bilan bog'liq bo'lgan madaniy merosni saqlab qolish. Bugungi kunda inson hayoti uchun tabiatni yo'q qilish, havo, yer va suvni ifloslantirishdan ko'ra katta xavf-xatar yo'q. Tabiatni qutqarar ekanmiz, biz o'z-o'zimizni halokatdan xalos etamiz.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 49-moddasida: Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga ega. Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash va atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Shaharsozlik hujjatlarining loyihalari qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasidan o'tkaziladi. Davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Davlat Orolbo'yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko'radi, deb belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, ushbu sohada mustaqillik yillarida «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida» (1992-yil 9-dekabr), «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida» (1993-yil 6-may), «Yer osti boyliklari to'g'risida» (1994-yil 23-sentyabr; 2002-yil 12-dekabrda yangi tahrirdagi), «Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida» (1996-yil 27-dekabr), «O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida» va «Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida» (1997-yil 26-dekabr), «Davlat kadastrlari to'g'risida» (2000-yil 15-dekabr), «O'rmon to'g'risida» (1999-yil 15-aprel), «Chiqindilar to'g'risida» (2000-yil 5-aprel)gi qonunlar qabul qilingan.

O'zbekistonda 2019–2030-yillarda «yashil iqtisodiyot»ga o'tish konsepsiyasi qator vazifalarni o'z ichiga oladi. Jumladan, energiya samaradorligi ko'rsatkichini ikki karra oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini yanada rivojlantirish, ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining yigirma besh foizidan ko'prog'iga etkazish, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarini zamonaviy, arzon va ishonchli energiya bilan ta'minlash ko'zda tutilgan.

Fuqarolar soliqlarni o'z vaqtida to'lashlari shart

Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va yig'imlarni to'lashi shart. Soliq va yig'imlar adolatli bo'lishi hamda fuqarolarning Konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishga to'sqinlik qilmasligi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 63-modda

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risidagi PF-4947-sonli farmoni bilan tasdiqlangan Harakatlar strategiyasida – soliq solish tizimini izchillik bilan soddalashtirish, soliq solinadigan bazani kengaytirish orqali soliq yukini pasaytirish, soliq ma'muriyatchiligining zamonaviy uslublarini joriy etish orqali soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish 2017–2021-yillarda amalga oshiriladigan eng muhim vazifa qilib belgilandi.

Ushbu burch O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Soliq kodeksida va oldingi tahririda ham o'z aksini topgan (2019-yil 30-dekabr).

Vatan himoyasi

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida Vatan himoyachisi bo'lish mamlakat har bir fuqarosining burchi, deb e'lon qilin-

gan (52-modda). 2002-yil 12-dekabrda «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qonunga muvofiq o'z Vatani himoya qilish burchi fuqarolar tomonidan harbiy yoki muqobil xizmatni o'tash yo'li bilan bajariladi.

Muqobil xizmat odatda xalq xo'jaligi korxonalarida malaka talab qilinmaydigan ishlarni bajarishga jalb qilishni ko'zda tutadi.

Ayollar tinch davrda harbiy xizmatga chaqirilmaydi.

O'zbekistonda doimiy yoki vaqtincha yashab turgan boshqa davlatlar fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar harbiy xizmatni ado etmaydilar hamda mamlakat o'quv yurtlarida harbiy tayyorgarlikdan o'tmaydilar.

Muddatli harbiy xizmatga salomatligi holatiga ko'ra harbiy xizmatga yaroqli, chaqiruv kuni 18 yoshga to'lgan erkaklar chaqiriladi. 1993-yilda 14-yanvar kuni bizning davlatimizda **Vatan himoyachilari kuni** deb e'lon qilingan.

Shuningdek, ushbu sohada 2018-yil 9-yanvarda O'zbekiston Respublikasining «Mudofaa doktrinasi to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasini himoya qilish – O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 64-modda. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 10-moddasi:

Har bir inson huquq va burchlarini belgilash va unga qo'yilgan jinoiy aybning qanchalik darajada asosli ekanligini aniqlashi uchun to'liq tenglik asosida uning ishi oshkora va adolat talablariga rioya qilingan holda mustaqil va xolis sud tomonidan ko'rib chiqilishi huquqiga ega.

Ta'lim olish – voyaga yetmagan fuqarolarning asosiy majburiyati

Voyaga yetmagan mamlakat fuqarolarining asosiy burchlaridan biri umumiy o'rta ta'lim olishdan iborat. Maktabda to'qqiz yillik ta'lim olgandan keyin o'quvchilar akademik litsey, kasb-hunar kollejlari yoki boshqa ixtisoslashtirilgan o'quv muassasalarida ta'limni davom ettiradilar.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq har kim ta'lim olish huquqiga ega va har kimning bepul umumiy ta'lim olishi kafolatlanadi.

Hozirgi kunda respublikamizda 220 ga yaqin oliy o'quv yurti, 10 mingdan ortiq umumiy o'rta ta'lim maktabi faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning butun kuch-g'ayrati ta'lim oluvchilar har tomonlama kamol topgan, yuksak umumiy madaniyat saviyasiga ega ijodkor shaxslar bo'lishiga qaratilgan.

2018-yildan O'zbekistonda 11 yillik majburiy ta'limga o'tildi.

Bugungi kunda Asosiy qomusda va boshqa qonunlarda belgilanmagan bir narsa borki, bu – korporativ ijtimoiy javobgarlik. Bu nima degani? Bu ma'lum bir hududdagi firma, kompaniya, zavod va boshqa shunga o'xshash sotsial guruhlarni birlashtirgan tashkilotlarning ishlab chiqargan tovarlari va uning foydasidan ushbu tashkilotlarning fuqarolar oldidagi (ayniqsa o'sha yerda yashovchi aholi), tabiat oldidagi va o'z xodimlari oldidagi burch va majburiyatlarini hisob olgan holda mablag'larni tegishli yo'lda sarf etishidir. Albatta, bu davlatning ham bir qancha muammolarini hal etishga yordam beradi. Shuningdek, korporativ tashkilotlarning o'zlarining yuksalishlarida ham qo'l keladi. Bugungi kunda dunyoning rivojlangan davlatlarida faoliyat olib boruvchi TOP kompaniya va tashkilotlar ushbu javobgarlikni o'zlarida joriy qilib bo'lishgan (Wolkswagen, STARBUCKS, NESTLE, AMAZON, MICROSOFT va.b.q).

3. Konstitutsiyaviy majburiyatlarga rioya etmaganlik uchun javobgarlik

O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksiga muvofiq, qonunbuzarlik sodir etilgan kunga qadar 16 yoshga to'lgan fuqarolar ma'muriy javobgarlikka tortilishi lozim.

13 yoshdan o'smirlar aybni og'irlashtiruvchi vaziyatlarda qasddan odam o'ldirganlik, 14 yoshdan esa qasddan odam o'ldirish, qasddan o'ta og'ir yoki yengil tan jarohati yetkazganlik, qiynash, nomusga tegish, odam og'irlash, bosqinchilik, talonchilik, og'irlik, transport vositalarini haydab qochish va boshqa og'ir qonunbuzarliklar uchun jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

Voyaga yetmagan qonunbuzarlarga nisbatan quyidagi jazo turlari qo'llanishi mumkin:

- jamoatchilik tanbehi;
- yetkazilgan ziyonni bartaraf etish majburiyatini yuklash;
- jarima;
- ozodlikdan mahrum etish.

Voyaga yetmagan qonunbuzarlar jazoni voyaga yetmaganlar uchun mo'ljallangan koloniyalarda yoki yopiq turdagi maxsus o'quv-tarbiya muassasalarida o'taydilar.

Nazorat savollari:

1. Burch tushunchasiga ta'rif bering.
2. Burch tushunchasi bilan bog'liq tarixda qanday jarayonlarni bilasiz?
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning qanday burchlari keltirib o'tilgan?
4. Bugungi kunda fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarga rioya qilishi qay darajada kuchli?
5. Fuqarolarning tarixiy merosni asrab-avaylashga fuqarolar qanday amal qilishmoqda?
6. Atrof-muhitni ehtiyotkorona munosabatda bo'lishlari belgilab qo'yilgan burchlarini bajarishlar qanday darajada amalga oshirilmoqda?
7. Fuqarolar soliq va boshqa tushumlarni o'z vaqtida to'lashga majburliklari qaysi moddada qayd etilgan?
8. Fuqarolarning vatanni himoya qilish burchlariga ko'ra, barcha fuqarolar necha yoshdan harbiy xizmatni o'tashlari mumkin?
9. Fuqarolarning o'z burchlarini o'z vaqtida amalga oshirishlari davlatning fuqarolik jamiyati qurishida qanchalik muhim rol o'ynaydi, deb o'ylaysiz?
10. Shuningdek, hozirgi Konstitutsiyamizda fuqarolar uchun majbur etilishi kerak bo'lgan qanday burchlar kiritilishi kerak deb o'ylaysiz yoki yo'q?

12-mavzu. KONSTITUTSIYADA ODIL SUDLOVGA OID YANGILIKLAR

Reja:

1. Odil sudlovni amalga oshirishning konstitutsiyaviy asoslari.
2. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada sudyalarning vakolatlarining belgilanishi va fuqarolar huquqining ta'minlanishi.
3. Advokatura to'g'risida me'yoriy huquqiy normalar.
4. Sud-huquq islohotlarining yangi marralari.

***Tayanch so'z va iboralar:** odil sudlov, sudyalik maqomi, Miranda qonuni, «Xabeas korpus», advokatura, «snos» muammolari, mulk daxlsizligi, o'lim jazosi, shaxsiy hayot daxlsizligi, sudyalarning korpusi, qonun ustuvorligi, konstitutsiyaviy sud, protsessual ushlar tartibi, sud hokimiyati mustaqilligi.*

1. Odil sudlovni amalga oshirishning konstitutsiyaviy asoslari

Yangi O'zbekiston barcha sohalarda bo'lgani kabi sud-huquq tizimida ham o'ziga xos islohotlar yo'lidan bormoqda. Har bir sohada adolat va qonun ustuvorligini ta'minlash, inson qadrini yuksaltirish, uning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, sud tizimida odillik va shaffollik mezonlarini yanada mustahkamlash – amalga oshirilayotgan islohotlardan ko'zlangan eng asosiy maqsadlardan sanaladi. Zero, davlatimiz rahbari ta'kidlaganlaridek, «Mustaqil va kuchli sud hokimiyati inson huquqlari, demokratiya va qonuniylikni qaror toptirishning asosiy shartidir»¹.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning XXIII bobi. Sud hokimiyati deb nomlanib 130, 131, 132, 133, 134, 135, 136, 137, 138, 139, 140-moddalarni o'z ichiga oladi va ushbu moddalarda odil sudlovni amalga oshirish jarayonidagi barcha huquqiy sharhlar mujassamlashtirilgan. Shuningdek XXIV bob advokatura faoliyatiga oid 141, 142-moddalardan tarkib topgan.

Ma'lumki, demokratik huquqiy davlatning muhim tarkibiy qismi bo'lgan sud-huquq tizimini chuqur isloh etish va inson

¹ Saidov A. O'zbekiston konstitutsiyasi va odil sudlov huquqi. <https://xs.uz/uz//2022-yil>.

huquqlarini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilanib, uning qonunchilik asoslari ham Konstitutsiyamiz tamoyillari va qoidalari asosida tubdan qayta ko'rib chiqilib, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsipi, insonparvarlik g'oyalariga tayangan holda ishlab chiqildi. Bu bevosita barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, jinoyat uchun jazo muqarrarligi tamoyilini bevosita mustahkamlaydi.

Demokratik jamiyatda sud davlat hokimiyatining to'laqonli teng huquqli subyektidir. Bu boradagi O'zbekiston Respublikasining Taraqqiyot strategiyasida sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, sud tizimini demokratlashtirish hamda fuqarolarning huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilish vakolatlarini kuchaytirish, zaruratidan kelib chiqib davlat organi va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud faoliyatini o'rnatish, fuqarolarning odil sudlovga erishish darajasini oshirish vazifasi belgilandi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada sud alohida hokimiyat, sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi, sudyalarning vakolatlarini, ular faqat qonunga bo'ysunadilar, sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi. Har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi, deb qat'iy belgilab qo'yildi.

So'nggi yillarda erishgan yutuqlarimizni, xususan, iqtisodiyot, inson huquqlari, odil sudlov, so'z va e'tiqod erkinligi sohalaridagi yuzlab cheklovlar olib tashlangani, naqd pul, valyuta, kredit masalalaridagi muammolar hal qilingani va boshqa ijobiy harakatlar ortga qaytmasligining Konstitutsiyaviy himoyasini ta'minlash zarur edi va yangi konstitutsiya mana shu yo'nalishlarning huquqiy kafolati deb aytish mumkin bo'lmaydi.

Bu yutuqlar, huquq va erkinliklardan nafaqat hozirgi, balki kelajak avlodlarimiz ham emin-erkin foydalanishi uchun ular Konstitutsiyada muhrlab qo'yildi. O'tgan qisqa davrda sud-huquq tizimini tubdan isloh qilishga qaratilgan tarixiy o'zgarishlarga qo'l urildi. Mamlakatimizda inson, uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat darajasida belgilandi.

Prezidentimizning 2023-yil 16-yanvardagi «Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi va «Odil sudlov faoliyatini amalga oshirishni samarali tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmonlarida sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudlar faoliyati samaradorligi va odil sudlov sifatini oshirishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar belgilandi¹. Shuningdek, 2023–2026-yillarda sud tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishning qisqa muddatli strategiyasi va uni amalga oshirish bo'yicha harakatlar dasturi tasdiqlandi.

Harakatlar dasturida «Yangi O'zbekiston – yangi sud» tamoyili ustuvor maqsad sifatida belgilanib, aholining odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish sud-huquq tizimini isloh qilishni jadallashtirishni, sohaga ilg'or xalqaro standartlarni joriy etishni talab etmoqda. Shu bois, yangilanayotgan Konstitutsiyada sud organlarini fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi mustaqil organga aylantirish eng muhim vazifa etib belgilandi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya «Inson – jamiyat – davlat» paradigmasiga asoslangani, unda barcha aholi toifalarining, hatto jinoyat sodir etgan shaxslar huquq va manfaatlari aks etgani bilan o'ta muhim ahamiyatga ega. Jumladan, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash davlatning oliy maqsadi, deya e'lon qilinar ekan, unda inson huquqlariga oid normalar 3 barobardan ortiqqa oshirilganligini e'tirof etish mumkin. Inson huquq va erkinliklari qonunlarimiz, har bir vazirlik va idora faoliyati mazmuniga aylanishi qat'iy talab sifatida belgilanganligi davlat organlari hamda mansabdor shaxslarning faqat va faqat fuqarolar manfaatlarini ko'zlab faoliyat ko'rsatishiga asos bo'ladi deya aytishimiz mumkin.

2. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada sudyalarning vakolatlarining belgilanishi va fuqarolar huquqining ta'minlanishi

Yangi tahrirdagi konstitutsiyada sudyalarning vakolatlarining belgilanishi va fuqarolar huquqini ta'minlanishi borasida Prezident Sh. Mirziyoyev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan Harakatlar stra-

¹ Odilqoriyev X.T. Konstitutsiya va ijtimoiy davlatchilik. – T.: 2022-yil.

tegiyasi va Taraqqiyot strategiyasi doirasida ayni yo'nalishda ulkan tarixiy natijalarga erishildi.

Bu haqda so'z borganda, davlat rahbarining 2017-yil 13-iyundagi tarixda ilk bor O'zbekiston Prezidentning mamlakat sudyalari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvini alohida ta'kidlash lozim. Zero, aynan ushbu uchrashuvda yurtimizning 1 ming 300 nafar sudyasi oldiga «Sudlarni adolat qo'rg'oniga aylantiraylik», degan talab qo'yildi. Prezidentimiz **«Sudyaniyning ongida – adolat, tilida – haqiqat, dilida – poklik bo'lishi kerak!»**, degan g'oyani ham xuddi shu muloqot asnosida ilgari surdi.

Konstitutsiyaning 112-moddasiga ko'ra: «Sudyalar mustaqildir, faqat qonunga bo'ysunadilar. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi. Sudyalarning daxlsizligi qonun bilan kafolatlanadi» deya belgilanishi ham O'zbekiston Respublikasida odil sudlov faqat sud tomonidan amalga oshirilishining mustahkam huquqiy ifodasidir. Davlat sudyaning va uning oila a'zolarining xavfsizligini ta'minlaydi. Sudyalar muayyan ishlar bo'yicha hisobdor bo'lmaydi. Sudyani muayyan ishning muhokamasidan chetlashtirishga, uning vakolatlarini bekor qilishga yoki to'xtatib turishga, boshqa lavozimga o'tkazishga faqat qonunda belgilangan tartibda va asoslarga ko'ra yo'l qo'yiladi. Aynan yangi tahrirdagi Konstitutsiyada Sudyalar maqomi va vakolati bilan bog'lik normalar o'z aksini topgan. Sudyalar kengashi maqomi aniqlashtirilib, Sudyalar oliy kengashi sudyalarning hamjamiyatining mustaqil organi sifatida sud hokimiyati mustaqilligi Konstitutsiyaviy prinsipiga rioya etilishini ta'minlash bilan birga, sudyalarning korpusini shakllantirishga ham mas'ul ekani ko'zda tutilgan. Bundan tashqari, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash maqsadida Sudyalar oliy kengashining barcha a'zolarini Senat tomonidan saylash tizimi kiritilgan. Sudyalar oliy kengashi raisi va uning o'rinbosari Prezident taqdimiga binoan Oliy Majlis Senati tomonidan besh yillik muddatga saylanishi belgilandi. Sud hokimiyatining mustaqil ish yuritishi – demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etishning yagona yo'li. Shu sababli Asosiy qonunning yangi tahririda

sudyalar mustaqilligi kafolatlariga alohida urg'u berilgan¹. Jumladan, sudyalarning faqatgina qonunga emas, balki Konstitutsiyaga bo'ysunishi ham to'g'ridan to'g'ri belgilandi.

Shu o'rinda sudyalarning muayyan ishlar bo'yicha hisobdor bo'lmaligi kabi normaning aks ettirilishi uning mustaqilligini yanada kuchaytiradi. Davlat sudya va uning oila a'zolari xavfsizligini ta'minlashga mas'ul ekani belgilanishi esa uning daxlsizligi kafolatlarini mustahkamlash bilan birga, fuqarolarning odil sudlovga ishonchini orttiradi. E'tibor tortadigan jihatlardan yana biri – eng yuqori rahbar sudyalik lavozimlarida bo'lish muddati qat'iy belgilandi. Endi ayni bir shaxs O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Sudyalar oliy kengashi raisi va uning o'rinbosari etib surunkasiga ikki muddatdan ortiq saylanishi mumkin bo'lmaydi. Shu bilan birga, Konstitutsiyaviy sud sudyalari qayta saylanish huquqsiz 10-yillik muddatga saylanishi hamda Konstitutsiyaviy sud raisi va o'rinbosarining vakolat muddati 5-yil ekani haqidagi qoida o'z aksini topgan².

Sud tizimini malakali, yetuk kadrlar bilan ta'minlashda sudyalik lavozimiga kadrlarni tanlash va tavsiya etish bo'yicha zamonaviy demokratik tamoyillarga asoslangan huquqiy mexanizmi yaratildi, ya'ni mustaqil Sudyalar oliy kengashi tashkil etilib, ushbu sohadagi vakolatlarni amalga oshirish unga yuklatildi.

Yangi Qomusimizda Inson huquq va erkinliklari kafolatlari sezilarli darajada kuchaytirildi. Bunga ko'ra, qonunchilikdagi inson va davlat o'rtasida munosabatlarni tartibga soluvchi noaniqliklar, turli tushunmovchiliklar bartaraf etiladi, fuqarolarning ortiqcha ovoragarchiliklari oldi olinadi. Konstitutsiyada davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy ta'sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo'lishi kerakligi mustahkamlandi. Qonunchilikda belgilanmagan majburiyat hech kimning zimmasiga o'z roziligisiz yuklatilishi mumkin emasligi qayd etildi va ushbu norma odamlar hayotini yanada yengillashtiradi deya bema'lol aytishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekistondan tashqariga majburiy chiqarib yuborilishi yoki boshqa davlatga berib yuborili-

¹ Yangilanayotgan Konstitutsiya 100 savolga 100 javob. – T.: 2023-yil,

² Odilqoriyev X.T. Konstitutsiya va ijtimoiy davlatchilik. –T.: 2022-y.

shi mumkin emasligi belgilandi. Bu esa fuqarolarimizning doimiy ravishda davlat himoyasida ekaniga ishonchini mustahkamlashga, o'z yurtidan chiqarib yuborilishi yoki boshqa davlatga berilishi kabi holatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Xususan, o'lim jazosining taqiqlanishi haqida mulohaza qilsak. O'lim jazosi taqiqlanishi Konstitutsiyaviy darajada belgilanishi insonni hayotdan hatto davlat ham mahrum etishga haqli emasligini kafolatlaydi. Yashash huquqi har bir insonning ajralmas va tabiiy huquqidir. O'zbekistonda 2008-yildan barcha jinoyatlar uchun o'lim jazosi bekor qilingan. Bu Konstitutsiyada emas, jinoyat qonunchiligida o'z aksini topgan edi. O'lim jazosi taqiqlanishi Konstitutsiyaviy darajada belgilanishi bilan davlatimiz bu o'ta jiddiy masalada hech qachon ortga qaytmasligini, insonparvarlik g'oyalriga sodiqligini butun dunyoga namoyon qildi. Bugungi kunda 106 davlatda o'lim jazosi barcha jinoyatlar uchun bekor qilingan. Xalqaro tajribalarni tahlil qilganimizda, ayrim davlatlar o'z tajribasida o'lim jazosini qonunlar bilan bekor qilsa-da, Konstitutsiyasida bo'lmagani bois, uni jazo sifatida qayta tiklash holatlari ham kuzatilgan.

O'zbekistonning Konstitutsiyaga kiritilgan qat'iy pozitsiyasi mamlakatimizda inson hayoti va qadri yuqori darajada himoya qilinishini yana bir bor tasdiqlaydi. Bundan tashqari, hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga yoki qamoqqa olinishi, ushlab turilishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emasligi, hibsga yoki qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko'ra yo'l qo'yilishi belgilandi. Ya'ni shaxs erkinligini cheklash bilan bog'liq har qanday harakat faqatgina sud qarori asosida amalga oshirilishi shart. Ushbu qoida tergov organlari tomonidan insonlarni noqonuniy hibsga olish, asossiz qamoqqa olish va saqlashga yo'l qo'yimaslikka qaratilgandir. Bu orqali xalqaro e'tirof etilgan

«Xabeas korpus» institutining qo'llanish ko'lami yanada kengayadi Yangi norma sud-tergov jarayonlarida huquqni muhofaza qiluvchi organlarni noqonuniy harakatlardan tiyib turishga, shaxs asossiz hibsga olinishi holatlarini bartaraf etishga, tergov davomida inson ozodligini cheklash bilan bog'liq xatolarga yo'l qo'yilmasligiga xizmat qiladi. Pirovardida jinoyat ishi yurituvda inson qadr-qimmatini, shaxsiy hayoti daxlsizligi, qonunga va sudga ishonchi, emin-erkin harakat qilish huquqi mustahkam kafolatlanadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada: «Shaxs sudning qarorisiz qirq sakkiz soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emas. Shaxs ushlab turilgan paytdan e'tiboran qirq sakkiz soat o'tguniga qadar sudga ushlab turishning qonuniyligi va asosiligi to'g'risidagi masala hal qilish uchun olib borilishi kerak. Agar ushlab turishning qonuniyligi va asosiligi sudda isbotlanmasa, shaxs darhol ozod qilinishi kerak»¹, degan norma belgilandi. Bu qoida, birinchi navbatda, shaxsni asossiz va muddatsiz hibsga olishga yo'l qo'yimaslik talabini ta'minlaydi. Tahlillarga nazar solsak, qamoq ehtiyot chorasining sudlar tomonidan qo'llanilishi amaliyotida 2022-yilda tergov organlaridan sudlarga kelib tushgan jami 24 ming 118 iltimosnomadan 23 ming 503 tasi qanoatlantirilgan, 485 tasi rad etilgan, ya'ni 485 shaxsga nisbatan asossiz ravishda qamoq ehtiyot chorasi qo'llanilishining oldi olingan.

Mazkur normaning Konstitutsiyada mustahkamlanishi shaxsning erkin harakatlanishga bo'lgan huquqining qat'iy kafolati bo'ladi va shaxs ushlab turilgan paytdan e'tiboran qirq sakkiz soat o'tguniga qadar sudga ushlab turishning qonuniyligi va asosiligi to'g'risidagi masalani hal qilish uchun olib borish kerakligini qat'iy belgilaydi, agar sud tomonidan shaxsni hibsga olish yoki unga nisbatan boshqacha turdagi ozodlikni cheklashga oid qaror qabul qilinmasa, shaxs darhol ozod qilinishi zarurligini anglatadi. Eng muhimi, ushbu norma insonning fundamental huquqlari sud orqali himoya qilinishi va shaxs erkinligi hamda daxlsizlik huquqining Konstitutsiyaviy kafolati sifatida xizmat qiladi. Bundan tashqari, yangi tahrirdagi Konstitutsiya sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini fuqarolarni jazolovchi yondashuvdan inson huquqlarini hurmat qiluvchi va himoyalovchi, poymol qilingan huquqlarni tiklovchi, rag'batlantiruvchi yondashuvga o'zgartirildi.

Shaxsni birinchi marta ushlab turish chog'ida unga tushunarli tilda huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shartligi, ayblanuvchi va sudlanuvchilarga o'ziga qarshi ko'rsatma bermaslik (xalqaro e'tirof etilgan «Miranda qoidasi»), sukut saqlash huquqi berildi.

Shuni alohida qayd etish mumkinki, aynan protsessual ushlab turish vaqtida inson og'ir ruhiy holatga tushadi va huquqiy yordamga

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.

muhtoj bo'ladi. Chunki u bunday og'ir vaziyatda jinoyatda aybdor yoki aybsizligini isbotlash majburiyati o'ziga emas, aksincha, to'liq tergov organlariga yuklatilganini ang'ay olmaydi. Barchamizga ma'lumki, tergov organlari tomonidan kimdir qo'lga olinganida, u nima uchun ushlangani aytilmasligidan shikoyatlar ko'p. Natijada fuqarolar huquqlari qo'lga olingan vaqtning o'zidayoq xavf ostida qoladi. Afsuski, fuqarolar o'z huquqlarini yaxshi bilmagani va hech kim ularga buni aniq va batafsil tushuntirmagani uchun tergov jarayonida qonunga zid holatlar kuzatiladi. Bu salbiy holatlarning oldini olish maqsadida rivojlangan davlatlar Konstitutsiya va qonunlarida aks etgan «Miranda qoidasi» O'zbekiston Konstitutsiyasiga ham kiritildi.

«Miranda qoidasi»ga binoan, ushlangan shaxs sukut saqlash, so'roq jarayonida advokati ishtirokini talab qilish va boshqa huquqlarga egaligi sodda tilda shaxsga ilk soniyalardayoq tushuntiriladi.

Ya'ni yangi tahrirdagi Konstitutsiyada jinoiy ta'qibga olingan shaxslarni davlat organlari hamda mansabdor shaxslar o'zboshimchaligidan himoyalashning deyarli barcha usullari aks etdi.

Bugun biz globallashgan axborot makonida yashamoqdamiz va texnologiyalar asri inson huquq va erkinliklarini ta'minlashga doir yangi me'yorlarni vujudga keltirdi. Mana shularni hisobga olgan holda, har kimning yozishmalari, telefon orqali so'zlashuvlari, pochta, elektron va boshqa xabarlar sir saqlanish huquqiga egaligi yangi konstitutsiyamizda belgilandi. Bunday huquqlarning cheklanishiga yoki uy-joyda tintuv o'tkazishga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo'l qo'yilishi mustahkamlandi.

Har kim o'z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqliligi belgilanganligi chinakamiga inson huquqlarining ta'minlanishining tom ma'noda g'alabasi deya ayta olamiz. Ushbu qoidaning mazmun-mohiyati shundaki, fuqarolar o'z buzilgan huquq va erkinliklarini, o'z g'alar huquqlarini buzmagani holda, mustaqil himoya qilish huquqiga egadirlar. Yagona shart – fuqarolar tomonidan o'zini himoya qilishda qo'llaniladigan usullar yoki choralarning qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan bo'lishi lozimligi belgilandi.

Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklar doirasining kengayishi har kimga buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash uchun uning ishi

qonunda belgilangan muddatlarda vakolatli, mustaqil hamda xolis sud tomonidan ko'rib chiqilishi huquqi kafolatlanishini ta'minlaydi.

Bulardan tashqari, har kim davlat organlarining yoxud ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararining o'rnini davlat tomonidan qoplanishi huquqiga egaligi qayd etildi. Shu bilan birga, birinchi marotaba har kim O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalaridan foydalanib bo'lingan bo'lsa, insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat etishga haqli ekani belgilanib, inson huquqlarini himoya qilish borasida mutlaqo yangicha yondashuv – xalqaro huquqiy institutlarga murojaat qilish imkoniyati yaratildi. Bu fuqarolarning huquq va erkinliklari himoyasi nafaqat milliy qonunchilikda belgilangan normalar, balki xalqaro huquq asosida ham himoyalashini ta'minlaydi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo'lsa, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerakligi qayd etildi. Mazkur norma to'g'ridan to'g'ri amal qiluvchi qoida bo'lib, tergov va sud jarayonida faqat ishonchli va qonuniy dalillardan foydalanishni ta'minlaydi hamda shaxsni asossiz ravishda javobgarlikka tortilishdan himoya qiladi. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi aybsizligini isbotlashga, hech kim o'ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emasligi belgilanganligi insoniy mezonlarni buzishga hech kim haqli emasligini ko'rsatmoqda. Bu qoidalarning Konstitutsiyada belgilanishi jinoiy ta'qib ostidagi har qanday shaxsga yoki uning yaqin qarindoshlariga ruhiy bosim va turli tahdidlar o'tkazish, sha'ni va qadr-qimmatini kamsitish kabi boshqa noqonuniy usullar qo'llanishining oldini olishga xizmat qiladi.

Xo'sh shu o'rinda mazkur yangi qoidaning ahamiyati nimada degan haqli savol tug'iladi? Bu norma aybsizlik prezumpsiyasi prinsipining muhim kafolatidir. Konstitutsiyaga kiritilgan mazkur insonparvar qoidaga ko'ra, jinoyat ishi bo'yicha har qanday dalillarga nisbatan shubha paydo bo'lsa, bunday shubhalar gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi zarur.

Nima uchun shaxs huquqining bunday kafolati muhim? Shaxsni aybdorligiga oid har qanday shubhalarga tayanib, ayblash uchun yetarli bo'lmagan dalillar asosida javobgarlikka tortish mumkin emas. Bordi-yu, tergovda ayb e'lon qilinsa ham bunday vaziyatda sudda aybini tasdiqlovchi dalillar yetarli emasligi tufayli unga nisbatan oqlov hukmi chiqariladi. Ya'ni «Isbotlanmagan ayb – isbotlangan aybsizlikka teng», degan xalqaro standart amal qiladi¹. Ay-tish mumkinki, mamlakatimiz sudlari tomonidan so'nggi 6-yilda 4700 dan ortiq fuqaro oqlangan.

Konstitutsiyaga kiritilayotgan mazkur norma surishtiruv, tergov va sud jarayonida faqat ishonchli va qonuniy dalillardan foydalanishni ta'minlaydi, natijada shaxsni asossiz ravishda javobgarlikka tortishning oldini olishga xizmat qiladi. Yana bir muhim norma – agar shaxs o'z aybini tan olgani unga qarshi yagona dalil bo'lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emasligi kafolatlandi. Bu hol jinoyat bo'yicha haqiqatni aniqlash, shuningdek, aybsiz insonlar javobgarlikka tortilishining oldini olishga, ayni paytda, jinoyat sodir etgan haqiqiy aybdor shaxs yoki shaxslarni aniqlashga xizmat qiladi.

Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar o'ziga nisbatan insoniy muomalada bo'linishi hamda inson shaxsiga xos bo'lgan sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilinishi huquqiga egaligi ham tarixda ilk bor Konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanmoqda. Qolaversa, shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo'lishi mumkin emasligi belgilandi. Tarixning achchiq saboqlari bisyor aynan yuqoridagi holatga ko'ra bularning hammasi mustabid tuzumdan qolgan illatga, qancha yoshlarimizni o'z orzu-umidlaridan voz kechishga majbur qilgan noinsoniy taqiqlarga chek qo'ydi. Konstitutsiyada har kim o'z shaxsiga doir ma'lumotlarning himoya qilinishi huquqiga, shuningdek, noto'g'ri ma'lumotlar tuzatilishini, o'zi to'g'risida qonunga xilof yo'l bilan to'plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo'lmay qolgan ma'lumotlar yo'q qilinishini talab qilish huquqiga ega ekani mustahkamlandi.

Amnistiya aktini qo'llash to'laligicha sudlar vakolatiga o'tkazildi. Shu o'rinda amnistiya akti hamma davlatlarda ham qabul qilin-

¹ Islomov B. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya – huquqlarimizning mustahkam kafolati. <https://yuz.uz/07/04>. 2023-yil.

masligiga yoki ayrim davlatlarda 10 yoki 20 yilda bir marta qabul qilinishiga yoxud amnistiya aktining faqat ma'lum toifa shaxslar-gagina nisbatan qo'llanilishini e'tiborga olsak, mamlakatimizda naqadar insonparvar siyosat amalga oshirayotganligini ko'rishimiz mumkin¹.

Eng muhim jihatlardan yana biri – xususiy mulk daxlsizligi, mulkdorlar huquq va qonuniy manfaatlar himoyasi kuchaytirila-yotgani Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada qat'iy belgilanganligidir. Mamlakatimizda barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va hu-quqiy jihatdan himoya qilinishi belgilanib, davlat qulay investitsiya-viy va ishbilarmonlik muhitini ta'minlashi bo'yicha qoida mustah-kamlandi. Mazkur norma iqtisodiyotga to'g'ridan to'g'ri investitsiya jalb etishni rag'batlantirish, investorlar ishonchini oshirish, tadbir-korlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlaydi.

Konstitutsiyada ilk marotaba yer xususiy mulk bo'lishi mum-kinligi nazarda tutilganligi ham fuqarolarning uzoq vaqtlardan beri intiq kutgan yangiliklaridan biridir. Ushbu norma haqiqiy inqilobiy yangiliklardan biri sifatida mulkchilik munosabatlaridagi bo'shliqni to'ldirdi. Shu bilan birga, hech kim sudning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emasligi, uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga uy joyning hamda u ko'rgan zararining o'rni qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda oldindan hamda teng qiymatda qoplanishi ta'minlanishi belgilandi².

Mazkur normaning Konstitutsiyaga kiritilishi bir necha yillar-dan buyon jamiyatimizdagi dolzarb muammolardan biriga aylangan «snos» masalasiga nisbatan xalqparvar, mulkdor tarafga oqilona ye-chim bo'ladi. Haqiqatan ham, barcha demokratik huquqiy davlatda mulk huquqi, ayniqsa, shaxs yashab turgan uy-joyga nisbatan mulk huquqi muqaddas huquq hisoblanadi va mutlaq himoya qilinadi.

Xalqimizda chumchuqning ham uyasi buzilmasin, degan ibora bor. Xalqchil darajadagi davlat siyosati bugun o'z fuqarolarini uy joy, mulk huquqi daxlsiz ekanligini huquqiy jihatdan mustahkamla-di. Bunda uy-joy mulkdorlariga nisbatan 2 turdagi muhim Konsti-

¹ Bobojonov M. Odil sudlovni amalga oshirishning konstitutsiyaviy asoslari. <https://constitution.uz/oz/> 2023-yil.

² Islomov B. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya – huquqlarimizning mustahkam kafolati. <https://yuz.uz/.7/04>. 2023-yil.

tutsiyaviy kafolat belgilanmoqda: sud kafolati va uy-joydan mahrum etilganda kompensatsiya olish kafolati belgilandi.

Sud kafolati uy-joyga nisbatan mulk huquqi sud qarorisiz mahrum etilishiga yo'l qo'yilmasligini anglatadi. Ushbu kafolat uy-joyga nisbatan mulk huquqi mulkdorning erk-xohishidan qat'iy nazar, majburiy tarzda bekor bo'layotganda qo'llanilishi nazarda tutilgan. Sud tomonidan mulk huquqi bekor bo'lishiga sabab bo'luvchi holatlar amaldagi qonun hujjatlari asosida obyektiv tarzda ko'rib chiqiladi. Albatta, mazkur tartib mulkdor har qanday holatda asossiz ravishda mulk huquqidan mahrum etilmasligini kafolatlaydi.

Ikkinchi kafolat mulkdor iqtisodiy manfaatlari himoyasiga yo'naltirilgani bilan e'tiborga molik. Mazkur norma qonunda belgilangan hollarda va tartibda uy-joyidan mahrum etilgan mulkdor shu uy-joy va yetkazilgan zarar uchun teng qiymatda kompensatsiya olishini kafolatlaydi.

3. Advokatura to'g'risida me'yoriy huquqiy normalar

Konstitutsiyaga advokatura bo'yicha alohida bob kiritilgani inson huquqlarini himoya qilish sohasida muhim institut bo'lgan advokaturaning Konstitutsiyaviy maqomini tubdan oshirdi. Yangi qonunimizga muvofiq, advokat o'z kasbiy vazifalarini amalga oshirayotganda uning faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmaydi. Advokatga o'z himoyasidagi shaxs bilan moneliksiz va xoli uchrashish, maslahatlar berish uchun shart-sharoitlar ta'minlanadi. Advokat, uning sha'ni, qadr-qimmat va kasbiy faoliyati davlat himoyasida bo'ladi va qonun bilan muhofaza qilinadi. Har bir shaxs jinoyat protsessining har qanday bosqichida, shaxs ushlanganida esa uning harakatlanish erkinligi huquqi amalda cheklangan paytdan e'tiboran o'z tanloviga ko'ra advokat yordamidan foydalanish huquqiga egaligi kafolatlanmoqda. Tahlillarga ko'ra, 2023-yil 1-yanvar holatida O'zbekistonda 4577 nafar advokat faoliyat ko'rsatmoqda. Bu esa o'rtacha 7865 kishiga bitta advokat to'g'ri kelishini anglatadi. Ushbu ko'rsatkich Isroilda 136, AQShda 260, Germaniyada 500, Qozog'istonda 3932 kishiga teng.

Aslida qanday bo'lishi kerak?! Tabiiyki, advokatsiz odil sud amalga oshmaydi. Taraflar protsessual jihatdan maqomi teng bo'lgandagina tortishuv vujudga keladi. Shu bois, sud protsessida advokatning mavqei prokuror bilan tengma-teng bo'lishi lozim. Eng

muhimi shundaki, prokuratura va sudga oid Konstitutsiyaviy normalar alohida bobda aks etganidek, endi advokaturaga bag'ishlangan yangi bob kiritildi. Tarixiy ahamiyatga ega ushbu voqelik jinoyat yoki fuqarolik protsesslarda tortishuv tamoyilining mustahkam Konstitutsiyaviy asosini yaratadi desak aslo yangilishmagan bo'lamiz. Umuman olganda, advokaturaga bag'ishlangan yangi bobning Konstitutsiyada aks etishi fuqarolarning odil sudlovga erishish darajasi yanada oshishiga, malakali yuridik yordam olish kafolati kuchayishiga, pirovardida har bir fuqaroning huquq va erkinliklari samarali himoyalinishiga xizmat qiladi.

4. Sud-huquq islohotlarining yangi marralari

Konstitutsiyaviy qonun boshqa idoralar bilan bir qatorda Oliy sudga ham mas'uliyatli vazifalar yuklatilgan. Bunda Oliy sud tomonidan odil sudlovni amalga oshirishda sudlar tomonidan Konstitutsiyaviy normalar to'g'ri va bir xilda qo'llanilishini ta'minlash maqsadida Oliy sud plenumining barcha instansiya sudlari tomonidan ishlarni ko'rib chiqishning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalarini to'g'ridan to'g'ri amal qiluvchi hujjat sifatida qo'llash yuzasidan yagona sud amaliyoti to'g'risidagi qarori qabul qilinishi nazarda tutilgan. Shu o'rinda mamlakatimizda amalga oshirilgan va bugun yanada jadal davom etayotgan puxta o'ylangan, rejali va odilona huquqiy siyosat natijasida Konstitutsiyada belgilangan sud-huquq tizimiga, inson huquq va erkinliklariga oid normalarning alohida qonun hujjatlarida mustahkamlash orqali rivojlanayotganligi hamda amaliyotda samarali qo'llanilayotganligi xususida to'xtalib o'tsak.

«Sud hokimiyati» bobida aks ettirilgan o'zgartirishlar sud hokimiyati mustaqilligini samarali ta'minlash, sudyalarning korpusini shakllantirish, odil sudlov samaradorligini oshirishga asoslangan bo'lib, buning tub mohiyatida «Inson qadri uchun» g'oyasi asosida chinakam adolatli sud tizimini shakllantirish yotadi.

Konstitutsiyadagi yana muhim jihatlardan biri sud hokimiyati bilan bog'liq yangiliklardir. Odil sudlovga erishishni kengaytirish maqsadida shaxslarga sud tomonidan qo'llanilgan qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligini tekshirish haqidagi shikoyat bilan Konstitutsiyaviy sudga murojaat etish huquqi mustahkamlandi. Mazkur norma bilan agar biror fuqaro yoki yuridik shaxsning fikricha, ular-

ning ishi ma'muriy, jinoiy, iqtisodiy yoki fuqarolik sudlarda ko'rib, ishni sudda ko'rishda, birinchidan, ularning Konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini buzayotgan bo'lsa, ikkinchidan, Konstitutsiyaga muvofiq kelmasa, uchinchidan, sudda ko'rilishi tugallangan muayyan ishda qo'llanilgan bo'lsa, to'rtinchidan, sudda himoya qilishning barcha boshqa vositalaridan foydalangan bo'lsa, qo'llanilgan amaldagi qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligini tekshirish to'g'risida shikoyat bilan Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish imkoniyati yaratiladi.

O'tgan davrda sud-huquq sohasidagi islohotlar natijasida sud tizimida tashkiliy-tuzilmaviy o'zgarishlar yuz berdi. Har bir islohotdan kelib chiqib, Konstitutsiyaga ham tegishli tuzatishlar kiritilishi talab etildi.

Konstitutsiyaga sud hokimiyatining moliyaviy mustaqilligini ta'minlashga oid alohida modda kiritilgani sudlar mustaqilligi kafolatlarini kuchaytirishga xizmat qiladi. Bunday kafolatni davlat o'z zimmasiga olgan holda Konstitutsiyada sudlarning faoliyatini moliyalashtirish faqat davlat budjetidan bo'lishi hamda u odil sudlovni to'liq va mustaqil amalga oshirish imkoniyatini ta'minlashi kerakligi qayd qilingan. Ushbu norma sudlar tomonidan odil sudlovni adolatlilik, qonuniy amalga oshirishning asosiy kafolatlaridan biri hisoblanadi. Ushbu kafolatlar sud hokimiyati uchun bugungi kun rivojlanish davrida juda muhim sanaladi va bunday tashabbuslar mamlakatning xalqaro nufuzini va xalqning sudlarga ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shunday ekan, yangi tahrirdagi Konstitutsiya haqiqatan ham xalq Konstitutsiyasi bo'lmoqda. Chunki u oddiy va hayotiy, isbot talab etmaydigan haqiqatni o'zida aks ettiradi va shu bilan xalqimiz istagiga va xorijiy davlatlar tajribasiga to'la mos keladi. Shak-shubhasiz aytish mumkinki yangi O'zbekistonimizning bugungi hayoti va ertangi taqdiri, sud-huquq islohotlari izchil amalga oshirilishi va inson huquqlari mustahkam kafolatlanishi uchun xizmat qiladi.

Har bir mamlakat erkin va farovon jamiyat qurishga intilar ekan, bu yo'ldagi ulug'vor maqsad hamda vazifalarini, avvalo, o'z Konstitutsiyasida mustahkamlaydi. Bunda qonun ustuvorligini ta'minlash har qanday zamonaviy demokratik davlatning asosi hisoblanadi. Aynan Konstitutsiyada belgilangan ustuvor qoidalar asosida jamiyat, uning siyosiy institutlari va iqtisodiyot to'liq rivojlanadi.

Shu ma'noda, yangi tahrirdagi Konstitutsiya jamiyatimizning evolyutsion rivojlanishidan kelib chiqayotgan hayotiy zarurat bo'lib, bu adolatli jamiyat barpo etish yo'lidagi ulkan qadamdir.

Mazkur Konstitutsiyaviy normalar mazmuniga muvofiq sudning mustaqilligini ta'minlash, uni inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya etishga xizmat qiladigan tom ma'nodagi mustaqil davlat institutiga aylantirishga qaratilgan keng ko'lamlilik tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, sud tizimi butunlay ijro etuvchi hokimiyat organlarining nazorati va ta'siri ostidan chiqarildi. Sudlarning vakolatlari izchil kengaytirilib, ayni paytda o'ziga xos bo'lmagan vazifalardan ozod etildi, jumladan sudlar jinoyat ishini qo'zg'atish, jinoyat ishi bo'yicha ayblov xulosalarini e'lon qilish vakolatlaridan soqit qilindi. Dastlabki tergov ustidan sud nazorati kuchaytirilib, prokuratura organlarining sud jarayoniga aralashuvini jiddiy cheklash bo'yicha qonunchilik normalariga zarur o'zgartishlar kiritildi.

Sudlarda ishlarni ko'rib chiqishning qat'iy muddatlari belgilandi, kassatsiya va nazorat instansiyalari isloh qilindi, ishlarni qayta ko'rib chiqishning apellyatsiya tartibi joriy etildi. Mazkur tartib birinchi instansiya sudlari tomonidan yo'l qo'yilgan xatolarni o'z vaqtida tuzatish, sud faoliyatida sansalorlikka yo'l qo'ymaslikning muhim kafolatiga aylandi. Shuningdek, jinoyat va fuqarolik ishlarini malakali asosda ko'rib chiqish, inson huquq va erkinliklarini to'la va har tomonlama himoya qilish bo'yicha faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida umumiy yurisdiksiya sudlarining ixtisoslashuvi amalga oshirildi, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tuzildi. Shuningdek O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi fuqarolik, jinoiy, iqtisodiy va ma'muriy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organi etib belgilandi.

Amnistiya aktini qo'llash to'laligicha sudlar vakolatiga o'tkazildi. Shu o'rinda amnistiya akti hamma davlatlarda ham qabul qilinmasligiga yoki ayrim davlatlarda 10 yoki 20 yilda bir marta qabul qilinishiga yoxud amnistiya aktining faqat ma'lum toifa shaxslar-gagina nisbatan qo'llanilishini e'tiborga olsak, mamlakatimizda naqadar insonparvar siyosat amalga oshirayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Eng muhimi mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasi mamlakatimizda sud-huquq tizimini isloh etish hamda inson huquq va erkin-

liklarini himoya qilish bilan bog‘liq islohotlar mayog‘i, ularning qonunchilik asoslarini yaratish va takomillashtirishning boshlang‘ich nuqtasi va asosi bo‘lib xizmat qilmoqda¹. Eng muhimi, O‘zbekiston Konstitutsiyasida «Inson va uning qadr-qimmati» degan ulug‘ tushuncha – huquqiy qadriyat markaziy o‘ringa qo‘yilgan. Bosh qomusimiz Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va boshqa asosiy xalqaro hujjatlar talablariga to‘la mos holda, insonning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hamda madaniy huquqlarini kafolatlab berdi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Konstitutsiyada belgilangan sud-huquq tizimiga oid qoidalar alohida qonun hujjatlarida yildan-yilga inson huquqlari ustuvorligi tamoyilining bosh omil ekanligidan kelib chiqib rivojlanmoqda. E‘tibor berilsa, ushbu tendensiyalarning barchasi, shubhasiz, mamlakatimizdagi Konstitutsiyaviy islohotlarning ustuvor yo‘nalishlari bilan uyg‘undir. Eng muhimi, Yangi O‘zbekistonda sud tizimi mustaqilligining yangicha Konstitutsiyaviy asoslari shu kabi ilg‘or omillarga tayanadi.

Nazorat savollari:

1. Odil sudlovni amalga oshirishning huquqiy asosi nimalardan iborat?
2. Fuqarolar va yuridik shaxslarda konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish huquqi mavjudmi?
3. Sudyalar vakolatini kengaytirilishi va sudlar faoliyatini moliyalashtirish bo‘yicha kiritilgan normalarning ahamiyati nimadan iborat?
4. Advokatura va advokatlar faoliyati borasidagi huquqiy islohotlar Yangi tahrirdagi qonunimizda qay darajada aks etgan?
5. O‘zbekistonda sud tizimi islohotlari borasida qanday o‘zgarishlar qilindi?
6. «Inson va uning qadr-qimmati» degan ulug‘ tushunchaga ta‘rif bering.

¹ Saidov A. O‘zbekiston konstitutsiyasi va odil sudlov huquqi. <https://xs.uz/uz/> / 2022-yil.

13-mavzu. KONSTITUTSIYADA DAVLAT HOKIMIYATI VA BOSHQARUVI TIZIMIGA OID MUHIM DEMOKRATIK O‘ZGARISHLAR

Reja:

1. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senat faoliyatiga doir o‘zgarishlar va ularning vakolatlari.
2. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada fuqarolik jamiyati institutlariga oid o‘zgartirish va qo‘shimchalar.
3. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada mahalliy davlat hokimiyati va xalq deputatlari Kengashlarining Konstitutsiyaviy vakolatlari.
4. Yangilangan Konstitutsiyada sud tizimiga oid o‘zgarishlar.

Tayanch so‘z va iboralar: *parlament, Prezident, Bosh vazir, sud tizimi, Hisob palatasi, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat va notijorat tashkilotlar (NNT), mahalliy davlat hokimiyati.*

1. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senat faoliyatiga doir o‘zgarishlar va ularning vakolatlari

Yangilangan Konstitutsiyada barcha jabhalar qatori davlat hokimiyati va boshqaruv tizimiga oid eng muhim o‘zgarishlar amalga oshirildi.

Konstitutsiyaviy islohotlar jarayonida davlat hokimiyatini tashkil etish bo‘limi bo‘yicha kelib tushgan takliflarning qariyb 20 foizi, ya‘ni 18 mingtasi aynan parlamentni isloh qilish g‘oyasi bilan bog‘liq bo‘ldi. Ushbu normalarning asosiy mazmun-mohiyati davlat hokimiyatini demokratlashtirish, davlat va jamiyat qurilishiga oid muhim masalalarni hal qilishda parlamentning rolini oshirishda namoyon bo‘ladi.

Shu asosda:

Birinchidan, parlament faoliyati bilan bog‘liq Konstitutsiyaviy islohotlarni amalga oshirishda Oliy Majlis palatalarining birgalikdagi vakolatlarini qayta ko‘rib chiqish, bunda, Qonunchilik palatasi bilan Senatning birgalikdagi vakolatlari, har bir palataning alohida alohida vakolatlari va mas‘uliyat sohalari aniq belgilandi.

Xususan, Bosh vazir nomzodini ko'rib chiqish va ma'qullash, Davlat budjeti ijrosini nazorat qilish, Hisob palatasining hisobotini ko'rib chiqish kabi vakolatlar bevosita xalq tomonidan to'g'ridan to'g'ri saylanadigan Qonunchilik palatasiga o'tkazildi. Bu o'zgartish quyi palataning vakillik tabiatiga mos keladi hamda uning faoliyatini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi.

Ikkinchidan, ilg'or xorijiy tajribadan kelib chiqib, Senatning mutlaq vakolatlari amaldagi **14 tadan 18 taga** oshirildi.

Parlament nazorati obyektlari bo'lmish ijro hokimiyati organlari ixchamlashtirilayotganidan kelib chiqib, Senat ham ixchamlashtirildi. Shu asnoda, joylardan teng vakillikni saqlab qolgan holda senatorlar soni **65 nafar** etib belgilandi.

Bundan tashqari, Qonunchilik palatasi tomonidan kiritilgan qonunlar Senatda **oltmish kun ichida** ko'rib chiqilishi lozimligi belgilandi. Agar yuqori palata bu muddat ichida qonunni ko'rib chiqmasa, ushbu qonun imzolash uchun to'g'ridan to'g'ri Prezidentga yuborilishi amaliyoti joriy etildi.

Mazkur qoida qonun ijodkorligiga oid tartib-taomillarni soddalashtirishga xizmat qildi. Bunday amaliyot Chexiya, Polsha, Yaponiya, Qozog'iston, Rossiya kabi davlatlarning parlament faoliyatida keng qo'llaniladi.

Davlat hokimiyati tizimida o'zaro tiyib turish va muvozanatni ta'minlash prinsipidan kelib chiqib, vazirliklar va davlat boshqaruvi organlarini tuzish va tugatish to'g'risidagi farmonlarni tasdiqlash vakolati Senatga o'tkazildi.

Bosh prokuror, Hisob palatasi rahbarligiga nomzodlar avval Senatda ko'rib chiqilib, keyin tayinlanishi, maxsus xizmatlar ustidan parlament nazoratini kuchaytirish maqsadida Davlat xavfsizlik xizmati rahbarligiga nomzodni ham Senat bilan maslahatlashuvlardan so'ng tayinlash amaliyoti joriy qilindi.

Uchinchidan, Oliy Majlis palatalarining birgalikdagi vakolatlari sifatida korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi yillik milliy ma'ruzani eshitish belgilandi.

Bu ikkala palataning mazkur yo'nalishdagi samarali hamkorligini ta'minlagan holda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida ijobiy o'zgarishlar uchun mustahkam zamin yaratdi. Shuningdek, tarixda birinchi marta Konstitutsiya darajasida parlament tekshiruv instituti mustahkamlandi.

To'rtinchidan, markazdagi va joylardagi ijro hokimiyati organlari faoliyatida qat'iy tartib-intizom, mas'uliyat, natijadorlikni kuchaytirish hamda barcha partiyalarga teng imkoniyat berish maqsadida Bosh vazir nomzodini barcha siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan maslahatlashib, davlat rahbari Qonunchilik palatasiga kiritib, xalq vakillari ma'qullaganidan so'ng lavozimga tayinlash tartibi joriy qilindi.

Chunki saylangan davlat boshlig'i o'z dasturini amalga oshirishi uchun davlat ishlari bo'yicha eng mas'ul shaxs sifatida ijro hokimiyatiga oid vakolatlarga ega bo'lishi zarur. Bu amaliyot chet elda ham keng tarqalgan. Qayerdagi, davlat boshlig'i xalq tomonidan to'g'ridan to'g'ri saylansa, u ijro hokimiyatiga oid barcha zarur vakolatlarga ega bo'ladi. Janubiy Koreya, Fransiya, Portugaliya, Ozarbayjon, Argentina va bir qator qo'shni davlatlarda ham shunday.

Beshinchidan, mamlakatimizda Konstitutsiyaviy qonuniylikning ta'minlanishiga mas'ul hisoblangan Konstitutsiyaviy sudning turli ta'sirlardan xoli bo'lishi, uning mustaqilligini kuchaytirish maqsadida xalqaro tajribani inobatga olib, mazkur sud **sudyalarini o'n yilga bir marotaba saylash** tartibi joriy qilindi.

Oltinchidan, davlat hokimiyatini yanada demokratlashtirish maqsadida Oliy Majlis palatalari rahbarlari, Oliy sud, Sudyalar oliy kengashi rahbariyatlari, Bosh prokuror, Markaziy saylov komissiyasi raisi, xalq deputatlari Kengashlari raislari va hokimlarning lavozimga ikki muddatdan ortiq saylanishi (tayinlanishi) mumkin emasligiga oid Konstitutsiyaviy cheklov kiritildi.

Yettinchidan, davlat boshlig'ining bir qator vakolatlari xalq vakillariga, ya'ni Senatga o'tkazildi, bular korrupsiyaga qarshi kurash hamda raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish organlari rahbarlarini, Sudyalar oliy kengashining butun tarkibini saylash shular jumlasidandir.

Sakkizinchidan, xalqparvar davlat barpo etish maqsadida mahalliy Kengash raisi va hokim lavozimlari alohida-alohida ajratib qo'yilishi belgilandi. Joylarda vakillik va ijroiya hokimiyatini ajratish tom ma'noda inqilobiy o'zgarishlarni nazarda tutadi.

Yangi Konstitutsiyaga asosan mazkur Kengashlar ishini to'g'ri tashkil qilishga ko'maklashish, olti yarim mingdan ortiq deputatlik korpusiga metodik yordam ko'rsatish bo'yicha yuqori palata oldida ulkan vazifalar paydo bo'ladi.

Shu maqsadda yuqori palataga joylardagi davlat hokimiyati va-killik organlariga o'z faoliyatlarini amalga oshirishlari uchun ko'maklashish vazifasi yuklatilmoqda.

2. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada fuqarolik jamiyati institutlariga oid o'zgartirish va qo'shimchalar

Davlatimizda fuqarolik jamiyati institutlarining roli va ahamiyatini kuchaytirishga, fuqarolarning eng muhim sotsial-iqtisodiy muammolarini hal etishga qaratilgan qator qonun hujjatlari qabul qilangani diqqat sazovordir. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada mazkur institut Konstitutsiyaviy maqomga ega bo'ldi.

Raqamlarga e'tibor qaratsak, 1991-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra respublikada 95 ta NNT faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 2000-yilning 1 yanvarga kelib ularning soni 2585 taga, 2016-yil 1-yanvar holatiga ko'ra esa – 8417 taga, hozirga kunda esa 9104 tani tashkil etmoqda¹.

Bu o'rinda, avvalo, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga fuqarolik jamiyati institutlariga bag'ishlangan alohida bob kiritilib, ular faoliyatining kafolatlari belgilanganini ta'kidlash lozim. Bularning barchasi, o'z navbatida, jamiyatda ochiqlik, oshkorlik va qonuniylik muhitini, davlat va jamiyat o'rtasidagi muloqotni rivojlantirish hamda kuchli jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Xususan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 13-bobi, 69-75-moddalari fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining kafolatlari bag'ishlangan. Mazkur o'zgarishlarning mohiyati haqida to'xtalganda, birinchi navbatda, Konstitutsiyaga ilk bor «fuqarolik jamiyati institutlari» iborasi kiritilganiga e'tibor qaratish zarur.

Yangi Konstitutsiyaning 69-moddasida jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari – fuqarolik jamiyati institutlari qatorida qayd etildi. Konstitutsiyaning 115-moddasida esa Vazirlar Mahkamasiga fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash choralari amalga oshirish vazifasi yuklatildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada fuqarolik jamiyati institutlariga oid o'zgartirish va qo'shimchalar nimalarda namoyon bo'ldi?

¹ <https://strategy.uz/index.php?news=1720&lang=uz2>

Birinchiidan, Konstitutsiyaviy qonun loyihasiga ilk bor «fuqarolik jamiyati institutlari» nomli bob va ibora kiritildi.

Ikkinchiidan, NNTlar, mahallalar, ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyati institutlari qatorida qayd etildi.

Uchinchiidan, Vazirlar Mahkamasiga fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini amalga oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda ijtimoiy sheriklik dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ularning ishtirok etishini ta'minlash vazifasi yuklatildi.

To'rtinchidan, davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash va atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratishi belgilandi.

Beshinchidan, fuqarolik jamiyati institutlariga O'zbekiston Respublikasi budjetining shakllantirilishi va ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish vakolati berildi.

Shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlariga O'zbekiston Respublikasi budjetining shakllantirilishi va ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish vakolati berildi. Bunday muhim vakolat yangi Konstitutsiyaning 148-moddasida belgilandi.

Bundan tashqari, davlat organlari va mansabdor shaxslarning nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatiga aralashishiga, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlarining davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'yilmasligi Asosiy qonun darajasida mustahkamlandi.

Kuchli fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishda, chinakam xalq hokimiyatini barpo etishda, fuqarolar manfaatlarini ishonchli himoya qilishni mustahkamlashda davlat hokimiyatining mahalliy vakillik organlari alohida o'rin tutadi. Islohotlarning hozirgi davri mahalliy vakillik hokimiyati va hokimlarning vakolatlarini aniq ajratishni talab qiladi.

3. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada mahalliy davlat hokimiyati va xalq deputatlari Kengashlarining Konstitutsiyaviy vakolatlari

Mahalliy davlat hokimiyati organlari deganda qonunchiligimiz bo'yicha viloyat, tuman va shaharlardagi xalq deputatlari Kengashlari hamda ijro hokimiyati tushuniladi. Yangi Konstitutsiyaning 21-bobi

«Mahalliy davlat hokimiyati asoslari. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari» deb nomlangan bo'lib, ushbu bobdagi normalar keng talqin qilingan holda, unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib, 8 ta moddada (120-127-moddalar) belgilab qo'yildi.

Yangi Konstitutsiyada viloyatlar, tumanlar va shaharlarda xalq deputatlari Kengashlari davlat hokimiyati vakillik organlari sifatida qayd etildi. Xalq deputatlari Kengashiga uning deputatlari orasidan qonunga muvofiq saylanadigan rais boshchilik qiladi. Viloyat, tuman, shahar hokimi lavozimini egallab turgan shaxs bir vaqtning o'zida xalq deputatlari Kengashining raisi lavozimini egallashi mumkin emas (120-modda).

Xalq deputatlari Kengashlarining vakolatlari muddati – besh yil. Ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq ayni bir viloyat, tuman, shahar xalq deputatlari Kengashining raisi etib saylanishi mumkin emas degan demokratik qoidalar kiritildi.

Shu bois, yangilangan Konstitutsiyamizning 122-moddasida xalq deputatlari Kengashlarining vakolatlari alohida belgilanib, ular quyidagicha ifodalanadi:

birinchidan, tegishli mahalliy budjetlarni ko'rib chiqish va qabul qilish, ularning ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish vakolati mustahkamlandi. Bu esa mahalliy budjetlarni aholining manfaatlarini, hududning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarini inobatga olgan holda ko'rib chiqishga va qabul qilishga xizmat qiladi. Shuningdek, budjet mablag'larini ijro etilishi ustidan ta'sirchan deputatlik nazoratini o'rnatishga sharoit yaratadi;

ikkinchidan, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlarini tasdiqlash vakolati belgilandi. Bunday dasturlarda hududning amaldagi ijtimoiy-iqtisodiy holati chuqur tahlil qilinadi, aholining muammolari maqsadli hal qilishga yo'naltiriladi va aholining ijtimoiy himoyaga bo'lgan talablari to'liq hisobga olinadi;

uchinchidan, hokimni lavozimga tasdiqlash, uning faoliyati to'g'risidagi hisobotlarni eshitish vakolati esa, mahalliy ijroiya hokimiyati organlari rahbarligiga xalq dardi bilan yashaydigan eng munosib nomzodlarni tanlash va tasdiqlashga, ular faoliyatining ochiqligiga, aholi oldida mas'uliyati va hisobdorligining oshishiga xizmat qiladi.

Konstitutsiyaning 127-moddasiga ko'ra fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi

hamda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni fuqarolarning manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy o'ziga xos xususiyatlaridan, shuningdek milliy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda, qonunga muvofiq mustaqil ravishda hal etishga haqli.

Davlat fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatini amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi, ularga qonunda belgilangan vakolatlarni amalga oshirishida ko'maklashadi.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari saylovi tartibi, ularning faoliyatini tashkil etish va vakolatlari qonun bilan belgilanishi normalari kiritilgan.

Shu o'rinda, «Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish to'g'risidagi Yevropa Xartiyasi»da mahalliy vakillik organlariga xos bo'lgan vakolatlar mamlakatning Konstitutsiya va qonunlarida aniq belgilab qo'yilishi kerak, degan tavsiya belgilangan. Shuningdek, mahalliy vakillik organlarining vakolatlari Avstriya Konstitutsiyasida ham belgilangan.

Konstitutsiyada xalq deputatlari Kengashlarining Konstitutsiyaviy vakolatlarini alohida belgilanishining ahamiyati shundaki, mazkur holat mahalliy vakillik organi mustaqilligini mustahkamlashga, ular oldida turgan vazifalarni hokimiyatlar bo'linishi prinsipiga muvofiq aniq belgilashga va mazkur vazifalarni bajarishda ularning mas'uliyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

4. Yangilangan Konstitutsiyada sud tizimiga oid o'zgarishlar

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan ko'plab yangi normalar o'z aksini topdi.

Ya'ni, har kimning yozishmalari, telefon orqali so'zlashuvlari, pochta, elektron xabarlari hamda boshqa xabarlari sir saqlanish huquqiga ega ekanligi belgilanib, bunday huquqlarning cheklanishiga yoki uy-joyda tintuv o'tkazishga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo'l qo'yilishi belgilab qo'yildi.

Shaxsni sudning qarorisiz 48 soatdan ortiq muddat ushlab turish mumkin emasligi, ya'ni, shaxsning erkinligini cheklash bilan bog'liq har qanday harakat faqatgina sud qarori asosida amalga oshirilishi shartligi mustahkamlandi.

Xalqaro e'tirof etilgan «Xabeas korpus» institutining qo'llanish ko'lamini yanada kengaytirildi. Ilk bor shaxsni ushlab chog'ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi kerakligi ayblanuvchi va sudlanuvchilarga o'ziga qarshi ko'rsatma bermaslik, sukut saqlash huquqi berildi. Bu orqali xalqaro e'tirof etilgan «Miranda qoidasi» ham yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda o'z aksini topib, fuqarolarimiz huquqlarini himoya qilishning zamonaviy usullarini o'zida mujassam etgan mexanizmlar joriy qilindi.

Shuningdek, hech kim o'ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emasligi belgilanib, bu qoidalarning Konstitutsiyada belgilanishi jinoiy ta'qib ostidagi har qanday shaxsga yoki uning yaqin qarindoshlariga ruhiy bosim va turli tahdidlar o'tkazish, uning sha'ni va qadr-qimmatni kamsitish kabi boshqa noqonuniy usullar qo'llanishini oldini olishga xizmat qiladi.

Yana bir muhim norma – agar shaxsning o'z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo'lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emasligi kafolatlandi. Bu hol jinoyat bo'yicha haqiqatni aniqlash, shuningdek, aybsiz insonlarning javobgarlikka tortilishini oldini olishga, ayni paytda, jinoyat sodir etgan haqiqiy aybdor shaxs yoki shaxslarni aniqlashga xizmat qiladi.

Ushbu islohotlar mamlakatning sud-huquq tizimi faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilinishini ta'minlash, aholining odil sudlovga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlash imkonini bermoqda.

Mamlakatimizda olib borilayotgan Konstitutsiyaviy islohotlar natijasi o'laroq, parlamentning davlat va jamiyat hayotidagi o'rni yanada oshdi.

Avvalambor, Yangi tahrirdagi Konstitutsiya bilan Qonunchilik palatasi bilan Senatning birgalikdagi vakolatlari hamda har bir palataning alohida-alohida vakolatlari va mas'uliyat sohalari aniq belgilab berildi. Masalan, agar ilgari Konstitutsiya bo'yicha Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari 5 ta bo'lgan bo'lsa, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga asosan ularning soni 12 taga yetdi.

Xususan, Davlat budjeti ijrosini nazorat qilish, Hisob palatasining hisobotini ko'rib chiqish kabi vakolatlar bevosita xalq tomonidan to'g'ridan to'g'ri saylanadigan Qonunchilik palatasiga o'tkazildi.

Bu o'zgartish quyi palataning vakillik tabiatiga mos keladi hamda uning faoliyatini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi.

Ilg'or xorijiy tajriba inobatga olinib, Bosh vazir nomzodini ko'rib chiqish va ma'qullash vakolati Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatiga o'tkazildi. Bosh vazir nomzodini Qonunchilik palatasiga taqdim qilishdan oldin Prezident tomonidan barcha siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan maslahatlashuvlar o'tkazish tartibi joriy etildi.

Jumladan, hududiy manfaatlarini ifodalovchi organ sifatida Senatning mahalliy vakillik organlari faoliyatiga ko'maklashish kabi muhim vakolati Bosh qomusimizda mustahkamlab qo'yildi.

Shuningdek, davlat hokimiyati tizimida o'zaro tiyib turish va muvozanatni ta'minlash prinsipidan kelib chiqib, vazirliklar va boshqa respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarini tuzish va tugatish to'g'risidagi farmonlarni tasdiqlash vakolati ham Senatga o'tkazildi.

Parlamentning nazorat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar rahbarlarini lavozimga qo'yish borasidagi funksiyalari kuchaytirildi hamda Prezidentning ayrim vakolatlari parlamentga o'tkazildi.

Jumladan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada Bosh prokuror, Hisob palatasi rahbarligiga nomzodlar avval Senatda ko'rib chiqilib, keyin Prezident tomonidan tayinlanishi, shuningdek Monopoliyaga qarshi organ va Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi rahbarlari Senat tomonidan saylanishi belgilanmoqda.

Shu bilan birga, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash maqsadida Sudyalarning oliy kengashining barcha a'zolarini Senat tomonidan saylash tizimi kiritildi.

Qonun Senat tomonidan oltmish kun ichida ko'rib chiqilishi belgilandi. Agar Senat qonunni ma'qullash yoki rad etish to'g'risida oltmish kun ichida qaror qabul qilmasa, Qonunchilik palatasi tomonidan qonun imzolanishi va e'lon qilinishi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga yuborilishi nazarda tutilmoqda.

Oliy Majlis palatalarining birgalikdagi vakolatlari ham kuchaytirilib, parlament nazoratining muhim shakli bo'lgan parlament tekshiruv instituti Konstitutsiyada alohida mustahkamlab qo'yildi.

Shuningdek, O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha yillik milliy ma'ruzani eshitish, davlat qarzining eng yuqori miqdorini belgilash, parlament tekshiruvini amalga oshirish kabi muhim vakolatlar palatalarning birgalikdagi vakolatlariga kiritildi.

Bu esa ikkala palataning mazkur yo'nalishdagi samarali hamkorligini ta'minlagan holda, korrupsiya illatiga qarshi kurashish borasida ijobiy o'zgarishlar uchun mustahkam zamin yaratadi.

Ko'plab olimlar ta'kidlaganidek, parlament davlat hokimiyatining boshqa institutlaridan farqli ravishda doimo «demokratiya nazariyasi va amaliyotining kesishuvi ro'y beradigan nuqtada turadi» va xalq hokimiyatchiligining timsoli hisoblanadi.

Davlat hokimiyati tizimida parlamentning rolini kuchaytirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar xalq vakillaridan yanada faol bo'lishni talab etadi.

Nazorat savollari:

1. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada Oliy Majlis palatalarining birgalikdagi vakolatlari nimalardan iborat bo'ldi?

2. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada Senatning vakolatlarida qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi?

3. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada fuqarolik jamiyati institutlarining roli va ahamiyatini kuchaytirish borasida qanday o'zgarishlar kiritildi?

4. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada davlat hokimiyati tizimida parlamentning rolini kuchaytirish borasida qanday o'zgarishlar kiritildi?

5. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash masalasida qanday o'zgarishlar kiritildi?

6. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada xalq deputatlari Kengashlarining Konstitutsiyaviy vakolatlari qanday belgilandi?

14-mavzu. KONSTITUTSIYADA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI FAOLIYATI BILAN BOG'LIQ QOIDALAR

Reja:

1. Fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining rivojlanish jarayonlari.

2. Konstitutsiyaviy darajada fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlariga Davlat budjetini shakllantirish va ijro etish faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish huquqining berilishi.

3. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda fuqarolik jamiyati institutlariga oid normalar.

Tayanch so'z va iboralar: Konstitutsiya, fuqarolik jamiyati instituti, yoshlar, inson huquqlari, qonun ustuvorligi, huquq, demokratiya, siyosiy partiya, nodavlat notijorat tashkilotlar.

1. Fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining rivojlanish jarayonlari

Fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati haqida so'z yuritishdan oldin fuqarolik jamiyati va uning mazmun mohiyatini ham bilishimiz zarurdir. Shunday ekan, **fuqarolik jamiyati** bu huquq va demokratiyaga asoslangan ijtimoiy hayotning zarur oqilona usuli bo'lib, insonga uning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti shakllarini erkin tanlash kafolatlanadigan, qonun ustuvorligi va inson huquqlari hamda erkinliklari qaror topadigan, ko'p partiyaviylik, siyosiy institutlar, mafkura va fikrlarning xilma-xilligi ta'minlanadigan hamda o'zini-o'zi boshqarish organlarining mavqei baland bo'lgan ijtimoiy tuzumdur. Bunda mamlakatning har bir fuqarosi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va huquqiy jihatdan o'z ehtiyojlarini jamoat birlashmalari va fondlari, o'zini-o'zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar va nodavlat notijorat tashkilotlar ishida faol ishtirok etib, ular orqali o'z maqsadlariga erishishi mumkin. Fuqarolik jamiyatida fuqarolar davlat faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatadilar, davlatning ko'pgina vakolatlari jamoat tashkilotlari zimmasiga yuklanadi. Davlat hokimiyati esa mamlakatning umumiy taraqqiyot rejalarini tuzadi, uning strategiyasini ishlab chiqadi, mudofaa, mil-

liy xavfsizlik, davlat mustaqilligi va chegaralari daxlsizligini, uning suverenitetini ta'minlash, pul-moliya, soliq, bank siyosati, tashqi siyosat va jahon hamjamiyati bilan aloqalar tizimini yaratadi, uni boshqaradi. Fuqarolik jamiyatini qurish kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari bosqichma-bosqich o'tish orqali ro'y beradi. Uzoq tarixiy rivojlanish natijasida Fuqarolik jamiyatini hozirgi zamonaviy ko'rinishi shakllandi. Unga ko'ra, Fuqarolik jamiyati ko'plab mulkchilik shakllarining xilma-xil va teng bo'lishi, mehnat va tadbirkorlikning erkinligiga yo'l qo'yilishi, mafkuraviy xilma-xillik va axborot erkinligi, inson huquq va erkinliklarining daxlsizligi, rivojlangan o'zini-o'zi boshqarish, madaniylashgan huquqiy hokimiyat bo'lishi hamda jamiyat hayotining barcha sohalarida qonun ustuvorligi ta'minlanishi muhim hisoblanadi. O'zbekistonda Fuqarolik jamiyatini qurish jahon davlatchiligi ilg'or tajribalari va ko'p ming yillik milliy an'analarning sintezi sifatida dunyoga kelmoqda. Ya'ni erkinlik va axloq, ozodlik va tarbiya, qonunga itoatkorlik va siyosiy huquqiy faollik, hurriyat va qat'iy tartib-intizom uyg'unligida fuqarolik jamiyati shakllantirilmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlarning asosiy maqsadi demokratik huquqiy davlat qurish va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishdan iboratdir. O'z taraqqiyot yo'lini tanlagan mamlakatimiz erishayotgan muvaffaqiyatlar mamlakatimizda ishlab chiqilgan va butun dunyoda e'tirof etilgan islohotlarda o'z ifodasini topmoqda.

Mamlakatimizda «Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari» tamoyilini izchil amalga oshirish doirasida aholi keng qatlamlari tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan, mustaqil ish olib boradigan, barqaror fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish hamda rivojlantirish uchun barcha zarur tashkiliy-huquqiy va moddiy sharoitlarni yaratgan va bu borada keng qamrovli ishlar olib borilmoqda.

Mamlakatimizni demokratik modernizatsiya qilishda fuqarolik jamiyati institutlarining roli va ahamiyati muttasil oshib borayotganligi, fuqarolar, ayniqsa, yoshlarning fuqarolik ongi hamda siyosiy-huquqiy madaniyatining barqaror rivojlanayotganidan dalolat beradi. Bu esa kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim omili hisoblanadi.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar, harakatlar, kasaba uyushmalari, jamoat birlashmalari va jam-

g'armalari, nodavlat notijorat tashkilotlari, mustaqil ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligini kafolatlaydigan mustahkam qonunchilik bazasi Konstitutsiyamiz asosida yaratilgan. Ular O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining institutlari tuzilmasini tashkil etadi va fuqarolarning mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha muhim vazifalarni bajarishda faol ishtirokini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqi, fuqarolik institutlarining huquq va erkinliklariga rioya qilish kafolatlari, ularga teng huquqiy imkoniyatlar yaratib berishga oid tamoyillar mustahkamlab qo'yilgan. Bu borada qabul qilingan jami ikki yuzdan ortiq qonun hujjatlari mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini izchil rivojlantirishda huquqiy asos bo'lib kelmoqda.

2005-yil 23-iyunda qabul qilingan «O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga ko'maklashish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorida ko'zda tutilgan kompleks chora-tadbirlarning amalga oshirilishi ushbu ijobiy jarayonni rivojlantirish, ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni hal etishda fuqarolik institutlari rolini kuchaytirish, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy va ishbilarmonlik faolligini oshirishga yordam bermoqda.

Mamlakatda demokratik islohotlar samaradorligi ko'p jihatdan fuqarolar ongi, aholining siyosiy-huquqiy madaniyatining nechog'li rivojlanganiga bog'liq. Shu bois mustaqillikning dastlabki kunlaridan ushbu masalaga alohida e'tibor qaratilmoqda. Aholi ongida inson huquq va erkinliklari, qonunlarni hurmat qilish, o'zining konstitutsion huquqlari, Vatanimiz taqdiriga, mamlakatimiz hamda dunyoda ro'y berayotgan voqealarga daxldorligini anglash tuyg'usini shakllantirish muhim vazifalardandir.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning muhim vazifasi sifatida inson huquqlarini ta'minlash, aholi huquqiy ongi va madaniyati darajasini oshirishga doir yaxlit tizim yaratilgan.

Fuqarolik jamiyati institutlari O'zbekistonda aholining siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirish, shaxs huquqlarini ta'minlash va himoya qilish, inson huquqlari madaniyatini shakllantirishda muhim omil bo'lmoqda. Bularning barchasi O'zbekistonda fuqarolik jamiyati va uning institutlarini isloh etish hamda demokratlashtirish, rivojlantirish jarayoni takomillashayotganidan dalolat beradi.

2. Konstitutsiyaviy darajada fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlariga Davlat budjetini shakllantirish va ijro etish faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish huquqining berilishi

O'zbekistonda so'nggi yillarga qadar davlat budjeti ochiqligi va uning ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. So'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar natijasida budjet ochiqligini ta'minlashga qaratilgan qator amaliy ishlar va bu boradagi muhim hujjatlar qabul qilindi. Buning natijasida fuqarolar nafaqat davlat budjeti ustidan nazorat o'rnatmoqda, balki mablag'larni sarflashda ham ishtirok etishmoqda.

Inson manfaatlarini va xalq farovonligini yo'lida davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlar o'zining moliyaviy ta'minotini talab etadi, bu eng avvalo, davlat budjeti orqali amalga oshiriladi. Ularning maqsadli sarflanishini ta'minlash esa – eng asosiy vazifalardan biridir. Bunda fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan Davlat budjetini shakllantirish va ijro etish faoliyati ustidan nazorat amalga oshirib borilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ko'pchilik insonlarda, ya'ni iqtisodiy bilimlarga ega bo'lmagan fuqarolarning aksariyatida davlat yoki mahalliy budjetlar qanday shakllanishi haqida umumiy tasavvur bo'lmasligi mumkin. «Davlatning puli» deb ataladigan ushbu mablag'lar aslida xalqning o'zi to'lagan soliqlar evaziga yig'ilgan pullardir. Tabiiyki, xalq o'z puli qanday va qayerga sarflanayotgani ustidan nazorat qilishga haqqi bor. Shunday ekan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizdagi modda aynan mana shu huquqni kafolatlaydi.

Hech kimga sir emas, mahallada mavjud bo'lgan muammolarni hal etish bo'yicha ayrim murojaatlarga tegishli mansabdor shaxslar tomonidan «rejaga kiritildi, moliyalashtirish bo'lsa bajaramiz» degan javoblar berilishi hech kimga sir emas. Ushbu javoblarni olgan fuqarolar mahalladagi muammolarni yechimini yillab kutib turardi. Shunday holatlarni keskin ravishda oldini olish maqsadida yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga budjetga oid alohida yangi modda kiritildi. Yangilangan Konstitutsiyaga Davlat budjeti va uning shaffofligi xususida tegishli modda ham kiritilayotgan bo'lib, ushbu modda odamlar budjet qanday shakllanishi, qanday sarflanishi ustidan nazorat o'rnatish olishlariga xizmat qiladi.

Shu bois yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga kiritilgan 148-moddaga ko'ra, «O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti respublika budjetidan, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetidan va mahalliy budjetlardan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetini shakllantirish hamda ijro etish tartib-taomillari ochiqlik va shaffoflik prinsiplari asosida amalga oshiriladi.

Fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlari O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining shakllantirilishi hamda ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi.

Fuqarolarning hamda fuqarolik jamiyati institutlarining budjet jarayonida ishtirok etishi tartibi va shakllari qonun bilan belgilanadi».

Bu davlat hokimiyatining birdan-bir manbai xalq ekanligidan kelib chiqadi. Shuningdek, barchamiz soliq to'lovchimiz, o'z soliq-larimizning qanday sarflanayotganini bilish, buni nazorat qilishga haqlimiz. Bugungi kunda mamlakatimizda rivojlanayotgan «**Ochiq budjet» davlat siyosati**, budjet ustidan jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirish va bu borada to'liq axborot olish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Xususan, Davlat budjetiga oid axborotlarni joylashtirishni nazarda tutuvchi «Ochiq budjet» portali ishga tushirildi, 2019-yildan boshlab budjet mablag'larini taqsimlashda tuman (shahar)lar budjetlari qo'shimcha manbalarining kamida 10 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantirish mexanizmi joriy etildi. Yangi Konstitutsiyada belgilangan normalar yuqorida qayd etilgan ishlarning mantiqiy davomi sifatida davlat budjetini shakllantirish, uni daromad va xarajat qismlarini belgilash, ijrosini ta'minlashda fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlarini jalb qilish, ularga bu jarayonda keng va faol qatnashish, jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun tegishli tashkiliy va huquqiy shart-sharoitlar va kafolatlarni yaratadi.

Konstitutsiyaga kiritilgan mazkur o'zgartirishlar davlat budjetini shakllantirish, uni daromad va xarajat qismlarini belgilash, ijrosini ta'minlashda fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlarini jalb qilish, ularga bu jarayonda keng va faol qatnashish, jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun tegishli tashkiliy va huquqiy shart-sharoitlar va kafolatlar yaratishga imkon beradi.

Asosiysi, ushbu modda orqali budjet mablag'lari talon-toroj qilish, mablag'larni o'rinsiz yoki besamar foydalanilishining oldi olinadi.

Davlat budjetidan maqsadli foydalanishni ta'minlash aholiga tibbiy xizmatlar ko'rsatish, ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlariga zarur yordam ko'rsatish, uy-joy bilan ta'minlash, tadbirkorlik va umuman, davlat va jamiyatni hayotining boshqa barcha sohalarida samaradorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Mazkur norma bilan jamoatchilik nazoratining mexanizmlaridan foydalangan holda budjet jarayonining ochiqligini ta'minlashning Konstitutsiyaviy asoslari mustahkamlangan. Jumladan, davlat budjeti ustidan jamoatchilik nazoratiga oid normalar **Janubiy Koreya, Yaponiya, Fransiya** kabi davlatlarning Konstitutsiyalarida ham nazarda tutilgan. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda belgilanayotgan normalar yuqorida qayd etilgan ishlarining mantiqiy davomi sifatida davlat budjetini shakllantirish, uning daromad va xarajat qismlarini belgilash, ijrosini ta'minlashda fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlarini jalb qilish, ularga bu jarayonda faol qatnashish, jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun tegishli tashkiliy va huquqiy shart-sharoitlar va kafolatlar yaratadi. Davlat budjetidan maqsadli foydalanishni ta'minlash esa aholiga tibbiy xizmatlar ko'rsatish, ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlariga zarur yordam ko'rsatish, uy-joy bilan ta'minlash, tadbirkorlikni va umuman, davlat va jamiyat hayotining boshqa barcha sohalarida samaradorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

3. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda fuqarolik jamiyati institutlariga oid normalar

Mamlakatimizda ochiqlik siyosatini davom ettirish maqsadida **«O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonuniga** faol fuqarolik jamiyatini shakllantirish va jamoatchilik nazorati institutini yanada rivojlantirishga qaratilgan normalar kiritilgan. Xususan:

– milliy qonunchiligimizda fuqarolik jamiyati institutlarining tarkibi ochib berilgan hamda ular fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etishi mustahkamlangan;

– davlat budjetini shakllantirish va uni ijro etish ustidan fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan jamoatchilik nazorati olib borilishi haqida yangi modda kiritildi;

– hukumatning asosiy vakolatlaridan biri sifatida «ijro hokimiyati organlarining ishida ochiqlik va shaffoflikni, qonuniylik va samaradorlikni ta'minlash, ularning faoliyatidagi korrupsiya ko'rinishlariga qarshi kurashish, davlat xizmatlarining sifatini va ochiqligini oshirish choralarini ko'rish» belgilandi;

– fuqarolarga, ularning soni yuz ming nafardan kam bo'lmasa, qonunchilikka oid takliflarini Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga qonunchilik tashabbusi tartibida kiritish huquqi berildi.

Bu normalarning barchasi rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo'lgan BMTning Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari Folker Turkning: **«Islahotlar jarayonida fuqarolik jamiyatining to'laqonli ishtirokini ta'minlash uchun davlat muassasalari kerakli shart-sharoit yaratishi kerak»**, degan tavsiyasiga aynan monandir.

BMT Oliy komissari BMT Boshqarmasida taraqqiyotning yangi strategiyasi, ya'ni fuqarolik jamiyati bilan davlat o'rtasidagi sheriklikni kuchaytirish maqsadi belgilab olingan.

Bunday yondashuv O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan izchil siyosatga uyg'un va hamohangdir. Folker Turkning: **«kuchli fuqarolik jamiyati muhim murvat sifatida inson huquqlari g'ildiragining harakatini ta'minlaydi. Nodavlat tashkilotlar tashqi aralashuvsiz faoliyat yurita olishi suv bilan havodek zarur»**, degan fikrlari O'zbekistonda to'la qo'llab-quvvatlangani bu fikrimizni yaqqol tasdiqlaydi.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlari o'rni va ahamiyatini oshirishga qaratilgan bu kabi ezgu amallar zamirida Prezident Shavkat Mirziyoyevning ushbu tizimni yanada taraqqiy ettirish, xususan, baxtli va osoyishta, obod va farovon, to'kis va munosib hayot kechirishimizga bog'liq barcha masalalar yechimini xalq ovozi bo'lgan mahalla darajasiga tushirishga oid tashabbusi mujassamdir. Davlatimiz rahbari ta'biri bilan aytganda, **«Yangi O'zbekistonni barpo etishda biz uchun eng muhim va asosiy poydevor bu – xalq ovozi, xalq fikri ustuvor bo'lgan mahalladir»**.

Xalqimiz ovoz bergan yangi Konstitutsiyada fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmasligi belgilab qo'yilayotgani diqqatga loyiqdir.

Konstitutsiyamizda bunday kafolatning belgilanishi mahallalarga: **birinchidan**, o'z hududini mustaqil boshqarish;

ikkinchidan, aholi manfaatlaridan kelib chiqib davlat bilan sheriklik asosida muammolarni hal etib borish;

uchinchidan, hududni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish;

to'rtinchidan, samarali jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

beshinchidan, aholi farovonligini ta'minlash borasida muhim imkoniyatlarni taqdim etadi.

Bu haqda fikr yuritganda, xususan, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyat ko'rsatadigan huquqiy makonni kengaytirish maqsadida, 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida:

– 2018-yil 12-aprelda «Jamoatchilik nazorati to'g'risida»gi qonun qabul qilingani;

– 2018-yil 18-aprelda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi qonunga muvofiq, jumladan, «Jamoat birlashmalari to'g'risida»gi, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi, «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi, «Jurnalistik faoliyatini himoya qilish to'g'risida»gi, «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi, «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida»gi qonunlar yangi davr talablari asosida takomillashtirilgani;

– O'zbekiston Prezidenti 2018-yil **4-mayda «Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonini imzolagani;**

– 2018-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha maslahat kengashi tuzilgani;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 4-oktyabrda «Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi islohotlar ustidan jamoatchilik nazorati samaradorligini, shuningdek, fuqarolarning demokratik o'zgartirishlardagi faolligini oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qaror qabul qilingani;

– **Prezidentimizning 2019-yil 30-oktyabrda qabul qilingan** «Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish markazi faoliyatini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq, O'z-

bekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha maslahat kengashining samarali faoliyatini ta'minlash maqsadida Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti **Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish markazi** maqomida qayta tashkil etilganini ta'kidlash o'rinlidir.

O'z navbatida, «2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi»da ushbu sohaning joriy va istiqboldagi ustuvor maqsadlari hamda asosiy vazifalari belgilab berildi. Bunda, avvalambor, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining 1-maqsadi «Mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo'g'iniga aylantirish», deb nomlanganiga e'tibor qaratish zarur.

Taraqqiyot strategiyasining 4-maqsadi «Davlat boshqaruvi organlari faoliyatini «fuqarolarga xizmat qilishga yo'naltirish» tamoyili asosida transformatsiya qilish» deb nomlangan. Unda, xususan, davlat boshqaruvi organlari faoliyati ustidan davlat nazoratini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvi vujudga kelishini bartaraf etish, mazkur jarayonga keng jamoatchilikni jalb qilish; vazirlik va idoralar faoliyatining barcha yo'nalishlarini «Davlat – xalq xizmatchisi» tamoyili asosida fuqarolarga xizmat qilishga yo'naltirish vazifalari belgilangan.

Eng asosiysi, Taraqqiyot strategiyasining «Ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish» deb nomlangan 12-maqsadida bu boradagi bevosita muhim bir qator vazifalar nazarda tutilgan.

Birinchidan, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zamonaviy shakllarini rivojlantirish uchun, xususan, Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda hududiy, tarmoq va davlat dasturlari loyihalarini ochiq e'lon qilib, keng jamoatchilik fikri asosida ishlab chiqish amaliyoti yo'lga qo'yilayotgani ahamiyatlidir.

Ikkinchidan, ayrim davlat funksiyalarini amalga oshirish jarayoniga jamoatchilik nazorati subyektlarini keng jalb qilish, davlat organlari faoliyatini o'rganishda ijtimoiy so'rovlar o'tkazish hamda aniqlangan kamchiliklarni ochiq muhokama qilish, shuningdek, kambag'allikni qisqartirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, ehtiyojmand aholini kasbga o'rgatish kabi ijtimoiy foydali loyihalarni amalga oshirishni nodavlat notijorat tashkilotlariga ochiq tanlov asosida taqdim etish amaliyoti tatbiq etilmoqda.

Uchinchidan, jamoatchilik nazoratining qonuniy asoslari yanada mustahkamlanmoqda. Bunda jamoatchilik nazoratining samarali va ta'sirchan shakllari, ularni amalga oshirish mexanizmlari izchil joriy etilayotgani juda muhim.

To'rtinchidan, ommaviy axborot vositalarining roli va jurnalistlar kasbiy faoliyatining himoyasi yanada kuchaytirilmoqda. Bu muhim maqsadga erish uchun, birinchi navbatda, fuqarolarni qiynayotgan muammolar hamda islohotlarning samaradorligini o'rganishda ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilish tartibi joriy qilinayotgani e'tiborlidir.

Shu bilan birga, ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga noqonuniy aralashganlik va to'sqinlik qilganlik, jumladan, mansabdor shaxslar tomonidan senzura o'rnatish, tahririyat xodimlariga bosim va tazyiq o'tkazish, materiallar va texnik vositalarni ulardan g'ayriqonuniy ravishda olib qo'yish harakatlari sodir etilgani uchun javobgarlikni yanada kuchaytirilmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, Taraqqiyot strategiyasining **89-maqsa-di «Fuqarolarning axborot olish va tarqatish erkinligi bo-rasidagi huquqlarini yanada mustahkamlash»** deb atalgani katta ahamiyatga ega. Ayni vaqtda Taraqqiyot strategiyasi ko'zda tutilgan eng muhim vazifalar qatorida Axborot kodeksi loyihasini tayyorlash ustida qizg'in ish bormoqda.

Bularning barchasi, shubhasiz, fuqarolik jamiyati institutlari-ning mamlakatimizni sotsial-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy rivojlantirish hamda jamiyat va davlat ishlarini boshqarishdagi ishtiroki va ta'sirchan rolini oshiradi. Binobarin, davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining yanada ochiqiligini ta'minlash, boshqaruv qarorlari qabul qilinishini sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarishda aynan fuqarolik jamiyati institutlari beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, Konstitutsiyamizga ushbu yo'nalishda kiritilayotgan yangilanishlar fuqarolik jamiyati institutlarining mamlakatimiz hayotidagi rolini yanada oshirish bundan buyon ham e'tibor markazida bo'lishidan dalolat beradi. Bu fikrimizni bugungi kunda birgina mahalla tizimida boshlangan yangi islohotlar to'liqini ham yaqqol tasdiqlab turibdi. Xususan:

– mahalla fuqarolar yig'iniga o'zi joylashgan hududdagi xalq deputatlari mahalliy kengashlari sessiyalariga takliflar kiritish,

kengash qarorlari loyihalarini ishlab chiqish va muhokama qilishda ishtirok etish huquqi berilmoqda;

– aholi o'rtasida e'tirozlarga sabab bo'layotgan ijtimoiy muammolarni aniqlash va hal etish uchun mahalla raisi tomonidan muhokamalar o'tkazish, har oyda mahalla kengashida tegishli davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining axborotlarini eshitish amaliyoti yo'lga qo'yilmoqda;

– hududlarda «mahalla nazorati» va «mahalla raisi so'rovi» institutlari joriy etilmoqda;

– bu yil yurtimiz tarixida birinchi marta tajriba tariqasida har bir hududdagi bitta tumanda «mahalla budjeti» tizimi o'rnatilib, mol-mulk va yer solig'ining bir qismini mahallalarning o'zida qoldirish ko'zda tutilmoqda. Bunday amaliyot mahallalar hududidagi muammolar bevosita ular tomonidan mustaqil hal etilishida juda qo'l kelishi tayin.

Bu yangi tashabbuslarning ijobati, shubhasiz, mahallalarni fuqarolik jamiyatining tayanch ustuniga, chinakam xalqchil tuzilma-ga aylantirishga xizmat qiladi. Binobarin, mahallalar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari mamlakatimiz hayotining barcha sohalaridagi qamrovli islohotlar ustidan jamoatchilik nazorati samaradorligini, shuningdek, fuqarolarning demokratik o'zgartirishlardagi faolligini oshirishda beqiyos o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Konstitutsiyamiz qabul qilinganining 29-yilligi munosabati bilan yo'llagan tabrigida **«Asosiy qonunimizda fuqarolik jamiyati institutlarining o'rni va maqomini Konstitutsiyaviy jihatdan mustahkamlash»** davr talabi ekanligi qayd etilgan edi. Bugungi kunda O'zbekistonda **9 mingga** yaqin nodavlat notijorat tashkilotlar, **9 mingdan** ortiq o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyat yuritmoqda. Fuqarolik jamiyati institutlari tushunchasi ilmiy adabiyotlarda keltirilgan bo'lib, lekin normativ-huquqiy hujjatlarda mazkur institutning tushunchasi berilmagan, ular faoliyatiga oid huquqiy kafo-latlar belgilanmagan edi. Jahon bankining **«Fuqarolik jamiyati tashkilotlari bilan maslahatlashuv»** ko'rsatmasida **«fuqarolik jamiyati instituti»** tushunchasini qo'llash tavsiya qilingan. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 69-moddasida **«fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning**

o'zini-o'zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi», degan norma mustahkamlanmoqda.

Fuqarolik jamiyati institutlari mamlakatda demokratiya, huquqiy davlat va shaxs erkinliklarini ta'minlashning muhim kafolati bo'lib xizmat qiladi. Ular jamiyat a'zolarining fuqarolik faolligi, milliy o'z-o'zini anglashi, siyosiy madaniyati va yuksak ma'naviyatini yuksaltirishga ko'maklashish, mustaqil fikrlash, o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish, o'z kelajagini o'z xohishi bilan qurish istagini shakllantirishga xizmat qiladi. Tabiiyki, ushbu institut vakillari bugungi va ertangi kunimizga har qachongidan ham mas'uliyat bilan qaraydigan, xalqimizning orzu-umidlarini ro'yobga chiqarishda amaliy ishlari bilan yordam berishga shay tashkilotlar majmuasi sifatida jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ishonchli hamkor bo'la oladi. Mazkur normaning Konstitutsiyada belgilanishi fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyatini bevosita tartibga soluvchi hamda ularning huquqlari va qonuniy manfaatlariga doir qonunchilik hujjatlarining tizimlashtirishga xizmat qilib, bosqichma-bosqich davlat funksiyalarini ushbu institutlarga berib borish orqali ularning ijtimoiy faolligini oshirishga turtki bo'ladi.

Nazorat savollari:

1. Fuqarolik jamiyati deganda nimani tushunasiz?
2. Fuqarolik jamiyati institutlariga ta'rif bering.
3. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda fuqarolik jamiyati institutlariga oid qanday normalar mavjud?
4. Davlat budjetini shakllantirish va ijro etish faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish deganda nimani tushunasiz?
5. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning qaysi moddasida Fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatiga bag'ishlangan?
6. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga kiritilgan 148-moddaning mazmunini tushuntirib bering.

15-mavzu. KONSTITUTSIYADA TASHQI SIYOSAT HAMDA MUDOFAA VA XAVFSIZLIK SOHASIDAGI QOIDALAR

Reja:

1. O'zbekiston Respublikasi «Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiya»si.
2. Konstitutsiyaga tashqi siyosatning asosiy prinsiplaridan biri sifatida «davlatlarning hududiy yaxlitligi» prinsipining kiritilganligi.
3. O'zbekiston Respublikasi tinchliksevar tashqi siyosatni amalga oshiradi prinsipining mazmun-mohiyati.

Tayanch so'z va iboralar: tashqi siyosat, mudofaa, xavfsizlik, hududiy yaxlitlik.

1. O'zbekiston Respublikasi «Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiya»si

Mamlakatimizda keyingi yillarda tashqi siyosat sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar mintaqamizda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga, mamlakatimizning xalqaro maydondagi salohiyatini kengaytirishga va xorijiy davlatlar bilan keng qamrovli hamda o'zaro manfaatli aloqalarini rivojlantirishga xizmat qilib kelmoqda.

Davlatimiz Konstitutsiyasi Tashqi siyosat bobining 17-moddasida «O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi. Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin», deb belgilangan.

So'nggi yillarda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan O'zbekiston hayotining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy va boshqa sohalarida muhim islohot hamda o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz rahbari tomonidan, Tashqi siyosiy faoliyatimizni ustuvor tamoyillaridan biri deb, birinchi navbatda, mintaqamizda, xususan, qo'shni Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston Respublikalari va Turkmaniston bilan hamda jahonning yetakchi mamlakatlari (Rossiya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Xitoy, shuningdek, Osiyo, Yevropa va Yaqin Sharqdagi qator davlatlar) bilan ochiq, pragmatik va amaliy yondashuv asosida, ikki hamda ko'p tomonlama, barcha yo'nalishlardagi munosabatlarimizni rivojlantirish va kengaytirish belgilangan. 2020-yilda pandemiya oqibatida yuzaga kelgan xalqaro miqyosdagi iqtisodiy va ijtimoiy qiyinchiliklar, ayrim mintaqalardagi umumiy ahvol va davlatlararo munosabatlarning keskinlashishi tashqi siyosatimizdan yangi maqsad va yondashuvlarni talab etdi. Shunday ekan Prezidentimiz 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida Tashqi ishlar vazirligining ustuvor va dolzarb vazifalaridan biri sifatida «Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiya»sini yanada takomillashtirib, uning yangi tahririni ishlab chiqishni belgilab berdi.

Yangi tahrirdagi «Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiya»sining asosiy maqsad va vazifalari, deb quyidagilar belgilangan:

- zamonaviy xalqaro sharoitlardagi tashqi siyosiy, tashqi iqtisodiy sohalarida O'zbekiston Respublikasining milliy manfaatlarini ilgari surish;

- 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining samarali bajarilishini ta'minlash;

- mamlakatimizning milliy xavfsizligi, suvereniteti va hududiy yaxlitligini mustahkamlash;

- O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishi – Markaziy Osiyoda doimiy tinchlik, barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash, mintaqa davlatlari bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, barcha mintaqaviy va ikki tomonlama muammolarni konstruktiv yondashuv, o'zaro hurmat va bir-birining manfaatlarini hisobga olgan holda, oqilona murosa va umumiy javobgarlik asosida birgalikda hal etishni ta'minlash;

- O'zbekiston Respublikasining xalqaro maydondagi imiji, o'rni va obro'sini mustahkamlashga qaratilgan barcha davlatlar va nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan strategik hamkorlik va do'stlik munosabatlarining barqaror tizimini barpo etish.

Shu bilan birga, yangi tahrirdagi Konsepsiyada tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy vazifalarning iyerarxiyasi kengaytirilib, bir qator quyidagi masalalar, ya'ni:

- jahon siyosatining madaniy-sivilizatsiyaviy va gumanitar qismi, diniy omil, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash;

- O'zbekistonning xorijdagi fuqarolarining huquq va manfaatlarini himoya qilishni ta'minlash, xorijda istiqomat qilayotgan vatan-doshlar bilan muloqot va hamkorlikni rivojlantirish;

- yangi muhim xalqaro tendensiyalar, shu jumladan, iqtisodiy, tabiiy-xomashyo, texnologik va axborot omillarining ahamiyatini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, yangi tahrirdagi Tashqi siyosiy faoliyat Konsepsiyasi:

- xorijda O'zbekiston Respublikasining milliy manfaatlarini tizimli ravishda ilgari surishga;

- xorijiy mamlakatlar bilan do'stona, teng huquqli munosabatlarni va o'zaro manfaatli hamkorlikni muttasil va izchil rivojlantirishga;

- O'zbekiston Respublikasining xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimiga chuqur integratsiyalashuvi va xalqaro raqobatbardosh milliy iqtisodiyotni yuksaltirish uchun qulay tashqi shart-sharoitlarni yaratishga;

- mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash, Markaziy Osiyoda samarali mintaqaviy hamkorlik tizimini shakllantirishga;

- O'zbekiston Respublikasining xorijdagi fuqarolari va yuridik shaxslarining qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish faoliyatini tubdan yaxshilashga;

- O'zbekiston Respublikasining xalqaro imiji va nufuzini yanada mustahkamlashga mo'ljallangan.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishi Markaziy Osiyo mintaqasi, birinchi navbatda Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston kabi qo'shni davlatlar bilan uzoq muddatli va manfaatli munosabatlarni kengaytirish va rivojlantirish hisoblanadi.

So'nggi yillarda Prezidentimiz tashabbusi bilan mintaqaning barcha mamlakatlariga yuqori darajadagi tashriflar amalga oshirildi. Mazkur tashriflar davomida Markaziy Osiyo mamlakatlari

uchun o'zaro manfaatli bo'lgan xavfsizlik, iqtisodiyot, investitsiya, madaniyat va ekologiya masalalari bo'yicha qarorlar qabul qilindi.

Markaziy Osiyo davlatlari yuzaga keladigan har qanday muam-molarni tinchlik yo'li bilan, muzokaralar asosida va o'zaro manfa-atli tarzda hal qilish mumkinligini butun dunyoga namoyon etdilar. Bunday yutuqning asosida, tabiiyki, mintaqa davlatlari rahbarlari o'rtasida siyosiy muloqot va o'zaro ishonch yotadi.

2021-yili ham mazkur yo'nalishdagi proaktiv diplomatik faoliyat davom ettirildi. Masalan, 2021-yilning 16-18 fevral kunlari O'zbe-kiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri A.H. Komilovning Tojikis-ton, Turkmaniston va Qozog'istonga amaliy tashrifi tashkil etildi. Muzokaralar mobaynida mintaqaviy hamkorlikning bugungi holati va rivojlanish istiqbollari, shuningdek, Markaziy Osiyoning global iqtisodiy jarayonlar va transport yo'laklariga integratsiyasi masala-lari muhokama qilindi.

Shuningdek O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoli-yatida xorijda istiqomat qiladigan vatandoshlarimiz manfaatlarini himoya qilish, ularni qo'llab quvvatlash, O'zbekiston Respublika-sining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga va uning xorijiy mamlakat-lar bilan o'zaro manfaatli, do'stona munosabatlarini qurishga o'z hissasini qo'shmoqchi bo'lgan vatandoshlarga imkoniyatlar yaratish masalalariga alohida to'xtab o'tilgan.

Bu yo'nalishda xorijdagi vatandoshlarning huquq va erkinlikla-rini amalga oshirishga ko'maklashish, vatandoshlarning O'zbekis-ton madaniy, ilmiy va ma'naviy merosini keng targ'ib qilishga, uni jahon miqyosida o'rganish va ommalashtirishga, o'zlari istiqomat qilayotgan davlatlarida o'zbek tili, madaniyati va an'alarini saqlab qolish va rivojlantirish borasidagi faoliyatlarini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratiladi.

Shuningdek, hujjat loyihasida vatandoshlar hamda ular tuzgan tashkilotlar, jumladan, milliy madaniy markazlar bilan aloqalar-ni rivojlantirish va mustahkamlash, vatandoshlarning salohiyatini O'zbekistonda olib borilayotgan keng ko'lamlı ijtimoiy-iqtisodiy va umumiy-siyosiy islohotlarni qo'llab-quvvatlashga, O'zbekiston Res-ublikasining xalqaro nufuzini yanada mustahkamlashga jalb qilish vazifalari belgilab qo'yilgan.

Markaziy Osiyoni Hind okeani bilan bog'laydigan Trans-afg'on transport yo'lagini barpo etish masalasi ham O'zbekiston uchun

muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan Afg'oniston bilan aloqalarni izchil va har taraflama kengaytirishdan manfaatdormiz. Afg'onis-tonda tinchlik o'rnatilishi mintaqaning barqaror iqtisodiy o'sishi, farovonligini ta'minlash bo'yicha o'zaro hamkorlikning mustahkam asoslarini shakllantirish uchun unikal strategik imkoniyat yaratadi.

2. Konstitutsiyaga tashqi siyosatning asosiy prinsiplaridan biri sifatida «davlatlarning hududiy yaxlitligi» prinsipining kiritilganligi

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgarishga ko'ra, Konstitutsiyaning muqaddimasida milliy davlatchilikni takomillash-tirishning yangi bosqichida O'zbekiston Konstitutsiyaviy rivojlani-shining bir qator ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi. Shulardan biri bu O'zbekiston jahon hamjamiyati, eng avvalo, qo'shni davlat-lar bilan hamkorlik, o'zaro bir-birini qo'llab-quvvatlash, tinchlik va totuvlik asosidagi do'stona munosabatlarni mustahkamlash hamda rivojlantirishga intilishidir. Bunda harakatlardan barcha tomonlar manfaatdordir. Bundan tashqari, yangi tahrirdagi Konstitutsiya-mizda davlatning tashqi siyosat bobida davlatning tashqi siyosati prinsiplari «**davlatlarning hududiy yaxlitligi**» qoidasi bilan to'l-dirildi va «tinchliksevar tashqi siyosat» uning asosiy vektori sifati-da belgilangandi. Ya'ni Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 17-moddasida O'zbekiston Respublikasi xalqaro mu-nosabatlarning to'la huquqli subyekti ekani yana bir bor ta'kidlab o'tildi.

Shuningdek, Bosh qomusimizda O'zbekistonning tashqi siyo-sati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning buzilmasligi, davlatlarning hududiy yaxlitligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa dav-latlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsiplariga hamda xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa prinsip va normalariga asos-lanishiga alohida e'tibor qaratilgan.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish kerakki, avvalgi tahrirdagi O'zbe-kiston Respublikasi Konstitutsiyasida tashqi siyosat bobi faqatgina bitta moddadan iborat bo'lgan bo'lsa, yangi tahrirdagi Konstitutsi-yada esa ushbu bobga yana bir modda qo'shildi.

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tashqi siyosat bobi 18-modda bilan to'ldirilib, ushbu moddada O'z-

bekiston Respublikasi **davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va ko'p tomonlama munosabatlarni har taraflama rivojlantirishga** qaratilgan **tinchliksevar tashqi siyosatni** amalga oshirishi belgilandi.

Ma'lumki, O'zbekistonda amalga oshirayotgan tashqi siyosat xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan prinsiplariga asoslanuvchi, do'stona va tinchliksevar tashqi siyosatdir. Bugungi kunda mamlakatimiz jahon siyosatining markazlaridan biriga va global tashabbuslar muallifiga aylanmoqda. O'zbekiston dunyoning 140 dan ortiq mamlakati bilan diplomatik aloqalar o'rnatgan, xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlarda O'zbekistonning **55 ta** diplomatik va konsullik vakolatxonalarini mavjud, mamlakatimiz **100 dan** ortiq xalqaro tashkilotlarning a'zosi bo'lib, turli ko'p tomonlama hamkorlik tuzilmalari bilan o'zaro sherikchilik aloqalarini rivojlantirmoqda. Bugungi davr mazkur siyosatni izchillik bilan davom ettirishni talab etmoqda.

Ayni paytda davlatlarning hududiy yaxlitligini hurmat qilish prinsipiga amal qilish, tashqi siyosatda barqarorlikni ta'minlashning muhim omilidir.

Konstitutsiyamizda O'zbekiston amalga oshirayotgan tashqi siyosatining asosiy prinsipi qatorida «davlatlarning hududiy yaxlitligi» prinsipini mustahkamlash hamda «tinchliksevar tashqi siyosat» to'g'risidagi alohida normaning aks ettirilishi mamlakatimizning xalqaro siyosiy maydondagi o'z xalqaro majburiyatlarini bajaruvchi, ishonchli sherik sifatida mavqeyini mustahkamlash uchun zarurdir.

Mazkur prinsipning Konstitutsiyamizga qo'shilishi O'zbekistonning hududiy yaxlitligini dunyodagi barcha boshqa davlatlar tan olishi va hurmat qilishi, yaxshi qo'shnicilik, o'zaro ishonch, do'stona aloqalarni rivojlantirish, sarhadlarimiz osoyishtaligi, xalqimiz xavfsizligi, tinch-totuv hayot kechirishi va rivojlanishimizning barqarorligini ta'minlash uchun xizmat qiladi.

Bundan tashqari, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasi 2-qismiga nazar soladigan bo'lsak, unda O'zbekiston Respublikasi davlatning, xalqning oliy manfaatlaridan, uning farovonligi va xavfsizligidan kelib chiqqan holda ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklar va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi hamda ulardan chiqishi mumkin ekani belgilab o'tilgan.

Mazkur norma mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, O'zbekiston u yoki bu ko'rinishdagi xalqaro

ittifoqchilik kengashlariga faqat va faqat xalq manfaatlarini ko'zlab kirishi yoki undan chiqishi mumkin. Masalan, bir paytlar O'zbekiston **Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkiloti (KXSHT)** a'zosi bo'lgan. Biroq ushbu tashkilot o'z yo'nalishini harbiylashtirgach, undan chiqishga qaror qilgan. Bu kabi holatlarda, albatta, xalqning manfaatlaridan kelib chiqib yo'l tutish kerakligi Konstitutsiyada mustahkamlab qo'yilayotgani esa tashqi siyosatdagi aniq strategiyalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Butun dunyoga ma'lumki, O'zbekiston – tinchliksevar yurt. Boshqa mamlakatlar bilan do'stona, iliq munosabatli aloqalarni o'rnatish esa xalq farovonligi va mamlakat tinchligi ta'minlashning eng muhim shartlaridan biridir. Konstitutsiyaga tashqi siyosat bo'yicha alohida moddalarga qo'shimchalar kiritishning zarurati ham ana shunda – tahlikali davrda barcha davlatlar bilan do'stona va tinchliksevar munosabatlarni o'rnatish juda muhim.

Bundan tashqari, o'zbek xalqi tinchlikning qadrini biladigan xalq. Bir kun janjal bo'lgan xonadonda qirq kun baraka qochadi, degan xalq maqollari bejizga paydo bo'lmagan. Bizning xalqimiz katta mojarolar u yoqda tursin, yon qo'shnilari o'rtasida kichik aytishuvga ham murosasiz yondashadi, har doim duolarida tinchlik bo'lsin, deb so'raydi. Endilikda xalqning bunday xohish-irodasi esa uning asosiy qonuni – Konstitutsiyada ham o'z aksini topdi.

Tarixdan ma'lumki, urushning hech qachon yaxshisi bo'lmagan. Dunyoda hozir ham turli ko'rinishlarda urushlar, ommaviy to'qnashuvlar bo'lib turgani insoniyatni tashvishga solmoqda. Ayrim davlatlarda qonli to'qnashuvlar 20–30-yillardan beri to'xtamayapti. Ammo shunga qaramasdan, O'zbekiston tashqi siyosatida bir qator ijobiy o'zgarishlarni kuzatishimiz mumkin. Chunki O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari bilan do'stona, yaqin qo'shnicilik va o'zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining **Maslahat uchrashuvlarini o'tkazish** yo'lga qo'yildi. Qo'shnilarimiz bilan chegaralar ochildi, uzoq yillar davomida bir-birini ko'ra olmagan qon-qarindoshlar yana uchrashdi.

Bir so'z bilan aytganda, barcha davlatlar bilan do'stona va tinchliksevar tashqi siyosatni olib borishga doir mazkur yangi prinsipning Konstitutsiyamizga kiritilishi achchiq xatolardan chiqarilgan to'g'ri xulosadir. Boshqa davlatlar bilan xalqning manfaatlarini us-

tun qo'yib, ikki va ko'p tomonlama foydali do'stona munosabatlarni yo'lga qo'yish – hozirgi zamonda eng to'g'ri qaror hisoblanadi.

Davlatlarning hududiy yaxlitligi davlat va uning suverenitetining muhim sharti, xalqaro huquqning asosiy prinsiplaridan biridir. Kuch bilan tahdid qilish yoki kuch ishlatish natijasida biror-bir davlat hududi yoki uning bir qismi egallab olinishi tan olinmaydi. Ta'kidlash lozimki, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 17-moddasida» **davlatlarning hududiy yaxlitligi**» O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy prinsiplaridan biri sifatida belgilanmoqda. Davlatlarning hududiy yaxlitligi prinsipi dastlab, 1945-yilda qabul qilingan BMT Ustavida belgilangan, keyinchalik BMT, YeXHT, ShHT va boshqa xalqaro tashkilotlarning hujjatlarida, xususan, BMT Ustaviga muvofiq davlatlar o'rtasidagi do'stona munosabatlar va hamkorlikka oid xalqaro huquq tamoyillari to'g'risidagi Deklaratsiyada (1970-yil) takomillashtirilgan.

Mazkur prinsipga ko'ra, har qanday davlat boshqa davlatning hududiy yaxlitligini hurmat qilishi, uning suvereniteti, milliy birligi va hududiy yaxlitligini qisman yoki to'liq buzishga qaratilgan har qanday harakatlardan o'zini tiyishi lozim. Bundan tashqari, davlatlar va xalqaro huquqning boshqa subyektlari biror-bir davlat hududiga, uning bir qismiga yoki resurslariga kuch bilan yoki kuch ishlatish tahdidi bilan bevosita yoxud bilvosita tajovuz qilmasliklari shart. Bunda davlatlar alohida davlat hududi yoki uning bir qismiga ziyon yetkazuvchi har qanday harakatlardan tiyilishlari va buzg'unchi davlatlarni qo'llab-quvvatlamasliklari lozim. Hududiy yaxlitlik prinsipiga muvofiq, nafaqat O'zbekiston boshqa davlatlarni, balki boshqa davlatlar ham mamlakatimiz chegaralari daxlsizligini hurmat qilishi lozim. Hozirgi tahlikali davrda davlatlarning hududiy yaxlitligini hurmat qilish prinsipiga amal qilish – tashqi siyosatda barqarorlikni ta'minlashning muhim omilidir. Davlatlarning hududiy yaxlitligi prinsipi deyarli barcha davlatlar, shu jumladan, **Germaniya, Fransiya** kabi davlatlar Konstitutsiyalarida o'z ifodasini topgan. Mazkur prinsipning Konstitutsiyaga kiritilishi O'zbekistonning dunyodagi barcha boshqa davlatlar hududiy yaxlitligini tan olishi va hurmat qilishini, ichki va tashqi siyosatda yaxshi qo'shnichilik, o'zaro ishonch, do'stona aloqalarni rivojlantirishni, sarhadlarimiz osoniyatligini, xalqimiz xavfsizligini, tinch-totuv hayot kechirishi va rivojlanishimiz barqarorligining huquqiy asosini mustahkamlaydi.

3. O'zbekiston Respublikasi tinchliksevar tashqi siyosatni amalga oshiradi prinsipining mazmun-mohiyati

Barchamizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining 2022-yil 24-iyundagi qarori bilan «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni loyihasini umumxalq muhokamasiga qo'yish to'g'risidagi qaror qabul qilindi.

Konstitutsiyaviy qonun loyihasida Konstitutsiyaning muqaddimasida ham bir qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligini kuzatish mumkin. Ma'lumki, Konstitutsiya muqaddimasi uning kirish qismi sifatida u Konstitutsiyani qabul qilish maqsadini o'zida mujassam etadi. Muqaddimada Konstitutsiyaning asosiy qismida batafsil ochib beriladigan Konstitutsiyaviy tuzum belgilari va yo'nalishlari mazmuni ifodalaydi.

Binobarin, Konstitutsiyaviy qonun loyihasida muqaddima qismida «O'zbekistonning jahon hamjamiyati va eng avvalo, qo'shni mamlakatlar bilan o'zaro bir-birini qo'llab-quvvatlash, hamkorlik va hurmat qilish, tinchlik va totuvlik asosidagi uyg'un, do'stona munosabatlarini mustahkamlashga hamda rivojlantirishga intilib» degan mazmundagi band kiritilgan.

Konstitutsiyaga kiritilayotgan mazkur norma, o'z navbatida, yangi O'zbekistonning jahon hamjamiyati va eng avvalo, qo'shni mamlakatlar bilan o'zaro bir-birini qo'llab-quvvatlash, hamkorlik va hurmat qilish, tinchlik va totuvlik asosidagi uyg'un, do'stona munosabatlarini mustahkamlashga hamda rivojlantirishga intilishi mazmunan mafkuraviy, g'oyaviy va siyosiy jihatdan yo'naltirilganligini ifodalaydi.

Shuningdek, Konstitutsiyaviy Qonun loyihasida Konstitutsiyaning 17-moddasiga ham mamlakatimizning tashqi siyosatini ifodalovchi bir qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan bo'lib, mazkur o'zgartirish va qo'shimchalar O'zbekistonning bugungi kundagi tashqi siyosatining asosiy maqsadlarini mujassam etgan. Qonun loyihasida 17-moddaning birinchi qismi o'rniga quyidagicha birinchi va ikkinchi qismlarni kiritish taklif etilgan:

«O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyektidir. Uning tashqi siyosati **inson huquqlari va erkinliklarini hurmat qilish**, davlatlarning suveren tengligi, kuch

ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, **chegaralarning buzilmasligi, davlatlarning hududiy yaxlitligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish**, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga hamda xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi.

«O'zbekiston barcha davlatlar bilan do'stona va tinchliksevarlik tashqi siyosat olib boradi».

Konstitutsiyaning 17-moddasiga kiritilgan ushbu o'zgartirish va qo'shimchalar xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan tamoyillarini o'zida mujassam etgan bo'lib, xalqaro huquqning davlatlar tashqi siyosatining zaruriy mezonlarini ifoda etgan. Zero, yangi O'zbekiston barcha davlatlar bilan do'stona va tinchliksevarlik tashqi siyosat olib borishi bilan bir qatorda xalqaro huquq normalarini hurmat qilishi va unga og'ishmay amal qilishini ham ifoda etadi.

Inson huquq va erkinliklarini hurmat qilish tamoyili. BMT Nizomining 1-moddasida tashkilot a'zolari orasidagi hamkorlik nazarda tutilib, «inson huquqlari va barchaning irqi, jinsi, tili va dinidan qat'iy nazar asosiy huquqlarining hukumat tomonidan rag'batlantirilishi va rivojlantirilishi» nazarda tutilgan. Ushbu tamoyilning kiritilishi inson huquqlariga oid xalqaro huquq normalarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilinishini ta'minlaydi.

Tashqi chegaralarning buzilmasligi (yaxlitligi) tamoyili. Xalqaro huquqning an'anaviy tamoyili bo'lgan davlat chegaralari daxlsizligi tamoyiliga juda o'xshash bo'lib, davlat chegaralari daxlsizligi tamoyilining mazmun va mohiyati davlatlarning ma'lum joydagi mavjud chegara chizig'iga rioya qilish majburiyatlarini o'z ichiga oladi, bu ma'lum joydagi chegara chizig'ining bemalol o'zgartirilishi va tegishli ruxsatsiz yoki qoidadan tashqari ravishda uni kesib o'tishga yul kuymaslikning oldini oladi.

Davlatlarning hududiy yaxlitligi tamoyili. BMTning Nizomi kuch ishlatish yoki kuch bilan tahdid solish, davlatning hududiy yaxlitligi (daxlsizlik) va har qanday davlatning siyosiy mustaqilligiga qarshi qo'llanishini taqiqlab qo'ygan.

Nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish tamoyili. BMT Nizomining 2-modda 3-bandida «BMTning barcha a'zolari xalqaro nizolarni xalqaro tinchlik, xavfsizlik hamda adolatga xavf solmaydigan holda tinch vositalar bilan hal qiladilar», deb bayon etilgan. Ularda urush usulida murojaat qilish huquqi chegaralanib, xalqaro nizolarni tinch

yul bilan hal qilish vositalari rivojlantirilgan va davlatlar zimmasiga bunday vositalarni qo'llash majburiyati yuklangan.

Yangi O'zbekistonning har bir davlat bilan **tashqi siyosat olib borishdagi do'stona munosabati**, tashqi siyosiy faoliyatning eng muhim vazifalari sifatida O'zbekistonning xalqaro maydondagi imiji, o'rni va obro'yini mustahkamlashga qaratilgan barcha davlatlar va nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan strategik hamkorlik va do'stlik munosabatlarining barqaror tizimini barpo etish, xorijiy mamlakatlardan bilan do'stona, teng huquqli munosabatlarni va o'zaro manfaatli hamkorlikni muttasil va izchil rivojlantirishga qaratiladi.

Yangi O'zbekistonning **tashqi siyosatida tinchliksevar davlat** sifatida jahonga yuzlanishi mamlakatimizning tashqi siyosatda tinchlikparvarlikka asoslangan, yuzaga keladigan ziddiyat va qarama-qarshiliklarni faqat tinch, siyosiy vositalar bilan hal etishga qaratilgan yo'ldan boradi.

Muxtasar aytganda, yangi O'zbekistonning tashqi siyosatda do'stona va tinchliksevar davlat sifatida Konstitutsiyaviy e'tirof etilishi uning diplomatik imijini yanada oshirishda muhim o'rin tutadi. Shu bois, Konstitutsiyaning O'zbekiston tashqi siyosatiga oid normalarga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar xalqaro va davlatlararo munosabatlarda yangicha yondashuv va samarali tashqi siyosiy faoliyatni amalga oshirishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Davlatlar o'rtasida doimiy do'stlikka asoslangan munosabatlarni rivojlantirish, jahon va mintaqa darajasida tinchlikni ta'minlash xalqaro munosabatlarning dolzarb masalasi hisoblanadi. O'zbekiston o'z taraqqiyot bosqichida ochiq, o'zaro hurmat, tenglik va manfaatdorlik, yaxshi qo'shnihilik prinsiplariga asoslangan tashqi siyosat olib bormoqda. Masalan, **qardosh Qirg'iziston bilan 30 yillik chegara muammosi yechilganligi tufayli** aholisi o'z yaqinlari bilan qarindosh-urug'lari erkin bordi-keldi qiladigan bo'ldi. Ayni shu maqsadda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 18-moddasida:

«O'zbekiston Respublikasi davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va ko'p tomonlama munosabatlarni har tarafлама rivojlantirishga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosatni amalga oshiradi», degan norma nazarda tutilmoqda. BMT Nizomida ham xalqlar bir-birlari bilan murosayu madora va toqatlilikni namoyon qilib, tinchlik sharoitida yaxshi qo'shnihilik munosabatlarini shakllantirib yashashlari lozimligi mustahkam-

langan. **Tinchliksevar siyosat** deganda, **davlatlarning siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy tizimlari va ularning rivojlanish darajasidan qat'iy nazar, erkinlik, tenglik, adolat va insonning asosiy huquqlarini hurmat qilish, shuningdek, davlatlar va xalqlar o'rtasida tinchlikni mustahkamlashi** tushuniladi. O'zbekistonning mintaqamizda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, mamlakatimizning xalqaro maydondagi salohiyatini kengaytirish va xorijiy davlatlar bilan keng qamrovli hamda o'zaro manfaatli aloqalarini rivojlantirish yo'nalishlari qonun bilan tasdiqlangan «Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi»da belgilangan. Davlatimiz dunyoning **131 ta** davlati bilan diplomatik munosabatlar o'rnatib, 38 ta davlatda 37 ta elchixonalar, 17 ta shaharda bosh konsulxonalar, BMT va boshqa xalqaro tashkilotlarda doimiy vakolatxonalarimiz faoliyat yuritmoqda. Bunday normaning kiritilishi aholimizning boshqa xalqlar bilan tinch-totuv, do'stona, xavfsiz sharoitda yashashi, xorijiy mamlakatlar, ayniqsa, qo'shni davlatlarga emin-erkin borib-kelishi, qon-qarindoshlik rishtalarini mustahkamlashi, mamlakat investitsiya muhitining yaxshilanishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Nazorat savollari:

1. Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasining mazmun-mohiyatini gapirib bering.
2. Tashqi siyosatning asosiy tamoyillari nimalardan iborat?
3. Konstitutsiyada qaysi moddalar tashqi siyosatga bag'ishlangan?
4. Tinchliksevar tashqi siyosatni amalga oshirish deganda nimanani tushunasiz?
5. Yaxshi qo'shnihilik prinsiplariga asoslangan tashqi siyosatni amalga oshirish jarayonida hukumatimiz qanday amaliy ishlarni amalga oshirmoqda?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.
2. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvidagi nutqi. 2022-yil 20-iyun.
3. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. – T.: 2018-y.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. – T.: «O'zbekiston» NMIU, 2019.
5. Bekov I. Konstitutsiyada o'qituvchi maqomi: Uchinchi Renessansning mustahkam zamini. // «Yangi O'zbekiston» gazetasi. 52-son, 6-mart 2023-yil.
6. Bobojonov M. Odil sudlovni amalga oshirishning konstitutsiyaviy asoslari. <https://constitution.uz/oz/> 2023-yil.
7. Isayeva F. Yangi Konstitutsiya kuchga kirdi! Nimalar o'zgardi «Inson va qonun» gazetasi. 19-son, 6-may 2023-yil.
8. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. 1948-yil 10-dekabr.
9. Islomov B. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya – huquqlarimizning mustahkam kafolati. <https://yuz.uz/07/04>. 2023-yil.
10. Odilqoriyev X.T. Konstitutsiya va ijtimoiy davlatchilik. – T.: Yuridik adabiyotlar publish, 2022-yil.
11. Saidov A. O'zbekiston konstitutsiyasi va odil sudlov huquqi. <https://xs.uz/uz/> / 2022-yil.
12. Salimov O. Yangi O'zbekiston davlati. – T.: Ma'naviyat, 2023-y.
13. Yangilanayotgan Konstitutsiya. 100 savolga 100 javob. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti. – Toshkent: «Adolat» milliy huquqiy axborot markazi, 2023-yil.
14. Ziyamammedova Sh. Shaxsga doir ma'lumotlar muhofazasi. // «Huquq» gazetasi, 20-son, 8-may 2023-yil.

Axborot manbalari:

1. www.lex.uz
2. www.president.uz

3. www.uza.uz
4. www.meningKonstitutsiyam.uz
5. www.constitution.uz
6. www.senat.uz
7. www.parliament.gov.uz
8. www.president.uz
9. www.yuz.uz
10. www.kun.uz
11. www.xs.uz
12. www.insonhuquqlari.uz

MUNDARIJA

	Kirish	3
1-mavzu.	Konstitutsiyada davlat suvereniteti, xalq hokimiyatchiligi, konstitutsiya va qonunning ustunligiga oid me'yorlar	5
2-mavzu.	Insonning huquq va erkinliklari	22
3-mavzu.	Konstitutsiyada surishtiruv, tergov va sud jarayonida inson huquqlariga oid muhim kafolatlar.....	37
4-mavzu.	Konstitutsiyada gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining huquqlariga oid muhim qoidalar	48
5-mavzu.	Ta'lim olish huquqi	59
6-mavzu.	Konstitutsiyada sog'liqni saqlashga oid muhim qoidalar	81
7-mavzu.	Konstitutsiyada davlat zimmasidagi muhim ijtimoiy majburiyatlar	99
8-mavzu.	Konstitutsiyada ijtimoiy hamda siyosiy sohalardagi muhim yangiliklar	119
9-mavzu.	Konstitutsiyada atrof-muhit va ekologik huquqlarga oid kafolatlar	138
10-mavzu.	Konstitutsiyada tadbirkorlarga berilgan kafolatlar	148
11-mavzu.	Konstitutsiyada fuqarolarning burchlari bilan bog'liq me'yorlar.....	153
12-mavzu.	Konstitutsiyada odil sudlovga oid yangiliklar	163
13-mavzu.	Konstitutsiyada davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimiga oid muhim demokratik o'zgarishlar	179
14-mavzu.	Konstitutsiyada fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati bilan bog'liq qoidalar.....	189
15-mavzu.	Konstitutsiyada tashqi siyosat hamda mudofaa va xavfsizlik sohasidagi qoidalar.....	201
	Foydalanilgan adabiyotlar	213

**N. OBLUMURODOV,
S. OTAMURATOV,
M. YULDASHEVA,
X. OKYULOV,
K. MAHMUDOV,
F. ADILOV,
T. ALIYEV,
S. SHOYIMOV**

**YANGI TAHRIRDAGI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KONSTITUTSIYASI**

O'quv qo'llanma

(O'zbek tilida)

«Yuridik adabiyotlar publish» MCHJ.

Tasdiqnoma № 101579, 12.07.2023-y.

Toshkent shahri, Chilonzor tumani,

Muqimiy ko'chasi, 100/25.

Telefonlar: +99899 554-70-70,

+99899 517-70-70,

+99893 554-63-70.

Rasmiy veb-sayt: www.kodeks24.uz

Elektron manzil: info@kodeks24.uz

Bosishga ruxsat etildi 03.04.2024-y.

Qog'oz bichimi 60x90 ¹/₁₆.

«Antiqua» garniturasida.

Ofset usulida chop etildi.

Bosma tabog'i 13,5.

Nashriyot hisob tabog'i 12,15.

Adadi 500 nusxa. 24/020-buyurtma.

«MasterBooks» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Xushtepa ko'chasi, 22-a.



**Yuridik
Adabiyotlar
Publish**



<https://t.me/yuridikadabiyotlar>

MasterBooks